

SHARQSHUNOSIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

4

2025

ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096



SHARQSHUNOSLIK ВОСТОКОВЕДЕНИЕ ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

№ 4, 2025



Jurnal O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – ISSN 2181 – 8096)

Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay'ati

D. Sayfullayev	<i>tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)</i>
D. Muxiddinova	<i>filologiya fanlari doktori (mas'ul kotib)</i>
A. Mannonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
R. Xodjayeva	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Sh. Shomusarov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Q. Omonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
U. Muxibova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Xamidov	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
B. Abduhalimov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Xodjayev	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
M. Is'hoqov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Doniyorov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
I. Xaydarov	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
X. Fayziyev	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
N. Karimov	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
D. Xodjimuratova	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
Sh. Yovqochev	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
N. Abdullayev	<i>siyosiy fanlar doktori, dotsent</i>
A. Vahobov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Abdullayev	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
I. Mavlanov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Bahodirov	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
E. Izzetova	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
G. Glizon	<i>AQSHning New Mexico universiteti professori</i>
A. Shonazarova	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
Ono Masaki	<i>Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori</i>
Li Dji In	<i>Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori</i>
V. Mesamed	<i>Isroilning Quddus universiteti professori</i>
A. Gurer	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
A. Vorobyov	<i>Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi</i>
G. Avda	<i>Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori</i>
A. Tohir	<i>Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori</i>
H. Baydemir	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, D. Sodiqova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi
lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi
Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz

web-site: www.tsuos.uz



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

<i>A. Karimov, M. Muxammadjonova</i> Функциональные различия слов отрицаний «别» и «不要» в контексте употребления	5
<i>M. Dustmurodov</i> Qara leksemasining qadimgi turkchadagi etno-sotsionimik (determinativ) funksiyasiga doir (Tayhar-Chuluu bitigidagi <i>qara baş</i> oʻmagida).....	13
<i>Sh. Asqarova</i> “Alpomish” dostonida leksik-semantik guruhlarining tahlili masalalari.....	31
<i>Tursunova N.</i> Yapon tilida qisman inkorni ifodalovchi sintaktik konstruksiyalarning semantik-funksional xususiyatlari	36
<i>A. Dinikulov</i> Arab maqol-matallarida feʼllarning semantik xususiyatlari	49
<i>U. Saidov</i> Transfer nazariyasining asoslari va zamonaviy tarjimashunoslikdagi yondashuvlar	56

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

<i>M. Pulatova</i> Arbaʼinlarda kurʼoni karim va hadis maʼnolarining aks etishi	71
<i>F. Mahmadrabobov</i> Badr Chochiy devonining Eronda saqlanayotgan qoʻlyozma va toshbosma nusxalari	82
<i>Sh. Bazarbayeva</i> Turkiston general-gubematorligining veterinariya strategiyasi: Buxoro va Xiva xonliklari bilan chorvachilik aloqalari tahlili (XIX asr oxiri)	99

XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

<i>M. Saliyeva</i> Markaziy osiyo xalqlari madaniyatining shakllanishida ijtimoiy kommunikatsiyalarning oʻrni	112
<i>M. Kasimov</i> Xalqaro munosabat shakllaridan biri – tizimli xavf-hatar va qarshi muvozanatlarni oʻrganishning nazariy asoslari.....	123
<i>A. Puzayev</i> Проблема сохранения национальной идентичности арабских стран в условиях глобализации	132
<i>A. Mamadjonov</i> Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarida “yumshoq kuch”ning oʻrni.....	146
<i>R. Elmuratova</i> Ozarbayjonning dezinformatsiyaga qarshi kurashish tajribasi.....	161
<i>A. Abdulxayev</i> Xitoyga xos sotsializm konsepsiyasining siyosiy modernizatsiyadagi oʻrni va ahamiyati.....	173
<i>Sh. Salimov</i> Koreya respublikasi siyosiy partiyalarini faollashtirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli	182
<i>O. Gʻaybullayev</i> Mintaqaviy barqarorlik va energetika siyosati: Markaziy Osiyo tajribasi.....	197



ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ РАЗЛИЧИЯ СЛОВ ОТРИЦАНИЙ «别» И «不要» В КОНТЕКСТЕ УПОТРЕБЛЕНИЯ

АКРАМ КАРИМОВ

Профессор, к.ф.н., ТГУВ

МАДИНА МУХАММАДЖОНОВА

Магистрантка, ТГУВ

Аннотация. Отрицание играет важную роль в китайском языке, выражая запрет, предостережение, отказ или нежелательность совершения действия. Среди многочисленных средств отрицания особое место занимают слова «别» (bié) и «不要» (bùyào), которые используются в повелительных конструкциях. Несмотря на схожесть значений, эти слова не являются полностью взаимозаменяемыми и различаются по степени категоричности, стилистической окраске и прагматической функции.

В данной статье рассматриваются грамматические и семантические особенности слов «别» и «不要», их функции в китайском языке, а также различия в употреблении в разговорной и официальной речи. Анализируется, как эти слова выражают запрет и предостережение в различных контекстах, и какие нюансы необходимо учитывать при переводе на русский язык. Особое внимание уделяется коммуникативным аспектам употребления «别» и «不要», а также их роли в выражении вежливости, формальности и категоричности в зависимости от ситуации общения. Результаты исследования могут быть полезны для изучающих китайский язык, преподавателей, переводчиков и лингвистов, занимающихся китайско-русским сопоставительным анализом.

Ключевые слова: китайский язык, слова отрицания, 别, 不要, функции, различия, контекст употребления, формальность, прагматика, перевод.

Abstract. Negation plays a crucial role in the Chinese language, expressing prohibition, warning, refusal, or undesirability of an action. Among the various means of expressing negation, the words “别” (bié) and “不要” (bùyào) occupy a special place, particularly in imperative constructions. Despite their similar meanings, these words are not fully interchangeable and differ in terms of categorical force, stylistic nuance, and pragmatic function.

This article examines the grammatical and semantic features of “别” and “不要”, their functions in Chinese, and the differences in usage between colloquial and formal speech. The paper analyzes how these words express prohibition and warning in various contexts, and what nuances should be considered when translating them into Russian. Particular attention is paid to the communicative aspects of using “别” and “不要”, as well as their role in conveying politeness, formality, and categorical tone depending on the communication situation. The results of this study may be useful for learners of Chinese, educators, translators, and linguists engaged in Chinese-Russian comparative analysis.



Keywords: Chinese language, negative words, 别, 不要, functions, differences, usage context, formality, pragmatics, translation.

Введение. Отрицание в языке является одной из базовых категорий, с помощью которой выражаются запрет, отказ, предостережение, отсутствие действия или состояния¹. В китайском языке система отрицания сложнее, чем в русском, поскольку включает в себя множество отрицательных слов, различающихся по функции, семантике и сфере употребления.² Одними из наиболее употребительных отрицательных слов в китайском языке являются «别» (bié) и «不要» (bùyào), которые используются преимущественно в императивных конструкциях.

Несмотря на внешнюю схожесть, «别» и «不要» не являются полностью взаимозаменяемыми. Их употребление зависит от ряда факторов: стилистического контекста, степени категоричности запрета, коммуникативной ситуации и особенностей синтаксического окружения. В разговорной речи носители китайского языка чаще предпочитают «别», поскольку оно звучит более естественно и непринужденно, тогда как «不要» характерно для официальных, письменных и более строгих указаний. Эти различия создают определенные сложности для изучающих китайский язык. Особенно для русскоязычных студентов, которые не всегда интуитивно чувствуют разницу между этими двумя словами.

Актуальность данной статьи как раз и обусловлена выявлением различий между «别» и «不要», которые вызывают затруднения у изучающих китайский язык. Выявление этих различий будет представлять интерес как для переводчиков, так и для лингвистов, занимающихся сопоставительными исследованиями. В данной работе будет проведен детальный анализ функций и различий этих слов, а также рассмотрены примеры их употребления в различных контекстах.

1. Функции «别» и «不要»

В китайском языке «别» (bié) и «不要» (bùyào) выполняют несколько функций, связанных с выражением запрета, предостережения, совета и отказа от действия³. Несмотря на их схожее значение, в разных контекстах они могут приобретать различные оттенки смысла и иметь различную стилистическую окраску. Рассмотрим основные функции этих слов более подробно.

1.1. Функция запрета (禁止, jìnzhǐ)

¹ Лю Шаоцин. Грамматика китайского языка. — М.: Гиппо, 2001. — 392 с.

² Гак В. Г. Введение в сопоставительное языкознание. — М.: Изд-во МГУ, 2000. — 336 с.

³ Лю Шаоцин. Грамматика китайского языка. — М.: Гиппо, 2001. — 392 с.



Запрет является основной функцией как для «别», так и для «不要». Оба слова могут использоваться в повелительных предложениях, чтобы предостеречь собеседника от совершения какого-либо действия.¹ Однако между ними есть важные различия. «别» чаще встречается в разговорной речи, звучит более естественно и непринужденно. «不要» передает более строгий, категоричный запрет и чаще употребляется в официальных или письменных контекстах. Например: 1. 别动! (Bié dòng!) – Не двигайся! 2. 不要动! (Bùyào dòng!) – Не двигайтесь! / Запрещено двигаться! В первом примере запрет звучит более мягко и употребляется в неформальной ситуации, например, когда один человек просит другого не шевелиться во время фотосъемки. Второй пример более категоричен и может использоваться, например, полицейским при задержании преступника.

3. 别出门! (Bié chūmén!) – Не выходи из дома! 4. 不要出门! (Bùyào chūmén!) – Не выходите из дома! Здесь разница схожа: «别» обычно используется в повседневной беседе (например, мать говорит ребенку), а «不要» может быть частью официального объявления, например, в предупреждении о небезопасных погодных условиях.

1.2. Функция предостережения (警告, jǐnggào)

«别» и «不要» могут использоваться для предупреждения о возможных последствиях действия. В этом случае они не столько запрещают, сколько настоятельно не рекомендуют что-либо делать.² Например: 5. 别喝太多酒! (Bié hē tài duō jiǔ!) – Не пей слишком много алкоголя! 6. 不要吃太多甜食! (Bùyào chī tài duō tiánshí!) – Не ешьте слишком много сладкого! 7. 别生气! (Bié shēngqì!) – Не злись! 8. 不要担心! (Bùyào dānxīn!) – Не волнуйтесь!

1.3. Функция выражения нежелательности действия (不愿, bù yuàn)

В некоторых случаях «不要» используется для выражения нежелательности какого-либо действия, в то время как «别» в таких контекстах не употребляется. Например: 9. 孩子, 不要玩手机太久。 (Háizi, bùyào wán shǒujī tài jiǔ.) – Ребенок, не играй в телефон слишком долго. 10. 不要随便相信陌生人。 (Bùyào suíbiàn xiāngxìn mòshēng rén.) – Не доверяйте незнакомцам без причины. Здесь «不要» выражает общий совет, предостерегая от определенного поведения. В отличие от запрета, эти фразы не имеют строгой директивности, а скорее передают рекомендации.

1.4. Функция отказа от действия (拒绝, jùjué)

¹ Малявина Е. В. Синтаксис современного китайского языка. — М.: Восток-Запад, 2010. — 224 с.

² Малявина Е. В. Синтаксис современного китайского языка. — М.: Восток-Запад, 2010. — 224 с.



Когда говорящий хочет выразить отказ от совершения действия или отговорить собеседника, чаще используется «不要». Например: 11. 我不要去! (Wǒ bù yào qù!) – Я не хочу идти! 12. 不要给我买礼物。 (Bùyào gěi wǒ mǎi lǐwù.) – Не нужно покупать мне подарок. В этих примерах «不要» передает субъективное нежелание или просьбу не делать что-то. «别» в таких случаях использовать нельзя.

1.5. Употребление в официальных и письменных источниках

В объявлениях, документах и других официальных текстах чаще используется «不要», поскольку оно передает более строгую форму запрета. Например: 13. 请不要随地吐痰。 (Qǐng bù yào suí dì tǔ tán.) – Пожалуйста, не плюйте на улице. 14. 考试期间不要交头接耳。 (Kǎoshì qíjiān bù yào jiāotóu jiē'ěr.) – Во время экзамена не разговаривайте друг с другом.

2. Различия между «别» и «不要»

Несмотря на схожесть значений, «别» (bié) и «不要» (bùyào) имеют ряд важных различий, которые проявляются на уровне стилистики, степени категоричности, синтаксического окружения и прагматической функции. Эти различия особенно важны, для изучающих китайский язык, так как неправильное использование может привести к изменению смысла высказывания или сделать фразу неестественной.

2.1. Стилистические различия

Одним из ключевых различий между «别» и «不要» является их стилистическая окраска. «别» используется преимущественно в разговорной речи. Оно часто встречается в неформальных беседах между друзьями, членами семьи и знакомыми. «不要» является более строгим и формальным. Оно чаще встречается в официальных текстах, предупреждениях, инструкциях и деловом общении. Например: 1. 别说话! (Bié shuō huà!) – Не говори! (разговорный стиль) 2. 不要说话! (Bùyào shuō huà!) – Не разговаривайте! (более строгий и официальный тон). 3. 别开玩笑。 (Bié kāi wán xiào le.) – Перестань шутить. (разговорный тон, мягкое замечание) 4. 不要拿这件事开玩笑。 (Bùyào ná zhè jiàn shì kāi wán xiào.) – Не шутите на эту тему. (более серьезное предостережение)

2.2. Различия в степени категоричности

Хотя оба слова могут выражать запрет, «不要» обычно передает более категоричный, строгий запрет, тогда как «别» звучит мягче и менее директивно. Например: 5. 别碰这个! (Bié pèng zhè ge!) – Не трогай это! (разговорный запрет, обращенный к знакомому) 6. 不要碰这个! (Bùyào pèng zhè ge!) – Не прикасайтесь к этому! (строгий запрет, например, на табличке в музее) 7. 别抽烟。 (Bié chōu yān.) – Не кури. (дружеская просьба или совет) 8. 不要抽烟!

(Bùyào chōuyān!) – Курить запрещено! (категорический запрет, например, в общественном месте)

2.3. Различия в синтаксическом окружении

«别» и «不要» отличаются по правилам сочетаемости с другими элементами предложения. «别» обычно стоит непосредственно перед глаголом. Оно редко соединяется с объектами или дополнительными элементами. «不要» может вводить более сложные конструкции. Оно допускает дополнения и обстоятельственные обороты. Например: 9. 别哭! (Bié kū!) – Не плачь! (простая конструкция) 10. 不要在别人面前哭。 (Bùyào zài biérén miànqián kū.) – Не плачь перед другими людьми. (более сложное высказывание) 11. 别担心。 (Bié dānxīn.) – Не переживай. 12. 不要为这件小事担心。 (Bùyào wèi zhè jiàn xiǎoshì dānxīn.) – Не переживай из-за этой мелочи. Из примеров видно, что «不要» допускает более сложные конструкции с обстоятельными дополнениями, тогда как «别» употребляется в более коротких, лаконичных выражениях.

2.4. Различия в употреблении в отрицательных повелительных конструкциях

«别» чаще встречается в непосредственных приказах и командах, в то время как «不要» может выражать не только приказ, но и рекомендацию или предостережение. Например: 13. 别吵! (Bié chǎo!) – Не шуми! (быстрый запрет в моменте) 14. 不要吵到别人休息。 (Bùyào chǎo dào biérén xiūxi.) – Не мешайте другим отдыхать. (мягкая рекомендация) 15. 别忘了! (Bié wàng le!) – Не забудь! (краткий запрет) 16. 不要忘记你的承诺。 (Bùyào wàngjì nǐ de chéngnuò.) – Не забывай о своем обещании. (вежливый совет)

2.5. Различия в употреблении в официальных и письменных текстах

«不要» является предпочтительной формой в официальных документах, объявлениях и предупреждениях. В таких контекстах «别» практически не используется. Например: 17. 请不要随地吐痰。 (Qǐng bùyào suídì tǔtán.) – Пожалуйста, не плюйтесь на улице. (официальный стиль) 18. 不要携带危险品上飞机。 (Bùyào xiédài wēixiǎn pǐn shàng fēijī.) – Не проносите опасные предметы в самолет. Если в подобных случаях заменить «不要» на «别», фраза будет звучать неестественно или недостаточно официально.

2.6. Различия в значении при отрицании желания

«不要» может использоваться для выражения нежелания совершать действие, тогда как «别» в таких конструкциях не употребляется. Например: 19. 我不要去。 (Wǒ bùyào qù.) – Я не хочу идти. 20. 她不要吃肉。 (Tā bùyào chī ròu.) – Она не хочет есть мясо. В этих предложениях нельзя заменить «不要» на «别», так как «别» не используется для выражения желания или нежелания.

3. Контекст употребления «别» и «不要»



Выбор между «别» (bié) и «不要» (bùyào) зависит не только от их функций и различий, но и от конкретной речевой ситуации.¹ Различные контексты употребления этих слов помогают лучше понять их стилистические особенности, уровень формальности, прагматические оттенки и соответствие нормам китайского языка.

3.1. Разговорная речь

В повседневном общении носители китайского языка предпочитают «别», так как оно звучит более естественно и непринужденно. Например:

1. 别闹了! (Bié nào le!) – Хватит шуметь! / Перестань баловаться!

2. 别哭, 没事的。 (Bié kū, méishì de.) – Не плачь, все хорошо.

3. 别急, 我们还有时间。 (Bié jí, wǒmen hái yǒu shíjiān.) – Не торопись, у нас еще есть время. В данных примерах «别» используется для выражения запрета или совета в неформальной обстановке, например, между друзьями или членами семьи.

Если же употребить «不要» в этих случаях, фраза станет более строгой: 4. 不要闹了! (Bùyào nào le!) – Перестаньте шуметь! (более категорично) 5. 不要哭! (Bùyào kū!) – Не смей плакать! (резкий приказ). Таким образом, «不要» может звучать жестко, если используется в неформальном разговоре, тогда как «别» сохраняет мягкость.

3.2. Формальные и официальные ситуации

В деловой переписке, инструкциях, предупреждениях и запретительных знаках предпочтение отдается «不要», так как оно звучит строже и официальнее. Например: 6. 请不要触摸展品。 (Qǐng bùyào chùnmō zhǎnpǐn.) – Пожалуйста, не трогайте экспонаты. 7. 考试期间不要交头接耳。 (Kǎoshì qíjiān bùyào jiāotóu jiē'ěr.) – Во время экзамена не переговаривайтесь. 8. 请不要随意停车。 (Qǐng bùyào suíyì tíngchē.) – Пожалуйста, не паркуйтесь где попало. Если заменить «不要» на «别» в этих фразах, они будут звучать слишком разговорно и не соответствовать формальному стилю.

Сравнение:

• 请不要拍照。 (Qǐng bùyào pāizhào.) – Пожалуйста, не фотографируйте. (официальный запрет)

• 请别拍照。 (Qǐng bié pāizhào.) – (менее естественно для официального стиля)

3.3. Запреты в детской речи и воспитании

¹ Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). — М.: Высшая школа, 1990. — 253 с.



При общении с детьми могут использоваться оба слова, но выбор зависит от интонации и желаемого эффекта. Например: 9. 别摸那个, 危险! (Bié mō nàge, wēixiǎn!) – Не трогай это, опасно! (дружеское предупреждение) 10. 不要玩火。(Bùyào wán huǒ.) – Не играй с огнем. (категорический запрет). Если родитель хочет просто предупредить ребенка, он использует «别». Если же важно строго обозначить границы поведения, используется «不要».

3.4. Контексты, связанные с выражением вежливости

Вежливые просьбы и рекомендации часто формулируются с «不要», так как оно звучит более мягко в таких случаях. Например: 11. 请不要担心。(Qǐng bùyào dānxīn.) – Пожалуйста, не волнуйтесь. 12. 不要误会我。(Bùyào wùhuì wǒ.) – Не поймите меня неправильно. Использование «别» в этих примерах сделает фразу более резкой: 别误会我。(Bié wùhuì wǒ.) – Не смей меня неправильно понимать! (грубо)

3.5. Контексты с модальными оттенками

Иногда «不要» может выражать не просто запрет, а совет или настоятельную просьбу. Например: 15. 不要吃太多甜食, 对身体不好。(Bùyào chī tài duō tiánshí, duì shēntǐ bù hǎo.) – Не ешь слишком много сладкого, это вредно для здоровья. 16. 不要太晚睡觉。(Bùyào tài wǎn shuìjiào.) – Не ложись слишком поздно. Если бы здесь использовалось «别», смысл становился бы более жестким и менее дружелюбным.

Заключение

Исследование слов отрицания «别» (bié) и «不要» (bùyào) в китайском языке показывает, что, несмотря на их схожую функцию выражения запрета или предостережения, они имеют значительные различия, влияющие на их употребление в разных коммуникативных ситуациях. Эти различия проявляются на уровнях стилистики, степени категоричности, синтаксического окружения и прагматического значения.

Во-первых, различие между этими словами заключается в уровне формальности: «别» преимущественно используется в разговорной речи, передавая более мягкий и непринужденный оттенок, тогда как «不要» чаще встречается в официальных и письменных текстах, где требуется строгий и формальный запрет. Например, в дружеском общении естественнее звучит «别走» (bié zǒu – не уходи), в то время как в официальном контексте предпочтительнее «不要离开» (bùyào líkāi – не покидайте).

Во-вторых, слова различаются по степени категоричности: «不要» передает более строгий запрет, часто используемый в приказах, предупреждениях и инструкциях. Например, «不要吸烟» (bùyào xīyān) – «Не курить» звучит как



строгий запрет, в то время как «别抽烟» (bié chōuyān) – «Не кури» используется в более непринужденной беседе.

Кроме того, синтаксическая структура предложений с «别» и «不要» также различается. «别» почти всегда стоит перед глаголом и образует лаконичные конструкции («别动!» – «Не двигайся!»). «不要» же допускает более сложные структуры, сочетаясь с обстоятельственными дополнениями («不要在这里停车» – «Здесь не парковать»).

Прагматические различия между «别» и «不要» особенно заметны в разных коммуникативных сферах¹: в разговорной речи «别» используется чаще из-за своей краткости и естественности; в официальных текстах и документах предпочтение отдается «不要» как более строгой форме запрета; в вежливых просьбах «不要» часто используется для смягчения тона («请不要误会» – «Пожалуйста, не поймите меня неправильно»).

Исследование этих слов важно как для изучения китайского языка, так и для практики перевода. При переводе на русский язык различия между «别» и «不要» могут передаваться через выбор соответствующих конструкций: «别» чаще переводится как «не (делай что-то)» в разговорном стиле; «不要» переводится как «не следует», «не делайте», «запрещено» в официальном стиле.² Таким образом, правильный выбор между «别» и «不要» имеет важное значение для точности и естественности речи. Это различие особенно актуально для изучающих китайский язык, так как неправильное использование этих слов может изменить смысл высказывания или сделать его неестественным. Более глубокое понимание их функций и контекстов поможет носителям русского языка успешно адаптировать китайские отрицательные конструкции в устной и письменной речи.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Апресян Ю. Д. Лексическая семантика: синонимические средства языка. — М.: Наука, 1974. — 350 с.
2. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. — М.: Высшая школа, 1980. — 278 с.
3. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). — М.: Высшая школа, 1990. — 253 с.
4. Кононов А. Н. Грамматика современного китайского разговорного языка. — М.: Восточная литература, 1960. — 560 с.

¹ Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). — М.: Высшая школа, 1990. — 253 с.

² Малявина Е. В. Синтаксис современного китайского языка. — М.: Восток-Запад, 2010. — 224 с.



5. Гак В. Г. Введение в сопоставительное языкознание. — М.: Изд-во МГУ, 2000. — 336 с.
6. Кобозева И. М. Лингвистическая семантика. — М.: Изд-во МГУ, 2000. — 328 с.
7. Лю Шаоцин. Грамматика китайского языка. — М.: Гишпо, 2001. — 392 с.
8. Ляо Чэнчжун. Практическая грамматика китайского языка. — М.: Восток-Запад, 2010. — 512 с.
9. Норман Джерри. Китайский язык. / Пер. с англ. под ред. М. В. Бибикова. — М.: Лингвистическая книга, 2015. — 384 с.
10. Малявина Е. В. Синтаксис современного китайского языка. — М.: Восток-Запад, 2010. — 224 с.
11. Хуан Шаосин. Современный китайский язык. Том 2: Грамматика. — Пекин: Пекинский университет, 2007. — 398 с.
12. Li, Charles N., Thompson, Sandra A. Mandarin Chinese: A Functional Reference Grammar. — Berkeley: University of California Press, 1981. — 611 p.

**“QARA” LEKSEMASINING QADIMGI
TURKCHADAGI ETNO-SOTSIONIMIK (DETERMINATIV)
FUNKSIYASIGA DOIR
(Tayhar-Chuluu bitigidagi *qara baš* o‘rnagida)**

MA’RUFJON DUSTMURODOV

Dotsent, PhD, TDSHU

ORCID: [0009-0003-4954-9504](https://orcid.org/0009-0003-4954-9504)

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi turkiy bitiglarda keng qo‘llanilgan qara leksemasining faqat rang nomi sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-sotsial, etnoleksema va atributiv funksiyalarni bajargan ko‘p qatlamli til birligi sifatida namoyon bo‘lishi o‘rganiladi. Turk runik yozma yodgorliklarida, xususan, O‘rxun-Yenisey davri matnlarida qara so‘zi oddiy rang nomidan tashqari, muhim ijtimoiy-semantik marker sifatida ham xizmat qilgan. Maqolada aynan shu o‘ziga xos vazifaning mohiyatini ochish maqsadida Tayhar-Chuluu bitigidagi *qara baš* birligi markaziy tadqiqot obyekti sifatida tanlangan. Shuningdek, qara so‘zining qadimgi turkchadagi atributiv ma‘nosi va jamiyat qatlamini belgilovchi determinativ funksiyasini keng yoritish maqsadida shubu davrga tegishli boshqa bitiglardagi mazkur so‘z bilan aloqador qo‘llangan etnobirliklarga ham murojaat qilinadi. Tahlil jarayonida qara leksemasining qadimgi turk jamiyatidagi avom omma, oddiy xalq, quyi qatlam va keng ijtimoiy massani anglatuvchi, shuningdek, ba‘zi o‘rinlarda oliy maqomdagi shaxs nomlari oldidan kelib, ularga yuqori darajadagi maqomlarni yuklovchi atoviy epitet sifatidagi qirralari yoritib beriladi. Shu bilan birga, qara‘ning



bunday qo'llanishi turkiy madaniy an'analardagi rang-simvolik qarashlar, etnosotsial so'z yaratish jarayoni bilan bog'lanib, uning metaforik, pragmatik va sotsiolingvistik yuklamalari izohlanadi. Maqolada qara baš birligi qiyosiy-tarixiy va leksik-semantik jihatdan tahlil qilinib, bu birlikning bitigda muayyan ijtimoiy guruh yoki tuzilmaning avom qismi sifatida ta'riflangan qatlamni belgilashi ko'rib o'tiladi. Shu bilan birga, qara atamasining turli qadimgi manbalardagi parallel qo'llanishlari ham ko'rib chiqilib, uning arxaiik determinator sifatida shakllangan barqaror tizimli birlik ekani ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, qara qadimgi turk jamiyatida faqat rang nomini emas, balki ijtimoiy tabaqalanish, xalq massasining ifodasi, siyosiy-ijtimoiy rollarni ajratish mexanizmini belgilagan muhim til birligi bo'lgan. Shu jihatdan, qara'ning determinativ funksiyasi turk runik yozuvlari tilidagi jamiyatni nomlash, iyerarxiyalash va etnosotsial tuzilmalarni tilda aks ettirish jarayonlarining muhim ko'rsatkichi sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar. Turk-runik yozuvi, Xoyt Tamir (Tayhar Chuluu) bitigi, epitafiya, qadimgi turkiy til, qara, qara baš, qara qamur budun, qara igil budun, konnotatsiya, epitaf.

Kirish. Qadimgi turkiy tilga oid yodnomalarning joylashuvi va turlari juda xilma-xil bo'lib, odatda ular sun'iy ishlov berilgan toshlarga bitilgan. Xususan, Kul Tegin, Bilga xoqon, To'nyuquq, Kuli Cho'r, Mo'yun Cho'r kabi, lekin shunday bir guruh bitiglar borki, ular tog' yoki tepalik yonbag'irlariga bitilgan. Ana shunday yozuvlar sirasiga Qamchiq/Qoyaboshi (Y 24), Tepsey tepaligi va Mo'g'ulistonning Xoyto Tamir hududida joylashgan Tayhar qoyasi (Tayhar Chuluu) majmuasi kiradi. Bitig VI-IX asrlarga oid bo'lib, "Xoyt Tamir bitiglar", "Tayhar qoya bitiglar" nomi bilan ataladi. Bitig Mo'g'ulistonning Arxangay viloyati, Ix-tamir so'mi, Xoyt Tamir daryosidan janubi-sharqda joylashgan, balandligi 39 m bo'lgan Tayhar qoyasida topilgan. Tayhar yozuvlari qoyalarda joylashgan. Ammo keyinroq o'tkinchilar qadimiy turkiy bitiglar ustiga ismlarni va boshqa so'zlarni turli bo'yoqlardan qalin qatlamda yozib qo'ygani bois, aksariyat yozuvlar saqlanib qolmagan. L.Bazinning ta'kidlashicha ilk yozuvlar VIII asr o'rtalariga oid (Bazin 1991, 220-221). Mo'g'ulistondagi Xoyto-Tamir yoki Tayhar-Chuluu yozuvlari Arxangay Aymak, Ixtamir sumida joylashgan. Mo'g'ulcha Tayhar-Chuluu nomi yozuvlarni o'z ichiga olgan katta tosh massasi nomidan kelib chiqqan bo'lib, yozuvlar mintaqada yashagan deyarli barcha xalqlar tomonidan turli xil alifbolarda yozilgan. "Bu yerda runik, so'g'd, uyg'ur, mo'g'ul, tibet, manjur, qadimgi oyrot va xitoy yozuvlarida 200 ga yaqin bitig mavjud" (Azzaya 2012, 61-68) bo'lib, ulardan eng qadimgisi runik matnlardir. Yozuvlar qora va qizil siyohlarda, maxsus yozuv qurollari yordamida yozilgan va "toshdagi yozuvlar yaratilganidan beri o'zining rang berish xususiyatini yo'qotmaganligidan kelib chiqib, toshda boshqa texnologiya qo'llangan bo'lishi ham mumkin. Ularning XII asrdan ortiq to'g'ridan to'g'ri quyosh nuri ta'siriga, yozda 20-30 daraja issiq va mo'l-ko'l yomg'irga, qishki qor bo'roniga, 30-40 daraja sovuq havoga, qum va tuproq



bo‘ronlariga bardosh berganligi ham bu siyoh yoki bo‘yoqning texnik xususiyatlarining har xil ekanligini ko‘rsatadi” (Sertkaya 2000, 314). Yozuvlar qoyaning tekis keng joylariga yozilgan. A.Badam bergan ma’lumotlarga ko‘ra, tosh massasining turli qismlarida ikki yuzga yaqin yozuv mavjud bo‘lib, ular cho‘tka va siyoh bilan yozilgan (Azzaya 2012, 61). 1883-yilda D.Klemens qoyadagi yozuvlarni e’lon qiladi va uning nusxalari asosida D.Klemens, V.Radlov, H.O‘rxun (Orhun 1939, 105-117), S.Malov (Malov 1959, 46-54) 10 ta qadimgi turkiy yozuvni o‘rgangan. Xususan, bitiglar birinchi marta 1895-yilda V.Radlov tomonidan nashr etilgan bo‘lib, u o‘z ishini 1893-yilda D.Klemens qo‘lga kiritgan 10 ta yozuv nusxalari asosida yaratgan (Radloff 1895, 260-268). S.Harjaubay qo‘lga kiritgan nusxalari u va U.Sertkaya tomonidan nashr etilgan (Sertkaya va b. 2000, 313-346). Shu o‘rinda A.Badamning mo‘g‘ul va turk tillaridagi nashrlarini ham eslatib o‘tish joiz (Azzaya 2007, 68-75). 1958-yilda G.Ramstedt, I.Grano, P.Aalto (Ramstedt va b. 1958, 62-76) 26 ta yozuvni, shu jumladan 10 tasi avval ma’lum bo‘lgan yozuvlarni o‘rganib chiqdilar. Yodnoma bo‘yicha mo‘g‘ul olimlari X.Perleye (Perlee 1960, 1-26), B.Ritchenning (Ritchen 1968, 34-36) ham tadqiqotlari fanga ma’lum, xususan, H.Perleye o‘zining “Tayhar Chuluu” nomli maxsus risolasida runik yozuvning oldingi yozuvlardan farq qiluvchi qo‘lyozmasini yozib oldi va nashr etdi. S.Harjaubay 32 ta yozuvni aniqlagan, shu jumladan, 26 tasi avval ma’lum. Keyingi davrda bitig matni bo‘yicha E.Aydin (Aydin 2013, 147-152; 2017, 1-14), M.Bakir (Bakir 2021, 1271-1281)larning ilmiy ishlari e’lon qilingan.

Tadqiqotning usullari. Ushbu tadqiqot Xoyt Tamir – Tayhar Chuluu bitigidagi *qara baš* va umuman ushbu davr turk-run bitiglaridagi oddiy xalq, avom, shuningdek, boshqa bir qancha tasvirlarga nisbatan ishlatilgan *qara* bilan bog‘liq leksemlarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bu bir nechta ilmiy yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Tarixiy-qiyosiy metod orqali *qara* leksemasining O‘rxun-Yenisey bitiglari va keyingi davr turkiy manbalardagi qo‘llanishi solishtirildi. Shuningdek, leksik-semantik tahlil usuli yordamida *qara*, *qara baš*, *qara qamuy budun*, *qara igil budun* kabi birliklarning ma’no qatlamlari, semantik kengayish va metaforizatsiya jarayonlari aniqlandi. Matnlardagi atamalarning ichidagi ijtimoiy va pragmatik vazifalarni ochish maqsadida etnosotsial va sotsiolingvistik talqin metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning muhim bosqichlaridan biri sifatida kontekstual tahlil usuli qo‘llanib, *qara*’ning muayyan bitiglarda qanday ma’no yuklab kelgani, qanday atoviy determinator sifatida ishlayotgani matn doirasida o‘rganildi. Shu bilan bir qatorda, tarixiy-etnolingvistik yondashuv asosida *qara* atamasi qadimgi turk jamiyatining tabaqalanish tizimi bilan bog‘liq holda o‘rganildi. Matn shakllanishidagi o‘ziga xosliklarni aniqlash uchun struktural tahlil, zarur nuqtalarda esa deskriptiv (tasviriy) metod qo‘llandi. Ushbu metodlar majmui *qara* leksemasining qadimgi turk tilidagi determinativ, atributiv va ijtimoiy funksiyalarini har tomonlama yoritish imkonini beradi.



Natijalar. Tadqiqot davomida qadimgi turkiy bitiglarda uchraydigan *qara* leksemasining semantik imkoniyatlari, diskursiv vazifalari va sotsial-nominativ xususiyatlari yanada kengroq yoritildi. Tahlillar ko'rsatdiki, *qara* qadimgi turk tili tizimida faqat rang nomi sifatida emas, balki jamiyatning ichki tuzilishi, siyosiy stratifikatsiyasi va etnik-sotsio ahamiyatga ega ko'p qatlamli determinant sifatida shakllangan. Uning rang ma'nosidan ijtimoiy ma'noga o'tishi bosqichma-bosqich rivojlangan bo'lib, denotativ ma'no (*qora*, *quyuq*) bilan bir qatorda xalqning quyi qatlamini, oddiy avomni bildiruvchi sotsionim funksiyasida keng qo'llangani tasdiqlandi. Manbalarda bu boradagi ma'lumotlar chegaralangan bo'lsa-da, runik bitiglarda uchraydigan *qara*, *qara budun*, *qara qamuy budun* hamda *qara bas* kabi birikmalar qadimgi turkiy jamiyatda xalqning quyi qatlamini ifodalagan alohida sotsial birlik mavjud bo'lganini ko'rsatadi (Golden 2002, 121). O.Pritsak fikriga ko'ra, *qara* so'zi sotsionimlar bilan qo'llanganda jamiyatning eng quyi, biroq *ozod* tabaqasiga nisbatan ishlatilgan bo'lib, bu birliklar qullardan farq qiluvchi, lekin sulola elitasi bilan teng bo'lmagan avomni bildirgan (Pritsak 1980, 119).

Aytish kerakki, qadimgi turk jamiyatidagi ijtimoiy qatlamlar masalasini yoritish Xoqonliklarning o'ziga xos siyosiy va ijtimoiy tuzumi bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki bitigtoshlarning murojaat uslubida ham aynan shu ikki qutb – hukmron aslzodalar va oddiy xalq – doimo yonma-yon tilga olinadi. Xoqonlarning nutqlarida xalqqa murojaat shaklining an'anaviy ko'rinishi *türk bāglār budun* ("turk beklari va xalq") birikmasi orqali mustahkamlangan bo'lib, bu ularning siyosiy diskursida jamiyatning yuqori va past tabaqalari qat'iy farqlanganini ko'rsatadi (Abdurahmonov va b. 1982, 126, 132–133). Uyg'ur xoqonligiga oid bitiglarda bu tabaqalanish yanada ravshan ko'zga tashlanadi: unda *atliγ* ("nomdor, obro'li, yuqori maqomli shaxs") va unga qarama-qarshi tarzda *igil qara budun* yoki *qara bas* kabi birikmalar uchrab, "oddiy xalq, avom" tushunchasini qat'iy ajratib beradi (Klyashtorniy 2008, 16). Mana shu qarama-qarshilik ijtimoiy tuzumning qatlamliligi va siyosiy markazlashuvning kuchli bo'lganidan darak beradi. Qadimgi turklar davlat tizimida yetakchi elita aynan *yaylaqar* urug'iga mansub bo'lib, hukmron sinfnining asosiy yadrosini tashkil etgan (Boboyorov 2018, 130). Shu elita vakillari tomonidan xalqqa qilingan murojaatlar, ularning o'z hokimiyatini saqlab qolish uchun qanday siyosiy nutq strategiyasidan foydalanganini ham ko'rsatadi: "*qara budunim öltin yätdän; yaña içik ölmäçi yätmäçi sän tädim*" – (Ey) qavmim! O'lgansan, halok bo'lding. (Yana menga) bo'ysunsang, o'lmaysan, halok bo'lmaysan, dedim" (MCh, 17). Ushbu satrlar nafaqat siyosiy nutqning shaklini, balki quyi qatlamning jamiyatdagi rolini ham ko'rsatib beradi: ular davlatning sodiq tayanchi bo'lgan, biroq hukmron tabaqadan doimo pastda turgan ommaviy qatlamdir.

Shuningdek, *qaraning* etnonim tarkibidagi atributiv vazifasi — turk qabilalari ichida bo'linma, ikkilamchi guruh yoki katta ittifoqdan ajralib chiqqan bo'limlarni anglatuvchi belgi sifatida shakllanganligi aniqlandi. Bu holat *qara qarluq*, *qara türgiš*



kabi nomlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Antroponimik tizimda esa *qar*aning "kuchli", "katta", "ulug'" semalari bilan boyiganligi va ayrim shaxs ismlariga epitet tarzida qo'shilib, maqom va fazilatni kuchaytiruvchi atribut vazifasini bajargani kuzatildi. Tayhar-Chuluu bitigidagi *qara baš* birikmasining tahlili esa muhim natijalardan bo'lib, uning runik korpusdagi yagona o'rni sababli alohida ilmiy ahamiyatga ega o'laroq, uning toponim yoki gidronim emas, balki jamiyatning oddiy aholisi, avom qatlamini bildiruvchi – sotsionim sifatida talqin qilinishi eng asosli talqin bo'ladi. DLTdagi *qara boš* shakli bilan fonetik-semantik yaqinlik, shuningdek bitigning kontekstida xalqning ko'chirib topshirilishi va boshqarilishiga doir ma'lumotlar mazkur birlikning aynan sotsial ahamiyatli termin ekanini yanada kuchaytiradi. Shu orqali *qara baš* qadimgi turk jamiyatida avomning mavsumiy ko'chirish, boshqarish va tartibga solish bilan bog'liq jarayonlarda qatnashuvchi ommaviy guruh nomi sifatida qo'llangan bo'lishi mumkinligi aniqlanadi. O'rganilgan materiallar *qar*aning qadimgi turkiy rang-simvolik tizimdagi o'rni – shimol yo'nalishi, quyuqlik, dahshat, kattalik, kuch ramzi tarzida shakllanganligini ham ko'rsatdi. Shu bois uning ijtimoiy semantikaga o'tishi tasodifiy emas, balki turk dunyoqarashidagi rang-makon, rang-tabaqa, rang-marhumlik singari konseptlar fonida rivojlangan. Bularning barchasi *qara* leksemasining qadimgi turkiy tildagi determinativ funksiyasi mustahkam, barqaror va ko'p qatlamli tizim ekanini tasdiqlaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, *qar*aning semantik evolyutsiyasi va uning turli darajalardagi qo'llanilishi qadimgi turklar jamiyatining tuzilishi, ierarxiyasi, rang-simvolik tafakkuri va nomlash odatlariga oid yangi ma'lumotlar beradi, ayniqsa *qara baš*ning semantik-funksional chegarasining belgilanishi turkiy tilning qadimgi davriga oid sotsionimlar tizimini yanada boyitadi.

Muhokama. Ishning muhokama qismida *qara* leksemasi sememasining (kontekstual) mazmuniy-tematik mundarijasini quyidagicha ko'rib chiqamiz.

Qadimgi turkchada *qara* to'g'ridan to'g'ri rang ma'nosida

Qara turkiy til lug'at fondining eng qadimgi va eng ko'p istifoda etilgan asosiy so'zlaridan sanaladi. Manbalarga ko'ra, sanskrit tilidagi *kāla* (=qora, to'q ko'k) so'zidan kelib chiqqan deb qaraladigan ushbu leksema turk tilida *l/r* transformatsiyasi orqali *qara*'ga aylangan. *qara* so'zi turkiy tillarda O'rxun-Yenisey bitiglaridan beri ishlatilgan bo'lsa-da, u ba'zi Janubiy Osiyoning aryan tillaridan kelib chiqqan bo'lishi mumkin (Aksozluq 2020, 1). Ushbu leksema qadimgi turkiy tilda avvalo "qora rang", "quyuq, zulmat" ma'nolarini anglatgani holda uning qo'llanish doirasi rang ifodasidan keng bo'lib, turli metaforik, ramziy va ijtimoiy ma'nolarga ega bo'lgan. Darhaqiqat, turkiy xalqlarning etnonimik nomenklaturasida asosan beshta rang eng ko'p qayd etilgan: *qara* – "qora", *aq* – "oq", *qizil* – "qizil", *yašil* – "yashil" (bu kok "ko'k"ka mos kelishi mumkin) va *sariy* – "sariq" (ot ranglarini bildiruvchi *ala* – "ol-to'q", *boz* – "kulrang" va *qir* – "jigarrang" kamroq qo'llaniladi) (Gabain 1962, 112–113).

Qara so'zi turkiy tilning barcha davrlarida turli ma'nolarda ko'zga tashlanishi o'laroq, u avvalo O'rxun va Yenisey bitiglarida keng ma'noga ega rang nomi sifatida



gavdalanadi. Xususan, quyidagi misolda “eng to‘q rang” ma’nosida epitet vazifasida ishlatiladi: “*qizil qanim: tóküti: qara tärim: yügürti: işig küčüg bärüm ök: – qizil qonimni tugatib, qora terimni yugurtib, mehnatni, kuchni berdim*” (To‘n, 52); “*ädgü: özlük: atün: qara: kisin: kök: täyänin: sansiz: kälürüp: qop: qottı: – yaxshi boqimdagi shaxsiy otlarini, qora kishilarni va osmon teyin(lar) (olmaxon)ni sonsiz keltirib, barini qo‘yib ketdi*” (BX TX, 12); “*sariy altunin: ürün: küm(ü)şin: qiryayliy: qutayin: qinl(i)y: äşgıtisin: özlük atün: adyürin: qara kisin – (Men) sariq oltinini, oq kumushini, qirg‘og‘li ipagini, ekindan qilingan ichkiligini, xos (maxsus) otini, ayg‘irini, qora kish (suvsar)ini, ko‘k olmaxon (mo‘ynasi)ini turkimga, xalqimga egallab berdim*” (BX Shim, 11-12). Uning bu ma’nosi turkiy tilining keying davrlarida ham so‘zning eng faol semasi sifatida saqlanib qoldi. Qoraxoniylar davri matnlaridan DLTda “qora rang” ma’nosida izohlangan (DLT III, 240-241) ushbu leksemaning ortirma darajali shakli ilk marta QB’da ko‘zga tashlanadi: “*Qizil ayzi qan tæg qaşı qap qara – Qizil labi qondek, qoshi qop-qora*” (QBN, 189).

Aytib o‘tish kerakki, qadimgi turk-run matnlarida salbiy bo‘yoqqa ega bo‘lmagani holda asosan rang va sotsionim vazifasida gavdalangan *qara* leksemasi eski turkiy til davri matnlarida oliynasab (hukmdor) toifasini nomlash bilan birga (Qoraxon – Qoraxoniylar), “yomon; past daraja”da ma’nolarida ishlatiladi: “*Köni ägri farqi ürünli qara – To‘g‘ri va egrining farqi – oq va qoraning farqi kabidir* (QBK, 392₈)”; “*Qamuy tægşürüldi törü öndilär, qaralı ürünli bir-ök boldılar – Hamma tartiblar o‘zgardi, qora bilan oq bir bo‘ldi*” (QBK, 384₁₀). Shuningdek, bu davrdan *qara* bilan yasalgan fe‘l shakllari ko‘zga tashlanadi: “*Qarayurma dünjakä soqluq qilip – Bu dunyoga suqlik qilib, o‘zingni qoraytirma*” (QBK, 365₁₂); “*Baru attı soqluq qoradı sävinč – Ochko‘zlik ortib bordi–sevinch kamaydi*” (QBK, 384₃); “*Bayışlasu täjri anıñ žanını, qoratmasu andın äti qanını – Tangri uning ko‘nglini avf qilsin, uni (tanasiga va qoniga) qoraytmasin – ziyon keltirmasin*” (QBK, 374₁₁). Bunda *qarayurma* shakli o‘zini “bulg‘amaslik, axloqan pastlashmaslik” ma’nosini bersa, *qoradı* fe‘li ichki illatning kuchayishi, ochko‘zlikning ortishi va natijada holatning yomonlashuvini bildiradi. *Qoratmasu* esa “ziyon yetkazmasin, balo tushirmasin” kabi ma’noda qo‘llanib, jismoniy yoki ruhiy zarar tushushining oldini tilaydigan pragmatik ohangga ega. Demak, bu kontekstlarda *qara*- negizli fe‘llar salbiy jarayon, buzilish, yomonlashish yoki zarar yetishi mazmunlarini ifodalovchi metaforik-semantik funksiyada ishlatilgan. Aytish kerakki, *qara* leksemasi hozirgi o‘zbek tilida qariyb yigirmaga yaqin konnotativ semalar kasb etgan (O‘TIL IV, 335-337).

***Qara*’ning topoleksemalashuvi: uning joy nomlari tarkibidagi funksiyasi**

Qara leksemasi bitigtoshlarda toponimik vazifani ham bajargan. Turkiy xoqonliklar va keyinchalik mo‘g‘ullar sulolasining asosiy boshkentlaridan biri bo‘lgan Qaraqum va Qarabalg‘asun shaharlari shular jumlasidan. Bu bilan bog‘liq qaydlar quyidagi Uyg‘ur xoqonligi bitiglarida ko‘zga tashlanadi: “*örün bägig : qara q(b)ulluqıy : anı olurmı : Qırqız tapa : är idmis – Qara Buluq (va) Ani (daryosi)da bo‘ldi(lar). Qirg‘izlarga*



jangchilar yubordi” (MCh, 24); “*qara: yotluqun: kăčip: kălirti: utru yorudum* – Qora Yotluqdan o‘tib olib kelishdi. Men ularni ta‘qib qildim” (MCh, 27); “*Qara: Bulaq öndän: Suqaq yoli* – Qara Bulaqning sharqidagi So‘qoq yo‘li” (MCh, 35). *qara* joy nomlarida qo‘llanganda asosan ikki ma‘no faol bo‘lgan, birinchisi, rangga oid bo‘lib, u hududning tabiiy ko‘rinishini — tuprog‘ining quyuqligi, tosh yoki yer qatlamining qoramtirliigi, suvining to‘q rangi yoki o‘rmonning zichligi kabi belgilarga asoslangan¹. Shu bois *Qaraqum*, *Qaraköl* kabi toponimlarda “qoramtir, quyuq, to‘q rangli” ma‘nosi yetakchi hisoblanadi: “*ärtim qara: qum: aşmîş: kögärdä: kömür tayda: yar ögüzdä: üč tuy/lu/*: // *türük budun* – edi. Qoraqumdan narigi Ko‘gurda, Ko‘mirtog‘da, Yar daryosi yaqinida Uch tug‘li turk xalqi” (MCh, 8); “*čuyay quzîn: qara qumuy: olurur ärtimiz* – Chug‘ay quzni va Qoraqumni manzil qilib olgan edik (To‘n, 7)”; “*qara költä: süñüšdümüz* – biz (ular bilan [az xalqi]) Qora Ko‘lda jang qildik (KT Shim, 2)”. Ikkinchi faol ma‘no esa qadimgi turkiy kosmologiyada ranglarning yo‘nalish bilan bog‘lanishi natijasida yuzaga kelib, turklarning ranglar tizimida *oq* – sharq, *qizil* – g‘arb, *ko‘k* – janub va *qora* – shimol yo‘nalishini bildirgan. Shu sababli ayrim joy nomlarida “shimoliy hudud, shimol tomonda joylashgan yer” mazmuni aks etadi. Masalan, *Qaraqum*, *Qaraköl* kabi nomlarning tarkibidagi *qara* komponenti ba‘zan geografik yo‘nalishni bildirgan semantik qatlamni ham saqlagan bo‘lishi mumkin.

***Qara*’ning antroponimlarga ishora qilishi: uning turkiy titilaturadagi o‘rni**

qara so‘zi bitiglarda atoqli otlar yoki ularning oldidan kelib epitet (sifatlash) vazifasini hosil qilishda ham qo‘llanilgan. Shaxs ismlarining qo‘shma shaklida bu so‘z odatda “katta”, “qudratli” (Kononov 1965, 78), “kuchli” va “baland” (SIGTYA 2001, 680-681) ma‘nolarini ifodalagan. *qara* so‘zi bitiglarda to‘g‘ridan to‘g‘ri odamlarga nisbatan ham ishlatiladi (KT Shar 8, BX Shim 11, Ongin 9, Ye 45/7). Xitoy yilnomalariga ko‘ra, Tumin (Bumin) xoqon vafotidan keyin bosh hukmdor – *qayan* sifatida uning birodari Istami emas, o‘g‘li *Qara* (xit. Kolo; 552-553), keyinchalik ikkinchi o‘g‘li *Muqan* (553-572) tayinlanadi (Shyuvén 1995, 34). 620-yillardan to 750-yillarga qadar To‘xoristonni umumiy Yabg‘ular sulolasi nomi ostida qariyb bir yarm asir boshqargan sulola vakillari ichida Sulayman(?) *Qara* (xit. Shiliman Gyalo (750)) laqabiga ega edi (Bichurin 1950, 58; Chavannes 1903, 155-158; Harmatta 1996, 373; Ekrem 2003, 138-139).

Shuningdek, xoqonliklarda sulola a‘zolarini boshqa quyi tabaqa (qul)lardan farqlash uchun *tägin* so‘zinining boshiga uning fe‘l-atvori va mavqeyiga muvofiq epitetlar qo‘shilib aytilardi: *Arslan Tägin*, *Toyrul Tägin*, *Yinäl Tägin*, *Čayrı Tägin*, *Küč Tägin*, *Alp Tägin*, *Quthuy Tägin*, *Kümüš Tägin*, *Böri Tägin*, *Tuy Tägin*, *Toña Tägin*, *Yıryan Tägin* kabi (Ömer 2011, 312). Bitiglardagi *Qara Tägin* kabi ismlar ham shunday vaj‘ bilan paydo bo‘lgan edi. Ma‘lumki, xoqonliklar idora tizimida g‘ayriturkiy etnos vakillari – xitoyliklar ham bo‘lgan. Ba‘zan *qara* unvonidan ular ham bebahra

¹ Ushbu vazifa, shuningdek, “biror narsaning uzoqdan yoki qorong‘idan ham ko‘zga tashlanishi” tarzida izohlanadi (Bu uchun qarang: O‘TIL IV, 336).



qolmagan, xususan, manbalarda bu bilan bog'liq quyidagi ma'lumotlar uchraydi: "Ilgari Suy sulolasi davrida Uyuan (Wu-Yüan) umum voliyisi bo'lgan Chjan Chansun ichki tartibsizliklar tufayli o'z boshqaruvidagi Uyuan shahri xalqi bilan birgalikda *Tukyuye* (turk)larga borib qo'shilgan edi. Unga (turklar tomonidan) *Kolo Tele* (*Qora Tegin) unvoni berildi" (Togan va b. 2006, 111, 325). Demak, xoqonlikning boshqaruv tizimida qatnashgan g'ayriturkiy etnoslar vakillari ham unvonga munosib ko'rilganda bevosita turkiylarga xos an'anaga rioya qilingan. Keyingi davrlarda matnlarida ushbu leksema *Qara Mähmäd Bäg*, *Qara Yusuf Bäg* (Qora-Qo'yunlular), *Qara Yuluq Usman Bäg* (Oq-Qo'yunlular), *Qara Osman Bäg* (Usmonlilardan), *Qara Yusuf*, *Qaracha Ahmäd* ning ismlari va epitettarida uchraydi. Bu yerda *qara* to'g'ridan to'g'ri "jasur va qahramon shaxs" degan ma'noni anglatadi (Kafalı 1996, 49-54). QB'da pandnoma bag'ishlangan Bug'raxon nomi *Qara* epiteti bilan tilga olinadi: "*Buyra Qara Xaqan* – Bug'ro Qora Xoqon" (QBK, 216). Shuningdek, manbalarda *qara* leksemasi *Qara baqši*, *Qara Buqa*, *Qara Oquy*, *Qara Tägin*, *Qara Tämiür*, *Qara Xan*, *Qara Sängun*, *Qara Toyin*, *Örgünç Qaramış* (*Qaraqat*) (*Qaraq*), *Altun Qara*, *Buyra Qara Xan*, *Buyan Qara*, *Tuqäl Qara* kabi antroponimlar tarkibida uchraydi. G.Doerferning *qara* so'zi shaxsiy ismlarda (masalan, *qara qayan*, *qara tägin*) ishlatilganda "kuchli" ma'noga ega bo'ladi, degan qarashga e'tirozi uchun qarang (Doerfer 1967, 440).

***Qara* ning etnoleksemalashuvi: uning qabila va urug' nomlaridagi atributiv funksiyasi**

Qadimdan turkiy va mo'g'ul xalqlari orasida rang ma'nosiga ega etnonimlar keng qo'llanilgan bo'lib, ilmiy adabiyotlarda bunday nomlar "rang etnonimlari" sifatida talqin qilinadi. Etnonimlar keng ma'noda ijtimoiy guruhlarining o'zini o'zi atash usuli bo'lib, ular ko'chmanchi jamiyatning moslashuvchan va murakkab tuzilmasi ichida turli taksonomik darajalarni ifodalashga xizmat qiladi (Timoxin va b. 2024, 9). Turkiy xalqlar etnonimiyasida rang belgilaridan foydalanish har bir davr va mintaqaga xos bo'lgan o'ziga xosliklar bilan ajralib turadi. Bu holat, avvalo, o'sha davrning tarixiy-madaniy sharoitlari bilan belgilanadi. Aytish kerakki, rangga asoslangan etnonimlar tuzilish nuqtayi nazaridan ikki turga ajratiladi¹: bir komponentli etnonimlar faqat rang nomidan iborat bo'lib, sinfning to'g'ridan to'g'ri o'zini o'zi belgilashini bildiradi. Masalan, "*Qara köjlin avlar bägi jarliyi* – Begning farmoni qora avom ko'nglini ovlaydi" (QBN, 1347): "*Qara qarni to'dsa tili başsırar* – Qora (avom) qorni to'ysa, tili boshsiraydi" (QBN, 3114). Bu shakl ko'proq eski turkiy til manbalarida ko'zga tashlanadi. Ikki (yoki uch) komponentli etnonimlar esa rang belgisining boshqa bir so'z bilan birlashishi natijasida yuzaga kelib, muayyan jamoadan dalolat beruvchi o'ziga xos nomlash konstruktsiyasini hosil qiladi. Masalan, "*Türk qara qamuy budun anča tämiş: ällig budun ärtim, älim amtı qanı* – Turk fuqarosi, barcha xalq shunday debdi:

¹ "Etnonimiyaning rangga asoslangan bir va ikki komponentli belgilovchi modeli turkiy va mo'g'ul xalqlari orasida uzoq tarixiy davr mobaynida kuzatilgan bo'lib, ularning tarixi davomida keng geografik hududlarda qayd etilgan" (Lezina 1994, 466).



“Davlatli xalq edim, davlatim endi qani” (KT, 8-9). Turkiy xalqlar etnonimlarini tasniflashga bag‘ishlangan yirik tadqiqot muallifi G.Nemet ikki komponentli nomlarni alohida guruh sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, rang belgisi nom tarkibida obyektning o‘ziga xos xususiyatini bildiruvchi asos bo‘lib kelishi mumkin, masalan, *qara qalpaq*, *qara börklü* kabi etnonimlar shunday tuzilgan. Shuningdek, u hayvonlarning rangi bilan bog‘liq nomlarni ham ajratadi: *ala yontlu*, *qara qoyli*, *aq qoyli* kabi (Nemeth 1991, 100-103).

Turkiy xalqlar orasida rang semantikasi bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borgan O.Pritsak bu masalaga kengroq yondashadi. U bir xil qabila yoki guruh nomlarining turli variantlari mavjud bo‘lgan vaziyatlarda *qora* va *oq* belgilarining farqlovchi vazifa bajarishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, turkiy bitiglardagi *qara* – “haqiqiy, aralashmalarsiz, asli sof” ma’nosiga ega bo‘lishi mumkin (Pritsak 1951, 378). Olim rang belgilarining nafaqat etnonimlarda, balki toponim va titulaturalarda ham qo‘llanishini ko‘rsatib, ularni geografik yo‘nalish, ma’muriy bo‘linma va ierarxiya bilan bog‘lash imkoniyatini ko‘rsatadigan katta miqdordagi material to‘plagan (Pritsak 1950, 239–363). A.Kononov rangga asoslangan etnonimlar semantikasini izohlar ekan, bunday nomlar ko‘pincha rang belgisi orqali qabilaning hukmron yoki markaziy guruhga nisbatan haqiqiy geografik joylashuvini bildiruvchi ko‘rsatkich sifatida shakllanganini ta’kidlaydi (Kononov 1978, 167–169). Ikki qismli qabila nomlarida atributiv unsur sifatida qo‘llanadigan *qara* so‘zi A.Kononov ta’kidlaganidek, ko‘pincha asosiy jamoadan ajralib chiqqan ikkilamchi guruhni bildiruvchi belgi sifatida talqin qilinishi mumkin degan qarash hozircha haqiqatga yaqin ilmiy xulosa sifatida qabul qilinadi (Kononov 1965, 78). Bunga V.Trepavlov bu ajralish ham migratsiya, ham yangi yerlarni bosib olish orqali sodir bo‘lganini qo‘shimcha qiladi. Ushbu qarashga quyidagi jumla asos bo‘lishi mumkin: “*basmil: qara qarluq: budun: tärilip kältim* – basmil qora qarluq xalqi yig‘ilib keldi (BX Shar, 29). Bilga Xoqon bitigidagi umumiy tafsilotlarga ko‘ra *qara qarluq budun*’lar xoqonlik atrofidagi (nisbatan uyushmagan) ayro holatdagi etnos edi.

Darhaqiqat, *qara* leksemasining semantik mohiyatiga doir muhim mulohazalardan biri N. Aristov tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, unga ko‘ra bu epitet rang ma’nosidan tashqarida O‘rta Osiyo turkiy xalqlari orasida “quyroq, yomonroq” mazmunida qo‘llanganini qayd etiladi. Tadqiqotchi fikricha, mazkur birlik etnonim sifatida ishlatilganda, u ko‘pincha xalq yoki qabilaning yoshroq, bo‘ysunuvchi, ya’ni asosiy qismdan ajralib chiqqan ikkilamchi bo‘linmasini bildirgan (Aristov 1896, 302). Aristov buni qora-xitoylar va qora-qalmlar (ushbu muallifning so‘zlariga ko‘ra, turklar ularni shunday atashgan) misolida asoslab, ularning ikkalasi ham turli vaqtlarda asl nomini saqlab qolgan holda ko‘proq xalqning ajralib chiqqan tarmoqlarini anglatganini ta’kidlaydi. Bu jarayonda *qara* sotsionim sifatidagi dastlabki vazifasidan chiqib, etnonimik birlik xususiyatini kasb etgan va qabila, xalq tuzilmasidagi iyerarxik yoki genealogik bo‘linmani ifodalovchi belgi sifatida shakllangan bo‘ladi.



**Qara sotsionim sifatida: qara budun, qara qamuy budun,
qara igil budun, qara baš**

O'rxun-Yenisey bitigtoshlaridan ma'lum bo'lishicha, "qadimgi turkiylarda siyosiy uyushma sifatida "davlat" ma'nosida ishlatilgan *äl* so'zi ostida davlatni tashkil etuvchi asosiy unsurlar, jumladan, *törü(g)* – hokimiyat/qonun, *uluš* – mamlakat, *budun* (*qara budun*) – xalq tushunilgan" (Kaşıkçı 2002, 888). Hatto, asosiy ma'nosi "davlat" bo'lgan *äl* istilohi davlatni tashkil qiluvchi uch unurning har biri bilan teng ma'no ifodalovchi sinonim so'z sifatida ham qo'llangan (ДТС, 168-169). Ya'ni O'rxun-Yenisey bitigtoshlarida ushbu *äl* istilohi "mamlakat, saltanat", shuningdek "xalq" ma'nosida ham qo'llangan, lekin "xalq" ma'nosida asosan *budun*, *qara budun*, *qara qamuy budun*, *qara igil budun* istilohlari tilga olingan. "Xoqonliklarda *Türk qara qamuy budun* – "Turk (xoqonligi) oddiy fuqarosi" *bod* (qabila) va *oyuš* (urug')lardan tashkil topgan bo'lib, siyosiy jihatdan *älga* uyushgan" (Markov 1976, 47-48). Shu o'rinda *älig* so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, *äl* ilk marta juan-juanlar tomonidan ishlatilgan va manbalarda ikki o'rinda qayd etiladi (Yıldırım 2015, 84). Boshqa bir manbaga ko'ra, ko'k turklarga bo'ysungan juan-juanlar ustidan qozonilgan g'alaba natijasida birinchi Ko'k Turk xoqonligi asoschisi Bumin xoqon *älig qayan* unvonini olgan (Golden 2006, 133). Bitigtoshlarda *äl* – "xalq ~ davlat" istilohi bilan bog'liq quyidagi ma'lumot uchraydi: "*Türk qara qamuy budun anča tämiš*: "*älig budun ärtim, älim amtī qanī* – Turk fuqarosi, barcha xalq shunday debdi: "Davlatli xalq edim, davlatim endi qani" (KT, 8-9). Ushbu satrlardan ma'lum yana bir bor bo'ladiki, *äl* nafaqat hukmron tabaqani anglatishga (*älig* – "eli bor, davlatli"), balki oddiy xalqni ham anglatgan siyosiy institut sifatida bilingan. Demak, *budun* "qabila-urug' uyushmasi", *äl* esa ko'proq "harbiy-ma'muriy tashkilot" sifatida gavdalanib, mustahkam ijtimoiy munosabatlar bilan o'zaro bir-birini to'ldirgan.

Bitiglarda *qara*'ning eng ko'p qo'llanilgan ma'nosi "oddiy, sodda" bo'lgani holda, bu sifat asosan *budun* komponenti bilan birikib, xalqning quyi qatlamini (*qara budun* – "qora xalq, avom" shaklida) anglatgan. Bu so'z ushbu ma'noda ko'p marta uchraydi: "*yabyu: atadi anta : kisrä: (a)qanīm: qayan: učdu: qara budun: qilinč // küsgü yilqa ... dim* – yabg'u (deb) e'lon qilindi. Keyin mening otam xoqon vafot etdi. Avom yumushlari Sichqon yilida" (MCh, 12); "*qara: budunīm: öltiḡ: jätḡäḡ: yaḡa içik ölmäči: jätmäči: sän tädim* – (Ey) qavmim! "O'lgansan, halok bo'lding. (Yana menga) bo'ysunsang, o'lmaysan, halok bo'lmaysan", dedim (MCh, 17); *qara budun: qayanīm: kälti tip: ögirip säbinti*: – Oddiy xalq "Xoqonim keldi" deb, deyishib sevindi (BX Shar, 41); "*Türk qara qamuy budun¹ anča tämiš*: "*älig budun ärtim, älim amtī qanī* – Turk fuqarosi, barcha xalq shunday debdi: "Davlatli xalq edim, davlatim endi qani" (KT, 8-9). *qara budun* birikmasi "Oltun yorug'" asarida ham sifatlovchi-sifatlanmish

¹ Turk *qara qamuy bodun* iborasining ekvivalenti Chingizxon imperiyasi davrida *qamuy mongol* – "hamma mo'g'ul (xalqi)" shakliga to'g'ri keladi, u mazmunan yangi tashkil topgan davlat tarkibidagi barcha mo'g'ul qabilalarini anglatgan (Kradin va b. 2006, 132–133).



munosabatidagi bitishuvli soʻz birikmasi sifatida ijtimoiy qatlamni ifodalaydi: “*İncip yalanguqugh (ädgükärü ötlägi) ol qamagh qara budunin* – Shu tariqa insonga yaxshi(lik qilish uchun maslahat beradi), oʻsha jamiki qora xalqiga” (VIII. 36a/b). Yoki: “*Ädgügärü incip ödläyür qamagh qara budunin* – Shu tariqa (u) jamiki qora xalqini yaxshilikka daʼvat etadi (VIII.37a)” (Qilichov 2020, 41).

Aytish kerakki, *qara qamuy budun* xoqonliklar tuzumida faqat avomni anglatmagan, mazkur ijtimoiy qatlam vakillarining davlat boshqaruvidagi roli bilvosita koʻzga tashlanadi. Qadimgi turklarda monarxning siyosiy hokimiyatini turli omillar cheklab turgan, ular orasida ushbu jamiyatda hokimiyatning ikki subyekti: birinchisi, xalq – *qara budun* hokimiyatining davlat boshqaruvidagi roli nisbatan oz darajada boʻlsa-da mavjud boʻlgan (Boboyorov 2018, 160). Xususan, mazkur *qara qamuy budun* ichida eng kata taʼsirga ega uyushma *On Öq* qabilalari ittifoqi edi. Qolaversa, Tuput tilidagi manbalarga koʻra, Gʻarbiy Turk xoqonligi idora tizimida bevosita *qara budun* vakillarini koʻrish mumkin edi: “shimol oʻlkalari”ning poytaxti Shubaliq (Suyab) shahri, boshqaruvchilari *xirkin* (ärkin) va *darkan* (tarqan), ularning maslahatchilari – *drugyus* (türgäs) va *amacha*, xizmatchilari *nagdrug* (lugʻ. “*qara türk*”) va *amacha* boʻlgan” (Klyashtorny 2006, 257). Aytib oʻtish kerakki, *qara* Qoraxoniylar davri matnlarida bevosita “qul” maʼnosida ham koʻzga tashlanadi. “*Qara qul qarasi bolur bäg ürün, qarali ürünli adirti körün* – Qora qul qoraligi boʻladi, beg esa oqdir, qora bilan oqning tafovutiga nazar soling” (QBK, 1084).

Oʻrxun yodnomalaridagi *qara* ning *turgış* etnonimi bilan kelgan oʻrinlari mavjud: “*anta kirsä: qara türgiş: budun: yayı bolmış* – undan keyin qora Turgash xalqi dushman boʻldi (KT Shar, 39); *qara türgiş: budun: qop içikdi:* – qora Turgash xalqi butunlay taslim boʻldi” (KT Shar, 38); “*qara türgiş budunuy anta olürmiş almiş* – qora Turgash xalqini oʻshanda oʻldiribdi, asirga olibdi” (KT Shar, 40). N.Aristov *qara türgiş* nomidagi birinchi komponentni “xalq yoki qabilaning yoshroq, boʻysunuvchi qismini anglatuvchi” atribut sifatida talqin qilgan. Biroq, V.Tomsenga koʻra *qara türgiş* Xitoy manbalarida *Hei Xing* – “qora familiya” nomi bilan tilga olingan va turgash qabilalarining bir guruhini bildiradi. Bunda *qara* ning etno-sotsiyosiy funksiyasi Xitoy bilan bogʻlanadi (Tomsen 1896, 110, 158-159). Chunonchi, Sin Shixuandi (mil. av. 221-206) davrida mamlakatni markazlashtirish avj olganda Vey daryosi shimoliy sohilidagi yangi poytaxt – Syanyan shahriga (bir-birini qoʻllab-quvvatlamasligi uchun) aslzoda oilalarni koʻchirib keladi va natijada ular oʻzlarining avvalgi mahalliy qavmlaridan uzoqlashib, poytaxtda hech qanday tayanchga ega boʻla olmaganlar. Shunda vassallarning mahalliy etnik ism bilan atalishi man etilib, oddiy aholi *Hēitōu* – “qoraboshlar” deb atala boshlanadi (Abdullayev 2017, 271).

Shine Usu (Moʻyun Choʻr) sharqiy matnining ikkinchi qatoridagi *qara igil budun* iborasidagi ikkinchi komponent boshqa runik matnlarda tasdiqlanmagan deb qaralardi: “... *qara : i(ä)gil: buduniy: yoq qilmadim: äbin barqin yilqışin: yulmadim: qiyin: aydim: turγuru qutum: kántü budunim: tädim* – Men oddiy itoatkor odamlarni



o'ldirmadim. Men ularning uyi, mol-mulki, otlarini tortib olmadim. Hukmimni aytdim. O'z holicha qoldirdim. (Ulami) o'z xalqim deb tan oldim va qo'shilishga ruxsat berdim" (MCh, 14). Lekin ushbu jumaladagi *igil* so'zi aynan *qara* bilan birlikda Talasdagi Chatchikey vodiysida topilgan turk runik bitigida ham ko'zga tashlanadi¹: "*on (o)^o q A ig(i)l A q(a)ra (?) – O'n o'qqa (qabilaga?) oid (O'n o'qdan chiqqan) qora*". Jamiyatning quyi qatlamini bildiruvchi birlik sifatida izohlangan mazkur so'zning etimologiyasi mo'g'ul tilidagi *egal* so'zi bilan qiyoslanadi va bir qator tadqiqotchilar tomonidan umumiy etnolingvistik ildizga ega bo'lishi ehtimoli qayd etiladi (Malov 1959, 94; Clauson 1972, 106; Aydin 2016, 292). S. Klauson tomonidan so'zning ma'nosi kengroq tarzda "oddiy xalq vakili, quyi tabaqa odami" tarzida izohlangan bo'lsa, J. Hamilton bu birlikni (fr. gens du commun) "oddiy xalq; omma; quyi tabaqa odamlari" ekvivalenti bilan talqin qiladi (Manuscripts ouigours 1986, 214). E. Aydin qadimgi turkiy yozuvlar materiali asosida *igil* so'zining hozirgacha yetib kelgan yagona qo'llanishi aynan runik yodgorliklarda emas, balki qadimgi uyg'ur tiliga mansub dialektal qatlamda uchraydigan ayrim izlar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini e'tirof etadi (Aydin 2016, 292). Bu esa so'zning hududiy-dialektal tarqalishi hamda ijtimoiy funksiyasini yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur birlikning aynan "oddiy xalq"ni bildiruvchi *qara* atamasi bilan birikishining o'zi ham muhim semantik-ijtimoiy ko'rsatkichdir. Bunda *qara* so'zi "oddiy, sodda" ma'nosida ishlatilgan deb taxmin qilish mumkin. Shuning uchun Chatchikey bitigida *qara igil* birikmasi mazkur semani kuchaytiruvchi, ijtimoiy mansublikni yana-da ochiq ifodalovchi birlik sifatida talqin qilinishi mumkin. *qara + igil* birikmasi qadimgi turkiy jamiyatning sotsial tuzilishi, tabaqalanish tizimi hamda etnosotsiologik terminologiyasini tadqiq etishda muhim material sifatida baholanib, qadimgi turkiy tilning leksikasida ijtimoiy mansublikni aniq belgilovchi konstruktsiyani hosil qilganini ko'rsatadi.

Tayhar-Chuluu bitigidagi *qara bas'*ning tahlili

Xoyt Tamir (Tayhar-Chuluu) II bitigining 3-satrida uchraydigan *qara bas'* iborasi runik matnlarda bir marta aniqlangan: "(1) *bāčīn yīl yātīnč ay bās yāgīrm* (2) *ikā bās balīq(?)qa bardīy?* (3) *qasuy? qara bāsīy yaylat<d>īm kūztā toñīn tašqa ārtīm* (4) *toñīn? İt'η al'ip barīr mān kōñülüg? buy'ruq?*"³ – (1) Maymun yili yettinchi oyining o'n

¹ Qirg'izistonning Talas vodiysidagi o'rta asr turkiy qabilalariga oid arxeologik yodgorliklar XIX asr oxirida nashr etilgan ilmiy nashrlar orqali ma'lum bo'lgan. Bu yodgorliklar orasida Turk xoqonligi davriga oid shaharlar, qo'rg'onlar, balballar va qoyatosh rasmlari bor. Eng muhim topilmalar turkiy runga o'xshash harflar bilan o'yilgan yozuvlardir. (Bu uchun qarang: Tabaldiyev va b. 2023, 176-196).

² Aytib o'tish kerakki, *qara* Xoyt Tamir bitigida yana bir o'rinda tilga olinib, unda *tāgin* so'zining epiteti o'laroq ko'zga tashlanadi: "(18) *qara tāgin* (Qora Tegin)".

³ Bitigning tashqi ta'sirlar natijasida zararlangani sababli olimlar va tadqiqotchilar uchun matnlarni sinchkovlik bilan o'rganish imkoniyatini kamaytirishi natijasida uning o'qilishi bo'yicha bir qancha olimlarning turlicha talqinlari mavjud. Biz transkripsion matn bilan tanishgan holda E.Aydin variantini



beshinchi kunida, (2) Besh Baliqqa yetib keldik. (3). Xalqqa yozni Qasuyda o'tkazdirdim va kuzda Toni toshiga (Xoyto-Tamir?) yetib keldim. (4) Men yuragimni olib, buyruq (qo'mondon)". Bitigdagi *qara baš* birikmasining turlicha talqin qilinishi ushbu leksemaning qadimgi turkiy til tizimidagi murakkab semantik qatlamga ega ekanini ko'rsatadi. L.Bazin, D.Klemens nusxalariga tayangan holda *Qarabaš* Sariq daryoning bir irmog'i ekanligini aytadi (Bazin 1991, 218). Uning birikmani geografik atama sifatida, ya'ni joy nomi ma'nosida talqin qilishi matnning ichki konteksti bilan to'liq mos kelmaydi, chunki izohlangan hudud va tarixiy-realiyalar bilan bog'liq dalillar yetarli emas. Aksincha, G.Doerfer, S.Klauson va H.Eren tomonidan ilgari surilgan yondashuv – *qara baš* ning ijtimoiy-status belgilovchi ibora sifatidagi qadimiy shakli ekanligi – til materiallari bilan ko'proq mushtaraklik kasb etadi (Doerfer 1967, 440; Clauson 1972, 643-644; Eren 1999, 211). DLTdagi *qara boš* ning "erkak yoki ayolligidan qat'iy qullarga berilgan nom" deb izohlanishi (DLT III, 240-241)¹ ham ushbu iboraning ijtimoiy tabaqa yoki jamiyatning oddiy qatlamiga nisbatan qo'llanganini tasdiqlaydi.

Shu o'rinda *qara baš* birikmasidagi ikkinchi komponent *baš* ning semantik vazifasiga to'xtalib o'tish to'g'ri bo'ladi. Avvalo aytish kerakki, asl ma'nosi "mavjudotning boshi, anatomik bosh" bo'lgan *baš* leksemasi qadimgi turkiy tilda ma'no kengayishiga uchrashi natijasida qo'shin, qabila va umuman har bir narsaning yuqorisida turgan shaxs yoki narsaga nisbatan ishlatilgan. Mahmud Koshg'ariy ham uni "odamning boshi; umuman olganda, bosh (hayvonlar, o'simliklar, buyumlar va tog') ma'nolarida kelishini qayd etadi (DLT III, 165; I, 365). "Qutadg'u bilig"da *baš* so'zi ham birlamchi ham ko'chma ma'nolarda qo'llangan: "*Biligsiz sözi öz başini yäyür* – nodonning so'zi o'z boshini yeydi" (QBN, 253; QBN, 167); "*Nägü tär äšitgil ay älci başi* – elchilarning boshlig'i nima deydi eshitgin" (QBK, 247¹⁹). J.Klosonga ko'ra, "*baš* so'zining birinchi ma'nosi yuqorida qayd etilgandek, "inson tana a'zosining kalla qismi", ko'chma ma'noda esa "qo'shin boshlig'i yoki qo'mondoni" ma'nosini anglatishga xoslangan (Clauson 1972, 375-376). H.Shirin *baš* ni "bir qabila, qavm, jamoa yoki qo'shin rahbari" ma'nosini ifodalashini qayd etadi" (Şirin 2016, 358). Ushbu fikrlarning isboti o'laroq *baš* turk-run matnlarida asosan "boshliq; qavm yetakchisi" ma'nolarida ishlatilgan. Xususan, "*täjri älimkä başda bägimkä bökmädim* – samoviy davlatimga, yo'l boshchi begimga to'ymadim" (Y, 14/3) gapidagi *baš* leksemasi "yetakchi, boshliq" ma'nolariga ishora qiladi.

oldik, shuningdek, ba'zi o'rinlarda o'z qarashlarimizdan ham foydalandik (*Bu uchun qarang*: Aydin Erhan 2017, 61–68)

¹ *qara* "Devoni lug'otit turk"da yana quyidagi tarkiblarda qo'llanilib, ularga o'z ma'nosini yuklab keladi: "qora rang ma'nosida (*qara*), har bir qora narsa (*qara*), Xoqoniy podsholar ma'nosida (*Böyra qara xaqan*), qirg'iy ma'nosida (*qara quš*), Mushtariy sayyorasi ma'nosida (*Qaraqush*), tuya oyog'ining tag atroflari ma'nosida (*qaraqush*), go'r, qabr ma'nosida (*qara orun*), qullarga berilgan nom ma'nosida (*qarabaš*), zaharli bir o't, maysa ma'nosida (*qara öt*), qoramoy, qorayog' ma'nosida (*qarayay*), joy nomi ma'nosida (*Qarasangir*), bir xil nom ma'nosida (*qara-qura*) keladi" (DLT III, 240-241).



O'rxun-Yenisey bitiglari va QBdagi *sübaşı* – “lashkarboshi, qo'mondon” (To'n, 31; MCh, 48; QBN, 2936; QBN, 2968); *biña başi* – “mingboshi” (MCh, 6), shuningdek, *bäs yüz başi*, *yüz başi*, *är başi* (Tar, 6-8), *iç sü baş* – “xos qo'shinboshi” (Y, 39) kabi harbiy unvon – birikmalar tarkibida “boshlig'i” ma'nosi bilan qo'llangan ushbu leksema tarixiy turkcha matnlarda o'z dennotativ ildizidan uzilmagan holda bir qancha konnotatsiyalarni shakllantirgan. Xuddi shu nuqtayi nazardan (birinchi talqin) *qara baş* komponenti quyi tabaqa vakillarining ichki tuzilmasida mavjud bo'lgan bir turdagi yetakchini, jamoaning o'z ichidagi bosh vakili yoki sardorini bildiruvchi terminni anglatgani holda, mazkur talqin “qara” leksemasining sotsio-terminologik funksiyasi va *baş*ning qadimiy “yetakchi” ma'nosi bilan ham mos kelgandek tuyulishi mumkin. Lekin, *qara baş*'ning bunday ma'nosi Xoyt Tamir (Tayhar-Chuluu) II bitigining umumiy mazmuniga unchalik ham mos tushmaydi.

Ikkinchi talqinimizga ko'ra, Xoyt Tamir II bitigidagi *qara baş* birikmasini tushunishda *baş* leksemasi orqali sinekdoxa — ya'ni qism orqali butunni ifodalash hodisasi yuz berayotgan bo'lishi ehtimoli juda yuqori. Qadimgi turkiy tilda *baş*ning dastlabki ma'nosi “bosh (kalla)” bo'lsa-da, u ilk davrlardanoq ma'no kengayishi asosida nafaqat “rahbar, boshliq”, balki tashkil topgan jamoaning o'zi yoki jamoaga mansub birlikni bildiruvchi umumlashtiruvchi termin sifatida ham qo'llangan. Ko'plab qadimgi siyosiy-lisoniy modellarda bosh – jamoaning ramzi, jamoa esa bosh orqali ifodalangan. Shu sababli *baş* ko'pincha shaxsni emas, balki shaxs orqali jamoani anglatgan sinekdoxik birlik vazifasini bajargan. Shuningdek, Kul Tegin bitigidagi “*başlılıy yūküntürmiş tiziglig sökürmüş* – boshi borni yukuntirgan (boshini egib ta'zim qildirgan)” (KT, 8) jumlasida qo'llangan *başlılıy* derivati ham aslida “boshli jamoa” degan umumlashgan ma'noni anglatadi, bu esa bosh orqali jamoaning o'zi nazarda tutilganini ko'rsatadi. Ana shu semantik va nominativ modelni inobatga olgan holda Xoyt Tamir II bitigidagi *qara baş*ni faqatgina “oddiy xalqning sardori” tarzida tushunish tor yondashuv bo'lib qoladi. Chunki bitigdagi kontekst “*qara başıy yaylatdim*” mazmun jihatidan alohida shaxsga nisbatan emas, balki butun jamoaga nisbatan amalga oshiriladigan harakatni bildiradi. Yozni yuqoriga ko'chirish, yaylovga chiqarish kabi faoliyatlar jamoaviy jarayon bo'lgani sababli, *baş*ni jamoaning o'zi bilan tenglashtirish tabiiy talqin bo'ladi. Bu yerda *baş* “boshliq” emas, balki bosh orqali ifodalangan “xalq”ning o'zini bildiradi. Ya'ni *qara baş* – “qara budun”ning sinonimiy variantidir, qism orqali butunni anglatuvchi sotsio-lisoniy model asosida shakllangan birlikdir.

Qolaversa, so'zning bunday (sinekdoxik) usulda ko'chish hodisasi umumturk-run leksik imkoniyatlari uchun xosdir. Xususan, *til* istilohi ko'k turk yozuvlarida “asir, ma'lumot yig'ish uchun asirga olingan shaxs” ma'nosini ifodalab kelgan. Uni quyidagi misollarda ko'rish mumkin: “*kälmäz ärsär, tiliy sabiy ali olur tädi* – kelmas bo'lsa, til tutib ma'lumot olib tur, dedi” (To'n, 32); “*tiliy kältürdi sabi* – til tutib keltirdi, so'zi” (To'n, 36). A.Donuk (Donuk 1982, 104) hamda A.Gul (Ekrem 2014, 27-103) *til* so'zini



“urushda dushman tomonidagi yangiliklar uchun ushlab turilgan odam, asir va josus” sifatida izohlaydi. Bundan tashqari, Mahmud Koshg‘ariy qayd etgan *qara boš* (“oddiy inson, qul”) birikmasi ham aynan shu semantik mexanizmni tasdiqlaydi: *boš/baš* xususiy belgidan ko‘ra ijtimoiy guruhni bildiruvchi indikator sifatida ishlatilgan. Shu sababli Xoyt Tamir II matnidagi *qara bašni* “oddiy xalq jamoasi”, “avom qatlam” yoki “quyi tabaqa jamoasi” tarzida talqin qilish til materiallariga ham, kontekstga ham, qadimgi turkiy semantik modellari ruhiga ham to‘la mos keladi. Demak, Xoyt Tamir II bitigida uchraydigan *qara baš* iborasi ko‘chmanchi turkiy jamiyatning ichki tuzilishida mavjud bo‘lgan “avom xalq”, “oddiy aholi” yoki “past tabaqa vakillari”ni bildiruvchi termin sifatida talqin qilinishi ilmiy jihatdan eng asosli va kontekstuallik nuqtayi nazaridan eng mos keladigan xulosa bo‘lib chiqadi.

Xulosa. Qadimgi turkiy bitiglarda keng qo‘llangan *qara* leksemasi faqat rang nomi sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-sotsial, etnoleksema va atributiv funksiyalarni bajargan ko‘p qatlamli til birligi sifatida namoyon bo‘lishi manbalarda o‘z aksini topadi. O‘rganilgan manbalar, xususan, Xoyt Tamir – Tayhar Chuluu bitiglarida misolida *qaraning* jamiyatning quyi tabaqalarini belgilovchi sotsionim sifatidagi qo‘llanilishi, qabila va urug‘ nomlariga bog‘langan etnoleksema shuvi hamda ba‘zi shaxs nomlari tarkibida “ulug‘lik”, “qudrat”, “kuch” ma‘nolarini anglatuvchi epitet vazifalari mavjud bo‘lgan. Tayhar-Chuluu bitigidagi *qara baš* birikmasi runik korpusda yagona o‘rin egallashi bilan diqqatga sazovor bo‘lib, tahlil shuni ko‘rsatdiki, mazkur birlikni geografik nom sifatida talqin qilish matn konteksti bilan mos kelmaydi. Aksincha, boshqa runik manbalarda uchraydigan *qara budun*, *qara qamuy budun*, *qara igil budun* kabi birliklar bilan semantik uyg‘unligi *qara bašni* ham aynan jamiyatning oddiy ommasi, ya‘ni avom (xalq)ni bildiruvchi sotsionim sifatida izohlash imkonini beradi. Bu holat dasht turklari jamiyatida “qora” komponentining ijtimoiy tabaqalanish, siyosiy struktura va hokimiyat-subordinatsiya munosabatlarini ifodalovchi barqaror determinativ unsur bo‘lganini tasdiqlaydi.

Izlanishlar ko‘rsatadiki, *qara* leksemasi qadimgi turkiy til tizimida uch asosiy semantik yo‘nalishda faol bo‘lgan: 1) denotativ rang ma‘nosi, 2) ijtimoiy-sotsial konnotativ ma‘no, 3) antroponimik, gidronimik va etnonimik atributiv ma‘no. Ayniqsa, Xoyt Tamir bitigidagi *qara bašning* aniqlanishi til tarixida ilgari qayd etilmagan yangi qatlamni ifodalab, runik matnlar leksikasini yanada boyitadi. Mazkur tadqiqot natijalari qadimgi turk jamiyatining ijtimoiy tuzilmasi, rang-simvolik tafakkuri va etnosotsial terminologiyasi haqida yangi ilmiy xulosalar berib, *qaraning* determinativ funksiyasi turk runik epigrafikasida o‘ziga xos barqaror kategoriya sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Shu tariqa, bitig materiallari asosidagi tahlillar turkiy tilning tarixiy lug‘atini to‘ldirishga va rang asosidagi qadimiy nomlash tizimining lingvokulturologik qirralarini yanada yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т. Ўқитувчи. 1982– Б. 126, 132–133.



2. Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности // Живая старина. 1896. Т. 6. Вып. III–IV. С. 277–456.
3. Aydın Erhan. *Hoyto-Tamir (Tayhar Çuluu) Yazıtlarının Türkçenin Söz Varlığına Katkılari*. Ankara, 2013 – S. 147-152.;
4. Aydın Erhan. Hoyto–Tamir (Tayhar–Çuluu) Yazıtları Türkbilig, 2017/33: 1-14.
5. Azzaya B. Taikhar Çuluu Yazıtı. *Türkbilig* 23, 2012 – S. 61–68.
6. Badam Azzaya (2007), “Tayhar Çuluunu runi biçees”, *Acta Historica Mongolica*, 8/9: 68– 75.
7. Badam Azzaya (2012), “Taikhar Çuluu Yazıtı”, *Türkbilig*, 2012-23: 61–68.
8. Bakır M. M. (2021). Hoíd Tamir yazıtlarının içerik özelliklerine göre tasnifi ve Hoíd Tamir X yazıtı üzerine anlamlandırma denemesi. *Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi*, 10(4), 1271-1281
9. Баттулга Ц. Монголын руни бичгийн бага дурсгалууд. Улаанбаатар. – 2005 (1-2-3)
10. Bayraktar N. Kara ve siyah renk adlarının türkçedeki kavram ve anlam boyutu üzerine. *Dünyada Türkçe Öğretimi 6sempozyumu*. 15-16 Nisan 2004, Ankara. 56-76.
11. Bazin, L. 1991. *Les systèmes chronologiques dans le monde turc ancien*. Budapest: Akadémiai Kiadó. Türkçesi: *Eski Türk Dünyasında Kronoloji Yöntemleri*. Çev.: V. Köken, Ankara, 2011: Türk Dil Kurumu. 218.
12. Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. I-III. – М-Л., 1950
13. Бобоёров. Ғ. Ғарбий Турк хоқонлиги давлат тузуми. – Т.: Янги нашр, 2018. – 381 б.;
14. Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. – СПб., 1903.
15. Clauson G. 1972. *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*. Oxford: Oxford University. 643-644.
16. Дадабаев. Х. Отношения общественно-политических терминов, зафиксированных в старотюркских письменных памятниках // Адабий мерос, 1991. – Б. 76-82.
17. Doerfer G. Türkische und mongolische Elementen in Neupersischen. Aus IV Bd. – Wiesbaden: Franz Steiner Verlag GMBH. – Bd. II. – 1965. – 671 s., Bd. III. – 1967. – 670 s., Bd. IV. 1975. – 640 s.
18. Donuk A. Eski Türk devletlerinde idari-askeri unvan ve terimler. – Istanbul, 1988. – 133 s.
19. DLT – Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит-турк). Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I-III. – Т.: Фан, 1960-1963.
20. Dushmanov M. O'rxun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi. – T.: Lesson Press, 2025. – 178 b.
21. DTS – Древнетюркский словарь. Под ред. В. М. Наделяева, Д.М.Насилова, Э. Р. Тенишева, А. М. Щербака. – Л.: Наука, 1969. – 676 с.
22. Ekrem E. Hsüan-Tsang Seyahetnamesi'ne göre Türkistan. Basılmamış doktora tezi. Hacettepe Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü. – Ankara, 2003. – 295 s.



23. Ekrem G. Babürname'de Geçen Askeri Terimler Üzerine. – Belleten, 2014. – S. 27-103.
24. Gabain A. (von) Vom Sinn symbolischer Farbenbezeichnung // Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hungaricae. 1962. T. XV. Fasc. 1–3. S. 111–117.
25. Gabain A. von. Eski Türkçenin Grameri. Türkçe çev. M. Akalın. – Ankara: TTK, 1988. – S. 44.
26. Golden P. B. Hazar Çalışmaları. Çev. E. Ç. Mızrak. – İstanbul: Selenga, 2006. – S. 133.
27. Golden P. B. Türk Halkları tarihine Giriş. Çev. O. Karatay. – Ankara, 2002. – S. 121.
28. Harmatta J., Litvinsky B. A. Toharistan and Gandhara under Western Turk rule // HCCA. – Paris 1996. – Vol. 3. – P. 367–401.
29. Hasan Eren 1999. *Türk Dilinin Etimolojik Sözlüğü*. Ankara. 211.
30. Kafalı, Mustafa (1996). “Türk Kültüründe Renkler”. Nevruz ve Renkler. Haz. Sadık Tural ve Elmas Kılıç. Ankara: AKM Yay. 49-54.
31. Kaşıkçı O. Eski Türklerde Devlet Başkanlığı – Hakanlık. Türkler. Cilt 2. – Ankara, 2002. – S. 888.
32. Киличов Н. Қадимги туркий тилдаги синоним компонентли жуфт отлар семантикаси («Олтун ёруғ» асари мисолида). 2020. – Б. 41
33. Кляшторный С. Г. Имперский фон древнетюркской цивилизации // Вестник МИЦАИ. – Самарканд, 2008. – Вып. 8. – С. 14–20.
34. Кляшторный С. Г. Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. – СПб.: Наука, 2006. – 591 с.
35. Кононов А. Н., О значении слова «кара» в тюркском языке. Тюркологическая сборник. – Москва, 1965 – С. 78.
36. Кононов А.Н. Семантика цветообозначений в тюркских языках // Тюркологический сборник. 1975. Памяти С.Е. Малова / ред. кол.: А.Н. Кононов (отв. ред.), С.Г. Кляшторный, Ю.А. Петросян, С.С. Цельникер. М.: Наука, 1978. С. 159–179.
37. Крадин Н. Н., Скрынникова Т. Д. Империя Чингис-хана. – М.: Вост. лит., 2006. – С. 132– 133.
38. Лезина И.Н., Суперанская А.В. Ономастика: словарь-справочник тюркских родоплеменных названий: в 2 ч. М.: Ин-т этнологии и антропологии им. Н.Н. Миклухо-Маклая РАН, 1994. Ч. 1–2. 466 с.
39. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности Монголии и Киргизии. М.-Л., 1959. С.46-54.
40. Марков Г. Е. Кочевники Азии. – М.: Изд-во Московского университета, 1976. – С. 47–48.
41. Németh Gy. A honfoglaló Magyarok kialakulása / közzéteszi Á. Berta. Második, bővített és átdolgozott kiadás. Budapest: Akadémiai Kiadó, 1991. 397 ol.
42. Ömer Soner H. “Tegin”, DİA, XL, – İstanbul. 2011. – S. 312.
43. Orhun H.N. Hoytu Tamir yazitlari // Eski Turk Yazitlari, Istanbul, 1939, T-2. s. 105-117.
44. Osman Fikri Sertkaya -Sartkocaullı Harcavbay.Hoyto Tamir (Moğolistan)'dan yeni yazitlar (ön neşir). 313-346.
45. O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: ЎзМЭ, 2007. III. – 687 б.



46. О'XSHL – Ўзбек халқ шевалари луғати. – Т.: Фан. 1971. – 409 б.
47. Пэрлээ Х. Тайхар чулуу // Археологийн судлал. Studio Archaeologica. Tomus I, Fasc 4, Улаанбаатар, 1960, х. 1-26.
48. Pritsak O. «Qara», Studie zur türkischen Rechtssymbolik // 60. Doğum Yıldönümü Münasebetiyle Zeki Velidi Togan Armağan / Symbolae in Honorem Z.V. Togan. İstanbul, 1950–1955. S. 239–363.
49. Pritsak O. Orientierung und Farbsymbolik: Zu den Farben- bezeichnungen in den altaischen Volkernamen // Saeculum. 1954. Bd. 5. S.376–383.
50. Pritsak, 1980:17–18; Golden P. B. Türk Halkları tarihine Giriş... – S. 119.
51. QBH, QBK – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” S. Qohira nusxasi (Dāru’l-kutub va’l-vasāiki’l-kavmiyya tasavvuf turki 168. nr).
52. QBN – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” B. Namangan nusxasi (Farg‘ona) (TDSHI qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo‘lyozmalari markazi 1809).
53. QBV – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” A. Vena nusxasi (Wien, ÖNB, Cod A.F.13).
54. Radloff W. Die Inschriften am Choito-Tamir // Die Alttürkischen Inschriften der Mongolei. Dritte Lieferung Die Denkmäler von Koscho-Zaidam, die übrigen denkmäler des Orkhon bechens und denkmäler im flussgebiete des Jenissei. St.Petersburg, 1895. p. 260-268.
55. Radloff, W. (1895), Die alttürkische Inschriften der Mongolei, St.–Petersburg. 260-268.
56. Ramstedt G. J., Grano J. G. und Pentti Aalto // Journal de la Societe Finno-Ougrienne, Helsingfors, 1958, pp. 62-76.
57. Ritchen B. Les dessins pictographiques et les inscriptions sur les rochers et sur les steles en Mongolie. Corpus Scriptorum Mongolorum Instituti Linguae et Litterarum Academiae Scientiarum Reipublicae Populi Mongolici, Tom. 16, Fasc. 1, Улаанбаатар. 1968, 34-36 т.
58. Saffet Y. Eski Türk Runik Harfli Metinlerdeki Askeri ve Siyasi Terimler ile Unvan Niteleyicilerin Özbek Türkçesindeki İzleri. International Journal of Humanities and Education, 2018 – S. 260-296.
59. Sertkaya, Osman F. – S. Harcavbay (2001), “Hoyto–Tamır (Moğolistan)’dan Yeni Yazıtlar (ön neşir)”, Türk Dili Araştırmaları Yıllığı–Belleten, 2000: 313–346.
60. СИГТЯ – Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Лексика. – М., 2001.
61. Şirin H. Eski Türk Yazıtları Söz Varlığı İncelemesi. TDK yayınları. – Ankara. 2016. – 395 s.
62. Tabaldiyev K, Hermann L., Tişin V., Jeleznyakov B. Kenkol’daki (Talas vadisinin yukari kesimi) yeni run benzeri yazılar. Orta Asya’daki Eski Türk Yazıtları. Ziya Bünyadov Armağanı. Astana: Uluslararası Türk Akademisi / Uluslararası Orta Asya Araştırmaları Enstitüsü, 2023. – 238 sayfa. 176-196.
63. Thomsen V. Inscriptions de l’Orkhon déchiffrées. Helsingfors: Impr. de la Société de littérature finnoise, 1896. 224 p. (Mémoires de la Société Finno-ougrienne. T. V).
64. Togan İ., Kara G., Baysal C. Çin kaynaklarında Türkler. Eski T’ang Tarihi. – Ankara: TTK, 2006.



65. Тимохин Д.М., Тишин В.В. Маркер кара в тюркской этнонимике XII в. // Золотоордынское обозрение. 2024. Т. 12, № 1. С. 8–19.
66. Хирождидова М. (2022) Проблема коннотативного значения прилагательного цвета «черный» и использования в программных целях. Образование и инновационные исследования, №8. 89-92.
67. Yıldırım K. Bozkırın Yitik Çocukları Juan-Juan'lar. – Istanbul: Yeditepe Yayınevi, 2015. – S. 84.
68. Шювен П. О Византийских посольствах к первым тюркским правителям Согда (Проблемы ономастики и топонимики) // ОНУ, 1995. – № 1–3. – С. 34.

Qisqartmalar.

BA – Bilga Atachim bitigi
 BX – Bilga xoqon bitigi
 HO‘AT – Hozirgi o‘zbek adabiy tili
 KT – Kul Tegin bitigi
 MCh – Mo‘yun Cho‘r bitigi
 OY – “Oltun yorug‘”
 sans. – sanskritcha
 To‘n – To‘nyuquq bitigtoshi
 xit. – xitoycha
 Y – Yenisey bitiglari

“ALPOMISH” DOSTONIDA LEKSIK-SEMANTIK GURUHLARNING TAHLILI MASALALARI

SHAXNOZA ASQAROVA

Tadqiqotchi, PhD, TDSHU

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugunning dolzarb masalalaridan – til va madaniyat, ularning o‘zaro munosabatlari, o‘zbek xalqining milliy urf-odat, an‘analarini mujassamlagan nodir asar “Alpomish”ning inglizcha tarjimasidagi takrorlarning lingvomadaniy jihatlari haqida fikr yuritiladi. Noqardosh ikki til orasidagi ko‘prik bo‘lmish tarjimonning bu boradagi qobiliyati, tarjima qiyinchiliklari va ularni bartaraf qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik, takror, so‘zlar raqsi, qiyinchilik, mulohaza.

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные вопросы современности – языка и культуры, их взаимоотношения, лингвокультурные аспекты повторов в английском переводе редкого произведения «Алпомиш», воплощающего национальные обычаи и традиции узбекского народа. Приводятся умения переводчика, являющегося мостом между двумя неродственными языками, а также предложения и рекомендации по трудностям перевода и их устранению.



Ключевые слова: Лингвистика, переводоведение, повтор, танец слов, трудность, рассуждение.

Abstract: This article discusses today's current issues – language and culture, their mutual relations, the linguistic and cultural aspects of the repetitions in the English translation of the rare work “Alpomish”, which embodies the national customs and traditions of the Uzbek people. The ability of the translator, who is a bridge between two unrelated languages, as well as suggestions and recommendations on translation difficulties and their elimination, are given.

Key words: Linguistics, translation studies, repetition, dance of words, difficulty, judgment.

KIRISH. “Alpomish” dostonini turli tillarga o‘g‘irish bilan bog‘liq masalalar hozirgi kunda tarjimashunoslarning diqqat markazida bo‘lib turibdi. Xalq og‘zaki ijodida faol ishtirok etgan stilistik usullardan biri bo‘lgan takror mazkur doston asliyatida ham, tarjimasida ham tadqiqqa muhtojdir. Badiiy asarlarda takroming qo‘llanishini S.D. Nikulinaning tadqiqotida ham ko‘rish mumkin: “Povtor kak yarkoye xudojestvennoye sredstvo i vmeste s tem kak vesma produktivnyy sposob organizatsii slovesnogo materiala my naходим v proizvedeniyax vsekh epox, janrov i vidov iskusstva”¹. Leksik takror – so‘zning ko‘p ma‘noliligida hosil bo‘ladigan so‘z yoki so‘zlar guruhining o‘ziga xos grammatik transformatsiyasini o‘z ichiga olgan holda bilan takror kelishi, grammatik va semantik ma‘noning o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodiga xos matnning semantik, strukturaviy va stilistik o‘zagi bo‘lgan leksik takror badiiy matnning informatsion, funksional va pragmatik imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. I.Yu.Kovalchuk esa takroming leksik jihatlariga ahamiyat bergan: “Povtor takje yavlyayetsya tekststroitelnyim sredstvom v prozaicheskom tekste. On priznayetsya vajnym strukturoobrazuyushim i svyazuyushim faktorom v folklornyx tekstax, v kotoryx on obrazuyet sepevidnyye struktury raznyx tipov, a takje v xudojestvennyx tekstax massovoy kommunikatsii inache nazyvayemyx “paraliteraturnymi”, gde on imeet status kognitivnogo obrazovaniya, vystupayet kak nachalnyy element soznaniya i nadelyayet tekst svyaznostyu”². Yuqorida ta’kidlangan ishlarda takroming leksik xususiyatlariga, badiiy matnlarni yaratishdagi rolga e’tibor berilgan. Ammo takroming aynan o‘zbek badiiy asar matnlarida qo‘llanishi, tarjimada aks etishi, lingvomadaniy so‘zlar ruhiyatini saqlagan holda tarjimada uzatilishi kabi masalalar tadqiqotning yana bir dolzarb tomonini belgilaydi.

¹ Никулина С.Д. Лексический повтор как средство смысловой организации художественного текста. //Филологические науки. Оренбург: 2022. С. 39-45.

Никулина С.Д. Лексический повтор как средство смысловой организации художественного текста. //Филологические науки. Оренбург: 2022. С. 39-45.

² Ковалчук И.Ю. Повтор и его функции в тексте автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук Пятигорск – 2004.



Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tilshunoslik va tarjimashunoslik qo'llaniladigan analiz, sintez, qiyosiy tahlil, germenevtik tahlil kabi metod va usullardan samarali foydalanildi.

MUHOKAMA.

“Alpomish” asl dostonida qo'llangan milliy-madaniy so'zlarni tahlil qilishda ularning takrorlanish faolligini aniqlash uchun quyidagi statistik mezonlarga asoslanildi:

1. Etimologik tahlil – so'zlarning kelib chiqish tarixini o'rganishga qaratilgan bo'lib, “Alpomish” kontekstidagi so'zlarning taraqqiyotini aniqlash, shuningdek, ular qanday rivojlanganligi, qaysi madaniy qatlamlarga ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini beradi. Matnga kiritilgan so'zlar qanday o'zgarishlarga duchor bo'lganini va bu ularning ma'nosiga qanday ta'sir qilganini ko'rish mumkin.

2. Leksik tahlil – so'zlarning tarkibiga, ya'ni morfologik tuzilishiga, mavjud o'zak va affikslardan yangi so'z yasash yo'liga qaratilgan. “Alpomish” dostonining leksikasini tadqiq etish orqali ayrim so'zlar yoki ularning o'zgarib turishi qanchalik tez-tez va qanday shaklda takrorlanishini aniqlangan. Bu leksik tahlil matnning stilistik bo'yqadorligiga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi.

3. Matndagi stilistik-uslubiy tahlil – matndagi milliy-madaniy so'zlarni ajratib ko'rsatish yoki ta'kidlash uchun qo'llaniladigan usullarni qamrab oladi. Bunga ma'lum so'zlarni takrorlash chastotasi, metafora, o'xshatish va boshqa adabiy vositalardan foydalanish kiradi. Tahlil dostonidagi madaniy, hissiy tus berishda qaysi leksik birliklar muhimligini, shuningdek, ulardan matnning uslubiy yaxlitligi va chuqurligini yaratishda qanday foydalanilganligini aniqlashga yordam beradi.

4. Grammatik tahlil – morfologiya, sintaksis va so'z yasalishi kabi grammatik mezonlarga qaratilgan. U grammatik tuzilmalarning milliy-madaniy so'zlarning qo'llanilishiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini beradi. Masalan, tuslanish, kelishik va sintaktik tuzilmalar so'z ma'nolarining takrorlanishi yoki o'zgarishiga qanday ta'sir etishini qamrab oladi.

Umuman olganda, “Alpomish” dostoniga mansub lingvomadaniy so'zlarni tushunish va to'g'ri qo'llash ularning tarixiy-madaniy mazmuni va ma'nosini hisobga olishni taqozo etadi, bu esa matnning asl semantik va emotsional mazmunini samarali yetkazish imkonini beradi. Ushbu dostonidagi lingvomadaniy so'zlarni mahsuldorligini quyidagi misollar orqali ko'rish mumkin: *Alp* so'zi “Alpomish” dostoni asliyatida 690-marta qo'llangan. Bu lingvomadaniy so'zni mahsuldorligi yuqori bo'lgan lingvomadaniy so'zlar qatoriga kiritildi. Shuningdek, *alp* lingvomadaniy so'zining bunday yuqori chastotada qo'llanilishi uning doston poetikasi va g'oyaviy-obrazli tizimida muhim semantik yuklamaga ega ekanini ko'rsatadi. Mazkur leksema faqat jismoniy qudrat va jasoratni ifodalash bilan cheklanib qolmay, balki qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik hamda milliy ideallarni mujassam etuvchi konseptual birlik sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois “alp” so'zining turli kontekstlarda qayta-qayta



takrorlanishi dostonida qahramon obrazini kuchaytirish, epik pafosni oshirish va xalqning qadriyatlar tizimini ifoda etishga xizmat qiladi.

Demak, “Alpomish” dostonidagi lingvomadaniy soʻzlarning mahsuldorligi ularning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham ahamiyatli ekanini tasdiqlaydi. Bunday soʻzlar epik matnning mazmuniy yaxlitligini taʼminlab, milliy madaniyat va tarixiy xotirani avloddan-avlodga yetkazishda muhim vosita vazifasini bajaradi.


Jadval № 1. “Alpomish” asliyatidagi lingvomadaniy soʻzlarning mahsuldordigi

Lingvomadaniy soʻz	Yuqori mahsuldorlik (11+ marta)	Oʻrtacha mahsuldorlik (7-10-marta)	Quyi mahsuldorlik (2-6-marta)
Alp	690-marta		
Biy	128-marta		
Bek	586-marta		
Zakot	54-marta		
Sholi-sholdam			5-marta
Shoh	83-marta		

Yana bir misol, *zakot* soʻzi doston matnida 54-marta ishlatilgan. Ushbu lingvomadaniy soʻzni mahsuldorligi oʻrtacha boʻlgan soʻzlar qatoriga, *sholi-sholdam* lingvomadaniy soʻzi esa eng kam qoʻllangan soʻzlar qatoridan joy olgan boʻlib, atigi 5-marta uchraydi xolos. Shunday ekan mazkur soʻzni mahsuldorlik koʻrsatkichi quyi boʻlgan milliy-madaniy soʻzlar qatoriga kiritildi. Quyidagi jadvalda esa asar asliyatidagi oʻzbek milliy madaniy soʻzlarining inglizcha tarjimada ingliz milliy madaniy soʻzlariga aylantirib amalga oshirilgan tarjimasi berilgan.

NATIJALAR. “Alpomish” dostoning leksik-semantik tahlilini statistika qilishda antroponimlarni, yaʼni kishilarning ism va familiyalarini bildiruvchi soʻzlar xam inobatga olingan. Tahlillardan maʼlum boʻldiki, “Alpomish” ijodida antroponimlar koʻpincha chuqur madaniy-tarixiy jihatlarni yetkazish uchun qoʻllangan. Masalan, tarixiy shaxslar yoki xalq qahramonlari nomini tilga olish asar muhitini yaratishda asosiy omil boʻla oladi.

Toponimlar yoki joy nomlari ham lingvokulturologiyada muhim oʻrin tutadi. “Alpomish” dostonida esa joy nomlari koʻpincha oʻziga xos muhit yaratish va oʻlka haqidagi tarixiy faktlarni yetkazishda asosiy element vazifasini oʻtagan. Nihoyat, oʻzbek adabiyotida hayvonlar nomini bildiruvchi zoonimlar ham oʻziga xos maʼnoga egaligi barchagga maʼlum. “Alpomish” dostonida esa ular xalq madaniyatining ramziy yoki mifologik jihatlarni ifodalashda qoʻllangan.



XULOSA. Lingvomadaniy soʻzlar oʻziga xos madaniy, tarixiy maʼnolar tashuvchisi boʻlib, milliy oʻzlikni anglash va madaniy merosni yetkazishda asosiy oʻrin tutadi. Ularni tahlil qilish nafaqat tilning xususiyatlarini, balki madaniy uzatish va idrok etishning ichki mexanizmlarini ham aniqlash imkonini beradi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, lingvomadaniy soʻzlar xalqning dunyoqarashi, tafakkur tarzi va qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi muhim leksik qatlamni tashkil etadi. Ayniqsa, epik asarlar misolida bunday birliklarning oʻrganilishi milliy maʼnaviyatning shakllanishi, tarixiy xotiraning saqlanishi hamda avlodlar oʻrtasidagi madaniy uzviylikni taʼminlashda ularning roli nechogʻli yuksak ekanini koʻrsatadi. Shu bois lingvomadaniy soʻzlarni kompleks va tizimli tahlil qilish milliy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri boʻlib, u nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:


1. Алпомиш. Тошкент: «Ўқитувчи», 1987. – 335 б.
2. Маʼmurov Q. “Alpomish”. Toshkent: Zeboprint. 2023. 380 b.
3. Никулина С.Д. Лексический повтор как средство смысловой организации художественного текста. //Филологические науки. Оренбург: 2022. С. 39-45.
4. Ковальчук И.Ю. Повтор и его функции в тексте. Автореф. дисс. канд. филол. наук. Пятигорск – 2004.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: Рус тили, 1981. 2 жилд. – Б. 370.
6. Якобсон Р. Избранные работы. М., 1985. – 554 с.



YAPON TILIDA QISMAN INKORNI IFODALOVCHI SINTAKTIK KONSTRUKTSIYALARNING SEMANTIK- FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

NILUFAR TURSUNOVA

Katta o'qituvchi, TDSHU



Annotatsiya. Mazkur maqolada yapon tilida qisman inkorni ifodalovchi sintaktik konstruktsiyalarning semantik-funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda qisman inkor hodisasining nazariy asoslari, inkorning qamrov doirasi hamda semantik markazi masalalari yoritilgan. Tahlil obyekti sifatida yapon tilidagi 「必ずしも～ない」, 「～とは限らない」, 「～わけではない」 va 「～というものではない」 konstruktsiyalari tanlangan. Ushbu birliklarning semantik tuzilishi, inkor qilinayotgan komponenti va kommunikativ vazifalari funksional-semantik yondashuv asosida o'rganilgan. Tadqiqot davomida tavsifiy, semantik, kontekstual va funksional tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijada qisman inkor konstruktsiyalarida inkor voqelikning o'ziga emas, balki hukm tarkibidagi universallik, muqarrarlik, umumlashtirish va baholash kabi semantik komponentlarga qaratilishi aniqlandi. Konstruktsiyalarning funksional-semantik tasnifi ishlab chiqilib, ularning umumlashtirishni cheklash, ehtimollikni ifodalash, kategoriklikni yumshatish va argumentativ baholash kabi funksiyalari tizimlashtirildi. Olingan natijalar yapon tili semantikasi va funksional grammatikasi bo'yicha tadqiqotlarni rivojlantirishda nazariy ahamiyat kasb etadi.

Аннотация. В статье рассматриваются семантико-функциональные особенности синтаксических конструкций, выражающих частичное отрицание в японском языке. Освещаются теоретические основы категории частичного отрицания, проблемы сферы действия отрицания и его семантического центра. Объектом анализа выступают конструкции 「必ずしも～ない」, 「～とは限らない」, 「～わけではない」 и 「～というものではない」. Их семантическая структура, объект отрицания и коммуникативные функции исследуются на основе функционально-семантического подхода. В работе использованы описательный, семантический, контекстуальный и функциональный методы анализа. Установлено, что в конструкциях частичного отрицания отрицание направлено не на сам факт или событие, а на такие семантические компоненты высказывания, как универсальность, обязательность, обобщение и оценка. В результате исследования разработана функционально-семантическая классификация данных конструкций и систематизированы их основные функции: ограничение обобщения, выражение вероятности, смягчение категоричности и аргументативная оценка. Полученные результаты могут служить теоретической основой для дальнейших исследований японской семантики, прагматики и функциональной грамматики.



Abstract. This article examines the semantic and functional characteristics of syntactic constructions expressing partial negation in the Japanese language. The study discusses the theoretical foundations of partial negation, the scope of negation, and the concept of the semantic center of negative constructions. The analysis focuses on the Japanese constructions 「必ずしも～ない」, 「～とは限らない」, 「～わけではない」, and 「～というものではない」. Their semantic structure, target of negation, and communicative functions are investigated within the framework of a functional-semantic approach. Descriptive, semantic, contextual, and functional methods of analysis were employed. The findings reveal that partial negation does not deny the existence of an event or situation itself; rather, it targets semantic components such as universality, inevitability, generalization, and evaluation. As a result, a functional-semantic classification of the analyzed constructions was developed, and their principal functions were identified, including limiting generalization, expressing probability, reducing categorical judgments, and providing argumentative evaluation. The results contribute to a deeper understanding of Japanese semantics and functional grammar and may serve as a theoretical basis for further studies of negation and its communicative functions in Japanese.

Kalit so‘zlar: qisman inkor, inkor qamrovi, semantik markaz, sintaktik konstruktsiya, yapon tili, funksional semantika

Kirish

Inkor kategoriyasi tilning universal semantik kategoriyalaridan biri bo‘lib, voqelik haqidagi hukmning tasdiq yoki inkor shaklida ifodalanishini ta’minlaydi. Biroq zamonaviy tilshunoslikda inkor faqat mavjudlikni rad etuvchi grammatik vosita sifatida emas, balki hukmning semantik tuzilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Manbalarda keltirilishicha, inkor har doim ham voqea yoki holatning mavjud emasligini bildirmaydi. Ayrim hollarda uning ta’siri hukm tarkibidagi universallik, muqarrarlik yoki umumlashtirish kabi semantik komponentlarga qaratiladi. Natijada to‘liq inkordan farq qiluvchi qisman inkor hodisasi yuzaga keladi.

Inkorning semantik tabiati jahon tilshunosligida turli nazariy yo‘nalishlar doirasida tadqiq etilgan. O.Jespersen inkorning hukm tarkibidagi qamrov doirasiga e’tibor qaratgan bo‘lsa, L.Horn uning gradatsion xarakterini asoslab bergan [1; 2]. Keyinchalik M.Miestamo tipologik tadqiqotlar asosida inkorning turli tillardagi ifodalanish usullarini qiyosiy jihatdan tavsiflagan [3]. Mazkur yondashuvlar inkorni faqat formal grammatik hodisa sifatida emas, balki murakkab semantik tizim sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Rus tilshunosligida E.V.Paducheva inkorni presuppozitsiya va referentsiya bilan bog‘liq holda izohlab, ayrim inkor shakllarida voqeaning o‘zi emas, balki u haqdagi taxmin yoki umumlashtirish rad etilishini ko‘rsatadi [4]. A.V.Bondarkoning funksional-semantik maydon nazariyasi esa grammatik ma’nolarning alohida shakllar emas, balki o‘zaro bog‘langan vositalar tizimi orqali



namoyon bo'lishini asoslaydi [5]. Ushbu nazariy qarashlar qisman inkor hodisasini tahlil qilish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Yapon tilshunosligida inkor kategoriyasi Teramura Hideo, Masuoka Takashi, Morita Yoshiyuki, Nitta Yoshio va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan [6–10]. Ularning tadqiqotlarida inkorning grammatik ifodalanish vositalari, modallik bilan munosabati hamda sintaktik xususiyatlari tavsiflangan. Shunga qaramay, qisman inkorni ifodalovchi konstruktsiyalar ko'pincha umumiy inkor tizimi tarkibida ko'rib chiqilgan bo'lib, ularning semantik markazi, inkorning qamrov doirasi va funksional differensiasiyasi alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Xususan, 「必ずしも～ない」, 「～とは限らない」, 「～わけではない」 va 「～というものではない」 kabi konstruktsiyalar yapon tilida faol qo'llanilishiga qaramay, ularning o'zaro semantik chegaralari hamda kommunikativ vazifalari tizimli ravishda tavsiflanmagan. Mavjud tadqiqotlarning aksariyatida ushbu birliklar grammatik model sifatida izohlangan bo'lsa-da, qisman inkor maydonidagi ichki munosabatlar va funksional farqlar yetarli darajada ochib berilmagan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi yapon tilida qisman inkorni ifodalovchi sintaktik konstruktsiyalarning semantik-funksional xususiyatlarini aniqlash hamda ularni funksional vazifalariga ko'ra tasniflashdan iborat. Tadqiqot davomida tavsifiy, semantik, kontekstual va funksional tahlil metodlaridan foydalanildi. Material sifatida zamonaviy yapon tilshunosligiga oid ilmiy manbalar hamda badiiy asarlardan olingan misollar xizmat qildi.

Qisman inkorning nazariy asoslari. Inkori hodisasi tilshunoslikda uzoq vaqt davomida tasdiqning qarama-qarshi shakli sifatida talqin qilinib kelgan. Biroq semantik tadqiqotlarning rivojlanishi inkorning mazmuniy imkoniyatlari bundan ancha murakkab ekanligini ko'rsatdi. Til materiallari tahlili shuni ko'rsatadiki, inkor har doim ham voqea yoki holatning mavjud emasligini bildirmaydi. Ayrim hollarda uning ta'siri hukm tarkibidagi ma'lum semantik komponentlarga qaratiladi. Natijada voqelikning o'zi saqlanib qolgan holda, unga berilgan baho yoki umumlashtirish qayta ko'rib chiqiladi. Aynan shu holat qisman inkor hodisasining shakllanishiga asos yaratadi. Qisman inkorni tushunishda inkorning qamrov doirasi masalasi muhim ahamiyatga ega. Jespersen inkorning semantik natijasi uning qaysi elementga qaratilganligi bilan belgilanishini ta'kidlaydi [1, 52-b.]. Agar inkor butun hukmga ta'sir qilsa, to'liq inkor yuzaga keladi. Biroq inkor hukmning alohida tarkibiy qismiga qaratilganda boshqacha semantik natija hosil bo'ladi. Bu holatda voqea inkor qilinmaydi, balki voqea haqidagi umumlashtirish yoki taxmin cheklanadi.

Keyinchalik Horn ushbu qarashni rivojlantirib, inkorning gradatsion xarakterga ega ekanligini asoslaydi [2, 286-b.]. Uning fikricha, tasdiq va inkor o'rtasida qat'iy chegara mavjud emas. Ayrim inkor shakllari hukmni mutlaq rad



etsa, ayrimlari tasdiq va inkor oralig'ida joylashgan semantik hududni shakllantiradi. Qisman inkor konstruktsiyalarining aksariyati aynan shu oraliq semantik maydonga mansub bo'lib, ularda hukmning asosiy mazmuni saqlanadi, biroq uning amal qilish chegaralari qayta belgilanadi.

Qisman inkorning semantik mexanizmini tushuntirishda presuppozitsiya nazariyasi ham muhim o'rin tutadi. Paduchevaning qayd etishicha, ayrim inkor shakllarida voqeaning o'zi emas, balki voqea haqidagi taxmin yoki umumlashtirish rad etiladi [4, 114-b.]. Masalan, "hamma talabalar topshiriqni bajardi" degan hukmga qisman inkor qo'llanganda topshiriqning bajarilgani emas, uning barcha talabalar tomonidan bajarilgani haqidagi tasavvur inkor qilinadi. Demak, inkorning qamrovi voqelikning o'ziga emas, hukmning semantik tarkibidagi muayyan komponentga qaratiladi.

Bondarkoning funksional-semantik maydon nazariyasi qisman inkorni alohida grammatik shakl sifatida emas, balki ma'lum semantik vazifani bajaruvchi vositalar tizimi sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi [5, 37-b.]. Mazkur yondashuvga ko'ra, grammatik ma'no birgina konstruktsiya orqali emas, balki o'zaro bog'langan shakllar majmuasi orqali ifodalanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, yapon tilidagi qisman inkor ham yagona grammatik model bilan emas, balki turli sintaktik konstruktsiyalar orqali namoyon bo'luvchi semantik-funksional maydon sifatida talqin qilinishi mumkin.

Yapon tilshunosligida qisman inkor odatda 部分否定 *Bubun hitei* termini bilan izohlanadi. Teramura qisman inkorning yuzaga kelishini universallik bildiruvchi birliklar va inkor shakllarining o'zaro munosabati bilan bog'laydi [6, 214-b.]. Uning fikricha, bunday hollarda inkor voqeaning mavjudligiga emas, balki uning barcha holatlarga birdek tatbiq etilishiga qaratiladi. Masuoka ham qisman inkorni hukmning qo'llanish doirasini chegaralovchi vosita sifatida tavsiflaydi [8, 176-b.]. Yapon tilidagi 「必ずしも～ない」 *kanarazushimonai*, 「～とは限らない」 *towakagiranai*, 「～わけではない」 *wakedewanai* va 「～というものではない」 *toiumonodewanai* konstruktsiyalari aynan shu semantik mexanizm asosida shakllanadi. Ularning barchasida inkor voqelikni rad etish vazifasini emas, balki hukmning mutlaq xarakterini cheklash vazifasini bajaradi. Biroq bu cheklash turli konstruktsiyalarda turlicha amalga oshadi. Ayrim hollarda universallik inkor qilinsa, boshqa hollarda muqarrarlik, umumlashtirish yoki baholash mezoni cheklanadi.

Shunday qilib, qisman inkor to'liq inkorning zaiflashgan shakli emas, balki mustaqil semantik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Uning asosiy vazifasi hukmning amal qilish chegaralarini qayta belgilash, umumlashtirishni cheklash va voqelikning murakkabligini aniqroq aks ettirishdan iborat. Aynan shu jihat yapon tilidagi qisman inkor konstruktsiyalarini alohida tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.



Yapon tilida qisman inkorni ifodalovchi eng tipik modellardan biri 「必ずしも～ない」 *kanarazushimonai* konstruksiyasi hisoblanadi. Ushbu modelning semantik markazini universallikning inkor qilinishi tashkil etadi. Boshqacha aytganda, inkor voqea yoki holatning mavjudligiga emas, uning barcha vaziyatlarda bir xil darajada amal qilishi haqidagi tasavvurga qaratiladi. Teramuraning ta'kidlashicha, 「必ずしも」 *kanarazushimo* elementi hukm tarkibida umumlashtirish va istisnosizlik ma'nosini yuzaga keltiradi, inkor esa aynan shu komponentning amal qilish doirasini cheklaydi [6, 214-b.]. Shu sababli konstruksiya natijasida to'liq inkor emas, balki cheklangan tasdiq ma'nosi hosil bo'ladi.

Masalan:

人は必ずしも自分の思うようには生きられない。

Hito wa kanarazushimo jibun no omou yō ni wa ikirarenai.

(*Inson har doim ham o'zi o'ylaganidek yashay olmaydi.*)

(Morita, 1989, 412-b.)

Ushbu jumlada insonning o'z istagiga ko'ra yashashi inkor qilinmayapti. Inkorning qamrov doirasi bunday holatning doimiy va universal xarakteriga qaratilgan. Natijada "inson o'z istagiga ko'ra yashay olmaydi" degan qat'iy hukm emas, balki "har doim ham yashay olmaydi" degan ma'no yuzaga keladi.

Semantik nuqtayi nazardan qaralganda, ushbu konstruksiyada ikki qatlam kuzatiladi. Birinchi qatlam voqeaning mavjudligini saqlab qoladi, ikkinchi qatlam esa ushbu voqeaning umumlashtirilgan talqinini cheklaydi. Aynan shu xususiyat uni to'liq inkordan ajratib turadi. Paducheva tomonidan tavsiflangan presuppozitsion inkor nuqtayi nazaridan qaralganda ham konstruksiyaning asosiy obyekti voqelik emas, balki voqelik haqidagi umumlashtirilgan tasavvurdir [4, 114-b.]. Shuning uchun 「必ずしも～ない」 *kanarazushimonai* konstruksiyasi ko'pincha kategorik hukmlarni yumshatish vositasi sifatida qo'llanadi. Ilmiy matnlarda mazkur konstruksiyaning qo'llanish chastotasi ayniqsa yuqori. Bunga sabab ilmiy xulosalarning odatda mutlaq xarakterga ega bo'lmasligidir.

Masalan:

この結果は必ずしもすべての事例に当てはまるわけではない。

Kono kekka wa kanarazushimo subete no jirei ni atehamaru wake de wa nai.

(*Bu natija har doim ham barcha holatlarga tatbiq etilavermaydi.*)

Bu yerda tadqiqot natijasi rad etilmayapti. Inkor faqat uning universalligiga qaratilgan. Natijada xulosaning amal qilish chegaralari belgilab beriladi.

Shunday qilib, 「必ずしも～ない」 *kanarazushimonai* konstruksiyasining asosiy semantik vazifasi universallik semasini cheklash orqali hukmning qo'llanish doirasini toraytirishdan iboratdir. Bu xususiyat uni yapon tilidagi qisman inkorning markaziy modellaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.



Yapon tilida qisman inkorni ifodalovchi konstruktsiyalar orasida 「～とは限らない」 *towakagiranai* modeli alohida o‘rin egallaydi. Ushbu konstruktsiya grammatik jihatdan inkor shakli hisoblangan bo‘lsa-da, uning semantik vazifasi voqeaning mavjudligini rad etish bilan bog‘liq emas. Inkorning ta‘siri hukm tarkibidagi muqarrarlik yoki istisnosizlik ma‘nosiga qaratiladi. Shu sababli mazkur model natijasida ehtimollik va alternativlik maydoni yuzaga keladi. Teramura ushbu konstruktsiyani umumlashtirilgan hukmning amal qilish chegaralarini belgilovchi vositalardan biri sifatida tavsiflaydi [6, 228-b.]. Uning fikricha, 「限る」 *kagiru* fe‘lining semantikasi hukmni ma‘lum doira bilan chegaralashga asoslangan bo‘lib, inkor shakli qo‘llanganda ushbu chegaraning mutlaq emasligi ifodalanadi. Natijada hukmning yagona va muqarrar talqini bekor qilinadi.

Masalan:

日本人が皆寿司を好きだとは限らない。

Nihonjin ga mina sushi o suki da to wa kagiranai.

(*Hamma yaponlar ham sushini yaxshi ko‘radi, deb bo‘lmaydi.*)

Bu jumlada sushi sevuvchi yaponlarning mavjudligi inkor qilinmayapti. Inkorning qamrov doirasi "barcha yaponlar sushini sevadi" degan umumlashtirilgan hukmga qaratilgan. Shu tariqa hukmning universalligi zaiflashtiriladi va istisno mavjudligi ehtimoli yuzaga keladi. Semantik nuqtayi nazardan qaralganda, ushbu konstruktsiyada inkorning obyekti voqelik emas, balki voqelik haqidagi taxmindir. Paducheva qayd etganidek, bunday hollarda inkor referensial mazmunga emas, presuppozitsion qatlamga ta‘sir ko‘rsatadi [4, 118-b.]. Shuning uchun konstruktsiya natijasida voqea saqlanib qoladi, biroq uning muqarrarligi rad etiladi. Bu holat kelajak bilan bog‘liq vaziyatlarda yanada aniqroq namoyon bo‘ladi:

明日雨が降るとは限らない。

Ashita ame ga furu to wa kagiranai.

(*Ertaga albatta yomg‘ir yog‘adi, degan gap emas*)

Ushbu gapda yomg‘ir yog‘masligi tasdiqlanmayapti. So‘zlovchi faqat yomg‘ir yog‘ishi muqarrar ekanligi haqidagi tasavvurni inkor qilmoqda. Natijada ikkita ehtimol — yomg‘ir yog‘ishi va yog‘masligi — bir vaqtning o‘zida saqlanib qoladi.

Horning gradatsion inkor nazariyasiga ko‘ra, bunday birliklar tasdiq va inkor o‘rtasidagi oraliq semantik hududni shakllantiradi [2, 301-b.]. Chunki hukm to‘liq tasdiqlanmaydi, biroq to‘liq rad ham etilmaydi. Mazkur konstruktsiyaning asosiy kommunikativ vazifasi ham aynan shu bilan bog‘liq. U orqali so‘zlovchi muayyan fikrni ehtiyotkorlik bilan ifodalaydi va kategorik xulosadan qochadi. Ilmiy va publitsistik matnlarda 「～とは限らない」 *towakagiranai* modeli keng qo‘llanadi. Buning sababi ilmiy bilish jarayonining ehtimollik xarakteriga ega



ekanligidadir. Tadqiqot natijalari yoki prognozlar ko‘pincha mutlaq emas, balki ma’lum shartlar bilan cheklangan bo‘ladi.

Masalan:

高い学力が必ずしも高い創造性につながるとは限らない。

Takai gakuryoku ga kanarazushimo takai sōzōsei ni tsunagaru to wa kagiranai.

(Yuqori o‘quv ko‘rsatkichlari yuqori ijodiy salohiyat bilan doimo bog‘lanavermaydi.)

Mazkur jumlada bilim va ijodkorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik inkor qilinmayapti. Inkorning qamrov doirasi ushbu bog‘liqlikning doimiy va muqarrar ekanligi haqidagi qarashga qaratilgan. Shu tariqa muallif o‘z fikrining qo‘llanish chegaralarini belgilab beradi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, 「～とは限らない」 konstruktsiyasi qisman inkorning boshqa modellaridan avvalo muqarrarlik semasining inkori bilan farqlanadi. Agar 「必ずしも～ない」 *kanarazushimonai* universallikni cheklasa, 「～とは限らない」 *towakagiranai* ehtimollik maydonini shakllantiradi. Shu sababli u yapon tilidagi qisman inkor tizimida alohida funksional mavqega ega.

Yapon tilida qisman inkorni ifodalovchi vositalar orasida 「～わけではない」 *wakedewanai* konstruktsiyasi semantik murakkabligi bilan ajralib turadi. Ushbu modelda inkorning obyekti voqea yoki holatning o‘zi emas, balki undan chiqarilgan umumlashtirilgan xulosa hisoblanadi. Shu sababli mazkur konstruktsiya ko‘pincha noto‘g‘ri umumlashtirishni cheklash yoki kategorik bahoni yumshatish vazifasini bajaradi. Yapon tilshunosligida 「わけ」 *wake* birligi sabab, asos yoki mantiqiy xulosani ifodalovchi semantik element sifatida tavsiflanadi. Teramuraning qayd etishicha, 「～わけではない」 *wakedewanai* shakli voqelikni emas, balki voqelik asosida hosil qilingan xulosani inkor qiladi [6, 241-b.]. Natijada hukmning mazmuni saqlanib qoladi, biroq undan kelib chiqadigan umumlashtirilgan talqin rad etiladi.

Masalan:

日本文化が嫌いなわけではない。

Nihon bunka ga kirai na wake de wa nai.

(Yapon madaniyatini yomon ko‘raman, deb bo‘lmaydi)

Ushbu jumlada so‘zlovchining yapon madaniyatiga bo‘lgan munosabati to‘liq salbiy emasligi ifodalanadi. Biroq bundan yapon madaniyatiga kuchli ijobiy munosabat mavjud degan xulosa ham kelib chiqmaydi. Konstruktsiya aynan shu ikki qutb o‘rtasidagi semantik hududni shakllantiradi. Semantik nuqtayi nazardan qaralganda, inkorning qamrov doirasi “yapon madaniyatini yoqtirmaydi” degan hukmga emas, balki ushbu hukmdan kelib chiqadigan umumiy bahoga qaratilgan. Natijada hukmning kategorikligi kamayadi va oraliq pozitsiya yuzaga keladi.



Paducheva bunday holatlarni presuppozitsion inkorning alohida ko‘rinishi sifatida baholaydi [4, 121-b.]. Chunki inkor voqelikka emas, voqelik haqidagi interpretatsiyaga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli konstruktsiyaning semantik markazi voqea emas, balki voqeaning talqinida namoyon bo‘ladi.

Murakami Harukining “Noruwei no mori” romanida quyidagi jumla uchraydi:

これが一生つづくわけじゃないんだ。

Kore ga isshō tsuzuku wake ja nai n da.

(*Bu holat abadiy davom etmaydi.*)

Ushbu misolda mavjud vaziyatning o‘zi inkor qilinmayapti. Inkorning ta’siri ushbu vaziyatning umrbod davom etishi haqidagi xulosaga qaratilgan. Shu tariqa voqelik saqlanib qoladi, biroq uning mutlaq davomiyligi rad etiladi. Bu yerda inkorning semantik qamrovi ayniqsa yaqqol ko‘rinadi. Agar oddiy inkor qo‘llanganida vaziyatning o‘zi rad etilgan bo‘lardi. 「～わけではない」 *wakedewanai* konstruktsiyasi esa vaziyatning mavjudligini tan olgan holda, undan chiqarilgan umumlashtirilgan xulosani cheklaydi. Mazkur xususiyat tufayli ushbu model kundalik muloqotda ham juda faol qo‘llanadi. Yapon kommunikativ madaniyatida keskin rad etishdan qochish tendensiyasi mavjud bo‘lib, 「～わけではない」 *wakedewanai* konstruktsiyasi ana shu ehtiyojni qondiruvchi vositalardan biri sifatida xizmat qiladi.

Masalan:

お金が大切ではないわけではない。

Okane ga taisetsu de wa nai wake de wa nai.

(*Pulning ahamiyati yo‘q, deb bo‘lmaydi.*)

Bu gapda pulning ahamiyati inkor qilinmayapti. Biroq pulning yagona yoki mutlaq qadriyat ekanligi ham tasdiqlanmaydi. Natijada baholashning nisbiy xarakteri yuzaga keladi.

Bondarkoning funksional-semantik maydon nazariyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, ushbu konstruktsiya inkor va baholash maydonlarining kesishish nuqtasida joylashadi [5, 42-b.]. Chunki uning vazifasi voqelikni rad etish emas, balki hukmning baholovchi komponentini qayta tashkil etishdan iborat. Shunday qilib, 「～わけではない」 *wakedewanai* konstruktsiyasi yapon tilidagi qisman inkorning eng mahsuldor modellaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy semantik vazifasi umumlashtirilgan xulosani cheklash, kategoriklikni kamaytirish va baholashning nisbiy xarakterini ifodalashdan iboratdir. Aynan shu xususiyat uni 「必ずしも～ない」 *kanarazushimonai* va 「～とは限らない」 *towakagiranai* konstruktsiyalaridan ajratib turadi.

Shuningdek yapon tilida qisman inkorni ifodalovchi konstruktsiyalar orasida 「～というものではない」 *toiumonodewanai* modeli alohida semantik xususiyatlarga ega. Ushbu konstruktsiyada inkorning ta’siri voqeaning



mavjudligiga emas, balki voqea yoki hodisaga nisbatan shakllangan mutlaq baholash mezoniga qaratiladi. Shu sababli bu model qisman inkorning argumentativ va baholovchi funksiyalari eng yaqqol namoyon bo'ladigan vositalardan biri hisoblanadi. Yapon tilshunosligida ushbu konstruktsiya ko'pincha stereotip qarashlar, umumiy qabul qilingan tasavvurlar yoki me'yoriy baholashlarni qayta ko'rib chiqish vositasi sifatida tavsiflanadi. Masuokaning ta'kidlashicha, 「～というものではない」 *toiumonodewanai* shakli hukmning mutlaq amal qilishini inkor qiladi va muayyan hodisani baholashda boshqa omillar ham mavjudligini ko'rsatadi [8, 183-b.]. Natijada voqelikning murakkabligi va ko'p qirraliligi ifodalanadi.

Masalan:

お金があれば幸せになれるというものではない。

Okane ga areba shiawase ni nareru to iu mono de wa nai.

(Pul borligi har doim ham baxt keltiradi, deb bo'lmaydi)

Jumlada pul va baxt o'rtasidagi bog'liqlik inkor qilinmayapti. Haqiqatan ham moliyaviy farovonlik inson hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq inkorning qamrov doirasi "baxt faqat pul orqali belgilanadi" degan mutlaq mezonga qaratilgan. Shu tariqa hukmning universalligi cheklanadi va alternativ omillarning mavjudligi e'tirof etiladi. Semantik nuqtayi nazardan qaralganda, ushbu konstruktsiyada inkorning obyekti voqelik emas, balki voqelik haqidagi me'yoriy xulosadir. Bu jihatdan u 「～わけではない」 *wakedewanai* konstruktsiyasiga yaqin turadi. Biroq agar 「～わけではない」 umumlashtirilgan xulosani cheklasa, 「～というものではない」 *toiumonodewanai* baholash mezonining mutlaq xarakterini inkor qiladi. Shu sababli uning argumentativ salohiyati yuqoriroq hisoblanadi.

Morita ham ushbu konstruktsiyani baholash va mulohaza bildirish bilan bog'liq sintaktik modellardan biri sifatida ko'rsatadi [15, 527-b.]. Uning fikricha, mazkur model orqali so'zlovchi qarama-qarshi fikrni to'liq rad etmaydi, balki uning qo'llanish chegaralarini ko'rsatadi. Natijada dialogik va argumentativ munosabat yuzaga keladi.

Quyidagi misolda ham shu holat kuzatiladi:

学歴が高ければ優れた人間だというものではない。

Gakureki ga takakereba sugureta ningen da to iu mono de wa nai.

(Faqat ta'lim darajasiga qarab insonning qadrini baholab bo'lmaydi)

Ushbu gapda yuqori ma'lumotning ahamiyati inkor qilinmayapti. Inkorning ta'siri "yuqori ma'lumot insonning barcha sifatlarini belgilaydi" degan stereotip tasavvurga qaratilgan. Natijada baholashning nisbiy xarakteri yuzaga chiqadi.

Hornning gradatsion inkor nazariyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, mazkur konstruktsiya tasdiq va inkor o'rtasidagi murakkab semantik maydonni hosil qiladi [2, 308-b.]. Chunki hukmning bir qismi saqlanib qoladi, boshqa qismi esa



cheklanadi. Shu tariqa konstruktsiya voqelikning ko'p variantli talqinini yuzaga keltiradi. Mazkur model ilmiy va publitsistik matnlarda ham faol qo'llanadi. Buning sababi ilmiy tafakkurda mutlaq hukmlardan qochish tamoyilining mavjudligidir. Tadqiqot natijalarini baholashda yoki muayyan nazariy qarashlarni tahlil qilishda mualliflar ko'pincha aynan shu konstruktsiya yordamida o'z pozitsiyalarini ifodalaydilar.

Masalan:

言語の変化は外的要因だけによって説明できるというものではない。

Gengo no henka wa gaiteki yōin dake ni yotte setsume dekiru to iu mono de wa nai.

(*Til o'zgarishlarini faqat tashqi omillarga bog'lab qo'yish to'g'ri emas.*)

Bu yerda til o'zgarishlarida tashqi omillarning roli inkor qilinmaydi. Biroq ularning yagona omil sifatida talqin qilinishi rad etiladi. Shu tariqa ilmiy argumentatsiya kuchayadi va hodisaga kompleks yondashuv zarurligi ko'rsatiladi.

Shunday qilib, 「～というものではない」 toiumonodewanai konstruktsiyasi qisman inkorning baholovchi va argumentativ funksiyalarini amalga oshiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Uning asosiy semantik vazifasi mutlaq baholash mezonlarini cheklash, stereotip tasavvurlarni qayta ko'rib chiqish va voqelikning ko'p qirrali xarakterini ifodalashdan iboratdir. Aynan shu jihat mazkur konstruktsiyani yapon tilidagi qisman inkor tizimining o'ziga xos elementi sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Qisman inkorni ifodalovchi konstruktsiyalarning semantik tabiatini tushuntirishda inkor qamrovi tushunchasi markaziy o'rin egallaydi. Tahlil qilingan materiallar shuni ko'rsatadiki, qisman inkor birliklarida inkorning ta'siri voqeaning o'ziga emas, balki hukm tarkibidagi muayyan semantik komponentga qaratiladi. Aynan shu jihat ularni to'liq inkordan ajratib turadi. Jespersen inkorning semantik natijasi uning qaysi unsurga qaratilganligi bilan belgilanishini ta'kidlagan [1, 52-b.]. Yapon tilidagi qisman inkor konstruktsiyalarida ham ushbu qonuniyat kuzatiladi. Masalan, 「必ずしも～ない」 *kanarazushimo nai* konstruktsiyasida universallik, 「～とは限らない」 *towakagiranai* modelida muqarrarlik, 「～わけではない」 *wakedewanai* shaklida umumlashtirilgan xulosa, 「～というものではない」 *toiumonodewanai* konstruktsiyasida esa baholash mezoni inkorning asosiy obyekti sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli qisman inkor konstruktsiyalarining umumiy semantik modeli quyidagicha ifodalanishi mumkin:

Voqelik → Baholash yoki umumlashtirish → Inkor

Sxemada inkor voqelikka emas, balki voqelik asosida shakllangan ikkilamchi semantik qatlamga qaratiladi. Shu jihatdan qisman inkor presuppozitsion inkorning alohida ko'rinishi sifatida baholanishi mumkin.



Qisman inkorning semantik markazlari. Tahlillar qisman inkor konstruktsiyalarining semantik markazi bir xil emasligini ko'rsatadi. 「必ずしも～ない」 konstruktsiyasida semantik markaz universallik bilan bog'liq. Ushbu modelda inkor “hamma hollarda”, “doimo”, “istisnosiz” kabi ma'nolarni cheklaydi. Natijada hukmning qo'llanish doirasi torayadi.

「～とは限らない」 konstruktsiyasida markaz muqarrarlik semasi bilan bog'liq. Inkor natijasida voqea saqlanib qoladi, biroq uning yagona ehtimol sifatida talqin qilinishi rad etiladi. Shu sababli ehtimollik maydoni yuzaga keladi.

「～わけではない」 konstruktsiyasida esa umumlashtirilgan xulosa inkor qilinadi. Ushbu modelning asosiy vazifasi noto'g'ri yoki ortiqcha umumlashtirishlarni cheklashdan iborat.

「～というものではない」 konstruktsiyasida baholash mezoni semantik markaz sifatida namoyon bo'ladi. Bunda inkor muayyan qadriyat yoki stereotipning mutlaq xarakterini rad etadi.

Demak, qisman inkor konstruktsiyalarining semantik farqlari ularning inkor qamrovi qaysi komponentga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Qisman inkorning kommunikativ funksiyalari. Yapon tilidagi qisman inkor konstruktsiyalarining faol qo'llanishi faqat grammatik omillar bilan emas, balki kommunikativ ehtiyojlar bilan ham bog'liq. Yapon kommunikativ madaniyatida keskin va kategorik hukmlardan qochish tendensiyasi mavjud. Shu sababli so'zlovchi ko'pincha fikrni mutlaq tasdiq yoki mutlaq inkor shaklida emas, balki oraliq pozitsiya orqali ifodalashga intiladi.

Masalan:

日本文化が嫌いなわけではない。

Nihon bunka ga kirai na wake de wa nai.

(Yapon madaniyatini yomon ko'raman degani emas)

Mazkur jumlada rad etish mavjud bo'lsa-da, u qarama-qarshi pozitsiyani keskin inkor qilishga qaratilmagan. Aksincha, muloqotdagi muvozanatni saqlash vazifasini bajaradi.

Shu jihatdan qisman inkor konstruktsiyalari kommunikativ yumshatish, ehtiyotkor baholash, dialogik moslashuv, qarama-qarshilikni kamaytirish kabi funksiyalarni bajaradi. Ushbu holat yapon tilidagi inkor tizimining pragmatik jihatdan ham murakkab ekanligini ko'rsatadi.

Qisman inkor konstruktsiyalarining funksional-semantik tasnifi. Tahlil natijalari qisman inkorni ifodalovchi asosiy konstruktsiyalarni quyidagi funksional-semantik guruhlariga ajratish imkonini beradi.



Konstruktsiya	Inkor qilinayotgan semantik komponent	Semantik ta'sir natijasi	Yetakchi kommunikativ- funktional vazifa
必ずしも～ない	Universallik semasi	Hukm qo'llanish doirasining torayishi	Umumlashtirishni cheklash
～とは限らない	Muqarrarlik semasi	Ehtimollik maydonining yuzaga kelishi	Istisnoni ko'rsatish
～わけではない	Umumlashtirilgan xulosa	Kategoriklikning zaiflashuvi	Yumshatilgan inkor
～というもので はない	Mutlaq baholash mezoni	Baholashning nisbiylashuvi	Argumentativ va baholovchi funksiya

Jadvaldan ko'rinadiki, qisman inkor yapon tilida yagona grammatik model orqali emas, balki o'zaro bog'liq, ammo funktsional jihatdan differensiyalashgan konstruktsiyalar tizimi orqali namoyon bo'ladi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida yapon tilida qisman inkorni ifodalovchi sintaktik konstruktsiyalar inkor kategoriyasining mustaqil semantik-funktional qatlamini tashkil etishi aniqlandi. Mazkur birliklarda inkor voqea yoki holatning mavjudligiga emas, balki hukm tarkibidagi universallik, muqarrarlik, umumlashtirish va baholash kabi semantik komponentlarga qaratilishi bilan xarakterlanadi. Tahlillar asosida 「必ずしも～ない」, 「～とは限らない」, 「～わけではない」 va 「～というものではない」 konstruktsiyalari yapon tilidagi qisman inkorning asosiy sintaktik modellari sifatida belgilandi. Ularning umumiy jhati hukmning mutlaq xarakterini cheklashdan iborat bo'lsa-da, inkorning qamrov doirasi va semantik markazi jihatidan farqlanishi ko'rsatildi. Aniqlanishicha, 「必ずしも～ない」 konstruktsiyasi universallik semasini, 「～とは限らない」 muqarrarlik semasini, 「～わけではない」 umumlashtirilgan xulosani, 「～というものではない」 esa baholash mezonining mutlaq xarakterini cheklash vazifasini bajaradi. Shu asosda qisman inkor konstruktsiyalarining funktsional-semantik tasnifi ishlab chiqildi.

Tadqiqot davomida qisman inkor konstruktsiyalarining asosiy kommunikativ funktsiyalari sifatida umumlashtirishni cheklash, istisnoni ko'rsatish, ehtimollik maydonini shakllantirish, kategoriklikni yumshatish hamda argumentativ baholash vazifalari tizimlashtirildi. Ushbu funktsiyalar inkorning grammatik vosita sifatidagi vazifasi bilan cheklanmasdan, hukmning semantik va pragmatik tashkil



topishida ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Shuningdek, qisman inkor konstruktsiyalarining faol qo'llanishi yapon tilidagi kommunikativ strategiyalar bilan uzviy bog'liq ekanligi asoslandi. Ular orqali so'zlovchi yoki muallif hukmning qat'iyligini kamaytiradi, muqobil talqin imkoniyatini saqlab qoladi hamda muloqotning muvozanatli kechishini ta'minlaydi. Umuman olganda, qisman inkorni ifodalovchi sintaktik konstruktsiyalar yapon tilidagi inkor kategoriyasining semantik imkoniyatlarini kengaytiruvchi vositalardan biri ekanligi ko'rsatildi. Ularning tizimli tahlili inkorning qamrov doirasi, semantik markazi va funksional differensiasiyasi bilan bog'liq masalalarni yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi hamda yapon tili semantikasi va funksional grammatikasi bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jespersen O. Negation in English and Other Languages. — Copenhagen: A.F. Høst & Son, 1917. — 151 p.
2. Horn L.R. A Natural History of Negation. — Chicago: University of Chicago Press, 1989. — 637 p.
3. Miestamo M. Standard Negation: The Negation of Declarative Verbal Main Clauses in a Typological Perspective. — Berlin: Mouton de Gruyter, 2005. — 518 p.
4. Paducheva E.V. Vyskazyvanie i ego sootnesennost' s deystvitel'nost'yu. — Moskva: Nauka, 1985. — 272 s.
5. Bondarko A.V. Teoriya funksional'noy grammatiki. Temporal'nost'. Modal'nost'. — Leningrad: Nauka, 1990. — 263 s.
6. Teramura H. Nihongo no Shintakusu to Imi. Vol. 1. — Tokyo: Kuroshio Shuppan, 1982. — 326 p.
7. Teramura H. Nihongo no Shintakusu to Imi. Vol. 2. — Tokyo: Kuroshio Shuppan, 1984. — 348 p.
8. Masuoka T., Takubo Y. Kiso Nihongo Bunpo. — Tokyo: Kuroshio Shuppan, 1992. — 269 p.
9. Nitta Y. Nihongo no Modariti to Ninchi. — Tokyo: Hitsuji Shobo, 1991. — 312 p.
10. Morita Y. Kiso Nihongo Jiten. — Tokyo: Kadokawa Shoten, 1989. — 1180 p.
11. Murakami H. Noruwei no Mori. — Tokyo: Kodansha, 1987. — 397 p.
12. Kuno S. The Structure of the Japanese Language. — Cambridge, MA: MIT Press, 1973. — 388 p.
13. Tsujimura N. An Introduction to Japanese Linguistics. — Oxford: Blackwell Publishers, 1996. — 432 p.
14. Hasegawa Y. The Routledge Course in Japanese Translation. — London: Routledge, 2012. — 354 p.
15. Morita Y. Nihongo Hyogen Bunkei Jiten. — Tokyo: Aruku, 1989. — 760 p.



ARAB MAQOL-MATALLARIDA FE'LLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

ABROR DINIQULOV

Tayanch doktorant, TDSHU

Annotatsiya: Fe'llar gapni asosiy qismi, ma'no yukini ko'taradigan bo'lak bo'lgani uchun ularni tadqiq qilish har bir tilde tilshunoslar uchun dolzarb hisoblanadi. Fe'llar semantikasi qoidalari dunyo tillari bo'yicha bir-biriga o'xshash nuqtalarda tutashishi bu maqolamizdagi tahlillar asosida namoyon bo'lgan. Maqolada arab maqol-matallaridagi fe'llarni semantik tahlil qilishda Yevropa olimlarining olib borgan tadqiqotlari, usullarini arab tili fe'llariga nisbatan ham qo'llash o'rinli bo'lishini bayon qilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: maqol, matal, semantika, fe'l, Van Valin, vektorlar.

Abstract: Since verbs are the main part of the sentence and carry the semantic load, their study is considered relevant for linguists in every language. The fact that the rules of verb semantics intersect at similar points across world languages has been demonstrated through the analyses in this article. The paper highlights that, in the semantic analysis of verbs in Arabic proverbs, it is appropriate to apply the research methods and approaches developed by European scholars to Arabic verbs as well.

Keywords: proverb, saying (aphorism), semantics, verb, Van Valin, vectors.

Аннотация: Так как глаголы являются основной частью предложения и несут смысловую нагрузку, их изучение считается актуальным для лингвистов в каждом языке. То, что правила семантики глаголов пересекаются в сходных точках в языках мира, было показано на основе анализа в данной статье. В работе отмечается, что при семантическом анализе глаголов в арабских пословицах целесообразно применять исследования и методы, разработанные европейскими учёными, также и к арабским глаголам.

Ключевые слова: пословица, поговорка, семантика, глагол, Ван Валин, векторы

INTRODUCTION/ВВЕДЕНИЕ/KIRISH

Fe'l bu gapning mazmunini tugal holatga olib keladigan so'z turkumi ekani hech kimga sir emas. U gapdan anglashilgan, maqsad qilingan ma'nolarning zohir bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Bu narsa hamma tillarda bo'lgani kabi arab tilida ham mavjud. Shu sababli fe'l semantikasi, uning gapga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganish dunyo miqyosida butun dunyo tilshunoslar e'tiborida bo'lib kelmoqda (Van Valin, Said, Jon I. B. al-Mutta'iri).

METHODS/МЕТОДЫ/TADQIQOTNING USULLARI

Ushbu maqolada arab tili fe'llar tizimining arab maqol-matallaridagi semantikasini aks ettiradigan maqollar semantik metod asosida ko'rib chiqildi. Maqollardagi fe'llarning Van valin va vektorlar asosidagi tahlili alohida ochib berildi. Bu esa maqol ma'nosini yanada batafsil yoritishga zamin yaratdi.

RESULTS/РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR



Fe'llarni muhim universal sinflarga ajratish 1967-yilda Vendler tomonidan taklif qilingan. U 4 sinfga ajratgan: **a. holatlar (states), b. natijalar (achievements), c. bajarilgan harakatlar (accomplishments), d. faoliyat (activity)**. 1997-yilda esa Smiz bu sinflarga beshinchi semelfactive (bir martalik, lahzaviy harakatni bildiruvchi) fe'llarni qo'shgan. [$\pm$ statik], [$\pm$ dinamik], [$\pm$ yakunli (telic)] va [$\pm$ lahzaviy (punctual)] jihatlar bu fe'llarni farqlashda asos vazifasini bajargan. Van Valin 2006-yilda "faol yakunli harakat" (active accomplishment) sinfini oltinchi sinf sifatida qo'shishni taklif qilib, sinflar sonini 6taga yetkazdi. U shuningdek yuqoridagi sinflarni yana ichki **sababli (causative)** va **nosababli (non-causative)**ga ajratishni ham fanga olib kirdi. Bushro al Muttairi o'z maqolasida Van Valinning fe'llarni tasniflash uslubi asosida arab fe'llarini ajratib, 500ta fe'l misolida ko'rib chiqqan. Unga ko'ra arab fe'llari quyidagi holatlarga bo'linadi:

- a. Doimiy yoki barqaror holat (state);
 - a1. Agent sababli holat paydo bo'lishi (Causative state);
 - b. Lahzalik, yakunlangan voqea (Achievement);
 - b1. Agent sababli yakuniy voqea (Causative achievement);
 - c. Takroriy/lahzalik, lekin yakun nuqta yo'q (Semelfactive);
 - c1. Agent bilan lahzalik/takroriy, yakun nuqta yo'q (Causative semelfactive);
 - d. Murakkab harakat + yakun nuqta (Accomplishment);
 - d1. Agent bilan murakkab yakun nuqta (Causative accomplishment);
 - e. Davom etuvchi harakat, yakun nuqta yo'q (Activity);
 - e1. Agent bilan davom etuvchi harakat (Causative activity);
 - f. Harakat + o'zida agent + yakun nuqta (Active accomplishment);
 - f1. Me'yori agentli murakkab yakun nuqta (Causative active accomplishment).
- Bu sinflarga misol qilib, quyidagi fe'llarni aytish mumkin.

a. Holat fe'llari.

Fe'llar:

كَانَ (bo'ldi), عَلِمَ (bildi), أَحَبَّ (sevdi), كَرِهَ (yoqtirmadi), خَافَ (qo'rqdi), رَغِبَ (istadi), سَمِعَ (eshitdi), رَأَى (ko'rdi), عَرَفَ (bildi)

a1. Agent sababli holat paydo bo'lishi.

Fe'llar:

أَخَافَ (qo'rqitdi), أَغْضَبَ (g'azablantirdi), أَتَى (yig'latdi), أَضْحَكَ (kuldirdi), أَفْرَحَ (xursand qildi), أَخْزَنَ (xafa qildi), أَشْعَلَ (band qildi)

b. Lahzalik, yakunlangan voqea

Fe'llar:

وَصَلَ (yetib bordi), مَاتَ (o'ldi), دَخَلَ (kirdi), خَرَجَ (chiqdi), ظَهَرَ (ko'rindi), نَجَحَ (muvaqqaf bo'ldi), وَقَعَ (quladi), سَقَطَ (yiqildi)

b1. Agent sababli yakuniy voqea.

Fe'llar:

قَتَلَ (o'ldirdi), كَسَرَ (sindirdi), أَغْمَى (hushidan ketkazdi), أَوْصَلَ (yetkazdi), أَسْقَطَ (yiqitdi),

**Fe'llar:**

أَدْخَلَ (kiritdi), أَخْرَجَ (chiqardi)

c. Takroriy/lahzalik, lekin yakun nuqta yo'q.

Fe'llar:

صَفَّرَ (baqirdi), صَاخَ (yo'taldi), عَطَسَ (aksirdi), صَفَّقَ (chapak chaldi), طَقَّ (taqillatdi) (hushtak chaldi)

c1. Agent bilan lahzalik/takroriy, yakun nuqta yo'q.

Fe'llar:

فَرَعَ (do'q qildi), كَحَّحَ (yo'talga undadi), نَبَّهَ (ogohlantirdi), طَفَّقَ (taqillatishga majbur qildi)

d. Murakkab harakat + yakun nuqta.

Fe'llar:

سَافَرَ (safar qildi), قَرَأَ (o'qidi), طَبَخَ (pishirdi), كَتَبَ (yozdi), خَلَقَ (yaratdi), بَنَى (qurdi), تَرْجَمَ (tarjima qildi), رَسَمَ (chizdi)

d1. Agent bilan murakkab yakun nuqta.

Fe'llar:

طَبَّخَ (pishirtirdi), قَرَأَ (o'qittirdi), عَلَّمَ (o'rgatdi), جَعَلَ (qildi), بَنَى (qurdirdi), خَلَقَ (yaratishga sabab bo'ldi), يَزَعَجَ (yozdirdi)

e. Davom etuvchi harakat, yakun nuqta yo'q.

Fe'llar:

سَافَرَ (o'ynadi), لَعِبَ (yozdi), سَبَحَ (suzdi), قَرَأَ (o'qidi), جَرَى (yugurdi), مَشَى (yurdi), نَظَّفَ (tozaladi)

e1. Agent bilan davom etuvchi harakat:

Fe'llar:

أَلْعَبَ (yozdirdi), أَسْبَحَ (suzdirdi), أَقْرَأَ (o'qittirdi), أَجْرَى (yugurtirdi), أَمَشَى (yurgizdi), أَسَفَرَ (safarga yubordi)

f. Harakat + o'zida agent + yakun nuqta.

Fe'llar:

طَبَخَ (o'qidi), قَرَأَ (yozdi), كَتَبَ (yozdi), خَلَقَ (yaratdi), رَسَمَ (chizdi), صَوَّرَ (suratga oldi), جَهَّزَ (tayyorladi), نَظَّفَ (tozaladi)

f1. Me'yorli agentli murakkab yakun nuqta.

Fe'llar:

صَوَّرَ (suratga oldirdi), كَتَبَ (yozdirdi), خَلَقَ (yaratishga sabab bo'ldi), قَرَأَ (o'qittirdi), طَبَّخَ (pishirtirdi)

Bunday sinflarga ajratishda 4ta jihatga e'tibor qaratgan.

	Holatli ±	Harakatli ±	Yakunli ±	Lahzaviy ±
1. Holat fe'llari	[+holatli] [-harakatli]	[+holatli] [-harakatli]	[+holatli] [-harakatli]	[+holatli] [-harakatli]

	[-yakunli] [-lahzaviy]	[-yakunli] [-lahzaviy]	[-yakunli] [-lahzaviy]	[-yakunli] [-lahzaviy]
2.Lahzalik, yakunlangan voqea	[- holatli] [+harakatli] [-yakunli] [-lahzaviy]	[- holatli] [+harakatli] [-yakunli] [-lahzaviy]	[- holatli] [+harakatli] [-yakunli] [-lahzaviy]	[- holatli] [+harakatli] [-yakunli] [-lahzaviy]
3.Takroriy/lahzalik, lekin yakun nuqta yo‘q	[- holatli] [-harakatli] [+yakunli] [+lahzaviy]	[- holatli] [-harakatli] [+yakunli] [+lahzaviy]	[- holatli] [-harakatli] [+yakunli] [+lahzaviy]	[- holatli] [-harakatli] [+yakunli] [+lahzaviy]
4.Murakkab harakat + yakun nuqta	[-holatli] [±harakatli] [-yakunli] [+lahzaviy]	[-holatli] [±harakatli] [-yakunli] [+lahzaviy]	[-holatli] [±harakatli] [-yakunli] [+lahzaviy]	[-holatli] [±harakatli] [-yakunli] [+lahzaviy]
5.Davom etuvchi harakat, yakun nuqta yo‘q	[-holatli] [-harakatli] [+yakunli] [-lahzaviy]	[-holatli] [-harakatli] [+yakunli] [-lahzaviy]	[-holatli] [-harakatli] [+yakunli] [-lahzaviy]	[-holatli] [-harakatli] [+yakunli] [-lahzaviy]
6. Harakat + o‘zida agent + yakun nuqta	[-holatli] [+harakatli] [+yakunli] [-lahzaviy]	[-holatli] [+harakatli] [+yakunli] [-lahzaviy]	[-holatli] [+harakatli] [+yakunli] [-lahzaviy]	[-holatli] [+harakatli] [+yakunli] [-lahzaviy]

Arab maqol-matallaridagi fe'llarni ham shu yo'sinda tahlilga tortilsa ularning semantik qirralarini yanada ochiqroq bilish imkoni paydo bo'ladi. Shuning uchun ularni tahlil maydoniga tortib ko'ramiz.

راعى التمنى مثل زراع طايه

Tarjimasi: orzular bilan yashagan odam – uy tomiga ekin ekkan dehqon singari.

Izoh: uy tomiga ekin ekilsa, bo'lmasligi kundek ravshan. Orzularga ham berilib bir harakat qilmagan inson misoli “Olma pish og‘zimga tush” kabidir.

Bu mataldagi راعى fe'li holatli fe'l, chunki u تمنى ga rioya qilish, amal qilishni anglatyapti. Bu fe'ldan aniq yakun yo'qligi ko'rinib turgani uchun yakunli emas, qisqa vaqtli harakat bo'lmagani uchun lahzaviy ham emas. Demak:

راعى - [+holatli], [-harakatli], [-yakunli], [-lahzaviy]. a1. Agent sababli holat paydo bo'lishi (Causative state)

رجعت حليلة إلى عاداتها القديمة

Tarjima: Halima eski odatiga qaytdi.

Izoh: biror eski odatni qayta bajargan kishiga nisbatan ishlatiladi.

Bu maqoldagi رجع fe'li holatli emas, harakatli ham emas, ammo unda yakun bor, eski holatiga qaytgani, lahzalik ish-harakat.



رجع - [-holatli], [-harakatli], [+yakunli], [+lahzaviy]. b. Lahzalik, yakunlangan voqea (Achievement);

رُفِعَ القلم عن ثلاثة

Tarjima: qalam uch kishidan ko'tarilgan.

Izoh: hadisda uch inson: uxlayotgan, kichkina bola, jinni insonlar qilayotgan ishi o'z ixtiyorida tashqarida sodir bo'lgani uchun ularga gunoh yozilmaydi.

Bu yerda رفع fe'li harakatli, yakunli, lahzalikdir.

رفع - [-holatli], [+harakatli], [+yakunli], [+lahzaviy]. b1. Agent sababli yakuniy voqea (Causative Achievement).

رفيقك من قاسمك همك

Tarjima: do'sting – bu g'amingni bo'lishgan kishi.

Bu maqoldagi قاسم fe'li harakatli, yakunli.

قاسم - [-holatli], [+harakatli], [+yakunli], [-lahzaviy]. d1. Causative Accomplishment.

B. al-Muttairi yozishicha: "Arab tilida fe'llar davomiy zamon va oddiy zamon shakllarini farqlaydigan maxsus shaklga ega emas, shuning uchun har ikki zamon arab tilida bir xil ifodalanadi". Masalan:

O'zbekcha: U arab tilini o'rganadi (Diniqulov A).

U arab tilini o'rganyapti (Diniqulov A).

Inglizcha: He learns Arabic

He is learning Arabic.

Arabcha: هو يتعلم العربية

هو يتعلم العربية.

Ko'rinib turibdiki, arab tilida har ikki davomiy va oddiy zamon shakllari bir xil ko'rinishda. Ularni farqlash uchun arab tilida ravishlar: في هذا الوقت yoki yordamchi fe'llar ما زال, لا يزال, fe'llarini ishlatish bilan yasashini B. al-Muttairi keltirib o'tgan. **Biz bundan tashqari استمر، دام، بقي، ظل، fe'llarini ham qo'shishimiz mumkin. Bu so'zlar maqol xususiyatlariga, qat'iy hukmga olib bormasligi sababidan arab maqol-matallarida, xossatan, Najd mintaqasi maqollarida deyarli uchramaydi. Faqatgina birgani طاهرة ما دامت القلوب (yaxshilik hali ham mavjuddir, toki qalblar pok bo'lsa) shuni maqol sifatida qabul qilish mumkin.**

Harakatli (dinamik) fe'llar ham o'z o'rnida ikkiga ajratiladi. Birida gapiruvchi tomonidan hodisa to'liq kuzatilgan bo'ladi, ikkinchi turida esa faqat jarayon kuzatiladi. Masalan:

Birinchi guruh: أعطى – portlamoq, انفجر – yaltiramoq, لمع – chaqnamoq, ومض – bermoq.

Ikkinchi guruh: درس – o'qimoq, قرأ – o'qimoq, لعب – o'ynamoq.

Kuzatuvchi odam chaqnash harakatini oxirigacha kuzatadi, ammo yo'lda o'ynayotgan bolani ko'rib, uning oldidan o'tib ketganda voqea jarayonini ko'rgan bo'ladi, ammo u uzoq davom etgani uchun qancha vaqt o'ynagani yoki qachon



tugatgani u uchun noma'lumdir. U o'zida ichki bir qancha ketma-ket bosqichlarni (boshlanish, davom etish, tugash) jamlagan bo'ladi.

Shu o'rinda voqea tuzilmasini tashkil qiluvchi 4ta kuch mavjudligini ham aytib o'tish kerak. Ular voqeaning bajarilish jarayonida ishtirok etadigan asosiy unsurlardir. Ularni quyidagicha ifodalash mumkin.

Bundan ko'rinib turibdiki, bitta ish-harakat bajarilishida 4ta vektor ishtirok etadi. Bu narsa arab maqol-matallarida ham o'z tasdig'ini topganini ko'rish mumkin. Masalan:

من عاشر القوم خمسين يوم صار منهم

Tarjima: kim bir qavm bilan 50 kun yashasa, u ulardan bo'lib qoladi.

Bu yerda:

Agent	من
Ta'sir kuchi vektori	عاشر
Patsient	القوم
Natija vektori	صار منهم

Ba'zida bu 4 vektordan biri yashiringan bo'lishi ham mumkin. Bu narsa uchta bilan sodir bo'ladi.

Agent yashiringan. Masalan.

البكا ما يرد الميت

Tarjima: Yig'i o'likni qaytarmaydi.

Agent	yashiringan
Ta'sir kuchi vektori	البكا
Patsient	الميت
Natija vektori	لا يرد

Patsient yashiringan. Masalan:

من جد وجد

Tarjima: kim jidd-u jahd qilsa topadi.

Agent	من
Ta'sir kuchi vektori	جد
Patsient	yashiringan
Natija vektori	وجد

Natija vektori yashirin. Masalan:

تكاثر الأطباء على خراش

Tarjima: Ovchining oldida kiyiklar ko'paydi.

Agent	الأطباء
Ta'sir kuchi vektori	تكاثر

Patsient	خراش
Natija vektori	Yashiringan

Misollardan ko‘rinib turibdiki, fe‘llar ta‘sir kuchi vektori yoki natija vektorini shakllantiradi. Chunki agent – bu ish-harakat bajaruvchi va patsient – ish-harakat uning ustida bajariluvchi bo‘lgani uchun, odatda, ism bo‘ladi. Fe‘lda hukm, undash, chaqiriq singari jihatlar yashiringani uchun u ta‘sir kuchi va natija vektorini shakllantiradi.

Fe‘llar semantikasi haqida gapirganda ulardagi bajarmaslik orqali sabab bo‘lish (causation by omission) haqida ham to‘xtalib o‘tish kerak. Ba‘zida biror ish-harakat amalga oshirilmagani sababli natija yuz beradi. Bunaqa fe‘llar ham arab maqol-matal-matallarida uchrab turadi. Masalan:

أراد أن يعربه فأعجمه

Tarjima: uni arab qilmoqchi edi, ajam qilib qo‘ydi.

Buni grafikda ifodalaganda grafika asosida haqiqiy sodir bo‘lgan natija qanday va sodir bo‘lmagan natija qanday rivojlanganini kuzatish imkoni paydo bo‘ladi.

Unga ko‘ra, RR real result (haqiqiy natija), ya‘ni, sodir bo‘lgan natija.

Ikkinchisi RP esa potensial natija (sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan natija).

holat

RP

RR

vaqt

Bu tarzda fe‘llarni grafikka solish Peter Gardenfors tomonidan ko‘rsatib berilgan. Unga ko‘ra haqiqiy natija vaqtga nisbatan bir tekis o‘tayotgan bo‘lsa-da, holatda o‘zgarishga olib kelmadi. Sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan natija esa holatda o‘zgarishga olib kelishi mumkin edi.

فر من المطر و وقف تحت المزارم

Tarjima: Yomg‘irdan qochib tarnov ostiga turdi.

Bu maqolni ham aynan shu grafika asosida ko‘rsak bo‘ladi.

CONCLUSION /ZAKLYUCHENIYA/ XULOSA

Demak, arab maqol-matallarida ham bajarmaslik orqali sabab bo‘lish force dynamics (ta‘sir kuchi dinamikasi) modeli ishlaydi.

Arab tilidagi fe‘llarni semantik tomondan Van Valin modeliga solish – ularni holat va harakat fe‘llariga ajratishga zamin yaratsa, vektorlar orqali esa ish-harakat sodir bo‘lishidagi qaysi vektorni shakllantirishini ochiqalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. **Nistratov, A.** (2015). *Analysis of the Semantic Structure of Proverbs and Sayings: Theoretical and Experimental Studies. Issues of Psycholinguistics*, 2017, No. 1 (31), pp. 212–221. ISSN 2077-5911.



2. **Sulaymonova, M.** (2021). *The verb as a part of speech and its lexical-semantic classification*. *Oriental Art and Culture: Scientific-Methodical Journal*, FarDU, issue 6/2021, p: 187–191.
3. **Nazarova, S.** (2025). *The national uniqueness of proverbs and sayings*. *Modern Education and Development*, 28(6), 314–319. Tashkent University of Applied Sciences.
4. **Uralova, T. Sh.** (2022). Expression of verbs of emotional relation in English lingvoculturology. *International Journal of Pedagogics*, 2(4), 8–10. Nurafshon.
5. **Kitob:**
6. **Krikman A.** (2009) *Proverb semantics. Studies in structure, Logic and Metaphor*. Proverbium. America.
7. **Wais, Abdulrahman Hasan.** (2022). *The Conditional Style in Arabic Proverbs: A Syntactic and Semantic Study*. Master's Thesis, Syria. 274 pages.
8. **Al-Dusuqi, Ibrahim.** (2008). *The Semantic Field of the Verb and the Meaning of the Preposition Associated with It*. Dar Al-Ghareeb, Cairo. 310 pages.
9. **Al-Juhayyimān, ‘Abd al-Karīm.** (1983). *Al-amthāl al-sha‘biyya fī qalb Jazīrat al-‘Arab* (Vol. 6, 3rd ed.). Riyadh: Dār Ashbāl al-‘Arab. (Original work published 1403 AH) – p. 315.

TRASNFER NAZARIYASINING ASOSLARI VA ZAMONAVIY TARJIMASHUNOSLIKDAGI YONDASHUVLAR

SAIDOV UMIDBEK

Tayanch doktorant, TDSHU

ORCID: 0009-0009-0162-8784

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarjimani transfer sifatida ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan turli qarashlar va yondashuvlar tahlil qilinadi. Transfer nazariyasining shakllanishida ikki asosiy yo‘nalish – Mishel Espanya va Mixael Verner tomonidan ilgari surilgan madaniy transfer hamda Itamar Even-Zohar tomonidan ishlab chiqilgan transferring polisistem nazariyasi tahlil qilinadi. Even-Zohar tarjimani dekompozitsiya va rekompozitsiya jarayoni sifatida izohlab, ekvivalentlik o‘rniga muvofiqlik (relatability) tushunchasini taklif qiladi. Espanya va Verner nazariyasi esa tarjimani millatlararo madaniy migratsiya jarayonidagi transfer vositasi sifatida talqin qiladi. Shuningdek, Entoni Pim, Reychel Vessbrud, Irina Lagutina, Darya Lobachova, Sergey Kalinin, Barno Shamsiyeva kabi olimlarning transferga oid yondashuvlari, bilim va tajribalari ham tahlil qilinadi. Ularning fikricha, transfer – bu g‘oyalar, qadriyatlar va matnlarning turli madaniyatlar o‘rtasidagi harakati bo‘lib, har doim o‘zgarish, moshlashish va qayta talqin qilish kabi turli transformatsion jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Maqolada transfer nazariyasining Markaziy Osiyo madaniyatlari misolidagi amaliy tadbiqi tarjibasiga ham to‘xtalib o‘tiladi.



Kalit so'zlar: transfer, dekompozitsiya, rekompozitsiya, muvofiqlik, madaniy transfer, polisistem, madaniy migratsiya, transformatsiya, agent, selektivlik, diaxronlik, interpretativlik, lingvosemantik, kognitiv, fanlararo metodologiya, traslyatsion-axborot modeli.

Аннотация. В данной статье рассматриваются подходы и взгляды разных авторов на вопрос перевода как трансфера. Анализируются два основных направления формирования теории трансфера – культурный трансфер, разработанный Мишелем Эспанья и Михаэлем Вернером, и теория полисистемного трансфера, предложенный Итамаром Эвен-Зохаром. Эвен-Зохар перевод рассматривает как процесс декомпозиции и рекомпозиции, заменяя понятие эквивалентности концепцией соответствия (relatability). Теория Эспанья и Вернера интерпретирует перевод как средство осуществления трансфера в процессе межнациональной культурной миграции и трансформации. Кроме того, анализируются подходы, опыт и знания таких исследователей, как Энтони Пим, Рэйчел Вейсбруд, Ирина Лагутина, Дарья Лобачёва, Сергея Калинин, Барно Шамсиева, которые подчеркивают, что перевод представляет собой перенос идей, ценностей и текстов между культурами, что неизбежно сопровождается трансформацией и переосмыслением. Также, даётся краткий обзор на опыт применение теории трансфера на примере культур Центральной Азии.

Ключевые слова: трансфер, декомпозиция, рекомпозиция, соответствие, культурный трансфер, полисистема, культурная миграция, трансформация, агент, селективность, диахронность, интерпретативность, лингвосемантический, когнитивный, междисциплинарный методология, трансляционно-информационная модель.

Abstract. This article examines translation as a transfer. It analyzes two main concept of transfer theory: the concept of cultural transfer proposed by Michel Espagne and Michael Werner, and the polysystem theory of transfer developed by Itamar Even-Zohar. Even-Zohar interprets translation as a process of decomposition and recomposition, replacing the notion of equivalence with that of relatability. Espagne and Werner's theory, in turn, views translation as a transfer tool of cultural migration and cultural transformations that happens between nations. The study also discusses the approaches of Anthony Pym, Rachel Weissbrod, Irina Lagutina, and Daria Lobachova, S.S. Kalinin who argue that translation involves the transfer of ideas, values, and texts across cultures, inevitably leading to transformation and reinterpretation. Finally, the article highlights the practical application of transfer theory through examples from Central Asian cultures.

Keywords: transfer, decomposition, recomposition, relatability, cultural transfer, polysystem, cultural migration, transformation, agent, selectivity, diachronicity, interpretativity, linguosemantic, cognitive, interdisciplinary methodology, translational-informational model.

Tarjimani transfer ya'ni ko'chish sifatida o'rganish tarjimashunoslikda zamonaviy yondashuvlardan biridir. Nazarimizda, tarjimani aynan shu jihatdan o'rganish ushbu hodisa bilan bog'liq dinamikalarni, mexanizmlarni aniqroq tushunish va tahlil qilish imkonini beradi. Shu sabab, transfer nazariyasiga yaqindan e'tibor berish kerak deb hisobladik.



Transfer nazariyasining shakllanish tarixiga nazar solsak, unda ikki xil yondashuvni uchratish mumkin. Fransiyalik Mishel Espanya va Mixael Verner tomonidan taklif qilingan **“Cultural Transfer”** madaniy ko‘chish nazariyasi va Isroillik Itamar Even-Zohar tomonidan taklif qilingan **“Polysystem Theory of Transfer”** ko‘chishning murakkab tuzilma nazariyasi. E’tiborlisi, transfer ikkala nazariya doirasida ham ko‘chish tushunchasida talqin qilingan. Qolgan ilmiy ishlarda ham transferga ko‘chish nuqtai nazaridan qaralgani ma’lum bo‘ldi.

Mishel Espanya va Mixael Verner asos solgan madaniy transfer nazariyasi – madaniy elementlarni; g‘oyalarni, qadryatlarni, terminlarni, matnlarni millatlararo harakati va almashinuvi dinamikasini tarixiy kontekstda tushuntirishga qaratilgan nazariya. Bunday asosiy g‘oya – tarjima shunchaki lisoniy “nusxalash” emas, balki faol kechadigan transformatsiya jarayonidir. Biron bir g‘oya, konsept yoki matn muayyan madaniy kontekstdan boshqasiga ko‘chganida shakli o‘zgaradi, o‘sha kontekstga moslashadi, ba’zi hollarda noto‘g‘ri talqin qilinadi. Natijada, madaniy diskurslar yuzaga keladi, degan qarashga asoslanadi.¹

Itamar Even-Zohar asos solgan transferning polisistem nazariyasi – muayyan badiiy va madaniy tizimdagi iyerarxik tuzilmalar boshqa badiiy va madaniy tizimga ko‘chish dinamikasini tushuntirishga qaratilgan nazariya. Bu nazariya doirasida ham madaniy ko‘chish tushunchasi ishlatiladi, lekin, asosiy e’tibor bir tildagi badiiy va madaniy tuzilmalarning boshqa til madaniyatiga ko‘chish mexanizmlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘ladi. Transfer mexanizmlarini o‘rganishda esa yadro va pereferiya degan tushunchaga suyaladi.²

Bu ikki nazariya Roman Yakobsonning qarashlaridan ilhomlangani sabab o‘xshash jihatlari bo‘lsada, fundamental farqli jihatlari ham mavjud. Quyida batafsil ko‘rib chiqsak.

Itamar Even-Zohar 1981-yildagi maqolasida tarjimaga transferning muayyan bir ko‘rinishi sifatida qarash kerak, degan fikrni ilgari suradi. Gap aynan transfer nazariyasi haqida, chunki, transfer termini Even-Zoharning maqolasiga qadar ham bo‘lgan. Masalan, Yujin Albert Naydaning 1969-yilgi “Science of Translation” nomli maqolasida: “tarjima tahlil, transfer kabi kompleks jarayonlarni o‘z ichiga oladi”, deb yozgan.³ Even-Zohar esa, “Translation Theory Today: A Call for Transfer Theory” nomli maqolasida, aksincha, tarjimani transfer sifatida o‘rganish kerak degan qarashni taklif qiladi. U taklif qilgan nazariyaning shakllanishida Roman Yakobsonning

¹ Michel Espangeg, Michael Werner La construction d’une référence culturelle allemande en France: genèse et histoire (1750–1914) // Annales. Économies, Sociétés, Civilisations, 42^e année, No4, 1987. Pg. 969-992.

² Even-Zohar, Itamar Translation Theory Today: A Call for Transfer Theory // Poetics Today, Vol.2, No. 4. – Tel Aviv: Translation Theory and Intercultural Relations, 1981. Pg. 1-7.

³ Eugene A. Nida Science of Translation // Language, Vol.45, No3. – USA: Linguistic Society of America, 1969, 483-489-b.



g'oyalari intellektual asos bo'lib xizmat qilgan, deb yozadi Reychl Vessbrud.¹ Roman Yakobsonning 1959-yilda nashr qilingan "On Linguistic Aspects of Translation" nomli maqolasida tarjimani strukturalistik terminlar yordamida asoslashga intilganni va tarjimani: "**Intralingual translation**" bir til tizimining ichida bo'ladigan tarjima, "**Interlingual translation**" turli til tizimlari o'rtasida kechadigan tarjima, "**Intersemiotic translation**" semiotik tuzilmalararo kechadigan tarjima, deb 3 guruhga ajratganini guvohi bo'lamiz.² O'ylashimizcha, aynan shunday g'oyalar transfer nazariyasi uchun intellektual asos bo'lgan.

Even-Zohar maqolasida tarjima nazariyasi "klishe"lar doirasida qolib ketgan, tadqiqotlarning asosiy qismi "to'g'rilik" yoki "aniqlik" masalalariga qaratilgan xususiy savollar bilan chegaralanib qolgani bois butun fan umumiy nazariyaga ega emasligini aytadi. Ekvivalentlikning qat'iy mezonlariga to'g'ri kelmagan tarjimalarni nazariyadan chetlatish amaliyotini tanqid qiladi. Uning fikricha, bunday amaliyot tarjimaning asl tabiatini to'liq anglashga yo'l qo'ymaydi. Ko'p hollarda adaptatsiyalar, soddalashtirilgan variantlar an'anaviy tarjima nazariyasida hisobga olinmasada, aynan shular tarjima mexanizmlari haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi, deydi.³

Even-Zohar tarjimani ayroq hodisa sifatida o'rganib bo'lmasligini yozadi. Tarjima **polisistema** deb ataladigan murakkab, dinamikada yuzaga keladi. Polisistema turli janrlar, uslublar, modellar kabi kichik **podsystemalardan** iborat bo'ladi. Bunday murakkab tuzilmada har bir podsystema markaziy o'rin egallashga intiladi. Shuning uchun, tarjima sifati va xususiyati undagi podsystemalarning tutgan o'rniga qarab o'zgaradi. Qaysidir tuzilmani markazga chiqishi va boshqa tuzilmalarni chetda qolishi **yadro** va **pereferiyani** yuzaga keltiradi. Shu bois, tarjimaning tahliliga kirishayotganda, avval, uning polisistemadagi o'rnini hisobga olish zarurligini yozadi.⁴

Aslida ham, tarjima asliyatdagi uslub, janr, stilizatsiya, syujet, semiotik modellar kabi tuzilmalarni ko'chirishga intiladi. Biroq, bularning barchasini teng ko'chishni iloji bo'lmasa kerak. Har qanday tarjimada asliyatning aynan qaysidir bir tuzilmasi markazga chiqib, qolganlarni esa, chetda qolib ketishi aniq.

Even-Zohar tarjimani mexanik nusxa ko'chirish emas, balki **dekompozitsiya** va **rekompozitsiya** jarayoni deb ta'riflaydi. Uning fikricha, tarjimon avval asliyat matnini tarkibiy qismlarga ajratib keyin esa ko'zlangan tizimga mos holda qayta tuzadi. Bu jarayon muqarrar ravishda transformatsiyalarga (o'zgarishlarga) olib keladi: qisqartirishlar, kengaytirishlar, qayta tuzilishlar. Natijada, asliyat va tarjimada farqlar

¹ Rachel Weissbrod From Translation to Transfer// Across Languages and Cultures, Volume5: Issue 1. AKJournals, 2004, 23-41 b. <https://doi.org/10.1556/Acr.5.2004.1.2>

² Roman Jakobson Linguistic Aspects of Translation // On translation. – Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1959, Pg. 233.

³ Even-Zohar, Itamar Translation Theory Today: A Call for Transfer Theory // Poetics Today, Vol.2, No. 4. – Tel Aviv: Translation Theory and Intercultural Relations, 1981. 2,3-b.

⁴ Even-Zohar, Itamar Translation Theory Today: A Call for Transfer Theory // Poetics Today, Vol.2, No. 4. – Tel Aviv: Translation Theory and Intercultural Relations, 1981. 4,5-b.



yuzaga keladi. Bu farqlar xatolar emas, transfer jarayonining tabiiy natijasi va tizimdagi cheklovlar ta'siridir, deb hisoblaydi.¹

Even-Zohar shunday deydi: "tarjima natijasi faqat asliyat matni bilan emas, balki maqsad tizimi² bilan ham belgilanadi. Bu yerda eng muhim omil – modellardir. Agar maqsad tizimida biron model mavjud bo'lmasa, tarjimon mazmunni to'g'ridan-to'g'ri bera olmaydi va boshqa variantdan foydalanishga majbur bo'ladi. Shu bois tarjima doimo maqsad tizimining strukturasi va holatiga bog'liq bo'ladi". Shu sabab "nega tarjimada asliyatdagi elementlar yo'q?", degan savolning o'rniga: "tarjimadagi qaysi element asliyatdagi qaysi elementga qay ma'noda va nega muvofiq keladi?", deb fikr yuritishni taklif qiladi.³ Shu tariqa Even-Zohar **relatability** (muvofiqlik) tushunchasini kiritadi. Uning fikricha, muvofiqlik ekvivalentlikdan kengroq bo'lib, tarjimani "yo'qotish" yoki "buzilish" kategoriyalarida emas, balki asliyat va maqsad matn birliklarining tizimli bog'liqligi nuqtai nazaridan tushuntirishga imkon beradi, deb fikrlaydi.⁴

Maqolaning yakunida Even-Zohar o'z yondashuvini asoslaydigan qator gipotezalarini bayon qiladi:

1. Tarjima nazariyasi umumiy transfer nazariyasining bir qismi bo'lishi kerak.
2. Ichki va tashqi transfer jarayonlari gomologikdir.
3. Obyekt – jarayonda yaratilgan barcha matnlar.
4. Alohida matnlargina emas, balki ko'chiriladigan modellar ham tahlil qilinishi zarur.
5. Ekvivalentlik o'rniga muvofiqlik tushunchasini ishlatish kerak.
6. Transfer – dekompozitsiya va rekompozitsiya jarayoni.
7. Bu jarayon maqsad tizimidagi modellar va cheklovlar ta'sirida kechadi.
8. Tarjima imkoniyatlari maqsad polisistemasining holatiga bog'liq.
9. Jarayon yakunidagi mahsulot transfer jarayoni va tizim cheklovlari bilan belgilanadi.⁵

Even-Zohar maqolaning oxirida, agar tarjimaga nisbatan tor an'anaviy yondashuvdan voz kechib transfer nazariyasiga o'tmasak, tarjima ilmi rivojlana olmaydi, degan xulosani beradi.

Bizning fikrimizcha ham, tarjimani aynan Even-Zohar taklif qilgan polisistem dinamikasidagi transfer sifatida qarash shu hodisa bilan bog'liq ko'p qonuniyatlarni

¹ Even-Zohar, Itamar Translation Theory Today: A Call for Transfer Theory // Poetics Today, Vol.2, No. 4. – Tel Aviv: Translation Theory and Intercultural Relations, 1981. 4,5-b.

² Even-Zohar maqsad tizimi deganda o'girilishi ko'zlangan til tizimini nazarda tutgan.

³ Even-Zohar, Itamar Translation Theory Today: A Call for Transfer Theory // Poetics Today, Vol.2, No. 4. – Tel Aviv: Translation Theory and Intercultural Relations, 1981. 4,5-b.

⁴ Even-Zohar, Itamar Translation Theory Today: A Call for Transfer Theory // Poetics Today, Vol.2, No. 4. – Tel Aviv: Translation Theory and Intercultural Relations, 1981. 5,6-b.

⁵ Even-Zohar, Itamar Translation Theory Today: A Call for Transfer Theory // Poetics Today, Vol.2, No. 4. – Tel Aviv: Translation Theory and Intercultural Relations, 1981. 7-b.



aniqroq tushunish va o'rganish imkonini beradi. Bunday yondashuvda markaziy masala ekvivalentlik emas, muvofiqlik bo'ladi. Bir til-madaniyatida shakllangan matn boshqa bir til-madaniyatida rekompozitsiya qilinganidan so'ng qanday metamorfozalarga uchraganini o'rganish tarjima qanday mexanizmlar dinamikasida yuzaga kelganini aniq o'rganish imkonini beradi.

Madaniy ko'chish nazariyasi ilk bor Mishel Espanya va Mixail Vernerning 1987-yildagi "La construction d'une référence culturelle allemande en France: Genèse et histoire (1750–1914)" (Fransiyada olmon madaniy etalonini shakllanishi: kelib chiqishi va tarixi) nomli maqolasida qo'llanilgan, deb yozadi Stefani Stokhorst.¹ Mishel Espanya va Mixayl Vernerning, so'ng ularning g'oyasini davom ettirgan Stefani Stokhorstning fikricha, butun Yevropa bo'ylab ma'rifatchilik g'oyalarining tarqalishida tarjima omili katta ro'l o'ynagan. Ma'rifatchilik davridagi tarjimalar shunchaki muayyan tildagi ma'lumotlarni boshqa tilga ag'darish emas, balki bir til madaniyatida shakllangan ma'rifiy qadryatlarni, bilim va tajribalarni boshqa til madaniyatiga ko'chish jarayoni bo'lgan. Natijada, butun Yevropa bo'ylab asrlar davomida kechgan turli millatlararo ma'rifatchilik va ratsionallik qadryatlariga asoslangan madaniy ko'chishlar ya'ni transfer yuzaga kelgan, degan nuqtai nazar ifodalangan.²

Madaniy transfer nazariyasining asosidagi g'oyalar quyidagilardan iborat:

- Madaniy o'zlashtirish shunchaki "nusxalash" emas, balki ijodiy qayta shakllantirishdir.
- Har bir tarjima qayta talqin qilish jarayonini o'z ichiga oladi.
- Tarjima – g'oyalar, qadryatlar, terminlar va matnlar madaniyatlararo harakatlana oladigan transfer kanallaridan biridir.
- Transfer hech qachon passiv kechmaydi, doim mahalliy madaniyatga moslashishi, bog'lanishi sabab tarjimada ma'no va urg'ular o'zgarishi mumkin.

Madaniy transfer nazariyasidagi tahlil strukturasi 3ta o'zaro bog'liq bo'lgan modellarga suyanadi:

a) **akkulturatsiya (acculturation)** – matnning ko'chayotgan madaniy meyorlarga moslashishi;

b) **ijodiy to'ldirishlar (creative enhancement)** – tarjima yangi nimadirlarni kiritish orqali boshlang'ich ma'noni kengaytirishi mumkin.

c) **tushunmovchilik (misunderstanding)** – tarjima asliyatdagi g'oyani noto'g'ri tushunishi yoki xato talqin qilishi.

¹ Stefanie Stockhorst Cultural Transfer through Translation: The Circulation of Enlightened Thought in Europe by Means of Translation. Amsterdam/New York: Editions Rodopi, 2010, 7-b.

² Stefanie Stockhorst Cultural Transfer through Translation: The Circulation of Enlightened Thought in Europe by Means of Translation. Amsterdam/New York: Editions Rodopi, 2010, 7-b.



Mana shu uch model mualliflarga tarjima aynan qanday qilib g'oyalarni aks ettirishini va o'zgartirishini tushunishga yordam beradi.¹

Madaniy transfer nazariyasi asoschilari bir vaqtning o'zida ikkita masalaga e'tibor qaratishgan. Birinchidan, tarjima – transnatsional qadryatlarni shakllantirgan vosita bo'lsa, ikkinchidan, mahalliy madaniyatlar mana shu qadryatlarni talqiniga qanday ta'sir qilganini ko'rish. Bu esa, tarjimaga ham transnatsional va natsional jihatdan yondashish imkonini beradi.

Fikrimizcha, madaniy transfer nazariyasi tarjimani millatlararo **madaniy migratsiya vositasi** sifatida ko'radi. Darhaqiqat, agar butun Yevropani qamrab olgan ma'rifatchilik va ratsionallik qadryatlarining yangi madaniy klast sifatida shakllanish jarayoniga nazar solsak, nihoyatda qiziqarli jarayonlarni kuzatamiz. IX asrda Buyuk Karl davridan boshlab shakllana boshlagan ma'rifatchilik harakatlari, hamda XIII asrda Italiyadan boshlab shakllangan Renessans XVI-XVIII asrlarda Butun Yevropani qamrab olgan Ma'rifatchilik davri uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ma'rifatchilik davrining o'zi ham turli boshqichlarda kechdi. Ilk davrlari XVI-XVII asrlar, yorqin vakillari Nikolay Kopernik, Galileo Galiley, Isaak Nyuton, Frensis Bekon, Rene Dekart, Tomas Gobbs kabi faylasuflar. Keyingi bosqich XVII asr, yorqin vakillari Jon Lokk, Barux Spinoza, Gotfrid Vilgelm Leybnits kabi faylasuflar. Va so'nggi bosqich XVIII asr, yorqin vakillari Volter, Jan-Jak Russo, Sharl-Lui de Monteskyo, Deni Didro, Imanuil Kant, Vilgelm Gegel kabi faylasuflar.² Butun insoniyat rivojlanishining yangi bosqichini belgilab bergan bu davr Yevropaning turli davlat va millatlarida, deyarli bir vaqtda, juda katta madaniy siljishlar, qo'zg'alishlarni yuzaga keltirdi. Va shubhasiz, bu jarayonlarda tarjima vositasining madaniy transfer sifatidagi o'rni katta bo'lgan. Shu bois, Mishel Espanya va Mixail Vernerning tarjimani madaniy migratsiya vositasi sifatida o'rganishi yetarlikcha asosga ega nazariya desak adashmaymiz.

Transfer masalasiga e'tibor qaratgan yana bir olim Entoni Pim 1992-yildagi "Translation and Text Transfer (An Essay on the Principles of Intercultural Communication)" nomli monografiyasida tarjima bu **matn transferi** degan qarashni aytadi. 1992-yildagi monografiyasi 1980-yilgi magistrlik dissertatsiyasining to'ldirilgan varianti ekanligini kitobida yozib o'tgan. Matn transferi nazariyasi esa monografiya nashr qilinishidan 30 yil avval shakllana boshlagan g'oya ekanligini ham aytib o'tgan.³ Ya'ni, Entoni Pimning transfer nazariyasi Even-Zoharnikidan mustaqil tarzda shakllangan deb xulosa qilsak bo'ladi.

Entoni Pimning fikricha transfer – tarjimaning asosiy sharti. Transferi ko'chish deb tushunadi. Tarjima doim zamon va makonda kechadigan ko'chish jarayoni

¹ Stefanie Stockhorst Cultural Transfer through Translation: The Circulation of Enlightened Thought in Europe by Means of Translation. Amsterdam/New York: Editions Rodopi, 2010, 10-b.

² https://ru.wikipedia.org/wiki/Эпоха_Просвещения (11.10.2025, 21:40da qaraldi)

³ Anthony Pym Translation and Text Transfer (An Essay on the Principles of Intercultural Communication). – Tarragona: Intercultural Studies Group, 2010, b.2



bo'lgani uchun doim zamon va makon omiliga bog'langan bo'ladi deydi. Ma'lumotlarni ma'lum bir qo'lyozma, xabar yoki media shaklidagi matndan boshqa matnga ko'chishini transferning moddiy ko'rinishi deb tushunadi. Agar bir matndan boshqa bir matnga harakat bo'lmasa, ko'chish amaliyoti ham bo'lmagan, demak-ki, tarjima ham sodir bo'lmagan, shuning uchun transfer tarjimaning asosiy sharti, deb fikr yuritadi.¹

Agar tarjima bu transfer bo'lsa, unda nima ko'chadi? Bu savolga Entoni Pim "matn" deb javob beradi. Uning fikricha matn abstrakt g'oya emas, balki tosh, qo'lyozma, yodgorliklar ko'rinishidagi moddiy asosga ega aniq obyekt. Matndagi ma'lumotni aniqlash, o'rganish va kontekstlararo o'zgarishlarni qayd etish undagi ma'no qay tarzda o'zgarganini tushunish uchun muhim deydi. Uning nazariyasida matn muayyan zamon va makonda yashovchi jamiyat hamda madaniyat bilan bog'liq artefakt (sun'iy yaratilgan buyum) sifatida qabul qilish zarur. Shundagina matn nima uchun bir kontekstdan boshqa kontekstga o'tganida izohlar, adaptatsiyalar, tushuntirishlarni talab qilishini anglay olamiz deydi.²

Nazarimizda, Entoni Pim kontekst termini orqali matn yaratilgan madaniyatni nazarda tutgan. Ya'ni Even-Zohar kabi Entoni Pim ham tarjimani faqat lingvistik moddellari doirasida kechadigan "nusxalash" jarayoni emas, balki matn yaratilgan madaniyatdagi omillar bilan chanbarchas bog'liq jarayon deb tushunadi. Chunki, har qanday matn bu muayyan zamon va makondagi ma'lum bir insonlar guruhidagi ma'lumotlarni, bilim va tajribalarni tashuvchi **agent**. Shu sabab, tarjimani faqat lingvistik modellar jihatidan emas, balki matn yaratilgan kontekst jihatdan ham ko'rish kerak, degan qarashni ilgari suradi.

Darhaqiqat, bir til madaniyatida shakllangan matn boshqa bir til madaniyatiga ko'chib o'tar ekan, bu jarayonda turli **transformatsiyalar** yuz berishi tarjimashunoslikda ma'lum hodisa. Bir jamiyatda boshqa jamiyatlarga xos bo'lmagan tarixiy tajribalar bo'ladi. Bunday tajribalar turli; iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ijtimoiy, geografik omillar kesimida yuzaga kelgan bo'ladi va tilda o'z aksini topgan bo'ladi. Shu sababdan muayyan bir jamiyatga xos tarixiy tajriba boshqa jamiyat uchun yod bo'lishi mumkin. Asliyat tilmadaniyatida tizimda shakllangan badiiy, lisoniy, semiotik modellar tarjima tilmadaniy tizimida o'zgacha shakllarda ifodalanishi yoki mavjud bo'lmashligi mumkin. Bu kabi omillar matnlarni madaniy kontekstlararo ko'chishida turli murakkabliklarni yuzaga keltirishi aniq.

Ma'lum bo'lganidek, Entoni Pimning transfer nazariyasi Even-Zoharning nazariyasiga juda yaqin. Turli shakllarda bo'lsada, mohiyatdan ikki olim bir-biriga yaqin bo'lgan fikrni ifodalashgan. Chunki, tarjimaning asosiy obyekti bu matn. Matn

¹ Anthony Pym Translation and Text Transfer (An Essay on the Principles of Intercultural Communication). – Tarragona: Intercultural Studies Group, 2010, b.15-19

² Anthony Pym Translation and Text Transfer (An Essay on the Principles of Intercultural Communication). – Tarragona: Intercultural Studies Group, 2010, b.23-26



keng ma'noda, har qanday shakldagi ma'lumot tashuvchi agent sifatida ko'riladi. Har qanday matn muayyan bir zamon va makonda, muayyan insonlar guruhiga tegishli bo'ladi va ulargagina xos bo'lgan lisoniy va madaniy tizimida shakllanadi. Matndagi ma'lumotni bir lisoniy-madaniy tuzilmadan boshqa tuzilmaga ko'chishi transfer deb izohlangan. Entoni Pim uchun ham Even-Zohar uchun ham transfer –matndagi ma'lumotlarni bir lingvomadaniy tizimidan boshqa bir lingvomadaniy tizimiga ko'chib o'tish jarayoni. Faqat, Entoni Pimdan farqli, Even-Zohar ko'chish jarayonini aniq dekompozitsiya va rekompizitsiya terminlari bilan ifodalagan.

Transfer nazariyasi tarjima masalalarini o'rganishda faqat lingvistik modellar bilan chegaralamay, e'tiborni semiotik strukturalarga, madaniy omillarga ham qaratishni taklif qiladi. Shu jihatdan, bu nazariya tarjima hodisasini kengroq dinamikalarda yoritishga intiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

XX-asrning ikkinchi yarimida shakllanishni boshlagan transfer nazariyasi XXI-asrda Reychl Vessbrud, Lagutina Irina Nikolayevna, Lobachov Darya Vladimirovna, Mineyeva I.N., Shamsiyeva B. kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ham o'z davomini topdi. Quyida shu olimlarning transfer bilan bog'liq masalalarga bo'lgan qarashlari keltirilgan.

Rechel Vessbrud "From Translation to Transfer" nomli maqolasida tarjima nazariyasining tor kontekstdagi mumtoz lingvistik talqinidan keng kontekstdagi madaniy, g'oyaviy va ijtimoiy jihatlarni qamrab oladigan transfer nazariyasiga bo'lgan evalyutsiyasi haqida so'z yuritadi. Even-Zohar taklif qilgan transfer nazariyasi tarjimani shunchaki matnlar o'rtasidagi ekvivalentlik munosabatlaridan kengroq bo'lgan madaniy tizimlar o'rtasidagi almashinuvlar maydoniga olib chiqdi, deydi. Transfer bu shunchaki tarjima emas, balki murakkab tuzilmali madaniy repertuarlarning o'zaro ta'sir o'tkazuvchi munosabatlarga kirish jarayoni, deb izohlaydi.¹

Lagutina Irina Nikolayevna "Россия и Германия на перекрёстке культур: культурный трансфер в системе русско-немецких литературных взаимодействий конца XVII – первой трети XX века" nomli monografiyasida fransuz olimlari taklif qilgan madaniy transfer go'oyasini davom ettiradi. Lekin, ulardan farqli, transferni adabiyotshunoslikda milliy adabiyotlarning an'anaviy komprativistik tadqiqotining o'miga kelgan yangicha metodologiya sifatida qaraydi. Uning fikricha, madaniy transfer bu madaniyatlar o'rtasidagi g'oyalar, matnlar va ma'nolar ko'chishidagi jarayonlarni tushintirishga qaratilgan **fanlararo metodologiya**. Ya'ni transferni nafaqat tarjima, balki boshqa sohalardagi madaniyatlararo ko'chishlari o'rganish uchun qo'llash mumkin, deb hisoblaydi. Uning talqinida ham transfer shunchaki mexanik ko'chish emas, balki g'oyalarning, ma'nolarning, shakllarning madaniyatlararo dinamik

¹ Rachel Weissbrod From Translation to Transfer// Across Languages and Cultures, Volume5: Issue 1. AKJournals, 2004, pg. 23-41 <https://doi.org/10.1556/Acr.5.2004.1.2>



harakati.¹ Lagutina transfer terminini aynan qiyosiy adabiyotshunoslik doirasida, XVIII-XX asrlardagi russ-nemis badiiyatining o‘zaro ta’sirini tushuntirish uchun qo‘llagan. Madaniy transfer zamonaviy gumanitar fanlarda markaziy tushunchalardan biriga aylandi. Bugungi kunda ushbu tushuncha g‘oyalar, matnlar, obrazlarning boshqa ijtimoiy-madaniy muhitga ko‘chish va hu muhitga moslashish mexanizmlarini ifodalash uchun qo‘llanilmoqda, deb yozadi.²

Madaniy transferni Lagutina Irina Nikolayevna kabi talqin qilgan yana bir olimia Lobachova Darya Vladimirovna “Культурный трансфер: определение, структура, роль в системе литературных взаимодействий” (2010) nomli maqolasida transferni **madaniyatlararo muloqot** nuqtai nazaridan talqin qilgan. Muallif o‘z maqolasida: “madaniy transfer – asosiy va ko‘zlangan madaniyatlarni bog‘lovchi madaniyatlararo muloqotning dinamik jarayoni” deb tariflaydi.³ Qiyosiy adabiyotshunoslikda qabul qilingan an‘anaviy “влияние” (ta’sir), “восприятие” (qabul qilish), “заимствование” (o‘zlashtirish) kabi kategoriyalar o‘rniga transfer tushunchasi madaniyatlarning o‘zaro ta’sir mexanizmlarining rivojini tushuntirishga qaratilgan, deydi. D.V. Lobachova transfer tuzilmalsiga xos 3ta boshqichni ta’riflaydi – “отбор” (tanlov), “передача” (uzatish), “рецепция” (qaytaanglash). Bu jarayonda esa noshirlar, tarjimonlar va tadqiqotchilar asosiy ro‘l o‘ynaydi, deb yozadi.⁴

Madaniy transfer nazariyasi Mishel Espanya, Svetlana Gorshineva, Shiana Mustafayeva, Kloda Rapenalarning tahriri ostida nashr qilingan “Культурный трансфер на перекрёстках Центральной Азии: до, во время и после Великого шёлкового пути” (2013) nomli to‘plamida ham keng yoritilgan. Bu to‘plam 2013-yilda Samarqandda o‘tkazilgan xalqaro anjuman materiallari bo‘lib, maqsad madaniy transfer nazariyasini Markaziy Osiyo materiallariga nisbatan qo‘llash bo‘lgan. Kirish so‘zida: “Markaziy Osiyo madaniy transfer nazariyasini aprobatsiyadan o‘tkazish uchun eng ma’qul maydon degan ishonch nuqtayi nazardan yondashilgan.” deyiladi.⁵

¹ Лагутина И.Н. Россия и Германия на перекрёстке культур: культурный трансфер в системе русско-немецких литературных взаимодействий конца XVII – первой трети XX века. – М.: Наука, 2008. 11 с.

² Лагутина И.Н. Россия и Германия на перекрёстке культур: культурный трансфер в системе русско-немецких литературных взаимодействий конца XVII – первой трети XX века. – М.: Наука, 2008. 15 с.

³ Лобачёва Д.В. Культурный трансфер: определение, структура, роль в системе литературных взаимодействий. Вестник ТПУ. – 2010. – Выпуск 8 (98). 23 с.

⁴ Лобачёва Д.В. Культурный трансфер: определение, структура, роль в системе литературных взаимодействий. Вестник ТПУ. – 2010. – Выпуск 8 (98). 24 с.

⁵ Культурный трансфер на перекрёстках Центральной Азии: до, во время и после Великого Шёлкового пути. Париж-Самарканд: Международный Институт Центральноазиатских Исследований, 2013г. 12 с.



To'plamda transfer **diaxronik, ko'p vektorli, fanlararo** kechadigan jarayon sifatida ko'rilgan. Bu jarayon o'z ichiga arxeologik, tarixiy, lisoniy, san'at kabi turli sohalarni qamrab olishi ko'rsatilgan.

To'plamda transferga xos bo'lgan quyidagi tamoyillar ham keltirib o'tilgan:

Selektivlik tamoyili, ya'ni qabul qilayotgan madaniyat o'zi tanlaydi unga aynan qaysi elementlar kerak ekanligini. Shu sabab, transfer aynan tanlov jarayonidan boshlanadi.¹

Ko'psathlilik va **vositachilik** tamoyili, ya'ni ko'chish ko'p kanallar va agentlar (tarjimonlar, savdogarlar, missionerlar, muzeylar, kitoblar, asrga olinganlar va h.k.z.lar) orqali kechadi.²

Qabul qilishdagi **transformativlik**, ya'ni har qanday o'zlashtirish boricha amalga oshmaydi, bu jarayonda, albatta, qayta anglash, qayta tushunish, yangi madaniy kontekstga moslashtirish kabi transformativ jarayonlar kechadi.

Xronologik qamrov, ya'ni madaniy transfer qisqa davr ichida emas, uzoq vaqt davomida kechadigan jarayon.³

Xullas, madaniy transfer nazariyasi Markaziy Osiyo materiallari asosida o'tkazilgan tadqiqotlarda o'zining amaliy tasdiqini topgani va yangi yondashuvlar bilan kengaytirilgani keltirilgan.

“Лингвистика и семиотика культурных трансферов: методы, принципы, технология” (2016) nomli jamoaviy monografiyada madaniy transfer nazariyasi lingvistik nuqtai nazardan talqin qiligan. Asarda madaniyatlar, tillar va diskurslar o'rtasidagi bilimlar almashinuvi jarayonlari tahlil qilinadi. Strukturalizmdan boshlab, Roman Yakobson, Yuriy Lotman, Even-Zohar kabi olimlarning g'oyalari orqali transfer tushunchasining rivojlanishi yoritilgan. Monografiya mualliflari ham transferi ma'nolarning harakati, qayta talqin qilinishi va yangi madaniy kontekstlarda o'zgarishi jarayoni sifatida talqin etishgan.⁴

Monografiyada madaniy transferi tahlil qilish uchun 3ta asosiy metod ajratib ko'rsatilgan: **lingvosemiotik, kognitiv** va **interdisiplinar**.

¹ Культурный трансфер на перекрёстках Центральной Азии: до, во время и после Великого Шёлкового пути. Париж-Самарканд: Международный Институт Центральноазиатских Исследований, 2013г. 13 с.

² Культурный трансфер на перекрёстках Центральной Азии: до, во время и после Великого Шёлкового пути. Париж-Самарканд: Международный Институт Центральноазиатских Исследований, 2013г. 13-14 с.

³ Культурный трансфер на перекрёстках Центральной Азии: до, во время и после Великого Шёлкового пути. Париж-Самарканд: Международный Институт Центральноазиатских Исследований, 2013г. 13 с.

⁴ Теория культурных трансферов: от переводоведения через культурологию к теоретической лингвистике// Лингвистика и семиотика культурных трансферов: методы, принципы, технология: Коллективная монография / отв. ред. В.В. Фещенко. М.: Культурная революция, 2016. 5-6 с.



Vladimir Vladimirovich Feshchenko lingvosemiotik metodni – til va belgilar tizimi orqali madaniy ma'nolarning harakatini o'rganish usuli, deb izohlaydi. V.V. Feshchenkoning ta'kidlashicha, bu usul transferizatsiyaning lingvosemiotik mexanizmlari bilimlarning bir madaniy muhitdan boshqa madaniy muhitga ko'chishdagi modifikatsiyalarini ya'ni ma'nolarning qayta kodlanishini va adaptatsiyasini kuzatish imkon beradi.¹

Vera Ivanovna Postavalova kognitiv metodni – inson tafakkuri bilimlarni va ma'nolarni qanday qabul qilishini, anglashini va qay tarzda talqin qilinishini o'rganishga qaratilgan usul sifatida izohlaydi. V.I. Postalova talqinidagi kognitiv metod transferni nafaqat, tashqi, madaniyatlararo harakat jihatidan, balki, ichki, kognitiv jarayon sifatida ham ko'radi.² Kognitiv metodda bilimlarni qabul qilish, qayta talqin qilish va uzatishda shaxsiy tajriba hamda idrokning ta'siriga e'tibor qaratiladi.

Irina Vladimirovna Zikova interdisiplinar metodni – turli fan sohalaridagi bilim va tushunchalarni integratsiya qilish orqali madaniyatlararo aloqalarni anglash usulidir, deb izohlaydi. Uning fikricha, madaniy transfer lingvokulturologik metatilni yaratish uchun eng old texnologiya bo'lib, fanlararo yangi ilmiy metatilni yaratishga xizmat qiladi.³

Mualliflar metodlardan tashqari madaniy transfer ishlaydigan tamoyillarni ham keltirib o'tishgan: **kontinuallik** (davomiylik), **polikodlilik** (turfa kodlilik), **geterogenlik** (turfa xillik), **interpretativlik** (qayta talqin qilinish).

V.V. Feshchenko kiritgan kontinuallik tamoyili – madaniyatni turli elementlarning yig'indisidan tashkil topgan yopiq tizim sifatida emas, balki, ma'nolar doim harakatlanadigan, qayta shakllanadigan va qayta ishlanadigan to'xtovsiz semiotik maydon sifatida ko'rish degani.⁴

Mariya Leonidovna Kovshova kiritgan polidoklilik tamoyili – madaniy almashinuvlar turli belgilar tizimi: til, obraz, matn, qo'l-tana harakatlari orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, transfer doim ko'p tarmoqli bo'ladi degani.⁵

¹ Теория культурных трансферов: от переводоведения через культурологию к теоретической лингвистике// Лингвистика и семиотика культурных трансферов: методы, принципы, технология: Коллективная монография / отв. ред. В.В. Фешенко. М.: Культурная революция, 2016. 36 с.

² Теория культурных трансферов: от переводоведения через культурологию к теоретической лингвистике// Лингвистика и семиотика культурных трансферов: методы, принципы, технология: Коллективная монография / отв. ред. В.В. Фешенко. М.: Культурная революция, 2016. 86 с.

³ Теория культурных трансферов: от переводоведения через культурологию к теоретической лингвистике// Лингвистика и семиотика культурных трансферов: методы, принципы, технология: Коллективная монография / отв. ред. В.В. Фешенко. М.: Культурная революция, 2016. 181 с.

⁴ Теория культурных трансферов: от переводоведения через культурологию к теоретической лингвистике// Лингвистика и семиотика культурных трансферов: методы, принципы, технология: Коллективная монография / отв. ред. В.В. Фешенко. М.: Культурная революция, 2016. 19-21 с.

⁵ Теория культурных трансферов: от переводоведения через культурологию к теоретической лингвистике// Лингвистика и семиотика культурных трансферов: методы, принципы, технология: Коллективная монография / отв. ред. В.В. Фешенко. М.: Культурная революция, 2016. 468 с.



V.V. Feshenko kiritgan geterogenlik tamoyili – madaniy jarayonlar hech qachon yakdor bo‘lmashligi. Madaniy transferda doim bir necha madaniyatlar almashuvi kechadi. Hech qachon almashinuv sof ikki madaniyat o‘rtasida kechmadi degan tushuncha.¹ V.V. Feshenko geterogenlik tamoyili Mishel Espanyaga tegishli ekanligini ham ko‘rsatib o‘tgan.

V.I. Postavalova kiritgan interpretativlik tamoyili – har qanday ma’no ko‘chishi yangi kognitiv va madaniy kontekstda sodir bo‘lishi sabab, har qanday o‘zlashtirish qayta tushunish jarayonida kechadi, degan qarashni ifodalaydi.²

Yuqorida keltirilgan tamoyillar madaniy transfer jarayoni shunchaki bilim va tajribalarni bir kontekstdan boshqa kontekstga ko‘chish jarayoni emas, balki murakkab dinamikada kechadigan ma’no va kodlarning qayta anglash, qayta talqin qilish, qayta shakllantirish jarayoni ekanligini ko‘rsatadi.

Madaniy transfer nazariyasini lingvistik nuqtayi nazardan yoritgan yana bir tadqiqotchi Stepan Sergeyevich Kalinin bo‘lib, “Лингвокультурный трансфер как форма передачи информации (на материале германских языков и контактных идиомов)” nomli dissertatsiyasida ma’lumotlar almashinuvi jarayonini tushuntirishga qaratilgan yangi lingvistik model haqidagi tahlil va fikrlarini bayon etgan. Uning tadqiqotining asosiy maqsadi, turli tillar va madaniyatlar tutashgan yerda qanday qilib pidjin, kreol va gibrid tillarga o‘xshagan tizimlar shakllanishi tushuntirishga qaratilgan lingvomadaniy trasferning **traslyatsion-axborot modelini** yaratish bo‘lgan. Kalinin kibernetika sohasining asoschisi Norbert Vinerning, axborot nazariyasi asoschisi Klod Elvud Uiverning, memetika asoschisi Richard Dokinzning, konstruksiyalar grammatikasi yo‘nalishining asoschisi Adel Elizabet Goldbergning g‘oyalarini yagona traslyatsion-axborot modelida birlashtirishga harakat qilgan. Tadqiqotining asosiy natijasi – madaniy axborot (memlar) qay tarzda tildagi konstruksiyalar orqali ifodalanishi, bu jarayon esa qanday introlingvistik va ekstralingvistik omillar tomonidan boshqarilishini ko‘rsatib beradigan **sturkturaviy-translyatsion modelni** yaratishga erishgan.³

Madaniy transfer doirasida tadqiqot olib borgan yana bir olim Shamsiyeva Barnoxon Baxromxodjayevna, “Tarjima matni madaniyat transferi sifatida (Natsume Sousekining “Qalb” asari asosida)” (2022) nomli dissertatsiyasida yapon madaniyatiga

¹ Теория культурных трансферов: от переводоведения через культурологию к теоретической лингвистике// Лингвистика и семиотика культурных трансферов: методы, принципы, технология: Коллективная монография / отв. ред. В.В. Фещенко. М.: Культурная революция, 2016. 20 с.

² Теория культурных трансферов: от переводоведения через культурологию к теоретической лингвистике// Лингвистика и семиотика культурных трансферов: методы, принципы, технология: Коллективная монография / отв. ред. В.В. Фещенко. М.: Культурная революция, 2016. 86 с.

³ Калинин С.С. Лингвокультурный трансфер как форма передачи информации (на материале германских языков и контактных идиомов). Диссертация на соискание учёной степени кандидата филологических наук. (автореферат) – Кемерово. 2019. – С. 30.



xos bo'lgan elementlar: toponimlar, realiyalar, lakunalarning o'zbek tiliga transferi masalalarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishida juda ham qiziqarli bo'lgan fikr va xulosalarni bayon etgan. Keling, shu fikr va xulosalar bilan tanishib chiqsak.

Barno Shamsiyeva tarjima matnini madaniyat transferining ifodasi, deb hisoblaydi. Madaniyat transferida asl madaniyat, vositachi o'rni va maqsad qilingan madaniyat muhim o'rin tutadi, deb yozadi. Barno Shamsiyeva ham, boshqa tadqiqotchilar kabi, transferni "ko'chish" deb talqin qiladi va bu borada shunday fikr bildiradi: "Madaniyat transferining sodir bo'lishi asarda bayon qilingan ma'lum g'oyalarning o'zga madaniyat maydoniga "ko'chishi", ayrim til ifodalarining yangi muhit sharoitidan kelib chiqib bu madaniyatga moslashishi, o'zga madaniyatga xos assotsatsiyalar bilan bog'liq tarzda o'ziga yangi ma'no "yuklab" olishi kabilarni aks ettiradi".¹

Muallif, tahlil natijasida, tarjima matni kitobxonlarini maqsad qilib olgani sabab, aslyatda mavjud bo'lmagan o'zbek millatiga xos dunyoqarash, qadryatlar ifodalangan til birliklari tarjima matniga qo'shilganligi aniqlanganini yozadi. Yapon diniy madaniyatida tabiat qonunlari ustuvorlik qilishi aks etgan jumalardagi fikrlar o'zbek xalqining e'tiqod mezonlari asosida transfer bo'lishi kuzatilgan, deydi. Madaniyat transferiga sabab bo'luvchi omillar aslyat matnining kommunikativ ta'sirini kamaytirmaydi, aksincha, uni saqlab qolishga yoki kuchaytirishga sabab bo'lgan, degan xulosani beradi.²

Demak, Shamsiyeva Barnoxonning xulosalari ham transfer nazariyasi doirasida mavjud da'volarni haq ekanligini ko'rsatib bergan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bir madaniy kontekstda shakllangan matn boshqa madaniy kontekstga ko'chishi natijasida, shubhasiz, qayta anglash va moslashtirish kabi kognitiv jarayonlar kechishini ko'rsatib berdi. Bunday kognitiv jarayonlarning natijasida turli transformatsiyalar; kengayishlar, qo'shilishlar, qayta talqin qilinishlar, sodir bo'lishi ham tasdig'ini topdi degan xulosaga kelsak bo'ladi.

Xulosa.

1. Tarjima bu transfer hodisasi – tarjima nafaqat til o'zgarishi, balki ma'no, qadriyat va madaniy modelning yangi tizimga o'tib, o'sha muhitda qayta shakllanish jarayonidir. U translatsiya emas, balki transformatsiyadir.

2. Madaniy transfer nazariyasi polisistem nazariyasiga hamohang eshitilsada, ular o'rtasida fundamental farq borligi ham ma'lum bo'ldi.

2. Mishel Espanya va Mixail Vernerning transfer nazariyasi tarjima – madaniy qadriyatlar migratsiyasi jarayonidagi vositda degan qarashdan kelib chiqadi. Bunday yondashuv falsafiy, ma'rifiy, ilmiy janrdagi tarjimalarda kuzatiladi.

¹ Shamsiyeva B.B. Tarjima matni madaniyat transferi sifatida (Natsume Sousekining "Qalb" asari asosida). – T.: TDSHU, 2022. 127-bet.

² Shamsiyeva B.B. Tarjima matni madaniyat transferi sifatida (Natsume Sousekining "Qalb" asari asosida). – T.: TDSHU, 2022. 127-bet.



3. Even-Zoharning polisistema nazariyasi tarjimoni madaniy tizimlarning o'zaro raqobati va ta'siri orqali tushuntiradi. Tarjima asari maqsad madaniyatidagi mavjud adabiy modelga moslashadi yoki uni yangilaydi.

4. Pimning matn transferi nazariyasi tarjimoni matnning vaqt va makon bo'ylab ijtimoiy-madaniy ko'chishi sifatida ko'rsatadi. Tarjima bu – matnning yangi kontekstda yangi hayot boshlashi demakdir.

5. Transfer nazariyasi “ekvivalentlik” o'rniga “muvofiglik” tushunchasini taklif etadi, chunki har bir tarjima yangi tizimning ehtiyojlariga mos holda shakllanadi va aslga to'liq teng bo'lishi shart emas.

6. Har bir transfer jarayoni selektivlik, vositachilik, transformatsiya va xronologiya tamoyillariga asoslanadi. Ya'ni, nimani o'tkazish, kim orqali o'tkazish, qanday o'zgartirish va qachon amalga oshirish masalalari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

7. Tarjima natijasi hech qachon asl nusxaning nusxasi emas — u ijodiy qayta yaratilgan yangi madaniy mahsul bo'lib, o'z kontekstida mustaqil estetik va semantik qiymatga ega.

8. Transfer nazariyasi tarjimoni fanlararo tadqiqot sohasi sifatida belgilaydi: u lingvistika, semiotika, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya nazariyalari bilan chambarchas bog'liq.

9. Ushbu yondashuv turli madaniyatlar o'rtasida bilim, diskurs va model almashinuvini tahlil qilish uchun qulay metodologik asos yaratadi, bu esa global madaniy aloqalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

10. Natijada tarjima madaniy o'zaro ta'sir va innovatsiya vositasi sifatida namoyon bo'ladi. U faqat matnlarni emas, balki butun bir madaniyatni yangicha idrok etish va rivojlantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Anthony Pym Translation and Text Transfer (An Essay on the Principles of Intercultural Communication). – Tarragona: Intercultural Studies Group, 2010, 215 pg.

2. Even-Zohar, Itamar Translation Theory Today: A Call for Transfer Theory // Poetics Today, Vol.2, No. 4. – Tel Aviv: Translation Theory and Intercultural Relations, 1981. Pg. 1-7.

3. Eugene A. Nida Science of Translation // Language, Vol.45, No3. – USA: Linguistic Society of America, 1969, pg. 483-489.

4. Michel Espangeg, Michael Werner La construction d'une référence culturelle allemande en France: genèse et histoire (1750–1914) // Annales. Économies, Sociétés, Civilisations, 42^e année, No4, 1987. Pg. 969-992.

5. Rachel Weissbrod From Translation to Transfer// Across Languages and Cultures, Volume5: Issue 1. AKJournals, 2004. Pg. 23-41 <https://doi.org/10.1556/Acr.5.2004.1.2>

6. Roman Jakobson Linguistic Aspects of Translation // On translation. – Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1959, Pg. 232-239.

7. Stefanie Stockhorst Cultural Transfer through Translation: The Circulation of Enlightened Thought in Europe by Means of Translation. – Amsterdam/New York: Editions Rodopi, 2010. – 256 pg.



8. Shamsiyeva B.B. Tarjima matni madaniyat transferi sifatida (Natsume Sousekining “Qalb” asari asosida). – T.: TDSHU, 2022. – B 30.
9. Калинин С.С. Лингвокультурный трансфер как форма передачи информации (на материале германских языков и контактных идиомов). Диссертация на соискание учёной степени кандидата филологических наук. – Кемерово. 2019. – С. 30.
10. Культурный трансфер на перекрёстках Центральной Азии: до, во время и после Великого Шёлкового пути. Париж-Самарканд: Международный Институт Центральноазиатских Исследований, 2013г. – С. 312.
11. Лагутина И.Н. Россия и Германия на перекрёстке культур: культурный трансфер в системе русско-немецких литературных взаимодействий конца XVII – первой трети XX века. – М.: Наука, 2008. – С. 342.
12. Лобачёва Д.В. Культурный трансфер: определение, структура, роль в системе литературных взаимодействий. Вестник ТПУ. – 2010. – Выпуск 8 (98). – С. 23-27.
13. Лингвистика и семиотика культурных трансферов: методы, принципы, технология: Коллективная монография / отв. ред. В.В. Фещенко. М.: Культурная революция, 2016. – С. 500.
14. https://ru.wikipedia.org/wiki/Эпоха_Просвещения (11.10.2025, 21:40da qaraldi)
14. Минеева И.Н. Культурный трансфер: от истории идеи к методологии // Филологическое исследование 2016. Т. 4, URL: <https://academy.petsu.ru/journal/article.php?id=3006>
15. Маслова В.А. Трансфер: от слова и термина к новому мировоззрению // Наука – образованию, производству, экономике: материалы XXII региональной научно-практической конференции преподавателей, научных сотрудников и аспирантов. – Витебск: ВГУ им. П.М. Машерова, 2017. – С. 146-148.

ARBA'INLARDA KUR'ONI KARIM VA HADIS MA'NOLARINING AKS ETISHI

MALOHAT PULATOVA

Associate Professor, PhD in Philologym TDUOS

ORCID (<https://orcid.org/0009-0000-8171-0271>)

Annotatsiya. Mazkur maqolada *Qur'on* va hadislar matni atrofida yuzaga kelgan sharh va izohlar yozish an'ansi “*Arba'in*” asarlar – qirq hadis to'plamlarini vujudga keltirganligi asoslangan. *Arba'in*lar nasr va nazmda yozilgan bo'lib, *Qur'on* oyatlari va hadislar mazmunini o'z ichiga olganligi va *Arba'in*larda bayon etilayotgan nazariy materialni dalillash uchun arab va fors, turkiy tillarda ko'plab hikoyat, rivoyat, naqlar keltirilganligi tahlil qilingan.

Kalit so'zi: *Arba'in* (qirq hadis), *Qur'on* va hadislar, sharh va izohlar, islom adabiyoti, nasr va nazm, rivoyat va hikoyatlar an'anasi, arab, fors va turkiy tillar

Abstract: This article substantiates that the tradition of writing commentaries and explanations around the texts of the *Qur'an* and *Hadith* led to the emergence of *Arba'in*



works—collections of forty hadiths. The Arba'ins were written in both prose and verse, incorporating the meanings of Qur'anic verses and hadiths. It is also analyzed that, in order to substantiate the theoretical material presented in the Arba'ins, numerous stories, legends, and narratives in Arabic, Persian, and Turkic languages were cited.

Keywords: Arba'in (Forty Hadiths), Qur'an and Hadith, commentary and interpretation, islamic literature, prose and poetry, narrative traditions, arabic, persian, and turkic languages.

Аннотация: В данной статье обосновано, что традиция написания комментариев и толкований вокруг текстов Корана и хадисов привела к возникновению произведений жанра «Арбаъин» — сборников сорока хадисов. Арбаъины создавались как в прозе, так и в поэтической форме, включали в себя содержание коранических аятов и хадисов. Также проанализировано, что для доказательства излагаемого в арбаъинах теоретического материала приводилось множество рассказов, преданий и повествований на арабском, персидском и тюркских языках.

Ключевые слова: Арбаъин (сорок хадисов), Коран и хадисы, комментарии и толкования, исламская литература, проза и поэзия, повествовательные традиции, арабский, персидский и тюркские языки

Islom dini o'z taraqqiyoti va butun sharq hududiga keng va chuqur kirib borishi natijasida islom mintaqada madaniyati doirasidagi xalqlarning tafakkurini ma'naviy qadriyatlar asosida birlashtirib, mohiyatan barcha musulmon xalqlari uchun yagona bo'lgan yaxlit madaniyatni, xususan yaxlit falsafa, ilm fan, badiiy adabiyotni shakllanishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Din insonlarning ma'naviy poklanishi, axloqiy tarbiyasi, insoniy komilligi, hayot zarbalariga qarshi kurashidagi tayanchi, xalqlar va millatlar ma'naviy boyligi va boy madaniyatining ajralmas bir bo'lagi, inson ijtimoiy taraqqiyotining uzviy tarkibiy qismi hisoblangan. Din inson ma'naviy shakllanishida uning tabiatida chuqur ildiz otgan insoniy yetuklik va barkamollik, insonparvarlik me'yorlaridan biridir. Islom turmush tarzining dunyo taraqqiyparvar ommasi tomonidan madaniy meros, keng tarqalayotgan va rivojlanib kelayotgan e'tiqod sifatida tan olinishi, musulmon madaniyati rivojining, yoki boshqacha istiloh bilan aytadigan bo'lsak, “islom uyg'onishi”, “islom fenomeni”, “islom sivilizatsiyasi” kabi turli atamalar bilan nomlanayotgan hodisaning progressiv rivojlanish xususiyatlarini o'zida jamlaydi. Har qanday diniy e'tiqod kabi, islomiy e'tiqod ham inson ruhiy kamoloti va qalb yetukligi bilan bog'liq holatdir. O'z tarixiy rivojlanishi jarayonlarida musulmon madaniyati odamlar uchun sof gumanitar xususiyatlarga, jumladan poklik va halollikka, bag'rikenglik va tinchlikka, oilalar ravnaqi va butunligiga umid va ishonchni kuchaytiradi.

Mazkur yo'nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlar ichida islom adabiyoti va uning Sharq adabiyotiga ta'siri masalalari alohida e'tiborga loyiq. Shunga ko'ra, islom dini va boy madaniyatining badiiy tafakkur va uning milliy adabiyotlarga ta'siri tarixiy hodisa bo'lib, mazkur ijobiy ta'sir islom dini targ'iboti vujudga kelishi bilan shakllana boshlagan. Islom dini ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida islom omilining vujudga kelishi uchun xizmat qilgan.



Sharq falsafasi va madaniyatining shakllanishida Qur'on va hadislar asosiy manbalar sifatida qaraladi. Hadislar inson ma'naviyati, hayot tarzi va falsafiy qarashlarini belgilovchi muhim omil bo'lsa, Qur'on ularning mazmunini to'g'ri anglash uchun asosiy metodologik tayanch hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari asrlar davomida Qur'on va hadislarni nafaqat diniy, balki madaniy va falsafiy manba sifatida ham tadqiq qilib kelganlar.

Diniy adabiyot, ayniqsa muqaddas manbalarda bildirilgan fikr, qarash va g'oyalarga ergashish ikki shakl ko'rinishida mavjud bo'ladi.

Biri, muqaddas manbalarni sof diniy yo'nalishda tushuntirish, ikkinchisi – muqaddas manbalarni sof adabiy yo'nalishda tushuntirishdir.

Birinchi yo'nalishda, muqaddas manbalarga ergashish asosida kommentariylar, ya'ni ularga sharhlar yozish, diniy adabiyotda ularni tafsir istilohi bilan ataydilar, ular – asosan sof teologik adabiyotga kiritiladi. Tafsir so'zining lug'aviy ma'nosi ham bevosita ko'rib chiqilayotgan mavzuga to'g'ri keladi, ya'ni u "farasa" so'zidan olingan bo'lib, "tushuntirish", "maqsadni namoyon qilish", "pardani ko'tarish" ma'nolarini anglatadi¹. Qur'on oyatlarini sharhlash ilmi islomda "ilm al Qur'an va at-tafsir" nomi bilan atalgan. Qur'onga sharhlar islom dini tarixida juda katta ahamiyat kasb etib, islom doktrinasi va uning g'oyalarining shakllanishiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazgan. Islom doktrinasi – Qur'on va Sunnatga asoslangan holda shakllangan, musulmonning e'tiqodi, amaliy faoliyati va axloqiy kamolini belgilab beruvchi kompleks diniy-huquqiy va falsafiy ta'limot bo'lib, Qur'on ma'nolarini to'liq bilgan inson – Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)dir. Qur'on ma'nolarini ilk bor o'zgalarga tushuntirib bergan odam ham Muhammaddir. Sharq falsafasi va madaniyatining shakllanishida Qur'on va hadislar asosiy manbalar sifatida qaraladi. Hadislar inson ma'naviyati, hayot tarzi va falsafiy qarashlarini belgilovchi muhim omil bo'lsa, Qur'on ularning mazmunini to'g'ri anglash uchun asosiy metodologik tayanch hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari asrlar davomida Qur'on va hadislarni nafaqat diniy, balki madaniy va falsafiy manba sifatida ham tadqiq qilib kelganlar.

Qur'on va hadislarning bir biriga mutanosibligi shundaki, Qur'on - Allohning kalomi, oxirat va dunyo hayoti bo'yicha muqaddas ta'limot, hadislar – Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning so'zlari, amallari va tasdiqlari bo'lib, Qur'ondagi o'gitlar va ta'limlarni amalda qanday qo'llashni ko'rsatadi. Ularning uyg'unligi shundan iboratki, hadislar Qur'onga zid bo'lmasligi va hadislar Qur'onda berilgan ta'limlarni kengaytiradi yoki sharhlaydi.

Masalan:

Qur'onning baqara surasi 153-oyatida aytiladi:

إِنَّ اللَّهَ مَعَ الصَّابِرِينَ

"Alloh sabr qiluvchilar bilan birga bo'ladi"².

¹Ислам. Энциклопедический словарь. - М.: Наука, 1991.

² Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari. – "O'qituvchi". Toshkent –B.23.



va yana:

Qur'onning Anfol surasi 46-oyatida ham

إِنَّ اللَّهَ مَعَ الصَّابِرِينَ

“Alloh sabr qiluvchilar bilan birga bo'ladi” deyiladi.

Hadislarda esa, Payg'ambarimiz (s.a.v) shunday deydi:

وَمَنْ يَتَصَبَّرْ يُصَبِّرْهُ اللَّهُ¹

“Sabr qilgan kishi mukofotlanadi”²

va yana:

وَمَنْ يَتَصَبَّرْ يُصَبِّرْهُ اللَّهُ، وَمَا أُعْطِيَ أَحَدٌ عَطَاءً خَيْرًا وَأَوْسَعَ مِنَ الصَّبْرِ³

“Kim sabr qilishga urinib yashasa, Alloh unga sabrni ato etadi. Hech kimga sabrdan ko'ra kengroq va yaxshiroq ne'mat berilmagan”

Hamda

إِنَّ عَظَمَ الْجَزَاءِ مَعَ عَظَمِ الْبَلَاءِ، وَإِنَّ اللَّهَ إِذَا أَحَبَّ قَوْمًا ابْتَلَاهُمْ، فَمَنْ رَضِيَ فَلَهُ الرِّضَاءُ، وَمَنْ سَخِطَ فَلَهُ السُّخْطُ⁴

“Alloh bandasini yaxshi ko'rsa, uni sinovga soladi. Kim sabr qilsa – Allohning roziligi bor, kim norozi bo'lsa – g'azabi bor”.

Ko'rinadiki, Qur'on oyatlari umumiy qoidani bayon qilsa, hadislar oyatning fazilatini, mohiyatini, o'rnini sharhlab beradi va hadis Qur'on ta'limini amalda tasdiqlaydi.

Qur'onning chuqur o'rganilishi hadislarning mohiyatini anglashda zaruriy shartlardandir. Masalan, Imom al-Buxoriy (810–870) o'zining mashhur “Al-Jome' as-Sahih” asarida hadislarni Qur'on asosida tekshirish va tasdiqlash zarurligini ta'kidlagan. Shuningdek, Abu Iso at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturidiy kabi allomalar ham hadislarni Qur'on bilan uyg'un holda sharhlashga katta e'tibor berganlar. Bu yondashuv hadislarning nafaqat diniy, balki falsafiy va axloqiy ahamiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Shu nuqtai nazardan, arba'in janri ham ikki muqaddas manbaga asoslanishi tabiiydir.

Islom dini tarixi va Qur'onning kitobat qilinishi an'anasi bilan bog'liq ravishda, islom aqidalarini targ'ib va tashviq etish vazifasidan kelib chiqqan holda ularga kommentariylar yozish avvalo diniy yo'nalishda bo'lib, ilk tafsir asarlaridan Ibn Jarir at-Tabariyning “Jomi' al-bayon” asari vujudga kelgan⁵. Chunki, ularning ma'nolarini keng ommaga tushuntirish ehtiyoji juda baland bo'lgan. Ibn Jarir at-Tabariyning “جامع البيان عن تأويل آيات القرآن” – “Tafsir at-Tabariy” asari: asari ilk bor XX asr boshlarida, xususan 1902–1903 yillarda Qohirada Bulaq matbaasida to'liq holda nashr qilingan.

Islom dinining ilk davrlarida Qur'oni Karimning nozil bo'lishi, uni saqlash, kitobat qilish va avlodlarga aniq yetkazish vazifasi birinchi navbatda aqidaviy barqarorlik va

¹ Ал-Жомеъ ас-саҳих. — Байрут: Дор Ибн Касир, 1987.

² Imom Muslim riviyati. Shihul Muslim. — “Darus Salom”. Riyod —B. 243.

³ Ал-Жомеъ ас-саҳих. — Байрут: Дор Ихё ат-Турок ал-‘Арабий, 1991.

⁴ Сунаи Ибн Можа. — Байрут: Дор ал-Фикр, 1995.

⁵ الطبري، محمد بن جرير. جامع البيان عن تأويل أي القرآن. القاهرة: المطبعة الأميرية (بولاق)، 1321–1322ھ.



dinni targʻib qilish ehtiyojidan kelib chiqqan. Shu nuqtai nazardan, Qurʻon matni atrofida yuzaga kelgan tafsir, sharh va izohlar avvalo diniy yoʻnalishda vujudga kelgani tabiiy holdir. Chunki, Islom aqidalarini toʻgʻri anglatish va notoʻgʻri talqinlarning oldini olish zarurati mavjud edi. Turli madaniy va til muhitlariga islom taʼlimotini yetkazish uchun matnni sharhlash ehtiyoji kuchaydi. Yangi musulmon mintaqalarida eʼtiqodiy savollar koʻpayib, ularga ilmiy javob berish talab etildi.

Mazkur jarayonda Qurʻonni sharhlash anʼanasi faqat matnni izohlash bilan cheklanib qolmay, islom aqidasi mustahkamlash, uni himoya qilish va ommalashtirish vazifasini ham bajargan. Shu maʼnoda, dastlabki kommentariylar yaʼni tafsirlar fihiy yoki falsafiy emas, balki asosan aqidaviy-diniy maqsadga xizmat qilgan. Keyinchalik esa islom ilmiy anʼanasining rivojlanishi bilan mazkur kommentariylar fihiy, kalomiy, lugʻaviy, mantiqiy, falsafiy yoʻnalishlarga ajrala boshladi.

Ulardan:

Qurʻoni Karim nozil boʻlgan davrdanoq uning maʼnolarini toʻgʻri anglash ehtiyoji yuzaga kelgan. Paygʻambarimiz Muhammad s.a.v. Qurʻon oyatlarini sahobalarga sharhlab, amaliy misollar bilan tushuntirib bergan. Bu holat tafsirning ilk shakli hisoblanadi. Masalan:

بِالنِّيَّاتِ وَالزُّبْرِ وَأَنْزَلْنَا إِلَيْكَ الذِّكْرَ لِتُبَيِّنَ لِلنَّاسِ مَا نُزِّلَ إِلَيْهِمْ وَلَعَلَّهُمْ يَتَّقُونَ

“Biz senga Zikrni (Qurʻonni) nozil qildik, toki sen odamlarga ularga nozil qilingan narsani bayon qilib berishing uchun” (Nahl surasi, 44-oyat).

Ushbu oyat Paygʻambar s.a.v.ning asosiy vazifalaridan biri Qurʻonga izoh berish ekanini ochiq koʻrsatadi. Ilk tafsir asarlari, jumladan, Ibn Jarir at-Tabariyning “جامع البيان” “Jomiʼ al-bayon an taʼvil il-Qurʻon¹” – “Qurʻon oyatlarini sharhlash haqidagi mukammal bayon” nomli asari, asosan oyatning sababi nuzuli², aqidaviy mazmuni, paygʻambar s.a.v. va sahobalar rivoyatlariga tayanib yozilgan. Bu esa tafsir kommentariylarining ilk bosqichda diniy-aqidaviy vazifani bajarganini tasdiqlaydi.

Hadislar ham dastlab islom aqidalarini mustahkamlash va amaliy hayotga tatbiq etish maqsadida rivoyat qilingan. Hadis matnlarining qisqa, mazmunan chuqur boʻlishi ularga izoh yozish zaruratini keltirib chiqqargan. Jumladan,

إِنَّمَا الْأَعْمَالُ بِالنِّيَّاتِ – “Amallar niyatga bogʻliqdir” (Imom Buxoriy, Imom Muslim).

Ushbu hadisga oʻz davrining yetuk ulamolari Ibn Hajar al-Asqaloniy “Fath al-Boriy” asarida va Imom Navaviy “Sharh Sahih Muslim” nomli asarlarida imon va ixlos, niyatning aqidaviy ahamiyati kabi diniy jihatlarini sharhlaganlar. Bu sharhlar hadis kommentariylari ham avval diniy-taʼlimiy maqsadda yuzaga kelganini koʻrsatadi.

¹ «Жомий ал-баён» — хижрий III асрнинг охирида ёзилган, Қуръон тафсирида энг қадимий ва энг муътабар манбалардан биридир.

² Сабаби нузул (арабча: أسباب النزول) — Қуръон оятлари қайси воқеа, ҳолат ёки савол муносабати билан нозил бўлганини тушунтириб берувчи илмий тушунча.



O‘z hoida, Qur‘on tafsirlari arba‘inlar uchun nazariy manba ham bo‘lib xizmat qilgan. Mualliflar o‘z arba‘inlarini yozish jarayonida o‘z muqaddimalaridagi ta‘kidlariga ko‘ra, Qur‘on, Hadis va tafsirlarga tayanganlar.

Adabiyotshunoslikda biror-bir asarga, yoki muallifga taqlid qilib, ularga ergashib, yoki ular g‘oyalarni davom ettirish maqsadida yozilgan asarlar mavjud bo‘lib, mana shunday asarlar turli lirik, epik va prozaik janrlarga asoslanadi. Ular xamsanavislik, tatabbu‘, nazira,¹taqlid asosida yoziladigan janrlarga kiritiladi. Diniy manbalarga esa taqlid qilinmaydi, balki ularda berilgan g‘oyalarga ergashiladi. Masalan, Gyotening “Zapadno-vostochniy divan”², A.S.Pushkinning “Podrajaniya Koranu” she‘rlar to‘plamlari shular qatoriga qo‘shiladi. Binobarin, Qur‘on va hadislar ilohiy manbalar sifatida ham Sharq adabiyotining, ham G‘arb adabiyotining rivoji, an‘analari va mualliflar ijodiga bevosita ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lib, jahonshumul ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, Qur‘on va hadislarida keltirilgan qadriyatlar silsilasi umuminsoniy qadriyatlar sifatida ham Sharq xalqlarini, ham G‘arb xalqlarini o‘ziga rom qilib, mana shu qadriyatlarning tan olingani timsolidir.

Biroq sharq adabiyotida taqlid asosidagi she‘rlar aniq bir janr orqali, ergashish asosidagi she‘rlar boshqa bir janr orqali ifoda qilingan. Masalan, besh doston an‘anasi asosida yaratiladigan “Xamsa” badiiy ergashish natijasida yaratiladi. Tatabbu‘ janri ham shakl, ham mazmun ergashishi sanaladi. Badiiy adabiyot muqaddas manbalarda berilgan fikr va qarashlarga ham ergashishi mumkin. Biroq mana shunday ergashish holati biror-bir aniq janr orqali emas, balki erkin holda tanlangan nazm va yoki nasrda, mustaqil tanlangan janrlarda bo‘lishi mumkin.

Masalan, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”³ va Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr”⁴ asarlarida ikki tomonlama ergashish mavjud. Mazkur manbalarning har biri islom manbalariga ergashish natijasi bo‘lsa, Alisher Navoyi dostoni Farididdin Attorga ergashib, unga javoban yozilgandir. Binobarin, bizning fikrimizga ko‘ra, Qur‘on oyatlari va hadislariga ergashish, yoki ularga taqlid qilish ikki tipda amalga oshiriladi:

a) bevosita muqaddas manbalarning o‘zigagina tayanib, ulardagi g‘oyalardan ruhlanib, mustaqil asar yaratish;

b) diniy asarlar mazmuni aks etgan badiiy asarlarga tayanib, mustaqil asar yaratish.

Diniy adabiyot, ayniqsa muqaddas manbalarda bildirilgan fikr, qarash va g‘oyalarga ergashish, binobarin, ikki shakl ko‘rinishida mavjud bo‘ladi.

Biri, muqaddas manbalarni sof diniy yo‘nalishda tushuntirish, ikkinchisi – muqaddas manbalarni sof adabiy yo‘nalishda tushuntirishdir.

¹Ўзбек адабиёти тарихи. 2 том. – Тошкент: Фан. 1977. – 460 б.; Адабий турлар ва жанрлар. 2 том. – Т.: Фан, 1992. – 247 б.

² Жабборов С. Гётенинг “Ғарбу Шарқ девони”. Мант. Талқин. Таржима. Филол.ф.д.дисс.автореферати. –Т.: 1995.

³ Шайх Фаридулдин Аттор. Мантикут тайр. – Тошкент: Фан. 2006. – 398 б.

⁴ Алишер Навоий. Лисонут тайр. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа бишлашмаси. 1991. – 462 б.



“Arba’in” asarlari – Islom ulamolari tomonidan tuzilgan qirq hadis to‘plamlari bo‘lib, asosiy maqsadlari ummatni ilmga rag‘batlantirish va sunnatni yodlashni rag‘batlantirishdan iborat bo‘lgan. Imom Navaviyning mashhur “Al-Arba’in an-Navaviy”si shu turdagi eng mu‘tabar asarlardan hisoblanadi. Asarning asosiy xususiyati shundaki, hadislar tanlanishda uning ilmiy va axloqiy ahamiyatga ega ekanligi, ummatni imon, amal va ilmga rag‘batlantirishga e‘tibor qaratilgan.

Qur‘on va Hadislarda ma‘lum bir va aniq belgilangan diniy-islomiy axborot mujassamlantirilgan bo‘ladi. Mazkur axborotning tarixiy va teologik mazmuni bo‘ladi. Arba’inlarda aynan mana shu aniq belgilangan mazmun yangi poetik shaklda qayta gavdalandiriladi. Qayta gavdalandirish jarayoni muallifning poetik mahorati, uning badiiy dunyoqarashi, bilimdonligi, axborotning qaysi qirralariga e‘tibor qaratishi kabi jihatlariga bog‘liq bo‘ladi. Muallifning qaysi axborotni tanlashi uning ijodkor sifatidagi mustaqilligini belgilab beradi. Mazkur o‘rinda aynan axborot talqin qilinadi. Shakl va talqin jarayonida muallif o‘zini erkin xis qiladi. Biroq talqin mazmuni aniq belgilangan diniy axborot asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, Abdurahmon Jomiy o‘zining “Chihil hadis” asarida hadislarni nazmda sharhlaydi.

Hadis.

دم على الطهارة يوسع عليك الرزق

Ya’ni, doim pokiza yurgin, rizqi ro‘zing oshadi, - degan hadis Jomiy she’riy talqinida quyidagicha sharhlanadi:

ای کز آله کئی تو شب و روز
فاقه و فقر تو زیاده شود
بی طهارت مباش تا بر تو
روزی تنگ تو گشاده شود

(ya’ni, Ey sen, pokiza emasligingdan har kunu tun sening notavonliging ortib (oshib) boradi. Betahoratsiz bo‘lmaginki, sening mushkullaring eshigi ochiladi, ro‘zg‘orning qiyinchiligi yo‘qoladi.)

Qur‘on oyatlari va Hadislarda keltirilgan ba’zi axborotlar diniy istilohlar, tushunilishi qiyin bo‘lgan jumladan, tarixiy hodisalar talqini asosida bo‘lishi mumkin. Mana shunday o‘rinlarda diniy axborotga aynan poetik tarzda izoh beriladi.

Shuningdek, quyidagi hadisni Navoiy shunday tushuntiradi:

اطلبوا الخير عند حسان الوجوه

(tarj: Yaxshilikni ochiq yuzlilardan izla.)

Alisher Navoiyda:

Eyki, har ishta hojating bo‘lsa,

Yaxshi yuzlugdin ista baxshoyish.

To-ki baxshoyishidin avvalroq

Ko‘rmagidan yetushgay osoyish.



(ey, agar biror ishga ehtiyojning bo'lsa, yaxshi yuzlilardan marhamat kutgin (ista). Toki marhamatidan avval uni ko'rishingning o'zidan rohatlanasan).

Ba'zi o'rinlarda diniy axborot va manbalarda belgilangan voqea va hodisani oddiy tarzda tushuntirib berishning iloji bo'lmaydi. Chunki u ma'lum bir tarixiy faktlar, afsonalar, yoki hodisalar bilan uyg'unlashib ketgan bo'ladi. Mana shu o'rinlarda mualliflar mazmunni chuqurlashtirib bayon etish yo'lidan borishadi Bunday hollarda nasr bilan nazm qo'shib keladi. Nasriy matnda voqealar bayon qilinsa, nazmiy matnda mana shu voqeadan inson qalbida vujudga kelgan xissiyotlar tahlili beriladi.

Qur'on oyatlari va Hadislarda ma'lum bir holat va vaziyatlar bo'yicha tegishli xulosalar berilgan bo'lishi mumkin. Ana shu axborotlarni shoir o'z dunyoqarashi, diniy mistik qarashlari, poetik tafakkuri asosida rivojlantirib, g'oyalarni yanada emotsional, yanada ulug'vor, yanada ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Misol uchun IX asrning oxirlari – XX asrning boshlarida yashab ijod etgan Qo'qon adabiy muhitining iste'dodli shoirlaridan Muhammadqul Muhammadrasul o'g'li Muhayyir o'zining "Chihil hadis" asarida quyidagi hadisni shunday talqin etadi:

لَا يَدْخُلُ الْجَنَّةَ مَنْ كَانَ فِي قَلْبِهِ مِثْقَالُ ذَرَّةٍ مِنْ كِبَرٍ

Tarjimasi: "Qalbida zarracha kibr bor odam jannatga kirmaydi".

Muhayyir

Boqma mo'minlarga haqorat ila

Ki, behisht ichra qilmagay manzil

Har musulmonki, anga olam aro

Bo'lsa bir zarra kibrlig ko'ngul.

(ya'ni, mo'min mo'minlarga xaqorat va bepisandlik qilmaydi, agar shunday qilsa oliy maqom jannat unga nasib qilmaydi. Bu dunyoda qalbida zarracha kibri bo'lgan har bir musulmonga jannat nasib etmaydi).

Qur'on oyatlari va Hadislarda ma'lum diniy axborot mujassam bo'ladi. Ularni oddiy axborot sifatida uzatish mumkin. Shu bilan birga ularni obrazlilik asosida uzatish mumkin. Obrazli til badiiy tafakkur asosida shakllantiriladi. Shoirlar, yozuvchilar ana shu obrazli va badiiy tilning ustasi sanaladi. Shu bois, arba'inlarda oddiy informatsiya badiiy boyitilgan tarzda o'quvchiga uzatiladi. Shoiming maqsadi ham nutqni ta'sirchan qilish orqali bosh maqsadga, ya'ni dinni chiroyli, ta'sirchan va turg'un tarzda targ'ib qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Hadisi Usfuriydan:

29 - Hadis

Ibn Asvad Diliy roziyallohu anhu Hazrat Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

Payg'ambar alayhis-salom aytdilar:

قَالَ النَّبِيُّ عَلَيْهِ السَّلَامُ: مَا مِنْ رَجُلٍ يَمُوتُ فَيَشْهَدُ لَهُ ثَلَاثَةُ رَجَالٍ إِلَّا وَجِبَتْ لَهُ الْجَنَّةُ

فَقُلْتُ: يَا رَسُولَ اللَّهِ، وَإِنْ شَهِدَ اثْنَانِ؟ قَالَ: نَعَمْ

وَلَمْ يَسْأَلْ عَنِ الْوَاحِدِ



“Biror odam vafot qilsa va uchta kishi uning yaxshi odam bo‘lganiga guvohlik bersa, albatta, u jannatga kiradi.”

Men so‘radim:

–Ey Rasululloh, agar ikki kishi guvohlik bersa-chi?

U zot aytdilar:

–Ha (ikki kishi guvohlik bersa ham jannatga kiradi).

Bitta kishi guvohlik haqida so‘ralmadi”

Hikoya

Hazrat Abdulaziz ibn Suhayb roziyallohu anhu, Hazrat Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar:

Payg‘ambar alayhis-salom va bir necha sahobalar yo‘lda ketib borayotgan edilar. Shu payt yo‘lda bir odamning janozasini odamlar ko‘tarib kelayotganiga duch kelishdi. Ularning ba‘zilari: “Bechora yaxshi odam edi”, — deb afsuslanib, uning ustidan yaxshi gapirib o‘tishdi. Payg‘ambar alayhis-salom: “Albatta (uning uchun) jannat vojib bo‘ldi”, — dedilar.

Keyinroq yana bir guruh odamlar boshqa bir murdani ko‘tarib o‘tishdi. Odamlarning ba‘zilari o‘sha murda haqida yomon gap qilib, shikoyat qila boshladilar. Payg‘ambar alayhis-salom: “Albatta (unga) do‘zax vojib bo‘ldi”, — dedilar.

Hazrat Umar roziyallohu anhu so‘radilar:

–Ey Rasululloh, nima vojib bo‘ldi?

Payg‘ambar alayhis-salom dedilar:

–Ey Umar, avvalgi murdaning ortidan odamlar “bu yaxshi odam edi” deb guvohlik berib o‘tishdi. Shuning uchun u murdaga jannat vojib bo‘ldi. Keyingi murda haqida esa odamlar “u yomon edi” deb guvohlik berishdi. Shuning uchun unga do‘zax vojib bo‘ldi.

Yana Payg‘ambar alayhis-salom aytdilar:

–Ey Umar, sizlar yer yuzida Alloh taoloning guvohlarisiz. Alloh taolo bandalarga jazo berishda sizlarning guvohligingizni ham sabab bo‘ladi.

Qur‘on va Hadislarda murakkab diniy tushuncha talqin qilingan bo‘lishi mumkin. Mana shu murakkablik anglashga qiyinlik tug‘dirishi mumkin. Shu bois, arba‘inlarda insonlar hayotida uchrab turuvchi voqealar, rivoyatlar, afsonalar asosida belgilangna murakkab mavzu tushuntirilishi mumkin.

Din har vaqt o‘zining kriteriylari va normalariga ega bo‘ladi. Mana nu normalar albatta bajarilishi qat‘iy belgilangan bo‘ladi. Masalan, tahorat, ro‘za, xaj, zakot v.b. Ularni nazariy tushuntirish bu diniy ilmlarning vazifasidir. Ularni badiiy tarzda amaliy va soddalashitrib tushuntirish arba‘in kabi diniy-adabiy janrlarning vazifasidir.

Quyidagi hadisni Jomiy shunday talqin qiladi:

دم على الطهارة يوسع عليك الرزق

Doim pokiza yurgin, rizqi ro‘zing oshadi.

ای کز آله کی توشب و روز



فاقه و فقر تۆز يادە شود
بى طهارة مباح تا بر تو
روزي تنگ تو گشاده شود

(ya'ni, Ey sen, pokiza emasligingdan har kunu tun sening notavonliging ortib (oshib) boradi. Betahoratsiz bo'lmaginki, sening mushkullaring eshigi ochiladi, ro'zg'orning qiyinchiligi yo'qoladi.)

Binobarin, arba'inning adabiy janr sifatida bajaradigan ma'naviy va ma'rifiy vazifalari ko'lami jihatidan uning o'ziga xos jihatlari mavjud. Avvalo, mazkur masala arba'inning belgilangan tarannum etish darkor bo'lgan g'oyalari va insonparvarlik tamoyillari bilan belgilanadi. Ularning ikkalasi ham Alloh, e'tiqod, Allohni tanish, Alloh sifatleri, takbir, imon va imon ruknlari, Alloh bandasidan istagan gumanistik g'oyalar bilan chatishib ketadi. Shunga ko'ra, arba'in vazifalari ichida muallif tarannum etmoqchi bo'lgan g'oyalar aslida islom ta'limoti ichida tayyor holda mavjud bo'ladi. Muallif ana shularning ichidan o'z psixoemotsional halotiga mos bo'lgan g'oyalarni tanlab oladi va poetik bo'yoqlarga burkatib, tarannum etadi. Binobarin, muallif bir tomondan azaldan mavjud tamoyillar asosida ish ko'radi, ikkinchi tomondan esa, o'z poetik tafakkuri asosida mana shu azaldan mavjud g'oyalarni o'zgacha shakl va o'zgacha poetik ruhda shakllantiradi.

Demak, tafsir, hadis va arba'in an'alarini manbalar asosida tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, islom dini tarixi va Qur'on kitobati jarayoni bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan kommentariy yozish amaliyoti avvalo diniy-aqidaviy va targ'ibiy vazifani bajargan. Keyinchalika mazkur kommentariylar ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ixtisoslashib, fiqhiy, kalomiy va falsafiy shakllarga ega bo'lgan.

Hadis to'plamlarida har bir hadis manbai va rivoyati bilan birga keltiriladi. Targ'ibot yo'nalishidagi hadislar ummatni axloq, ibodat va ilmga rag'batlantirishda qo'llaniladi. Fazoilul-a'mol nuqtai nazaridan, asar zamonaviy ilmiy tahlillarda ham qimmatli hisoblanadi.

“Arba'in” asarlar muhaddis olimlardan Abdulloh ibn Abbas, Ibn Mas'ud, Muoz ibn Jabal, Abu Dardo, Ans ibn Malik, Abu Hurayra rivoyatlari orqali turli yo'llar bilan kelgan. Ular ilmni yodlash va ummatga foyda keltirishda asosiy manba hisoblanadi.

Keyinchalik bu hadislarga sharhlar yozilgan. Ulardan Ibn Daqiq al-Iyd, Suyutiy hadislarni falsafiy yoki nazariy tomondan sharhlamagan balki, e'tiqodni mustahkamlashda dinni sodda va ta'sirli yetkazish maqsadida hadislarga sharhlar yozgan.

Ularda tazkira, tabaqot, tarojim kabi asarlardan farqli o'laroq, Qur'on oyatlari va Hadislar mazmuni mualliflar, ya'ni shoir va yozuvchilarning ijodiy g'oyasi-maqsadiga bo'ysundirilgani holda islom dini muqaddas manbalarining ma'no-mohiyatini tasvirlashga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Arba'in mustaqil adabiy janr bo'lib, uning evolyusiyasi arab adabiyoti zamirida vujudga kelgan. Arablarda arba'in Qur'on oyatlari va Hadislar sharhi darajasida



qoʻllanilgan. Biroq fors-tojiq va turkiy adabiyot negizidagina arbaʼin poetik asar sifatida shakllantirilgan.

Arbaʼinlar nasr va nazmda yozilgan boʻlib, koʻplab Qurʼon oyatlari va hadislar mazmunini oʻz ichiga oldi. Arbaʼinlarda bayon etilayotgan nazariy materialni dalillash uchun koʻplab hikoyat, rivoyat, naqlar keltirildiki, ular nazariy masalalarning misollar vositasida kitobxon xotirasida saqlanib qolishiga imkoniyat yaratdi.

Arbaʼindagi hadislarning roviylari albatta bayon etiladi. Uning ishonchliligiga urgʻu beriladi.

Arbaʼin mualliflari oʻz arbaʼinlarini yaratishdan oldin, oʻzlaridan oldin arbaʼin yaratganlar haqida maʼlumot berib oʻtadilar.

Shunday qilib, arbaʼin anʼanasi maxsus mazmun va shaklga ega boʻlgan lirik janr boʻlib, uning diniy-maʼnaviy va axloqiy-maʼrifiy ahamiyati juda katta boʻlgan. Arʼbain yoʻnalishida barcha daho va mutafakkir shoirlar ijod qilganlar. Ular oʻz arbaʼinlarida nafaqat islom aqoidlari va islom maʼnaviyatini targʻib qilib, shu bilan bir qatorda oʻzlarining dunyo, borliq va Yaratgan borasidagi qarashlarini ham tarannum etganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Абу Бакр ибн Муҳаммад. Ҳадиси Усфурий – Т.: Адабиёт ва санъат 1993. – 107 б.
2. Алишер Навоий – Асарлар. Ўн беш томлик. 15-том. – Т.: 1968.
3. ARAYANA Vol. XXIV, 1-2, Jan-Feb. Kabul. P. 1996.
4. Дехқонов А. “Муҳаййир таржима қилган “Қирқ ҳадис” / Республика ёш адабиётшунослар нинг анъанавий илмий конференцияси материаллари. – Тошкент: Фан, 1993. -Б. 39-40.
5. Ҳадис ва Ҳаёт. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 1-жуз. Шарқ, Тошкент, 2003. – 158 б.
6. Ҳожирахмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. –Т.: Шарқ, 1998. – 160 б.
7. Куръони Карим маъноларининг таржима ва тафсифи. Таржима ва тафсиф муаллифи Абдулазиз Мансур. –Т.: Тошкент ислом университети, 2004. – 624 б.
8. البخاري، محمد بن إسماعيل. الجامع الصحيح، تحقيق: مصطفى ديب البغا. بيروت: دار ابن كثير، 1987م.
9. مسلم بن الحجاج النيسابوري. صحيح مسلم، تحقيق: محمد فؤاد عبد الباقي. الرياض: دار السلام، دت.
10. البخاري، محمد بن إسماعيل. الجامع الصحيح. بيروت: دار إحياء التراث العربي، 1991م.
11. ابن ماجه، محمد بن يزيد القزويني. سنن ابن ماجه، تحقيق: محمد فؤاد عبد الباقي. بيروت: دار الفكر، 1995م



BADR CHOCHIIY DEVONINING ERONDA SAQLANAYOTGAN QO'LYOZMA VA TOSHBOSMA NUSXALARI

FAZLIDDIN MAHMADRAJABOV

Tayanch doktorant, TDSHU

ORCID ID: 0000-0002-8904-7491

Annotatsiya. Maqola hijriy-qamariy VIII (milodiy XIV) asr forsiyzabon shoiri Badr Chochiyning lirik merosini tashkil etuvchi devonning Eron hududida saqlanayotgan qo'lyozma va toshbosma nusxalarini manbashunoslik jihatdan o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — Badr Chochiy devonining Eron kutubxonalari va qo'lyozma fondlarida mavjud bo'lgan nusxalarini aniqlash, ularni miqdoriy va tarkibiy jihatdan tasniflash hamda mavjud nusxalar o'rtasidagi farqlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot jarayonida Eron kutubxonalari saqlanayotgan o'n oltita qo'lyozma hamda beshta toshbosma nusxa aniqlanib, jami yigirma bir nusxa tadqiq etildi va ilmiy muomalaga kiritildi. Mazkur nusxalar saqlanayotgan joyi, inventar raqami, fizik holati, hajmi, tarkibi, baytlar soni va janrlar kesimida tavsiflandi. Devon nusxalarining o'nta qo'lyozma va bitta toshbosma nusxasi bevosita vizual materiallar asosida o'rganilib, qolgan nusxalar tegishli katalog va bibliografik manbalar ma'lumotlari asosida tavsiflandi. Bu holat tadqiqotda qo'llanilgan manbalarining ishonchliligi va qamrovini kengaytirishga xizmat qildi.

Maqolada aniqlanishicha, Badr Chochiy devonining Eron hududida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalarining asosiy qismi Tehron shahridagi kutubxonalarda jamlangan bo'lib, ularning ayrimlari asarlar majmuasi tarkibida, aksariyati esa mustaqil devon shaklida ko'chirilgan. Eng qadimiy qo'lyozma nusxa va eng katta hajmdagi nusxa alohida ajratilib, ularning ilmiy ahamiyati ko'rsatib berilgan. Toshbosma nusxalar tahlili natijasida esa ularning tarkibi nisbatan barqaror ekanligi, biroq ayrim nusxalarda izohli lug'at kabi qo'shimcha unsurlar mavjudligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari Badr Chochiy devonining matnshunoslik asosida o'rganilishi, nusxalar o'rtasidagi farqlarni aniqlash hamda shoir ijodining tarqalish doirasini belgilash uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Ushbu maqola kelgusida Badr Chochiy devonining tanqidiy matnini tayyorlash va fors-tojik adabiy merosini manbashunoslik jihatidan tadqiq etish jarayonida muhim yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Badr Chochiy, forsiyzabon she'riyat, devon, qo'lyozma, toshbosma, tavsif, manbashunoslik, matnshunoslik, qiyosiy tahlil.

Аннотация: Статья посвящена источниковедческому исследованию рукописных и литографических списков дивана лирического наследия персоязычного поэта VIII века по хиджре (XIV век по григорианскому летоисчислению) Бадре Чочия, хранящихся на территории Ирана. Основной целью исследования является выявление списков дивана Бадре Чочия, находящихся в иранских библиотеках и рукописных фондах, их количественная и структурная классификация, а также определение различий между существующими экземплярами.



В ходе исследования были выявлены и введены в научный оборот шестнадцать рукописных и пять литографических списков, всего двадцать один экземпляр, хранящихся в библиотеках Ирана. Данные списки были охарактеризованы по месту хранения, инвентарному номеру, физическому состоянию, объёму, составу, количеству бейтов и жанровой структуре. Десять рукописных и один литографический экземпляр были изучены непосредственно на основе визуальных материалов, остальные списки описаны на основании сведений из соответствующих каталогов и библиографических источников, что способствовало расширению достоверности и охвата используемой источниковой базы.

В статье установлено, что основная часть рукописных списков дивана Бадр Чочия, хранящихся в Иране, сосредоточена в библиотеках города Тегерана. Некоторые из них включены в состав сборников произведений, тогда как большинство переписано в виде самостоятельного дивана. Особо выделены наиболее древний и наиболее объёмный рукописные списки, показано их научное значение. Анализ литографических изданий показал относительную стабильность их состава, однако в ряде экземпляров выявлено наличие дополнительных элементов, таких как толковый словарь.

Результаты исследования создают важную научную основу для текстологического изучения дивана Бадр Чочия, выявления различий между списками и определения географии распространения поэтического наследия автора. Данная статья может служить значимым вспомогательным источником при подготовке критического текста дивана Бадр Чочия, а также в процессе источниковедческого изучения персотаджикского литературного наследия.

Ключевые слова: Бадр Чочий, персоязычная поэзия, диван, рукопись, литография, описание, источниковедение, текстология, сравнительный анализ.

Abstract: This article is devoted to a source-studies analysis of the manuscript and lithographic copies of the divan constituting the lyrical heritage of Badr Chochi, a Persian-speaking poet of the eighth century AH (fourteenth century CE), preserved in the territory of Iran. The main objective of the study is to identify the copies of Badr Chochi's divan held in Iranian libraries and manuscript collections, to classify them quantitatively and structurally, and to determine the differences among the extant copies.

In the course of the research, sixteen manuscript and five lithographic copies preserved in Iranian libraries were identified and introduced into scholarly circulation, amounting to a total of twenty-one copies. These copies were described according to their place of preservation, inventory number, physical condition, volume, content, number of couplets, and genre composition. Ten manuscript copies and one lithographic copy were examined directly on the basis of visual materials, while the remaining copies were described using data from relevant catalogues and bibliographical sources. This approach enhanced the reliability and scope of the sources employed in the study.

The article demonstrates that the majority of the manuscript copies of Badr Chochi's divan preserved in Iran are concentrated in libraries in Tehran. Some of these copies form part of composite manuscript collections, whereas most were copied as independent divans. The earliest manuscript and the most extensive copy are examined separately, and their scholarly significance is highlighted. The analysis of the lithographic editions reveals a relatively stable



composition; however, certain copies contain additional elements, such as a glossary explaining complex words and expressions.

The results of the study provide an important scholarly basis for the textual study of Badr Chochi's divan, the identification of differences between copies, and the determination of the geographical dissemination of the poet's works. This article may serve as a valuable auxiliary source for the future preparation of a critical edition of Badr Chochi's divan and for source-based research on the Persian-Tajik literary heritage.

Key words: Badr Chochi, Persian poetry, divan, manuscript, lithograph, description, source studies, textual criticism, comparative analysis.

Kirish

Hijriy-qamariy VIII (milodiy XIV) asrda yashab ijod qilgan Badr Chochiy Movarounnahr zaminida yetishib chiqqan mashhur forsiyzabon shoirlardan biridir. U Choch shahrida tug'ilgan bo'lib, Choch hozirgi Toshkent shahrining qadimiy nomi hisoblanadi. Shoir o'z she'rlarida "Chochiy" va "Shoshiy" taxalluslarini qo'llagan hamda asosan fors tilida ijod qilgan. Badr Chochiy ijodi Hindiston hududida keng shuhrat qozongan bo'lsa-da, tazkiralari va tarixiy manbalarda uning hayoti va shaxsiga oid ma'lumotlar nihoyatda kam uchraydi. Xususan, shoirning nasabi, oilasi hamda Toshkentda yashagan davri haqida aniq ma'lumotlar saqlanib qolmagan.

Badr Chochiyning hayoti Movarounnahr tarixidagi murakkab siyosiy jarayonlar, xususan, mo'g'ullar istilosidan keyingi davr bilan bog'liqdir. Mazkur davrda Hindistonda hukmronlik qilgan Tug'luqiylar sulolasining ilm-fan va adabiyotga bo'lgan e'tibori ko'plab shoirlar, olimlar va hunarmandlarning Hindistonga hijrat qilishiga sabab bo'lgan. Mamlakatdagi beqaror siyosiy vaziyat tufayli Badr Chochiy ham o'z vatanini tark etib Hindistonga yo'l oladi va o'sha davr hukmdori Muhammad Tug'luq saroyida xizmat qiladi. Shoir saroy muhitida yuqori e'tibor va e'tirofga sazovor bo'lib, podshoh tomonidan unga "Faxrizzamon" ("Zamon faxri") unvoni beriladi.

Badr Chochiy umrining so'nggi yillarida qasida, g'azal, qit'a va ruboiylardan iborat devon tuzadi. Shoir o'z she'rlarida bu devonni tuzganligi haqida bevosita ishoralar keltiradi. Ushbu devon Badr Chochiyning bizgacha yetib kelgan yagona lirik merosi hisoblanadi. U qasidachilik san'atida alohida shuhrat qozongan bo'lib, devonining asosiy qismini ham qasidalar tashkil etadi. Shoir ijodida qasida janrida Xoqoniy uslubining ta'siri yaqqol seziladi. Devondagi qasidalar asosan sulton Muhammad Tug'luq madhiga bag'ishlangan.

Badr Chochiy devonining bir qancha qo'lyozma va toshbosma nusxalari hozirgi kungacha saqlanib qolgan bo'lib, ular dunyoning turli mamlakatlaridagi kutubxonalar va qo'lyozma fondlarida mavjud. Quyida Badr Chochiy devonining Eronda saqlanayotgan qo'lyozma va toshbosma nusxalari haqida tizimli va batafsil ma'lumot beramiz.

Asosiy qism



Eronning tarixiy Sheroz shahrida joylashgan Alloma Tabotaboiiy kutubxonasida Badr Chochiy devonining bir qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lib, mazkur nusxa kutubxonada 1420 – inventar raqam ostida saqlanadi. Qo'lyozma hijriy-qamariy 1274-yilda (milodiy 1857-1858-yillar) kitobat qilingan. O'lchami 18x12 sm bo'lib, nasta'liq xatida yozilgan.

Eronning Qum shahrida joylashgan Oyatulloh Mar'ashiy Najafiy kutubxonasida Badr Chochiy devonining uchta toshbosma nusxasi mavjud.

Birinchi nusxa – kutubxonada 1002/3 – raqam ostida saqlanadi¹. Ushbu toshbosma asarlar majmuasi bo'lib, unda Badr Chochiy devoni uchinchi o'rinda kelgan. Ikkinchi nusxa – 2813/1 – inventar raqam ostida saqlanadi². Bu toshbosma ham asarlar majmuasi bo'lib, unda shoir devoni birinchi o'rinda keladi. Uchinchi nusxa esa – 3380 – raqam ostida saqlanadi³.

Mazkur toshbosma nusxalarning barchasi 16x25 sm o'lchamda bo'lib, nasta'liq xatida bosilgan. Har uch nusxa tarkibida shoir devoni 109 sahifadan iborat va har bir sahifada shoir she'rlari ikki ustun bilan 17 qatordan joylashtirilgan. Nusxalarda devon basmaladan so'ng ramali musammani maqsur bahri fo'ilotun - fo'ilotun - fo'ilon vaznidagi qasida bilan boshlanadi va birinchi bayti quyidagicha:

حمد آن سلطان عالم که عالم پرور است
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Murakkab so'zlar va maxsus atamalar izohi barcha sahifalar hoshiyalarida raqamli indekslar bilan berilgan. Har uchala toshbosma Badr Chochiy devoning uchinchi nashri bo'lib, hijriy-qamariy 1290-yil (milodiy 1873-yil) Hindistonning Konpur shahridagi Noveli Kishvar bosmaxonasida chop qilingan.

Eronning Qum shahrida joylashgan yana bir muhim ilmiy markazlardan hisoblangan Islomiy merosni tiklash markazi kutubxonasida Badr Chochiy devonining ikkita qo'lyozma nusxasi.

Birinchi qo'lyozma nusxa – 2240/2 – inventar raqam ostida saqlanadi⁴. Mazkur nusxa hijriy-qamariy 1292-yil ziqa'da oyining 20-kuni (milodiy 01.03.1875) Ahmad bin Abulhasan bin G'ulomhusayn bin Muhammadmo'min bin Muhammadtaqiy bin Muhammadmo'minul Sharif Sheroziy ismli kotib tomonidan nasta'liq xatida kitobat qilingan. Qo'lyozma asarlar to'plami bo'lib, unda Badr Chochiy devoni ikkinchi o'rinda 99b-142b sahifalarda (jami 43 varaqda) kelgan. Qo'lyozmaning o'lchami 21.5x34.5 sm, sahifalarda shoir she'rlari joylashtirilgan qatorlar soni har xil. Qo'lyozmada devon quyidagi bayt bilan boshlanadi:

¹ Eron va Hindistonning umumiy merosi: Oyatulloh Mar'ashiy Kutubxonasi Hind subkontinentidagi qadimiy forsiy va arabiy bosma kitoblar katalogi, 3-jild.

² Eron va Hindistonning umumiy merosi: Oyatulloh Mar'ashiy Kutubxonasi Hind subkontinentidagi qadimiy forsiy va arabiy bosma kitoblar katalogi, 6-jild.

³ Eron va Hindistonning umumiy merosi: Oyatulloh Mar'ashiy Kutubxonasi Hind subkontinentidagi qadimiy forsiy va arabiy bosma kitoblar katalogi, 7-jild.

⁴ Islomiy merosni tiklash markazi – Muhaddis Aramaviy katalogi, 2-jild.



باز کبودی است چرخ بال زنان در هوا
مار سفیدی است صبح مهره زر در قفا

Quyidagi bayt bilan tugaydi:

خسروم فخر زمان خواند ولی هست مرا
لقب آن ماه که در نیمه ماه است تمام

Mazkur qo'lyozma jigarrang yumshoq va yupqa charm muqovaga ega bo'lib, u bardoshli va an'anaviy uslubda tayyorlangan sifatli qo'lyozma sifatida e'tiborga loyiq.

Ikkinchi qo'lyozma nusxa – 4680 – inventar raqam ostida saqlanadi¹. Mazkur qo'lyozma hijriy-qamariy XI asrda (milodiy XVI-XVII asrlar) kitobat qilingan. Ushbu nusxa katta ehtimol bilan Badr Chochiy devonining eng qadimgi qo'lyozma nusxalaridan bo'lishi mumkin. Qo'lyozma 90 varaqdan iborat bo'lib, sahifa o'lchami 26x16 sm va har bir sahifada shoir she'rlari 14 qatordan joylashtirilgan. Nasta'liq xatida yozilgan. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان خویان را که عالم پرورست
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبرست

Birinchi varaqga keyinchalik ba'zi bir izoh va eslatmalar, shuningdek, forsha she'rlar qo'shilgan. Mazkur qo'lyozma muqovasi ikki xil rangdagi yupqa va yumshoq teridan tayyorlangan bo'lib, old muqova qizil, orqa muqova esa jigarrangdir.

Qum shahridagi Islomiy merosni tiklash markazi kutubxonasida Badr Chochiy devonining bir toshbosma nusxasi ham mavjud bo'lib, ushbu nusxa – 1670/1 – raqam ostida saqlanadi. Mazkur nusxa asarlar majmuasi bo'lib, unda Badrri Chochiy devoni birinchi o'rinda 1-109 sahifalarda (jami 109 sahifada) kelgan. Toshbosma nasta'liq xatida yozilgan bo'lib, har bir sahifaga shoir she'rlari ikki ustun qilib, 17 qatordan berilgan. Ushbu toshbosma nusxaning tasviri bizda mavjud bo'lmagani uchun nusxa haqida boshqa ma'lumotlar berolmaymiz. Lekin, katalogda berilgan ma'lumotlarga suyanib shuni aytish mumkinki, mazkur nusxa ko'rsatkichlari ixtiyorimizda tasviri mavjud boshqa toshbosmalar bilan deyarli bir xil.

Eronning Mashhad shahrida joylashgan Ostoni Qudsi Razaviy markaziy kutubxonasida Badr Chochiy devonining uchta qo'lyozma nusxasi mavjud. Har uch qo'lyozma nusxaning tasviri bizda mavjud va quyida ular haqida batafsilroq ma'lumot beramiz.

Birinchi nusxa kutubxonaning qo'lyozmalar fondida 28044 – inventar raqam ostida saqlanadi². Ushbu nusxa hijriy-qamariy 1239-yil (milodiy 1824-1825-yillar) kitobat qilingan. Qo'lyozma o'lchami 14.5x33.5 sm va 84 varaqdan iborat. Shoirning she'rlari har bir sahifaga 17 qatordan joylashtirilgan. Nasta'liq xatida yozilgan. Qo'lyozmada shoir devoni basmaladan so'ng qasida bilan boshlanadi va uning birinchi bayt quyidagicha:

¹ Islomiy merosni tiklash markazi qo'lyozma nusxalar katalogi, 11-jild.

² Hazrat Oyatullohul-uzmo Seyyed Ali Xomaneiy tomonidan sovg'a qilingan qo'lyozma nusxalar katalogi, 7-jild.



حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Quyidagi ruboiy bilan yakunlanadi:

ماهی که هلال عید جان ابروی اوست
سروی که شب قدر جهان گیسوی اوست
خونناب شفق ز فرقدان رخ بدر
از نرگس ز هره ابروی جادوی اوست

Kotib tomonidan qo'lyozma kollofonida quyidagicha matn keltirilgan:
"دستم ز کتابت چو فرومانده شود تقدیر اله بر تنم رانده شود باشد که دعای خیر گویند مرا آنجا که خط نویسم
و خوانده شود بعون الله تعالی و تقدس دیوان بدر چاچی با حسن وجه باتمام رسید. سنه ۱۲۳۹"

Mazmuni: "Qo'lim yozishdan to'xtaganida, ilohiy taqdir tanamni bu olamdan olib ketar. Shunday bo'lsinki, odamlar yozganlarim o'qilgan joyda menga ezgu duo qilsinlar. Alloh taoloning yordami va marhamati bilan Badr Chochiyning devoni go'zal tarzda hijriy-qmariy 1239-yilda yozib tugatildi."

Mazkur qo'lyozma asar Badr Chochiy kulliyoti hisoblanadi. Muqovasi qoplama bilan ishlangan karton jild, orqa tomoni va burchaklari qizil rangli charm bilan mustahkamlangan. Matn tarkibida tushunishga qiyin bo'lgan so'zlarning ma'nolari va izohlar hoshiyalarda hamda satrlar orasida qizil siyoh bilan yozilgan. Varaqlarning ayrim joylari shikastlangan bo'lib, ular restavratsiya qilingan.

Qo'lyozmaning oxirgi sahifalarida kelgan bosma shakldagi ma'lumotlarga ko'ra, ushbu nusxa oldin Hindistonning Lakhnava shahridagi Nosiriya kutubxonasi qo'lyozmalar fondi uchunchi bo'limda 786 – raqam ostida saqlangan. Mazkur kutubxonaga Alloma Nosir Husayn Sohib tomonidan vaqf qilingan. Keyinchalik, hijriy-shamsiy 1380-yil (milodiy 2001-yil) Eron oliy rahbari Oyatuloh Ali Xomaniy tomonidan Mashhad shahrida joylashgan Ostoni Qudsi Razaviy markaziy kutubxonasiga hadya qilingan.

Ikkinchi qo'lyozma nusxa kutubxonada 49384/1 – inventar raqam ostida saqlanadi. Ushbu qo'lyozma nuxxada ikki asar kitobat qilingan bo'lib, unda Badr Chochiy devoni birinchi o'rinda 1-69 varaqlarda (jami 69 varaqda) keladi. Qo'lyozma hijriy-qamariy XI asrda (milodiy XVI-XVII asrlarda) chiroyli nasta'liq xatida kitobat qilingan. Har bir sahifada shoir she'rlari ikki ustun qilib 15 qatordan joylashtirilgan. Devon asosiy matni ikki qizil chiziqli jadval ichiga yozilgan. Har bir ustun, ustunlar orasidagi masofa, hatto qasidalar ham alohida ikki qizil chiziqli jadval bilan ajratilgan. Qo'lyozmada Badr Chochiy devoni quyidagi bayt bilan boshlanadi:

هر سحر مانند شمع از اندکی عمر خویش
صبح را در خنده آرد گریه بسیار من

Quyidagi bayt bilan nihoyalanadi:

خسروم فخر زمان خواند ولی هست مرا
لقب آن ماه که در نیمه ماه است تمام



Qo'lyozma muqovasi to'q jigarrang atroflari bezatilgan yupqa va yumshoq teri bilan qoplangan. Mazkur nusxa tugal emas, boshi va oxiridan ba'zi varaqlari tushib qolgan. Kotib tomonidan kollofon yozilmagan. Badr Chochiy devonining mavjud qo'lyozma nusxalari ichida ushbu qo'lyozma nusxa eng qadimiylaridan bo'lishi mumkin.

Uchinchi nusxa esa kutubxonada 31025 – inventar raqam ostida saqlanadi. Mazkur qo'lyozma hijriy-qamariy 1203-yil (milodiy 1788-1789-yillar) Ali ismli kotib tomonidan nasta'liq xatida kitobat qilingan. O'lchami 17x21.5 sm bo'lib, 108 varaqdan iborat va shoirning she'rlari hari bir sahifada 13 qatordan joylashtirilgan. Devon basmaladan so'ng quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Quyidagi ruboiyning birinchi bayti bilan yakunlanadi va ruboiy tugal emas:

دستی تو بچود تا دلی شاد کند
زرهای جهان چو خاک بسیار کند

Qo'lyozma hijriy-shamsiy 1383-yil (milodiy 2004-yil) doktor Faridun Muqtadariy tomonidan Ostoni Qudsi Razaviy markaziy kutubxonasiga hadya qilingan. Qo'lyozmani tashkil etuvchi devonda tushunishga qiyin bo'lgan so'z va iboralar izohi sahifa hoshiyalarida, ba'zan satrlar orasida qayd qilingan.

Kotib tomonidan o'qishga juda qiyin xat bilan kollofon keltirilgan. Uning ba'zi qismlarini o'qishning imkoni bo'lmadi va u quyidagicha:

تمام شد کتاب دیوان بدر چاچی به تاریخ بیست چهارم شهر جمادی الثانی سنه 1203 به خط خام احقر العباد
..... علی ساکن موضع ترقیم یافت.
هر که خواند دعاء طمع دارم ز آنکه من بنده گنه کارم

Mazmuni: “Badr Chochiy devoni hijriy-qamariy 1203-yil jumod us-soniy oyining yigirma to'rtinchi kuni yakunlandi. Ushbu nusxa sodda (xom) xat bilan ko'chirildi va yozib tugatildi.

Kim bu kitobni o'qisa, undan duo qilishini umid qilaman, chunki men gunohkor bandaman.”

Shuningdek, Ostoni Qudsi Razaviy markaziy kutubxonasida Badr Chochiy devonining bir toshbosma nusxasi ham mavjud bo'lib, mazkur nusxa 3893 – raqam bilan saqlanadi. Toshbosma 1898-yil Hindistonning Konpur shahridagi Noveli Kishvar bosmaxonasida nashr qilingan. Jami 120 sahifadan iborat. Nusxa nasta'liq xatida bo'lib, o'lchami 27x17 sm va har bir sahifada shoir she'rlari 21 qatordan joylashtirilgan. Ushbu toshbosma nusxa 2001-yilda Eron oliy rahbari tomonidan kutubxonaga hadya qilingan va 2010-yilda kataloglashtirilgan. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Quyidagi malamma' bilan yakunlanadi:



طال شوقی الی محبتکم
ایہا الغائبون عن نظری
روز و شب مونسم خیال شماست
فاسئلوا عن خیالکم خبری

Xotimada kelgan ushbu baytlar uslub jihatdan Badr Chochiy qalamiga mansub deb bo'lmaydi. Bu toshbosma nusxa tarkib jihatdan Pokistonda saqlanayotgan 13571-raqamli qo'lyozma tarkibi bilan bir xil. Mazkur qo'lyozma mana shu toshbosma nusxa uchun asos sifatida olingan bo'lishi mumkin.

Ushbu toshbosma nusxa Badr Chochiyning qasida va qit'alari hamda ularga ilova tarzda shoir she'rlarining lug'atidan tashkil topgan. She'rlardagi so'z va iboralar ma'nosi avval o'sha so'z kelgan sahifa hoshiyasida izohlab ketilgan hamda asar oxirida xotimadan so'ng alifbo tartibida ham berilgan. Shuningdek, lug'atda ayrim misralar ham izohlab keltirilgan. Lug'at muallifi Muhammad Hodiy Ali Ashk hisoblanadi.

Eron poytaxti Tehron shahrida joylashgan Tehron universiteti markaziy kutubxonasida Badr Chochiy devonining uchta qo'lyozma nusxasi mavjud.

Birinchi nusxa - 5498/1 inventar raqam ostida saqlanadi¹. Qo'lyozma hijriy-qamariy 1263-yil Muharram oyining birinchi kuni (milodiy 30.12.1846) kotib Muhammad Sodiq Sarxush Hiraviy tomonidan ko'chirilgan. Ushbu qo'lyozma bir necha asarlarni o'zida jamlagan bo'lib, Badr Chochiy devoni qo'lyozmada birinchi asar hisoblanadi. Qo'lyozmada devon 1b sahifadan 63b sahifagacha joylashgan va 62 varaqdan iborat. O'lchami 9x15.5; 14.5x22.5 sm. Unda shoir she'rlari har bir sahifada 15 qatordan joylashtirilgan. Qo'lyozmada devon boshlanishidan oldin kotib tomonidan qizil siyohda uning nomi sifatida "Mavlono Badr Chochiy devoni" yozuvi keltiriladi va devon muallifi Badr Chochiyga "Mavlono" nisbati beriladi. Qo'lyozmada Badr Chochiy devoni basmaladan so'ng quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرورست
انس او در داه ایمان انس جان را رهبر است

Quyidagi bayt bilan yakunlanadi:

ملکت ایشاه جهان باد که در صبح نشور
همچو خورشید بهر روز نو آیین سازی

Qog'oz turi - Yevropada ishlab chiqarilgan qog'oz. Muqova turi va bezaklari - qizg'ish jigarrang rangdagi jilolangan teri bilan qoplangan, kartondan tayyorlangan muqova bo'lib, bosma naqshlar bilan bezatilgan. Qo'lyozmadagi devon nastaliq xatida ko'chirilgan va sarlavhalar qizil siyohda yozib ajratilgan.

Qo'lyozma kollofonida kotib tomonidan quyidagicha matn keltirilgan:

"تمام شد دیوان بدر چاچی در شب یکشنبه غره شهر محرم الحرام سنه 1263 بدستخط اقل الشعرا محمد صادق سرخوش هروی"

¹ Tehron universiteti kutubxonasi qo'lyozma nusxalar katalogi. 16-jild.



Mazmuni: “Badr Chochiy devoni hijriy-qamariy 1263-yil muharram oyining birinchi kuni yakshanba kechasida shoirlarning eng kamtarini Muhammad Sodiq Sarxush Hiraviy tomonidan yozib tugatildi.”

Kutubxonada ushbu nusxadan hijriy-shamsiy 1389-yil (milodiy 2010-yil) elektron shakl uchun nusxa olingan va bu bizda mavjud.

Ikkinch nusxa – 2550-raqam ostida Tehron universiteti markaziy kutubxonasi va hujjatlar markazida saqlanadi¹, unga “devon” nomi berilgan. Ushbu nusxa hijriy-qamariy XIII asrda (milodiy: XVIII-XIX asrlar) kitobat qilingan.

Nusxa oʻlchami 13x22 sm boʻlib, asosiy matn 6.5x14.5 sm oʻlchamda koʻchirilgan. 137 sahifadan iborat. Har bir sahifada shoir sheʼrlari ikki ustun qilib 14 qatordan berilgan.

Nusxaning birinchi betida Badr Chochiy devoni va uning ahamiyati hamda shoirning oʻzi haqida qisqacha maʼlumot keltirilgan. Anu shu oʻrinda maʼlumotlar berilishidan oldin devon ikki ming baytdan iborat ekanligi qayd etilgan. Har bir beti raqam bilan sahifalangan. Birinchi sahifaning soʻngida “Universitet markaziy kutubxonasi 1328” yozuvlari tushirilgan ikkita turli xil rangdagi bir xil muhr mavjud. Xuddi shu kutubxona muhri turli xil sahifalarda yana oʻn uch oʻrinda kelgan. Baʼzi oʻrinlarda baytlarda kelgan shaxslar va nomlar hoshiyada qizil va qora rangli siyoh bilan izohlab ketilgan.

Ushbu nusxadan hijriy-shamsiy 1389-yil obon (milodiy 2010-yil noyabr) oyida elektron shakl uchun nusxa olingan va bu nusxaning elektron shakli bizda mavjud. Lekin qoʻlyozma soʻngida kutubxona muhri bilan nusxadan mikrofilm olingan sana sifatida hijriy-shamsiy 09.12.1371 (milodiy 28.02.1993) koʻrsatilgan.

Mazkur nusxa Badr Chochiy sheʼrlarining kulliyoti hisoblanib, qasida bilan boshlangan va birinchi bayti quyidagicha:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرورست
انس او در داه ایمان انس جان را رهبر است

Quyidagi bayt bilan yakunlangan:

ملکت ای شاه جهان بار گه صبح نشور
همچو خورشید بهر روز تو آیین سازی

Qoʻlyozmada Yevropa qogʻozidan foydalanilgan. Muqovasi qattiq kartondan ishlangan va uning ustki qismiga mayda yashil rangli gullar bilan bezatilgan qizil fonli mato tortilgan. Tashqi tomoni yumaloq shaklda, ichki tomoni esa qora teri bilan qoplangan.

Uchinchi nusxa: Ushbu nusxa Parij milliy kutubxonasida saqlanadigan qoʻlyozmaning tasviri boʻlib, Tehron univeristeti markaziy kutubxonasida F1309/1 – inventar raqam ostida saqlanadi². Qoʻlyozmaning asl nusxasi Parijdagi Fransiya Milliy

¹ Tehron universiteti kutubxonasi qoʻlyozma nusxalar katalogi, 9-jild.

² Tehron universiteti markaziy kutubxonasi mikrofilmlar katalogi, 1-jild.



kutubxonasining “Supplement Persan” fondida S.P. 760 – inventar raqam bilan (Blochet katalogida 1556-raqam ostida) saqlanadi.

Qo‘lyozma nasta’liq xatida yozilgan bo‘lib, shoir she’rlari har bir sahifada 19 satrdan joylashtirilgan. Mazkur nusxa hijriy-qamariy 1042-yil jumodul avval oyining 4-kuni (milodiy 27.10.1632) kitobat qilingan va uning oxirgi sahifasida quyidagi satrlar keltirilgan:

نسخه دیوان بدر به تاریخ چهارم جمادی الاولی سنة 42... در ... تحریر یافت

Nosxe-ye divān-e Badr be tārix-e čahārom-e jamādiyal avvali sane-ye ...42 dar ... tahrir yāft.

A. M. Getifuro‘zning fikriga ko‘ra, ushbu satr baytlar orasida berilganligi uchun, A.Munzaviy e’tiboridan chetda qolgan va katalogda mazkur nusxa haqida kitobat sanasini ko‘rsatmasdan ma’lumot bergan¹.

Mazkur nusxadan tayyorlangan tasvir qora fonda va yozuvlari oq bo‘lib, undan foydalanish birmuncha qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Bu nusxada Eronda saqlanayotgan boshqa nusxalarga nisbatan bir necha qasida kamroqdir. Nusxaga kirmay qolgan ba’zi qasidalar keying kotiblar tomonidan hoshiyaga yozib kiritilgan.

Ushbu nusxaning o‘ziga xosliklari haqida aytadigan bo‘lsak, quyidagilarni keltirishimiz mumkin: 1. Ba’zi so‘zlarga satr osti va satr usti harakat belgilari qo‘yilgan. 2. Asosiy matndan tashqari nusxa hoshiyasiga boshqa bir yozuv bilan juda foydali ma’lumotlar bitilgan. 3. Ba’zi so‘z va iboralar boshqa nusxadagi variantlari bilan berilgan. Nusxada ba’zilari belgili va ba’zilari belgisiz tarzda keltirilgan. Lekin, nusxadagi chalkashliklar sababli qaysi variantni asl kotibning o‘zi yozganligi ma’lum emas. Yoki, qaysi variant eng oxiri bo‘lib yozilganligini aytish qiyin. 4. Juda kam holatda ba’zi bir so‘zlarga tuzatishlar kiritilgan bo‘lib, bunda kiritilgan tuzatishlarni hisobga olgan holda birinchi yozilgan variantni taxminan ko‘rsatish mumkin.

Eronning Tehron shahrida joylashgan Malik kutubxonasi qo‘lyozmalar fondida Badr Chochiy devonining ikki qo‘lyozma nusxasi mavjud.

Birinchi nusxa – 5555-raqam ostida saqlanadi². Ushbu nusxa hijriy-qamariy 1241-yilda (milodiy 1825/1826-yil) kitobat qilingan. Uning o‘lchami 15x20,9 sm bolib, 73 varaqdan iborat va har bir sahifada shoir she’rlari 14 qatordan berilgan.

Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم آرا که عالم پرورست
انس او در راه ایمان جان ما را رهبرست

Quyidagi bayt bilan nihoyalanadi:

خسرو فخر زمان خواند ولی هست مرا
لقب این ماه که در نیمه ماه است تمام

Nusxada xatolar juda ham kam. Sarlavhalar yozilmagan, faqat ular uchun bo‘sh joy qoldirilgan. Ushbu qo‘lyozma Badr Chochiy devonining eng oxirgi ko‘chirilgan

¹ Алий Мухаммад Гитифурӯз. Девони Бадри Чочӣ. – Техрон, 1387/2008. с. 51.

² Malik milliy kutubxonasi qo‘lyozma kitoblar katalogi, 2-jild.



nusxalari sirasiga kirsa ham, uning holatidan boshqa bir qadimiyroq va yaxshiroq nusxadan ko'chirilganligi ko'rinib turibdi.

Qo'lyozma och yashil-sarg'ish tusdagi qog'ozda, to'q jigarrang charm bilan qoplangan qatlamli muqovada, nasta'liq yozuvida bitilgan bo'lib, bu uning badiiy qiymatga ega ekanini ko'rsatadi.

Ikkinchi nusxa – 5613 – inventar raqam ostida saqlanadi¹. Ushbu nusxa hijriy qamariy 1088-yil zulqa'da oyida (milodiy: 1678-yil, yanvar-fevral oylari) Hofiz Muhammad nomli kotib tomonidan chiroyli nasta'liq xatida kitobat qilingan. Nusxa o'lchami 14,8x26,6 sm bo'lib, 72 varaqdan iborat va har bir sahifada shoir she'rlari 15 qatordan berilgan. Mazkur qo'lyozma tarma qog'ozda, tashqi tomoni qora charm bilan qoplangan, o'rtasi qalinlashtirilgan muqovada bitilgan.

Qo'lyozmaning oxirgi sahifasida berilgan kollofonda quyidagi satrlar keltirilgan:

"در کتابخانه نواب مستطاب جهانبائی سالله دودمان چنگیزخان، نقاوه خاندان قانی رحمانقلی سلطان بن رستم محمدخان مرقوم قلم شکسته گردید تحریر فی شهر ذی قعیده الحرام سنه هزار و هشتاد و هشت، کاتب العبد محمد حافظ غفر الله ذنوبه و ستر عیوبه"

Mazmuni: "(Mazkur asar) ulug' Chingiziylar sulolasining merosxo'ri va Qo'niylar avlodining nufuzli vakili Rahmonquli Sulton bin Rustam Muhammadxonning kutubxonasida yozildi. Kitobati hijriy-qamariy 1088-yilning zulqa'da oyida amalga oshirilgan. Uni yozgan — bandasi Hofiz Muhammad, Alloh uning gunohlarini mag'firat qilsin va ayblarini yashirsin."

Bundan mazkur qo'lyozma Hofiz Muhammad nomli kotib tomonidan Rahmonquli Sulton bin Rustam Muhammadxon kutubxonasi uchun yozilgani ma'lum bo'ladi.

Qo'lyozma bir dona oltin suvi bilan bezatilgan, ammo hozirda xiralashgan sarlavhaga ega; matn katta jadval (chegarali sahifa) shaklida, qizil siyoh bilan bezatilgan. Bu nusxani ko'chirgan kotib chiroyli xatga ega bo'lgan va ba'zi o'rinlarda kitobat san'atining bezak qoidalariga rioya qilgan holda, so'zlardagi nuqtalarning sonini kam yo ko'p qilgan. Lekin, bu holat o'quvchini chalg'itadi va nusxani to'g'ri o'qishga xalaqit beradi.

Eronning Tehron shahrida joylashgan Islomiy kengash majlisi kutubxonasida Badr Chochiy devonining ikki qo'lyozma nusxasi mavjud.

Birinchi nusxa – 956 – inventar raqam ostida saqlanadi². Ushbu nusxa hijriy-qamariy 1249-yil (milodiy 1834-yil) Mirzo Ali Akbar Tafreshiy ismli kotib tomonidan nasta'liq xatida ko'chirilgan. Qo'lyozmaning o'lchami 21.5x14.5 sm bo'lib, 80 varaqdan iborat va har bir sahifada shoir she'rlari 14 qatordan joylashtirilgan. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم آرا که عالم پرورست
انس او در راه ایمان انس و جانرا رهبر است

¹ Malik milliy kutubxonasi qo'lyozma kitoblar katalogi, 2-jild.

² Islomiy kengash majlisi kutubxonasi qo'lyozma nusxalar katalogi, 3-jild.



Mazkur qo'lyozma yevropa qog'ozida ko'chirilgan bo'lib, uning muqovasi teridan ishlangan va bezakli tarzda tayyorlangan.

Bahodir ismli shaxs birinchi sahifaning orqa tomoniga muallifning ismini va asar yozilgan yilni qayd etgan. 157 va 158 – sahifalarda ikki nafar shahzodaning tug'ilgan sanalari yozilgan. Barcha varoqlar ko'k va qizil siyoh bilan chizilgan jadval chiziqlari bilan bezatilgan.

Qo'lyozma kallofonida quyidagi matn kelgan:

"تحریر این کتاب در روز پنجشنبه پونزدهم ... سنه 1249"

Boshqa bir o'rinda quyidagicha kelgan:

"دیوان بدر چاچی در دارالخلافه تبریز بحسب الحکم نوشته شد نویسنده اش میرزا علی اکبر تفرشی تحریر این در روز پنجشنبه پونزدهم ذی قعیده سنه 1246"

Bundan mazkur nusxaning hijriy-qamariy 1249-yil ziqa'ida oyining 15-sanasi payshanba kuni (milodiy: 31.03.1834) kitobat qilingani ma'lum bo'ladi.

U boshqa nusxalarga qaraganda to'liqroq bo'lsa-da, oxirgi ko'chirilgan nusxalardan hisoblanadi, chunki 41-qasida faqat mana shu nusxada kelgan. Muallifning fikricha, ba'zan boshqa nusxalarda tushunarsiz va mavhum bo'lgan so'zlar ushbu nusxada soddarog'iga almashtirilgan.

Zabihulloh Safo "Eronda adabiyot tarixi" kitobida Badr Chochiy devonining kam nusxalari mavjudligini aytish barobarida, mazkur nusxaning Tehrondagi Islomiy kengash majlisi kutubxonasida mavjudligi haqida ma'lumot bergan. Unga ko'ra, ushbu nusxa 2100 baytni o'zida jamlagan¹.

Ikkinchi nusxa – kutubxonada 15690 – raqam ostida saqlanadi². Ushbu nusxa hijriy-qamariy XIII asrda (milodiy: XVIII-XIX asrlar) nasta'liq xatida kitobat qilingan. Sahifalar o'lchami 14.2x22.3 sm bo'lib, 26 varaqdan iborat va har bir sahifada baytlar 14 qatordan joylashtirilgan. Qo'lyozmada devon quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

مار سپید و مهره گرفته است زیر دم
یا چون عمود شاخ گوزن است بر سرش
آهوی شیر بیشه دم گرگ در دهن
بگرفته و دوان شده دایم بر ابرش

Quyidagi baytlar bilan nihoyalanadi:

چون رفت سوی ماهی از دلو چشمه خود
در آب خشک ما را پیش آر آتش تر
ز آن پیش کاسمان را خیاط صبح دوزد
بر خرقة کبودش یکپاره معصفر

Qo'lyozmaning muqovasi och jigarrang charm materialdan tayyorlanib, bosma uslubida ishlangan hamda muqova markazi doira shaklidagi naqsh bilan bezatilgan. Qo'lyozmaning boshi va oxiridan ba'zi varaqlari tushib qolgan. Asarning dastlabki

¹ Забехулло Сафо. Таърихи адабиёт дар Эрон. Ҷилди 3, бахши дуввум. – Техрон: интишороти Донишгоҳи Техрон, 1346. – с. 855-856.

² Islomiy kengash majlisi kutubxonasi qo'lyozma nusxalar katalogi, 3-jild.



sahifasida Majdiddin kutubxonasiga tegishli muhr bosilgan. Ushbu muhr nusxaning bir vaqtlar aynan shu kutubxona fondida saqlanganini tasdiqlaydi. Qo'lyozma mazkur kutubxonada 91236 – inventar raqam bilan ro'yxatga olingan.

Eronning poytaxti Tehron shahrida joylashgan Eron milliy kutubxonasida Badr Chochiy devonining uchta qo'lyozma nusxasi mavjud.

Birinchi nusxa – 15846/6 – inventar raqam bilan saqlanadi¹. Ushbu nusxa hijriy-qamariy 1258-yil ramazon oyida (milodiy 1842-yil sentabr-oktabr oylari) kitobat qilingan.

Mazkur qo'lyozma asarlar majmuasi bo'lib, Badr Chochiy devoni oltinchi o'rinda 140b-211b sahifalarda 72 varaqda kelgan. Har bir sahifada shoir she'rlari 15 qatordan joylashtirilgan. Qo'lyozmaning o'lchami 13x21 sm va baytlar 7x15 sm o'lchamda ko'chirilgan. Qo'lyozmada devon nasta'liq xatida yozilgan va basmaladan so'ng quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است
انس او در راه ایمان انس جان را رهبرست

Quyidagi bayt bilan tugaydi:

خسروم فخر زمان خواند ولی هست مرا
لقب آن ماه که در نیمه ماه است تمام

Qo'lyozma kollofonida kotib quyidagicha matn keltirgan:

«... در اوقات مجاورت ارض اقدس و حصول سعادت تقبیل آستانه مقدس حضرت رضا علیه سلام الله با اختلال احوال و اغتشاش حواس که نصورش خارج از وهم و قیاس است و جز توسل بدین رحمت و عاطفت امام همام(علیه) صلوات الله الملك العالم بهیچوجه من الوجوه سر از کار خود نمیدردم و منتظر فتوحی نشسته در بروی خود از... اهل زمان بسته با کمال دلتنگی شکسته حالی بفحوائی کلمه مشعله(ای) بر فروز مشعله(ای) پیش گیر و کار بیهوده به ز بیکاری است در صدد تحریر و تسوید اوراق بر آمد امید که مطالعه کنندگان سطر عیجوبی نرسانده بقلم اصلاح و رفع خبط و خطا در آید فی شهر رمضان المبارك من شهر سنه ۱۲۵۸»

Mazmuni: "... Muqaddas zamin (Mashhad)da istiqomat davrida, Imom Rizo (alayhi as-salom)ning muborak dargohi poyasini o'pish baxtiga muyassar bo'lgan vaqtimda, holimda iztirob va ruhimda tartibsizlik yuz berdi — bu holatni tasavvur etish aql va qiyos doirasidan tashqaridir. Shu sababdan, faqat shu ulug' Imomning rahm-shafqatiga vositachilik qilib, o'zimni o'nglashga umid bog'ladim. O'sha paytda zamon ahli bilan aloqam uzilgan, g'am-g'ussada, diltang va ruhiy jihatdan siniq holatda edim. Ana shunday vaziyatda, "ey mash'alani yoq, mashg'ullik tanla, bekorchilikdan mashg'ul bo'lish yaxshiroqdir" degan hikmatli so'z mazmuniga binoan, yozish va sahifalarni qoralash ishiga kirishdim. Umid qilamanki, bu satrlarni o'quvchilar tanqid va ayblashdan yiroq turib, qalam yordamida xatolarni tuzatadilar. Bu ish muborak Ramazon oyida, hijriy 1258-yilda amalga oshirildi."

Qo'lyozma oldin boshqa raqamlar bilan ham ro'yxatda bo'lgan. Masalan oldin 4890-46 inventar raqam bilan saqlangan.

¹ Eron milliy kutubxonasi qo'lyozma nusxalar katalogi. 44-jild.



Asar och jigarrang (sarg'ish) tusdagi Yevropa qog'ozida ko'chirilgan. Uning muqovasi echki terisidan tayyorlangan qoramtir jigarrang charm bo'lib, bir qavatli qilib ishlangan. Muqovaning ichki tomoni, orqa bog'lov qismi, shuningdek, chetlari qora mato bilan mustahkamlangan va bezatilgan. Bu jihatlar asarning yuqori sifatli, ammo nisbatan oddiy shaklda bezatilgan qo'lyozma ekanini ko'rsatadi.

Ikkinchi nusxa – 32761 – inventar raqam ostida saqlanadi¹. Mazkur qo'lyozma nasta'liq xatida bitilgan bo'lib, suxt uslubida tayyorlangan charm muqovaga ega. Qo'lyozma Eron milliy kutubxonasi tarkibidagi Seyyed Muhammad Husayn Xibra Farshchiy kutubxonasi qo'lyozma nusxalar fondida saqlanadi.

Uchinchi nusxa esa – kutubxonada 20921 – inventar raqam ostida saqlanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu nusxa 2006- yil 27-may kuni Ali Akbar Sultoniy ismli shaxsdan sotib olingan va kutubxonaning qo'lyozmalar fondiga qo'shilgan. Qo'lyozma 75 varaq (150 sahifa) dan iborat bo'lib, har sahifada shoir she'rlari 13 qatordan keltirilgan. Qo'lyozma nasta'liq xatida yozilgan bo'lib, basmaladan so'ng quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان خوبانرا که عالم پرور است
انس او در راه ایمان انس جان را رهبرست

Shu o'rinda birinchi misradagi bizga ma'lum variant "سلطان عالم" iborasining o'rniga "سلطان خوبان" iborasi qo'llanilgan.

Quyidagi bayt bilan nihoyalanadi:

خسروم فخر زمان خواند ولی هست مرا
لقب آن ماه که در نیمه طه است تمام

Bu yerda ikkinchi misrada kelgan "طه" so'zi tarix moddasi bo'lib, abjad hisobida 14 ga teng. Ya'ni, misrada qamariy oyning 14-kechasi to'lgan oy haqida gap ketmoqda va bu shoir taxallusi bo'lgan "badr" so'ziga ishoradir.

Devondagi murakkab bo'lgan so'z va iboralar izohi sahifa hoshiyalarida, hatto satrlar orasida yozilgan. Devonning oxirgi baytidan so'ng kotib tomonidan quyidagicha matn keltirilgan:

"تمت، تمام شد کار من نظام شد"

Bu o'rinda ham tarix moddasi mavjud bo'lib, "نظام" so'zi orqali kitobat sanasiga ishora qilinmoqda. Ushbu so'z abjad hisobida 991 ga teng. Demak bu qo'lyozma nusxa hijriy-qamariy 991-yil (milodiy 1583-84-yillar) kitobat qilingan va bu Badr Chochiy devonining bizda mavjud qo'lyozma nusxalari ichida eng qadimgisidir.

Shuningdek, kollofonda quyidagi bayt ham keltirilgan:

هر که ما را کند به نیکی یاد
نام او در جهان به نیکی باد

¹ Eron milliy kutubxonasi Seyyed Muhammad Husayn Xibra Farshchiy kutubxonasi qo'lyozma nusxalar katalogi.



Mazmuni: “Kimki bizni ezgulik bilan yod etsa, uning nomi ham dunyoda ezgu bo‘lsin.”

Mazkur bayt qo‘lyozma kotibi yoki boshqalar tomonidan keyinchalik kollofonga qo‘shilgan bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Badr Chochiyning Erondagi qo‘lyozmalari haqida manbalarda berilgan ma’lumotlarda qo‘lyozmalarning aniq soni haqida bir to‘xtamga kelinmagan. Tadqiqot davomida Eron kutubxonalarida Badr Chochiy devonining 16 ta qo‘lyozma (1-jadval) va 5 ta toshbosma (2-jadval), jami 21 nusxa mavjudligi aniqlandi. Erondagi Badr Chochiy devonining qo‘lyozma nusxalari shaharlar kesimida eng ko‘p qo‘lyozma Tehron shahridagi kutubxonalarda (10 ta nusxa) saqlanadi. Eronda mavjud qo‘lyozmalar orasida bittasi qo‘lyozma mikrofilmi hisoblanadi va qolgan 15 tasi qo‘lyozma kitob holatida. Beshta qo‘lyozma, asarlar majmuasi bo‘lib, qolgan 11 ta nusxa faqat Badr Chochiy devonidan tarkib topgan.

Zabihulloh Safo, Ali Muhammad Getifuro‘z, Faxriddin Haydarov tadqiqotlariga ko‘ra, Badri Chochiyning eng qadimiy nusxasi XVII asrning birinchi yarmiga oid bo‘lib, Pokistondagi Panjob universiteti kutubxonasida saqlanadi. Tehron shahridagi Eron milliy kutubxonasida 20921-inventar raqam bilan saqlanayotgan qo‘lyozmaning matniy tadqiqidan ma’lum bo‘lishicha, ushbu qo‘lyozma XVI asrning ikkinchi yarmida (Panjobda saqlanayotgan qo‘lyozmadan 50 yil ilgari ko‘chirilgan) kitobat qilingan qadimiyroq nusxa ekani aniqlandi. Shu bilan birga, nisbatan mukammal nusxa Mashhad shahridagi Ostoni Qudsi Razaviy markaziy kutubxonasida saqlanuvchi 28044-inventar raqamli qo‘lyozma bo‘lib, unda Badr Chochiyning 2800 baytga yaqin she’riy merosi yozilgan.

Eron kutubxonalarida saqlanuvchi Badr Chochiy devonining toshbosma nusxalari tarkib va miqdor jihatidan 4 tasi kataloglarda berilgan ma’lumotlarga ko‘ra deyarli bir xil. Ular shoirning faqat qasida va qit’alaridan tarkib topgan. Mashhad shahridagi Ostoni Qudsi Razaviy markaziy kutubxonasida mavjud 3893-raqamli toshbosma esa qolganlaridan farqli ravishda nisbatan keyinroq chop qilingan. Baytlar soni deyarli bir xil bo‘lishiga qaramay, bunda devondan so‘ng devon tarkibidagi murakkab so‘z va iboralar izohli lug‘ati ham keltirilgan. Bu esa, Badr Chochiyning adabiy merosi keyingi asrlarda ham she’riyat muhiblarining e’tibor markazida bo‘lgani, shuningdek, Chochiyning lirikasini o‘rganuvchilar keyingi asrlarda maxsus talqin, izoh va sharhlarga ehtiyoj sezganini ham ko‘rsatadi.

Erondagi qo‘lyozmalar hamda toshbosma asarlarni yanada chuqurroq o‘rganish shoirning adabiy merosini matniy-qiyosiy asosda qayta tiklashda muhim rol o‘ynaydi. Bu nusxalarni Fransiya, Britaniya, Hindiston, Pokiston, Tojikiston va O‘zbekistondagi manbalar bilan qiyosiy ravishda solishtirib, ulardan eng mo‘tabarini tayanch nusxa sifatida tanlab olish galdagi vazifalardan hisoblanadi.

*1-jadval*

Qo'lyozma nusxalar					
T/r	Shahar	Kutubxona	Inventar raqami	Kitobat sanasi	Sahifasi
1	Tehron	Tehron universiteti markaziy kutubxonasi	5498/1	30.12.1846	62 varaq (15 satr)
2	Tehron	Tehron universiteti markaziy kutubxonasi	2550	hijriy XIII asr (XVIII-XIX asrlar)	137 sahifa (14 satr)
3	Tehron	Tehron universiteti markaziy kutubxonasi	F1309/1 mikro-film	27.10.1632	(19 satr)
4	Tehron	Malik kutubxonasi	5555	1825-yil	73 varaq (14 satr)
5	Tehron	Malik kutubxonasi	5613	1678-yil	72 varaq (15 satr)
6	Tehron	Islomiy kengash majlisi kutubxonasi	956	31.03.1834	80 varaq (14 satr)
7	Tehron	Islomiy kengash majlisi kutubxonasi	15690	hijriy XIII asr (XVIII-XIX asrlar)	26 varaq (14 satr)
8	Tehron	Eron milliy kutubxonasi	15846/6	1842-yil	72 varaq (15 satr)
9	Tehron	Eron milliy kutubxonasi	20921	1583-yil	75 varaq (13 satr)
10	Tehron	Eron milliy kutubxonasi	32761		
11	Sheroz	Alloma Tabotaboiiy kutubxonasi	1420	1857-yil	
12	Qum	Islomiy merosni tiklash markazi kutubxonasi	2240/2	01.03.1875	43 varaq
13	Qum	Islomiy merosni tiklash markazi kutubxonasi	4680	hijriy XI asr (XVI-XVII asrlar)	90 varaq (14 satr)
14	Mashhad	Ostoni Qudsi Razaviy markaziy	28044	1824-yil	84 varaq (17 satr)

		kutubxonasi			
15	Mashhad	Ostoni Qudsi Razaviy markaziy kutubxonasi	49384/1	hijriy XI asr (XVI-XVII asrlar)	69 varaq (15 satr)
16	Mashhad	Ostoni Qudsi Razaviy markaziy kutubxonasi	31025	1788-yil	108 varaq (13 satr)

2-jadval

Toshbosma nusxalar					
T/r	Shahar	Kutubxona	Inventar raqami	Kitobat sanasi	Sahifasi
1	Qum	Oyatulloh Mar'ashiy Najafiy kutubxonasi	1002/3	1873-yil	109 sahifa (17 satr)
2	Qum	Oyatulloh Mar'ashiy Najafiy kutubxonasi	2813/1	1873-yil	109 sahifa (17 satr)
3	Qum	Oyatulloh Mar'ashiy Najafiy kutubxonasi	3380	1873-yil	109 sahifa (17 satr)
4	Qum	Islomiy merosni tiklash markazi kutubxonasi	1670/1		109 sahifa (17 satr)
5	Mashhad	Ostoni Qudsi Razaviy markaziy kutubxonasi	3893	1898-yil	120 sahifa (21 satr)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. دکتر ذبیح الله صفا. (1369). تاریخ ادبیات در ایران. ج 3. بخش دوم. تهران: کیهان.
[Doktor Zebihollah Safa. (1369). Tarikhe adabiat dar Iran. j 3. bakhsh dovom. Tehran: Kieyhan.]
Dr. Zabihullah Safa. (1369). History of literature in Iran. C. 3. Second part. Tehran: Keihan
2. دکتر علی محمد گیتی فروز. (1387). دیوان بدر چاچی. تهران: فرشیوه.
[Doktor Ali Mohammad Gitiforuz. (1387). Divane Badre Chachi. Tehran: Farshiveh.]
Dr. Ali Mohammad Giti Foruz. (1387). Divan Badr Chachi, Tehran: Farshiveh.
3. فهرست نسخه های خطی کتابخانه دانشگاه تهران. ج 9، 16.
[Fehrest-e noskheh-hā-ye khattī-ye ketābkhāneh-ye Dāneshgāh-e Tehrān. J. 9, 16.]
Catalogue of Manuscripts of the University of Tehran Library, vols. 9, 16.
4. فهرست میکروفیلمهای کتابخانه مرکزی دانشگاه تهران. ج 1.
[Fehrest-e mikrofilm-hā-ye ketābkhāneh-ye markazī-ye Dāneshgāh-e Tehrān. J. 1.]
Catalogue of Microfilms of the Central Library of the University of Tehran, vol. 1.
5. فهرست کتابهای خطی کتابخانه ملی ملک. ج 2.
[Fehrest-e ketāb-hā-ye khattī-ye ketābkhāneh-ye Mellī-ye Malek. J. 2.]



- Catalogue of Manuscripts of the Malek National Library, vol. 2.
6. فهرست نسخه های خطی کتابخانه مجلس شورای اسلامی. ج. ۲.
[Fehrest-e noskheh-hā-ye khattī-ye ketābkhāneh-ye Majles-e Shurā-ye Eslāmī. J. 3.]
Catalogue of Manuscripts of the Library of the Islamic Consultative Assembly, vol. 3.
7. فهرست نسخه های خطی کتابخانه ملی ایران. ج. ۴۴.
[Fehrest-e noskheh-hā-ye khattī-ye Ketābkhāneh-ye Mellī-ye Īrān. J. 44.]
Catalogue of Manuscripts of the National Library of Iran, vol. 44.
8. میراث مشترک ایران و هند کتابهای چاپی کهن فارسی و عربی شبه قاره در کتابخانه بزرگ آیت الله مرعشی. ج. ۳، ۶، ۷.
[Mīrās-e moshtarak-e Īrān va Hend: ketāb-hā-ye chāpī-ye kohan-e fārsī va ‘arabī-ye shibh-e qāreh dar ketābkhāneh-ye bozorg-e Āyatollāh Mar‘ashī. J. 3, 6, 7.]
The Shared Heritage of Iran and India: Early Printed Persian and Arabic Books of the Subcontinent in the Grand Library of Ayatollah Mar‘ashi, vols. 3, 6, 7.
9. فهرست محدث ارموی - مرکز احیاء میراث اسلامی. ج. ۲، ۱۱.
[Fehrest-e Moḥaddes-e Ormavī – Markaz-e Ehyā-ye Mīrās-e Eslāmī. J. 2, 11.]
Catalogue by Moḥaddes-e Ormavī – Center for the Revival of Islamic Heritage, vols. 2, 11.
10. فهرست نسخه های خطی اهدائی حضرت آیه الله العظمی سید علی خامنه ای. ج. ۷.
[Fehrest-e noskheh-hā-ye khattī-ye ehdā’ī-ye Ḥazrat Āyatollāh-e ‘Ozmā Seyyed ‘Alī Khāmene’ī. J. 7.]
Catalogue of Donated Manuscripts of His Eminence Grand Ayatollah Seyyed Ali Khamenei, vol. 7.

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING VETERINARIYA STRATEGIYASI: BUXORO VA XIVA XONLIKLARI BILAN CHORVACHILIK ALOQALARI TAHLILI (XIX ASR OXIRI)

BAZARBAYEVA SHOHSANAM

*O‘qituvchi, University of Business and science
nodavlat oliy ta’lim muassasasi*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqola XIX asr oxirida Turkiston general-gubernatorligi tomonidan chorva kasalliklari (epizootiya) tarqalishining oldini olish maqsadida qabul qilingan veterinariya nazorati choralarini tahlil qiladi. Maqolada mustamlaka ma'muriyatining Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan mavjud kuchli chorvachilik aloqalari, jumladan, tirik chorva savdosi, chorvadorlarning an'anaviy migratsiyasi va tranzit yo'llaridan foydalanish kabi omillar o'rganilgan.

XIX asr oxirida Turkiston mustamlaka ma'muriyati chorva mollari kasalliklari kirib kelishini oldini olish maqsadida chegaralarda veterinariya punktlari tashkil etish loyihasini ishlab chiqadi. Turkiston o'lkasining chorvachilik bo'yicha qaysi qo'shni davlatlar va xonliklar



bilan iqtisodiy aloqalari borligini o'rganadi: ayniqsa Buxoro amirligi va Xiva xonliklari bilan aloqalar muhimligi aniqlanadi.

Maqolada chorvachilik savdosi, teri savdosi, migratsiya, yaylovlarga o'tkazish va tranzit yo'llarining ahamiyati ko'rib chiqiladi. Komissiya ayniqsa Buxoro va Xiva chorvadorlarining Turkistondagi yaylovlar va suv manbalaridan foydalanishini qayd etadi va shu sababli chegara hududida veterinariya punktlarini ochish zarurligini ta'kidlaydi.

1891-yil 10-avgustda general-gubernator Buxoro amirligida veterinariya punktlarini tekshirish uchun komissiya yuborishni topshiradi; ekspeditsiyani N. Brovnikov boshqaradi va 1892-yilda Samarqandda bu ishlar tashkil etilishi haqida muvofiqlik so'raladi.

- Turkiston o'lkasining chorvachilik aloqalari asosan Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan mustahkam bo'lgan; Angliya tasarrufidagi Osiyo mamlakatlari va Afg'oniston bilan savdo kamroq bo'lgan.

- Chorvachilikning turli shakllari (teri savdosi, jonli chorva savdosi, yaylovlarga o'tkazish, tranzit) kasalliklar tarqalish xavfini oshirish sabablaridan biri bo'lgan.

- Chorvadorlarning an'anaviy migratsiya va yaylovlarga erkin ko'chishi veterinariya nazoratini murakkablashtirgan: suv manbalari (quduqlar, buloqlar) va tog' yaylovlari kabi nuqtalar kasalliklar tarqalishi uchun potentsial fokus hisoblangan.

- Mustamlaka komissiyasi o'tkazgan o'rganish natijalari chegara hududlarida veterinariya punktlarini ochish zaruratini asoslab bergan — ayniqsa Buxoro bilan chegara hududlari birinchi navbatda qamrab olinishi lozim.

- Amaliy jihatdan, muvaffaqiyat uchun nafaqat punktlar ochish, balki mahalliy chorvadorlar bilan munosabatlarni tartibga solish, suv manbalari va yaylovlar uchun foydalanish qoidalari, shuningdek moliyaviy hamda logistika ta'minoti masalalari ham hal etilishi kerak edi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Xiva xonligi, veterinariya siyosati, iqtisodiy aloqalar, chorva mollari, veterinar shifokorlar, veterinar feldsherlar.

ANNOTATION. This article analyzes the veterinary control measures taken by the Turkestan Governor-Generalship at the end of the 19th century to prevent the spread of livestock diseases (epizootics). The article examines such factors as the strong livestock relations of the colonial administration with the Bukhara Emirate and the Khiva Khanate, including live livestock trade, traditional migration of herders, and the use of transit routes.

Traditional migration and free migration of herders to pastures complicated veterinary control: points such as water sources (wells, springs) and mountain pastures were potential foci for disease spread.

- The results of the study conducted by the colonial commission justified the need to open veterinary points in the border areas - especially the border areas with Bukhara should be covered first.

- Practically, for success, it was necessary not only to open points, but also to regulate relations with local livestock breeders, rules for the use of water sources and pastures, as well as to resolve issues of financial and logistical support.

Keywords: Bukhara Emirate, Khiva Khanate, veterinary policy, economic relations, livestock, veterinary doctors, veterinary feldshers.

KIRISH



XIX asr oxirida mustamlaka ma'muriyati qo'shni davlatlardan va xonliklardan chorva mollari kasalliklari kirib kelishining oldini olish uchun veterinariya punktlarini tashkil etish qaror loyihasini ishlab chiqqan. Mazkur hujjatni ishlab chiqishdan avval mustamlaka ma'muriyati, birinchi navbatda, Turkiston o'lkasi chorvachilik sohasida qaysi davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar qilishini o'rganib chiqadi. Bunda nafaqat chorva mollari hamda xomashyolar tijorati, balki chorva mollarining migratsiyasi ham hisobga olingan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Ularning fikriga ko'ra, mazkur davrda Turkiston o'lkasi Angliya qo'l ostidagi Osiyo davlatlari va Afg'oniston bilan chorvachilik bo'yicha savdosi kamroq ulushni tashkil etgan. Qashg'ar va Turkiston o'rtasidagi chorvachilik munosabatlari ko'proq teri savdosi bilan aloqalar bo'lgan. Jumladan, har yili minglab chorva mollari terilari Qashg'ardan Turkiston o'lkasiga kirib kelgan. Turkiston o'lkasining Buxoro amirligi hamda Xiva xonliklari bilan chorvachilik yo'nalishida munosabatlari ancha kuchli bo'lgan. Birinchidan, har yili mazkur xonliklardan o'lkaga ko'p sonli qo'y va qoramollar tijorat uchun yetkazib berilgan. Ikkinchidan, Buxoro amirligi va Xiva xonligi chorvadorlari o'z chorvalarini o'tlatish uchun Turkistondagi yaylovlarga olib kelgan yoki aksincha, Turkiston chorvadorlari xonliklar hududlaridagi yaylovlarga chorvalarini boqish uchun borgan. Uchinchidan, Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Turkiston o'lkasi chorvadorlari ushbu uchta hududdan o'z chorvalarini haydab o'tish uchun tranzit yo'l sifatida foydalangan. Shu sababli mazkur uchta muzofot o'rtasida chorvachilik sohasida aloqalar kuchli bo'lgan. Mustamlaka ma'muriyatining chegara hududlarida veterinariya punktlarini tashkil etish uchun tuzilgan komissiya bu masalalarning barchasini o'rganib chiqadi. Jumladan, ular Buxoro amirligi va Xiva xonligi chorvadorlari Turkiston o'lkasidagi tog'larga chorvalarini o'tlatishga olib kelishini aniqlagan. Bundan tashqari, ayrim chorvadorlarning cho'l hududlaridagi quduqlarda va tog'larda buloqlari mavjud bo'lgan. Boshqacha aytganda, chorvadorlar bir hududdan ikkinchi hududga erkin ko'chib yurgan. Bu chorvadorlar uchun an'anaviy odat hisoblangan. Komissiya chorvalarning mazkur harakatlarini o'rganib chiqadi. Umuman olganda, ushbu komissiya Turkiston o'lkasining ko'proq Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chorvachilik sohasida iqtisodiy munosabatlari borligini qayd etadi. Shu sababli komissiya birinchi navbatda o'lkaning Buxoro amirligi bilan chegaradosh hududlarida veterinariya punktlarini tashkil etish lozim deb hisoblaydi[1:32-varaq orqasi].

1891-yil 10-avgustda Turkiston general-gubernatori Buxoro amirligida veterinariya punktlarini tashkil etish masalasini o'rganish uchun amirlikka komissiya yuborishga topshiriq bergan. Mazkur ishga Turkiston o'lkasi bosh veterinariya hamda general-gubernator maslahatchisi bo'lgan N. Brovnikov rahbarlik qilgan. U mazkur ekspeditsiyani amalga oshirish uchun 1892-yilda Samarqand viloyat harbiy gubernator huzurida bo'ladi. Jumladan, u Turkiston general-gubernatorining viloyat boshlig'iga



aytgan topshirig'ini yetkazadi. Unga ko'ra, Samarqand viloyat harbiy gubernatori Buxoro amirligi ma'muriyatiga ushbu ekspeditsiya ularning hududiga borayotganligi hamda ularga kerakli sharoitlar yaratib berishni so'raydi. Shuningdek, N.Brovnikov viloyat boshlig'idan uning qo'l ostidagi veterinar shifokorlardan birini unga yordamchi sifatida qo'shib yuborishni iltimos qiladi[1:12-varaq].

1892-yilda Turkiston general-gubernatori Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligiga xat yuboradi. U xatida Turkistonda veterinariya nazoratini tashkil etishi uchun Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatining ayrim aholi punktlarida veterinariya punktlarini tashkil etganligini qayd etadi. Biroq, ular bu bilan bir qatorda Buxoro, Xisor va Petro-Aleksandrsk shaharlarida ham veterinariya punktlarini tashkil etish zarur deb topganligini aytadi. Ushbu veterinariya punktlarini har biriga 1 nafardan veterinariya shifokorlari, 2 nafardan feldsher hamda tarjimon tayinlash ko'zda tutgan. Mustamlaka ma'muriyatining rejasiga ko'ra, Buxoro, Hisor va Petro-Aleksandrovsk shaharlaridagi veterinariya punktlari xarajatlarining yarmi Turkiston general-gubernatorligi davlat xazinasidan hamda qolgan qismi Buxoro amirligi va Xiva xonligi hukumatlari tomonidan qoplanishi lozim bo'lgan. Turkiston general-gubernatori Buxorodagi Rossiya agentligi rahbaridan bu masala bo'yicha Buxoro amiri bilan bog'lanish hamda Buxoro va Hisorda tashkil etish rejalashtirilgan veterinariya punktlarining xarajatlari to'lashda ishtirok etishni so'raydi. Mustamlaka ma'muriyatining hisob kitobiga ko'ra, bu veterinariya punktlarining har birining bir yillik xarajati 3805 rublni tashkil etgan[1:45-varaq].

Boshqa tomondan, mustamlaka ma'muriyati veterinariya sohasidagi eng katta xavfni Buxoro amirligidan kutgan. Bunga bir qancha sabablar bor edi. Birinchidan, Buxoro amirligi va Turkiston general-gubernatorligi o'rtasidagi chegaralar uzun bo'lgan va chegaralarni nazorat qilish ishlari amalga oshirilmagan. Masalan, arxiv manbalariga ko'ra, har yili Buxoro amirligi chorvadorlari minglab chorva mollarini Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on va Jizzax uyezdlaridagi yaylovlarga boqish uchun olib kelgan. Shuningdek, Afg'onistondan Buxoro amirligiga har yili ko'plab chorva mollari kirib kelgan. Buxoro amirligida ular veterinariya nazoratidan o'tkazilmagan. Keyinchalik esa ushbu chorvalar Buxoro amirligidan Turkiston hududiga sotish va yaylovlarda boqish uchun olib kelingan[1:34-varaq].

Yuqoridagi ma'lumotlarni hisobga olgan holda, Turkiston general-gubernatorligi, birinchi navbatda, Buxoro amirligi bilan qo'shni hududlarda veterinariya punktlarini tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Bu chorva mollarining yuqumli kasalliklari kirib kelishining oldini oladigan yagona chora sifatida ko'riladi. Chunki Buxoro amirligi va Afg'onistondan Turkistonga sotish uchun olib keligan turli turdagi chorva mollarini o'sha veterinariya punktlarida tekshirish va ularni karantinga olish imkoni paydo bo'lar edi. Biroq, amalda bu ishni ro'yobga chiqarish deyarli imkonsiz edi. Chunki yuqorida qayd etib o'tganimizdek, Buxoro amirligi va Turkiston general-gubernatorligi chegaralar juda uzun bo'lgan. Bundan tashqari, ushbu chegaralarning



aksariyat qismi tekisliklardan iborat edi. Bu esa Buxoro amirligi chorvadorlarining turli geografik yo'llar orqali Turkiston o'lkasiga kirib kelish imkonini bergan. Turkiston general-gubernatorligining veterinariya boshqarmasi bu murakkablikka darhol e'tibor qaratgan. Masalan, Buxoro amirligi va Turkiston o'lkasidagi Hisor tog' tizmalari orqali chegarani kesib o'tuvchi 17 ta yo'l mavjud bo'lgan. Bu degani mustamlaka ma'muriyati o'sha 17 ta yo'lning har biriga bittadan veterinariya punktlarini tashkil etish vazifasini qo'ygan. Bundan tashqari, Nurota bekligi va Jizzax uyezdi chorvadorlarining ikki hududda ham chorva mollarini sug'orish uchun quduqlari mavjud bo'lgan. Bu esa chorvadorlar bir hududdan ikkinchi hududga tez-tez ko'chib o'tganligini anglatgan. Jumladan, veterinariya mutaxassislari quyidagi savollarni qo'yadi: Nurota va Jizzax podalari uchun umumiy sug'orish joyi bo'lib xizmat qilgan quduqlar atrofida qanday veterinariya nazoratini o'rnatish mumkin? Buxoro amirligi va Turkiston o'lkasi janubiy chegaralari bo'ylab o'tgan ushbu 17 ta o'tkazish punktida bir nechta veterinariya punktlarini tashkil etish uchun qancha mablag' kerak bo'ladi? Bu savollardan ko'rinib turibdiki, veterinariya mutaxassislari Buxoro amirligi bilan qo'shni uyezdlarda veterinariya nazoratini o'rnatish iqtisodiy va tashkiliy jihatdan qiyin ish ekanligini tushungan. Shu sababli mustamlaka ma'muriyati birinchi navbatda moliyaviy xarajatlarni kamaytirishga harakat qilgan. Buning uchun ular juda oddiy usuldan foydalangan. Bu usul esa ta'qiqlardan iborat edi. Masalan, Jizzax va Nurota o'rtasidagi chegarani nazorat qilish uchun mahalliy aholining yordamidan foydalangan. Ma'muriyat aholiga Buxoro amirligidan kelgan chorvalarni sotib olmaslikni va ular bilan savdo aloqalarini olib bormaslikni so'raydi. Janubiy chegara hisoblangan Hisor tog' tizmalari orqali o'tgan 17 ta o'tkazish punktini esa chorva haydash uchun berkitib qo'ygan[1:34-varaq orqasi].

Boshqa tomondan, mazkur veterinariya-sanitariya chora-tadbirlari mazmun mohiyati tushunarsiz edi. Bu fikrlar mustamlaka ma'muriyatining iqtisodiyot sohasida xizmat qiluvchi ayrim amaldorlari tomonidan aytilgan. Ularning fikriga ko'ra, chegara hududlardan o'lkaga chorva mollarining kirib kelishi to'xtatilsa, mintaqadagi chorvachilik sohasi inqirozga yuz tutar edi. Bundan tashqari, ularning fikriga ko'ra, chorva mollarining bir hududdan ikkinchi hududga yaylov qidirib kelish amaliyotini tugatishga sabab bo'lar edi [1:35-varaq] Bu esa mahalliy aholining iqtisodiy hayotiga katta zarar yetkazgan.

Mustamlaka ma'muriyatining boshqa vakillari bu turdagi veterinariya nazoratini o'rnatish ham iqtisodiy jihatdan, ham veterinariya jihatidan o'zini oqlamasligini qayd etadi. Ular mazkur choralar o'rniga Buxoro amirligining o'zida veterinariya punktlarini tashkil etishni maslahat beradi. Ularning fikriga ko'ra, mazkur punktlar doimiy tarzda amirlikdagi chorva mollarining salomatligini tekshirib boradi. Agar ushbu veterinariya shifokorlari va feldsherlari amirlikda chorva mollari kasalliklarini aniqlasa, darhol Turkiston o'lkasidagi hamkasblariga xabar berishi lozim edi. Shunda Turkiston general-gubernatorligi ma'muriyati Buxoro amirligi bilan barcha chegaralarni yopishi



va chorva mollarining o'lkaga kirib kelishiga yo'l qo'ymasligi ko'zda tutilgan edi. Agar amirlikda chorva kasalliklari aniqlanmasa, Buxoro amirligidan Turkiston o'lkasiga chorva mollarining erkin kirib kelishiga yo'l qo'yish lozim edi. Mazkur amaldorlar Buxoro amirligining Qorategin, Hisor, G'uzor va Qarshi kabi shahar va muzofotlarida allaqachon 4 ta veterinariya punktlari faoliyat yuritayotganligini eslatib o'tadi. Ular qo'shimcha chora sifatida Buxoro amirligi va Afg'onistondan olib kelingan chorva mollari eng ko'p sotiladigan Turkiston o'lkasidagi bozorlarda veterinariya nazoratini o'rnatishni tavsiya etadi. Bunda chorva mollari chegaralarda emas, balki aniq bir mol bozorlarida veterinariya tekshiruvidan o'tkazilgan. Agar kasallik aniqlansa, ushbu chorva mollarini darhol karantinga olish mavjud bo'lardi [1:35-varaq-35-varaq orqasi].

Turkiston o'lkasiga Buxoro amirligidan chorva mollari, asosan, G'uzor, Qarshi, Hisor, Qorategin va Buxoro shaharlaridan yuborilgan. Shu sababli veterinariya mutaxassislari mazkur shaharlarda veterinariya punktlarini tashkil etishni tavsiya qiladi. Bundan tashqari, Buxoro amirligining Qoratog', Kofimixon va Fayziobod hududlaridan ham o'lkaga chorva mollari olib kelingan. Mazkur 3 ta hudud Dushanbe shahriga yaqin bo'lgan. Shu sababli mustamlaka ma'muriyati Dushanbe shahrida ham veterinariya punktini tashkil etishga qaror qiladi. Ushbu G'uzor, Qarshi, Hisor, Qorategin bekliliklari hamda Buxoro va Dushanbe shaharlaridagi mazkur veterinariya punktlarida 1 ta veterinar shifokor, 2 ta veterinar feldsher va tarjimon lavozimlari ta'sis etilgan [1:36-varaq]. Tarjimon har doim veterinar shifokorning yonida yurishi talab qilingan.

Mustamlaka ma'muriyatining rejasiga ko'ra, Buxoro amirligining Qorategin bekligidagi veterinariya punkti beklilikning Garm shahrida joylashishi ko'zda tutilgan. Mazkur punktda veterinar shifokor, feldsher va tarjimon ishlashi rejalashtirilgan. Ya'ni, bir veterinar feldsheri esa beklilikning Obigarm aholi punktida xizmat olib borishi tayinlangan [1:36-varaq].

G'uzor hamda Qarshi shaharlarida ham shu manzara ko'zga tashlanadi. Boshqacha aytganda, veterinar shifokorlari va feldsherlari shaharning turli qismlarida faoliyat yuritgan. Xususan, G'uzor shahridagi veterinar punktida 1 ta veterinar shifokor va 1 ta veterinar feldsher veterinariya punktining o'zida faoliyat yuritgan bo'lsa, ikkinchi feldsher Darbandda xizmat faoliyatini olib borgan. Qarshi shahridagi veterinariya punktida ham veterinar shifokor, feldsher va tarjimon ishlagan. Ikkinchi veterinar feldsheri esa Shahrisabzda o'z faoliyatini olib borgan. Dushanbe shahridagi veterinariya punkti bir qancha bekliliklardagi veterinariya holatiga javobgar bo'lgan. Xususan, mazkur punktda xizmat olib borgan veterinariya shifokorlari va feldsherlari Hisor, Baljuvon, Kulob, Qo'rg'ontepa va Kobodiyon bekliliklarida veterinariya ishlarini olib borgan [1:36-varaq].

Hisor veterinariya punkti sharqdan Dushanbe, janubdan Amudaryo, shimolda Turkiston general-gubernatorligi hamda g'arbdan Kerki, G'uzor va Yakkabog'gacha bo'lgan hududlarda faoliyat olib borgan. Qarshi veterinariya punkti Hisordan Buxoro



shahrigacha bo'lgan hududlarda veterinariya xizmatlarini olib borgan. Umuman olganda, Buxoro va Qarshi shaharlaridagi veterinariya punktlarining xizmat olib borish joylari aniq belgilanmagan edi. Shu sababli, mazkur ikkita veterinariya punktida xizmat qilgan shifokorlar va feldsherlar o'rtasida tushunmovchiliklar bo'lib turgan [1:36-varaq].

Panj va Amudaryo o'tish joylaridagi veterinariya nazorati Dushanbe veterinariya punktining xizmat doirasiga kirgan. Biroq, mazkur hududlar o'rtasida katta masofa mavjud bo'lgan va shu sababli veterinariya punktining chegara hududlarida o'z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoni yo'q edi. Shu sababli Amudaryo va Panj daryolarida faoliyat olib borgan bojxona muassasalari veterinariya nazoratida ham ishtirok etgan. Zarur hollarda bojxona muassasasi boshlig'i Dushanbe veterinariya punktidan veterinar shifokorni chaqirtirgan, bundan tashqari Saroy va Pattakesar kabi o'tkazish punktlarining har birida bittadan feldsher doimiy tarzda ishlagan [1:36-varaq]. Ular ham Dushanbe veterinariya punktiga bo'ysungan.

Turkiston general-gubernatorligi nafaqat o'lkada balki qo'shni xonliklarda ham veterinariya nazoratini amalga oshirishga harakat qilgan. Jumladan, 1912-yil yanvar oyida Turkiston general-gubernatori Buxoro amiri bilan veterinariya va chorvachilikka oid memorandum tuzgan. Mazkur kelishuvga ko'ra, Buxoro amirligining G'uzor va Qarshi shaharlarida veterinariya punktlari tashkil etilgan. Ushbu muassasalarning sarf-xarajatlari Buxoro amirligi tomonidan qoplangan. Ushbu 2 ta veterinariya punktlarining har birida veterinar shifokor, veterinar feldsher, 2 ta qo'riqchi, tarjimon kabi lavozimlar joriy qilingan. Ushbu lavozim egalarining maoshlari bir-biridan farq qilgan, maoshdan tashqari xodimlarga qo'shimcha ijtimoiy to'lovlar amalga oshirilgan. Masalan, ushbu punktlarda xizmat qilgan veterinar shifokorlarga bir yilda jami 1825 rubl to'langan. Ushbu summaning 600 rubli oylik maosh sifatida, 600 rubli oziq-ovqat xarajatlari uchun, 300 rubli turar joy xarajatlari uchun, 300 rubli transport xarajatlari uchun, hamda 25 rubli kanselyariya mahsulotlari xarajatlari uchun berilgan. Veterinar feldsheri uchun jami 530 rubl to'langan bo'lib, uning 92 rubl oylik maosh uchun, 192 rubl oziq-ovqat xarajatlari uchun, 96 rubl turar joy xarajatlari uchun hamda 50 rubl transport xarajatlari uchun bo'lgan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, mazkur veterinariya punktlarida 2 ta qo'riqchi tarjimon lavozimi bo'lgan. Ularning biri otliq qo'riqchi bo'lgan bo'lsa, ikkinchi qo'riqchi esa o'z faoliyatini piyoda amalga oshirgan. Otliq qo'riqchi tarjimon uchun bir yilda oylik maosh sifatida jami 360 rubl to'langan bo'lsa, piyoda qo'riqchi – tarjimonga 240 rubl berilgan. Yuqorida qayd etganimizdek, ushbu oylik maoshlar va xarajatlar Buxoro amirligi tomonidan qoplangan, biroq G'uzor va Qarshi shaharlardagi ushbu veterinariya punktlarining faoliyatlari va ularning moliyaviy xarajatlari Turkiston general-gubernatorlining Samarqand viloyat harbiy gubernatori tomonidan nazorat qilingan. Shuningdek, viloyat harbiy gubernatori Ichki ishlar vazirligiga mazkur veterinariya punktlarining faoliyatlari haqida hisobot berib turgan [2:153-varaq].



Buxoro amirligining Gʻuzor va Qarshi shaharlaridagi veterinariya punktlariga shifokor yoki feldsher tayinlash bir oz boshqacha usulda amalga oshirilgan. Masalan, Turkiston oʻlkasidagi veterinariya punktlardagi veterinar shifokorlar va feldsher lavozimlariga tayinlanish uchun faqatgina bilimli va tajribali boʻlish yetarli boʻlgan. Biroq, mazkur veterinariya punktlarida talabgor bilim va tajribadan tashqari xushmuomala hamda maʼnaviy va axloqiy fazilatlar yuqori boʻlishi lozim boʻlgan. Bu lavozimlarga shaxslarni Turkiston general-gubernatorining oʻzi tayinlagan. Bundan koʻrinadiki, qoʻshni xonlikka ishga yuborilayotgan shaxs oʻz sohasining yetuk mutaxassisi boʻlishi bilan birga mustamlaka maʼmuriyati siyosatini toʻgʻri va toʻliq tushunishi lozim boʻlgan. Boshqa tomondan, Gʻuzor va Qarshi shaharlardagi ushbu muassasalarga talabgorlar Samarqand viloyat veterinariya boshqarmasiga qarashli tashkilotlardan tanlab olingan. Shu sababli 1912-yil yanvar oyida Samarqand viloyat veterinariya inspektori N. Nikiforov viloyatdagi veterinariya va chorvachilikka oid barcha tashkilotlariga ikki nomzodning ism va familiyalarini yuborishni soʻragan [2:153-varaq orqasi].

Veterinar shifokorlar hamda tibbiyot xodimlari qoʻshni xonliklarga veterinariya tadqiqotlari uchun borib turgan. Xususan, 1892-yilda tibbiyot fanlari doktori I. Suvorov hamda veterinar shifokor N. Bronikov Buxoro amirligining Qarshi muzofotiga veterinariya tadqiqoti uchun ekspeditsiya uyushtiradi. Mazkur ekspeditsiya Toshkentdan yoʻlga chiqib, Qarshiga yetib boradi. Ular u yerdan Gʻuzor orqali Sherobod, Kabodiyon, Qoʻrgʻontepa, Koʻlob, Baljuvon va Garm kabi hududlarga boradi. Ekspeditsiya qaytishda Garmdan yoʻlga chiqadi hamda Fayziobod, Qorategin, Dushanbe, Xisor, Qoratogʻ, Gʻuzor hamda Qarshi orqali Toshkentga yetib keladi. Ekspeditsiya aʼzolari oʻzlari bilan tahlil uchun kerak boʻladigan asbob-uskunalar apparatlarini olib borgan. Ushbu apparatlarning ogʻirligi jami 12 kg. boʻlib, ular 2 ta katta sandiqqa joylangan edi. Ushbu jihozlarga gigiyena laboratoriyasi deb taʼrif berilgan. Chunki ular ushbu asboblarni yordamida Buxoro amirligining mazkur hududlardagi aholi va chorva mollari ichadigan suvlarni tekshirib chiqqan. Masalan, ular Qarshi shahridagi ichimlik suvini atroflicha oʻrgangan [1:6-varaq].

Buxoro amirligi va Turkiston general-gubernatorligi oʻrtasidagi veterinariya nazorati va hamkorligida Buxoro siyosiy agentligi muhim oʻrin tutgan. Xususan, agentlik amirlikdagi chorvachilik va veterinariya holatini kuzatib borgan. Ular bu maʼlumotlar asosida Turkiston general-gubernatoriga sohaga oid oʻzlarining tavsiyalarini berib borgan. XX asr boshlarida siyosiy agentlikning general-gubernatoriga yozgan xatida bu narsa yaqqol koʻzga tashlanadi. Siyosiy agentlik mazkur davrda Buxoro amirligidan Turkiston oʻlkasiga chorva mollari kasalliklari kirish xavfi kamligini tasdiqlaydi. Uning maʼlumotlariga koʻra, ushbu davrda qoʻzi kabi yosh hayvonlar koʻpincha sovuqdan oʻlgan boʻlsa, qoramollar, qoʻylar va tuyalar asosan ozuqa va suv yetishmasligidan nobud boʻlgan. Juda oz chorva mollarigina kasallikdan oʻlgan [3:16-varaq].



Lekin siyosiy agentlik Buxoro amirligi va Turkiston general-gubernatorligi o'rtasida chorva savdosi rivojlanganligini qayd etadi. Bundan tashqari, amirlikning chorva xomashyolari Rossiya imperiyasining markaziy qismlariga ham eksport qilingan. Buxorodagi siyosiy agentlik shularni inobatga olgan holda, Turkiston general-gubernatoriga Buxoro amirligida ham veterinariya chora-tadbirlarini amalga oshirishni tavsiya etadi[3:16-varaq].

Siyosiy agentlik Buxoro amirligida veterinariya holatini o'rganish nafaqat kasalliklarni oldini olish, balki mustamlaka ma'muriyatining siyosiy maqsadlariga ko'ra ham muhim deb hisoblangan. Jumladan, u Buxoro amirligining tog'li hududlarida otlarning ko'plab zotlari mavjudligini qayd etadi. Shu sababli agentlik boshlig'i general-gubernatorga mazkur zotdor otlardan O'rta Osiyoda joylashgan harbiy garnizonlarda otliq va artilleriya bo'linmalarida foydalanishni maslahat beradi. Shu sababli u amirlikdagi veterinariya mutaxassislari faqatgina veterinariya nazoratini olib bormasdan, balki yilqichilikni yaxshilash ma'suliyatini ham yuklash lozim deb hisoblaydi. Umuman olganda, siyosiy agentlik boshlig'i ushbu siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga ko'ra Buxoro amirligiga veterinar shifokorlarni yuborish maqsadga muvofiq deb hisoblagan[3:16-varaq].

Siyosiy agentlik Buxoro amirligining qaysi hududlarida veterinariya punktlarini tashkil etishni aniqlash uchun birinchi bu hududga veterinariya mutaxassislari xizmat safariga yuborish kerak deb hisoblaydi. Ularning fikriga ko'ra, butun amirlik hududida 1 nafar doimiy veterinar shifokor va 1 nafar veterinar feldsherini tayinlash yetarli bo'lgan. Ushbu shifokor va feldsherning doimiy turar joyi va faoliyati markaziy shaharlardan birida bo'lish tavsiya etiladi. Ularning fikriga ko'ra, shifokor va feldsherlar bitta joyda turib faoliyat olib boradi va faqat kerakli vaqtlarda amirlikning boshqa hududlariga xizmat safariga chiqadi[3:16-varaq orqasi].

Buxorodagi siyosiy agentlik amirlikda 5 yoki 6 ta veterinariya punktlarini tashkil etsa, ularni shifokorlar bilan ta'minlash imkonsiz bo'lib qoladi. Ularning fikriga ko'ra Buxoro amirligiga asosan past malakali va ilmsiz xodimlar yuborilgan. Ular Buxoro amirligida veterinariya nazoratini doimiy tarzda olib bora olmaydi. Siyosiy agentlik ularning tajribasi shularni ko'rsatishini aytadi. Ular bunga bir qancha misollar keltiradi. Xususan, veterinariya sohasidagi quyi xodimlar aholidan keragidan ortiq soliq undirish holatlari ro'y bergan. Bundan tashqari mazkur xizmatchilar aholi bilan to'g'ri muloqatga kirisha olmagan. Bu esa xalqning noroziligiga sabab bo'lgan[3:17-varaq].

Mustamlaka ma'muriyati fikriga ko'ra, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligida veterinariya ishlari tashkil etilmagan. Shu sababli ular Xiva xonligidan Turkiston o'lkasiga chorva yuqumli kasalliklari kirib kelish xavfi yuqori deb hisoblagan. Bunga bir qancha ma'lumotlarni asos qilib ko'rsatadi. Ularning fikriga ko'ra, Xiva xonligidan Turkiston o'lkasiga chorva mollari va xomashyolari ikki yo'l bilan kirib kelgan. Birinchi yo'l bu – Buxoro amirligi orqali bo'lgan. Rossiya imperiyasi vakillarining fikriga ko'ra, Xiva xonligidagi chorva mollari dastlab Buxora



amirligi hududiga o'tgan hamda amirlik orqali Turkiston o'lkasiga kirib kelgan. Ikkinchi yo'l Xiva xonligi va Turkiston general-gubernatorligi orqali to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilgan. Xususan, har yili minglab qo'y va qo'zi terilari xomashyo sifatida Turkiston o'lkasiga eksport qilingan. Mazkur eksport ishlari uchta yo'l bilan amalga oshirilgan. Boshqacha aytganda, Xiva xonligidan Turkistonga chorva mollari terilari Chorjo'y, Qo'ng'iro't va Sirdaryo viloyatining Amudaryo bo'limi orqali kirib kelgan[1:34-varaq].

Turkiston general-gubernatorligi Xiva xonligi bilan ham veterinariya sohasida hamkorlik qilgan. Mustamlaka ma'muriyati xonlikdan Turkiston o'lkasiga chorva mollarining yuqumli kasalligi kirib kelishining oldini olish uchun chegarada bir qancha veterinariya punktlarini tashkil etish maqsadga muvofik deb hisoblagan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligidan Turkiston o'lkasiga chorva mollari va xomashyolari asosan Petro-Aleksandrovsk, Qo'ng'iro't va Xiva shaharlari orqali kirib kelganligini hisobga olgan holda o'lka veterinariya mutaxassislari ushbu uchta shaharda veterinariya punktlarini tashkil etishni ma'muriyatga tavsiya etadi. Mazkur davrda Petro-Aleksandrovsk harbiy garnizonida 1 nafar veterinar shifokor faoliyat yuritib kelayotgan edi. Bu hududdagi veterinariya nazorati mazkur shaxsga yuklatilgan. Biroq, Qo'ng'iro't va Xiva shaharlarida hali veterinariya punktlari tashkil etilmagan edi. Shu sababli mustamlaka ma'muriyati ushbu shaharlarda veterinariya punktlarini tashkil etishni hamda ularning har biriga bir nafardan feldsher va tarjimon tayinlashni rejalashtirgan. Ularning rejasiga ko'ra, Xiva xonligidan Turkiston o'lkasiga Qo'ng'iro't shahri orqali kirib kelayotgan chorva mollari terilari Qo'ng'iro't veterinariya punkti shifokorining tekshiruvidan o'tishi lozim bo'lgan. Chegaradan faqatgina veterinariya shifokorining ma'lumotnomasiga ega bo'lgan teri mahsulotlari o'tkazilgan. Chorjo'y shahri orqali xonlikdan o'lkaga kirib kelayotgan teri xomashyolari Xiva yoki Petro-Aleksandrovskdagi veterinar shifokorlar tomonidan nazorat qilingan. Bu yerda ham tegishli veterinariya sertifikatlarini olgan mahsulotlar chegaradan o'tkazilgan[1:36-varaq].

Mustamlaka ma'muriyati Afg'onistondan Buxoro amirligi va Turkiston o'lkasiga olib kelinadigan chorvalarni veterinariya ko'rigidan o'tkazish yo'llarini ham qidiradi. Mazkur davrda Afg'onistondan chorva mollari Amudaryo va Panj daryolari orqali olib o'tilgan. Shu sababli imperiya vakillari Buxoro amirligi va Afg'oniston chegaralarida ham veterinariya punktlarini tashkil etishni maqsad qiladi. Panj daryosi bo'ylab chorvalarni o'tkazish punktlari ko'p bo'lgan. Mustamlaka ma'muriyati ushbu o'tkazish joylarining bir qismini yopishni tavsiya qiladi. Ularning fikriga ko'ra, bu aholining va davlatlarning iqtisodiy salohiyatlariga ta'sir o'tkazmaydi. Ularning fikriga ko'ra, Buxoro va Afg'oniston o'rtasida veterinariya nazoratini o'tkazish Turkistonga yuqumli kasalliklarning oldini olishga yordam bergan. Ular, shuningdek, bu choralar Buxoro amirligidagi chorvachilik sohasi uchun ham foydali bo'ladi deb hisoblagan[1:35-varaq orqasi].



Mustamlaka ma'muriyati Panj va Amudaryo orqali chorva mollarini olib o'tish va tashish uchun beshta o'tish joylarini ochiq qoldirish hamda qolganlarini yopib tashlashni maqsad qilgan. Ochiq qoldirilgan chorva mollarini o'tkazish joylari quyidagilar edi: Saroy, Pattikesar, Kelif va Kerki. Mazkur ochiq qoldirilgan o'tish joylaridan tashqari boshqa barchasi yopilgan. Yopilgan o'tish joylari orqali chorva mollarining o'tmasligini nazorat qilish chegara qo'shinlari zimmasiga yuklangan. Buxoro amirligi va Afg'oniston chegaralaridagi chorva mollarini olib o'tish uchun mo'ljallangan beshta o'tish joyida bittadan veterinariya feldsheri tayinlangan. Har bir o'tish joyidagi feldsher veterinariya nazoratiga javobgar bo'lgan[1:36-varaq].

Sharqiy Turkistondan Turkiston general-gubernatorligining Farg'ona viloyatiga teri mahsulotlari olib kelingan. Mazkur xomashyolarni veterinariya tekshiruvidan o'tkazish uchun Ergashtom chegara oldi o'tkazish punktida bir nafar veterinar feldsheri faoliyat olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblangan[1:36-varaq].

O'rta Osiyoga Xitoydan kirib kelgan chorva mollari va turli xil chorvachilik mahsulotlari o'lkada vabo va boshqa epizootiyalar tarqalishiga sabab bo'lgan. Shu sababli kasalliklardan himoya sifatida veterinariya tibbiyotini yo'lga qo'yganlar. Rossiya imperiyasining Xitoy chegarasidagi sanitariya nazorati va Xitoydagi ayrim konsulliklarga veterinariya shifokorlarini tayinlash va tegishli idoralar bilan kelishilgan holda Davlat kengashiga quyidagi yashash joylariga veterinariya shifokorlarini tayinlash bo'yicha takliflar berilgan: 1) Qashg'ar, G'ulja, Urumchi, Chuguchak va Urg'u veterinariya shifokorlariga Xitoyga bo'ysunuvchi hokimiyatdan olingan chorva mollarni tekshirish va ularning tabiatini aniqlash;

2) vujudga kelayotgan epizootiyaning rivojlanish darajasi hamda mulkga tahdid soluvchi xavf darajasi to'g'risida vakolatli organlarga zudlik bilan xabar berish;

3) Xitoydagi chorva mollarining kasalligi sababli bu hududlarda chorva mollari va xomashyo sotib olishning iloji yo'qligi haqida mahalliy savdogarlarni ogohlantirish; 4) Xitoyning mahalliy hokimiyat organlariga aniqlangan epizootiyaning mohiyatini va uni imkon qadar tezroq to'xtatish choralarini ko'rishni tushuntirish; 5) agar Xitoy hukumati xohlasa, hamkorlikda vaboga qarshi choralar ko'rish kabilar bo'lgan [4]. Bundan tashqari, Ichki ishlar vazirligi Yettisuv viloyatining Xitoy bilan chegaradosh Xorgos, Kaljat, Norin, Kopal kabi hududlarda kuzatuv veterinariya postlarini tashkil etishni rejalashtirgan.

1902-yilning sentyabr oyida Turkiston o'lkasining ko'plab hududlarida qoramollar orasida o'lat tarqalganligi haqida xabarlar tarqalgan. Mazkur kasallik o'lkaga Xitoy tomondan kirib kelgan deb hisoblangan. Davriy matubot bu kasallikning tarqalishini o'z sahifasida quyidagicha tasvirlaydi: "Sharqda surunkali ravishda Yettisuv viloyatiga qo'shni Xitoydan olib kelingan epizootiya asta-sekin Avliyoota va Chimkent tumanlariga kirib, nihoyat, Toshkentga yetib borgan. Yettisuvdan o'lat to'g'ridan-to'g'ri tog'lar orqali Andijon uyezdidagi Farg'onaning sharqiy qismigacha yetib borgan. Uzoq janubda Afg'oniston chegarasida, Kushka daryosi vodiysida epizootiya



paydo bo'lib, so'ngra Afg'oniston chegaralaridan tog'li Buxoroga tarqalgan va Buxoro mulklari orqali nazoratsiz ravishda Samarqand viloyatining Jizzax uyezdigacha yetib borgan. Shunday qilib, epizootiyaning sharqiy oqimi bilan janubiy oqim deyarli qo'shilib ketadi va butun Turkiston o'lkasi vabodan zarar ko'rgan" [5]. Mazkur kasallik, ayniqsa, Buxoro hududida jiddiy tus olgan.

Turkiston o'lkasi vaboga qarshi mustaqil kurash olib bora olmas edi. Vabo paydo bo'lganda, o'lkada vaboga qarshi zardobni tayyorlash bo'yicha stansiya bo'lmagan va uni Transbaykaldan yoki Kavkazortidan buyurtma qilish kerak bo'lgan. O'lkada mavjud bo'lgan veterinariya shifokorlari soni faqatgina infeksiya yo'llarini aniqlash uchun yetarli bo'lgan bo'lib, unga qarshi kurashishga ojiz edi. Xitoy hududidan tarqalgan bu kasallik qishloq xo'jaligiga ham katta ziyon yetkazgan [5].

Mustamlaka ma'muriyati 1894-yildan boshlab Rossiya imperiyasining Yevropa qismi va G'arbiy Sibir teri zararkunandalaridan holi hududga aylanganligini hamda natijada bu joylarda chorvachilikning o'zi ham, chorvachilik xomashyolari ham, qushxonalar ham rivojlanganligini ta'kidlaydi. Bu imperiyada yildan-yilga odamlar mehnatini qo'llab-quvvatlash ortib borishiga va daromadli sohaga aylanishiga sabab bo'lgan deb hisoblangan. Veterinariya mutaxassislari bu tajribani O'rta Osiyoda ham amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydi. Ularning fikriga ko'ra, agar epizootiya O'rta Osiyo yerlarida ildiz otishiga yo'l qo'yilsa, chorvadorlar o'z podalari bilan doimiy harakatda bo'lganligi sababli hayvonlar kasalliklari butun mintaqaga tarqaladi. Ular katta xarajatlar evaziga infeksiyaning tarqalishi Uralsk, Orenburg, Troisk, Kurgan, Petropavlovsk va Omsk kabi imperiyaning chorvachilikka boy mintaqalarida allaqachon yo'q qilinganligini hamda O'rta Osiyoda bu borada ishlar qilinmasa, u yerlarga yetib borishi mumkinligiga ishoniladi [5].

Bunday holatlarda iqtisodiyotga xavf kattaroq bo'lgan. Kavkazorti hududlarida kasal chorvalarni o'ldirish joriy qilingan bo'lib, vaboga qarshi chora-tadbirlar uchun davlat har yili 600 rubldan 1100 rublgacha mablag' ajratgan. 1903-yil yanvar oyida bo'lib o'tadigan Butun Rossiya imperiya veterinariya kongressida O'rta Osiyo chorvalari orasida tarqalgan epizootiyaga e'tibor qaratilib, chorvadorlar yashaydigan chekka hududlarda tarqalgan vabo kasalliklariga chora-tadbirlar ko'rishlariga umid qilishgan [5].

XULOSA

Ma'muriyat o'lkaga kasalliklar kirib kelishi xavfini Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan mavjud bo'lgan kuchli iqtisodiy aloqalar, xususan, tirik chorva savdosi, chorvadorlarning an'anaviy migratsiyasi va tranzit yo'llari bilan bog'lagan. Bu esa veterinariya nazoratini aynan ushbu chegaralarga qaratishni taqozo etgan.

Veterinariya nazoratini to'liq o'rnatish iqtisodiy va tashkiliy jihatdan murakkab vazifa bo'lgan. Chegaralarning uzunligi va chorvadorlarning erkin harakati nazoratni qiyinlashtirgan. Shuning uchun ma'muriyat dastlab moliyaviy xarajatlarni kamaytirish maqsadida Buxoro va Xiva xonliklarini ham veterinariya punktlarini moliyalashtirishga



jalb qilishga uringan, shuningdek, mahalliy aholi yordamida savdo taqiqlari orqali nazoratni oʻrnatishga harakat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Oʻzbekiston Milliy Arxivi, I-3-fond, 1-roʻyxat, 72-ish.
2. Oʻzbekiston Milliy Arxivi, I-12-fond, 1-roʻyxat, 14-ish.
3. Oʻzbekiston Milliy arxivi, I.17-fond, 29-roʻyxat, 1126-ish.
4. Туркестанские ведомости, 1897, № 56.
5. Туркестанские ведомости, 1902, № 73.
6. И.К. О необходимости реорганизации городской ветеринарии в городе Ташкенте. // Туркестанский ведомости, 1907, № 67.
7. Никитин И.Н. Исторические этапы формирования, развития и совершенствования государственной ветеринарной службы России. С. 5.
8. Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. – Санкт-Петербург. – 1908.
9. Петков П., Горячкин А. Развитие животноводства в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, - 1968.
10. Юлдашев А. Аграрные отношения в Туркестане. – Ташкент, 1969.
11. Shchekin V.A. Chorvachilik. Maxsus qism. (2-nashr). – Toshkent: Oʻquvchi. 1968.
12. Агзамов К., Скляр И. Племенное, молочное скотоводство в совхозе “Чиназ”. – Ташкент: Узбекистан, 1965.



MARKAZIY OSIYO XALQLARI MADANIYATINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY KOMMUNIKATSIYALARNING O'RNI

SALIYEVA MUHABBAT

Dotsent, filologiya fanlari nomzodi, TDSHU

Annotatsiya: Ushbu maqolada tahlilga bag'ishlangan masala, Markaziy Osiyo mamlakatlarida yuz bergan madaniy yuksalishning asosini, eng avvalo ommaviy kommunikatsiyalar tashkil etganligi tahliliga bag'ishlangan. Unda Markaziy Osiyo mamlakatlarida siyosiy strategiyaning asosiy jihati bo'lgan mintaqaviy xavfsizlik masalasi ko'rib chiqiladi va Markaziy Osiyoda xalq bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning murakkabliklarga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada ta'kidlanishicha, o'rta asrlarda ommaviy aloqalar keng va atroflicha, davlatlar hamda xalqlar hayotiga elatlar va madaniyatlar rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi kuch sifatida o'zini namoyon etgan.

Markaziy Osiyoda davlat boshqaruvidagi o'ziga xoslik tahlil qilinib, jarayonlar izohlab beriladi. Tadqiqotda keltirilgan va taxlil etilgan madaniy kommunikatsiya moddiy va madaniy turlardan iborat bo'ladi. Madaniy kommunikatsiyalar asosan odamlar ko'proq yig'iladigan joylarda saroylar, ko'shklar, karvonsaroylar va bozorlarda namoyish etilganligi bilan bog'liq ekanligi va bunda asosan siyosiy va madaniy muloqotning ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

Tizimli va qiyosiy yondashuvni qo'llash orqali tadqiqot Markaziy Osiyoda madaniy kommunikatsiyani kengroq tushunish imkonini beradi. Ushbu maqola xalqaro munosabatlar, siyosatshunoslik va mintaqaviy tadqiqotlar sohasidagi olimlar va amaliyotchilar uchun qiziqarli bo'lib, Markaziy Osiyo xududida strategik ustuvorliklari va ularning Markaziy Osiyoda davlat boshqaruvida madaniy ijtimoiy kommunikatsiya tizimini tashkil etishda o'sha davrda sharq xukmdorlarining rahbarlik maxoratlari haqida qimmatli fikrlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar. Davlat, siyosat, jamiyat, maxorat, boshqaruv, xukmdor, saroy, karvonsaroy, elat.

Аннотация: В данной статье анализируется вопрос о том, что именно массовые коммуникации, прежде всего, сформировали основу культурного подъема, произошедшего в странах Центральной Азии. Рассматривается вопрос региональной безопасности, являющийся ключевым аспектом политической стратегии в странах Центральной Азии, и особое внимание уделяется сложностям взаимоотношений между народом и государством в Центральной Азии. В статье подчеркивается, что в Средние века массовые коммуникации проявили себя как обширная и всеобъемлющая сила, оказавшая огромное влияние на жизнь государств и народов, на развитие народов и культур.

Анализируются особенности государственного управления в Центральной Азии и объясняются процессы. Представленная и проанализированная в исследовании культурная коммуникация состоит из материальных и культурных типов. Подчеркивается, что культурная коммуникация в основном связана с проявлением людей в местах их скопления, таких как дворцы, особняки, караван-сарай и рынки, и что она в основном находится под влиянием политической и культурной коммуникации.

Используя систематический и сравнительный подход, исследование обеспечивает более широкое понимание культурной коммуникации в Центральной Азии. Данная



статья представляет интерес для ученых и практиков в области международных отношений, политологии и региональных исследований и предоставляет ценные сведения о стратегических приоритетах Центральноазиатского региона и лидерских качествах восточных правителей того периода в организации системы культурной и социальной коммуникации в государственном управлении Центральной Азии.

Ключевые слова: государство, политика, общество, навыки, управление, правитель, дворец, караван-сарай, люди.

Abstract: This article analyzes how mass communications, above all, formed the basis for the cultural upsurge that occurred in the countries of Central Asia. It examines regional security, a key aspect of political strategy in the countries of Central Asia, and pays particular attention to the complexities of the relationship between the people and the state in Central Asia. The article emphasizes that in the Middle Ages, mass communications proved to be a vast and comprehensive force, exerting a tremendous influence on the lives of states and peoples, as well as on the development of peoples and cultures.

The characteristics of public administration in Central Asia are analyzed and the processes involved are explained. The cultural communication presented and analyzed in this study consists of material and cultural types. It is emphasized that cultural communication is primarily associated with the manifestation of people in places where they congregate, such as palaces, mansions, caravanserais, and markets, and that it is primarily influenced by political and cultural communication.

Using a systematic and comparative approach, this study provides a broader understanding of cultural communication in Central Asia. This article will be of interest to scholars and practitioners in the fields of international relations, political science, and regional studies and provides valuable insights into the strategic priorities of the Central Asian region and the leadership qualities of eastern rulers of that period in organizing a system of cultural and social communication in Central Asian public administration.

Keywords: state, politics, society, skills, governance, ruler, palace, caravanserais, people.

Kirish. Vaqt – oliy hakam. Axborot asri biz uchun qanday davr, u bizni qayergacha olib boradi? Amerikalik olim Elvin Toffler “Uchinchi to'lqin” kitobida insoniyat tamaddunining uch asosiy bosqichiga quyidagicha ta'rif bermoqda: “O'zgarishlarning Birinchi to'lqini – qishloq xo'jaligidagi inqilob – tugagunigacha mingyilliklar kerak bo'ldi. Ikkinchi to'lqin – sanoat sivilizatsiyasining yuksalishi – bor-yo'g'i 300 yilni egalladi. Bugungi kunga kelib tarix yanada tezlashib ketdi va Uchinchi to'lqin bir necha o'n yilliklar davomida tarixdan o'tib ketishi ehtimoli bor” . Balki muallif Uchinchi to'lqin deganda rivojlangan axborot jamiyati davrini nazarda tutgandir. Shunday bo'lib, mazkur o'n yilliklarga axborotning jamiyatdagi rolini yangicha tushunishini aks ettiradigan dastlabki kitoblar chop etilgan muddatni qo'shganimizda (Norbert Viner, “Kibernetika”, 1948 y.) ham, baribir rivojlangan axborot jamiyati davri jami bir asrdan oshmasligi mumkin. Balki shuning uchun bu davr “axborot asri” deb nomlangandir.

Mazkur kitobda IX asrdan XVI asrgacha bo'lgan zamon o'rganilmoqda. Mingyillik davomida qo'lga kiritilgan bilim bir asrda to'plangan ilmdan ustun turishiga shubha bo'lmasa kerak. Axborot asri nima bilan tugashi, u insoniyatni oxir-oqibatda nimaga



olib borishi hali ma'lum emas. Ammo o'rta asrlarda sayyoramiz qanday yuksak natijalarga erishgani hammaga ayon. Bu davr insoniyat tarixiga "Musulmon Renessansi" nomi bilan kirib, o'rta asrlarda jami odamzot tarixida sanoqli bo'lgan buyuk yuksalishlardan biri yuz berdi. Bu zamon Imom al-Buxoriydan Alisher Navoiygacha atoqli shaxslarning davri bo'ldi. Mazkur asrlar ichida Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Amir Temur, Bobur kabi olimlar va yozuvchilar, jamiyat va davlat arboblari tarix beshigini tebratgan. Ma'lumki, Musulmon Renessansi vakillari Yevropa Renessansining paydo bo'lishi va rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shganlar. XIV–XVI asrlarda Yevropa universitetlarining rivoj topishiga asosiy sabab bo'lgan tabiiy va falsafiy fanlarning negizida ibn Sino (Avitsenna) va ibn Rushd (Averroes)larning ilmiy kontsepsiyalari yotgan.

Sharq xalqlarining o'rta asrlarda erishgan yutuqlari umuman badiiy tafakkurning barcha sohalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan: matematika va astronomiyadan boshlab she'riyat va nasrgacha G'arbiy uyg'onish davrida ijod qilgan mashhur Yevropa olim va yozuvchilarining asarlarida Sharq Qur'oni karim va hadislarga, Xorazm, Buxoro va Samarqandda yashagan fan va ta'lim namoyandalariga, bu yerda tashkil topgan ilmiy va adabiy muhit, mazmun va janrlarga, devonu ruboiylarga, arab va fors tilida bitilgan xatlarga murojaatlar ko'pdan-ko'p uchraydi, jumladan, "algebra" va "meditsina" so'zlarigacha.

O'rta asrlardagi Sharq madaniyatini o'rganish globallashuv davrida yanada dolzarblashmoqda. Axboriy tajovuzlar natijasida bugungi kunga kelib, insoniyat hayotida o'rnatilgan ma'naviy-axloqiy me'yorlar asta-sekin yemirilib, odamzot postmavjudlik (postsumestvovaniye) davriga o'tmoqda. Daniell Belldan keyin "post" so'zi ommalashib ketdi. Postindustrial jamiyat, postmodernizm, postinsoniy kelajak (postchelovecheskoye budущеye), postzamonaviylik (postsovremennostʹ) tushunchalari keng iste'molga kirimoqda.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo mamlakatlari hududida ijtimoiy rivojlanish kuchli bo'lganki, natijada, odamlarda ma'lumotlarni yetkazish vositalariga bo'lgan ehtiyoj ortgan. Bugungi kunda biz bu holni o'sha davrlardagi ommaviy madaniy kommunikatsiyalarning yuksalishi deb baholashga haqlimiz.

Abu Nasr Forobiy ko'rsatganidek, madaniyat odamzot hayotida muhim o'ringa ega ekanini Aflotun shunday ta'riflaydi: «Aflotun nihoyatda foydali bo'lgan bir fikrni tushuntirishga intiladi, bu – adolatning go'zalligidir». O'sha davrda aloqa vositalarining ahamiyati nechog'li muhim bo'lganligi davlat va jamiyatni boshqarishda yozma hamda og'zaki aloqa turlari ommaviy tarzda amalga oshirilganligi bilan oydinlashadi.

Mazkur bo'limda madaniy kommunikatsiyaning ahamiyati va uning xususiyatlarini o'rganish, hamda o'rta asrlarda Markaziy Osiyo hududida kommunikatsiyalar qanday bo'lganligi haqida so'z yuritiladi.

Madaniyat insoniyat tarixi davomida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasi bo'lib, taraqqiyotning muayyan bosqichi sifatida talablar doirasida har bir



davriming ijtimoiy manfaati va ehtiyojiga qarab rivojlanadi hamda keng va tor ma'noni anglatadi. Keng ma'nodagi madaniyat bu – tamaddun, ya'ni sivilizatsiya tushunchasiga teng. Tor ma'nodagi madaniyat esa aniq bir bosqich, mamlakat, millat holatini anglatadi. Bunga ilmiy, ta'limiy, adabiy, ma'muriy, huquqiy va boshqa yo'nalishlar kiradi. Aslida madaniyat atamasi arabcha «shaharlik» degan ma'noni anglatadi.

Metodlar: Ushbu maqolani yozishda o'rta asrlardagi Markaziy Osiyoda ijtimoiy kommunikatsiyalarning dunyo tamadduniga ko'rsatgan ta'sirlari o'rganilgan. Shuningdek, kommunikatsiyalarning turli davrlarga xos shakllari bayon etilib bugungi o'quvchiga jamiyat tamaddunining turli shakllarda rivojlanib kelganligiva shu bilan birga xalq orasida madaniy muloqotning o'zaro ta'siri mexanizmlarini nazariy jihatdan taxlil qilindi, va qiyosiy usullardan foydalanildi

Natijalar va muhokama: O'rta asrlardagi ommaviy kommunikatsiya ob'ektlari bizgacha ko'proq moddiy, ya'ni madrasa, masjid, minoralar va shu kabi shakllarda yetib kelgan. Bunday ob'ektlar, birinchidan, o'sha davrlardagi madaniyatning hosilasi bo'lsa, ikkinchidan, keyingi avlodlarni tarbiyalash uchun ta'sirchan vosita sifatida xizmat qilgan. Bu gap nafaqat o'zbekistonliklar, balki bizning yodgorliklarimiz bilan tanishishga kelgan barcha mamlakat va xalqlar vakillariga tegishli ham. Fikrimizni isbotlaydigan misollar o'rta asrlarda faoliyat yuritgan ko'pgina mualliflar va, shuningdek, bugungi kundagi olimlarning asarlarida ham uchrab turadi. Masalan, Abu Nasr Forobiy o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida bu haqda: «Nihoyat, sohibi qonun, tavof qilinadigan yerlar, ibodatxonalarga katta e'tibor berishi kerak, toki ular nurab, buzilib ketmasin, ularning yomon ahvolga kelishi, shahar aholisining yuraklarini hamda shahar ishlariga mutasaddi odamlarning qalblarining buzilishi, qabihlashishiga olib keladi» (Форобий. 1993. – Б. 47.), deya ta'kidlaydi.

Binobarin, kishilar ongi, ruhiyatiga ta'sir qiluvchi ko'pgina moddiy kommunikatsiya ob'ektlarining xarob ahvoli salbiy ma'naviy oqibatlariga olib borishi mumkin. Shu o'rinda allomaning yana bir so'zlarini keltirish joizdir: «Shu qatori odamlarga zarur bo'lgan asbob-uskuna bilan ta'minlash, qadamjolar, ibodatxonalar, koshonalar, urush haqida, so'ngra, shartnomalar tuzish, chegaralar, dinlarga mansublik va dinlar haqida yozadi» (Форобий. 1993. – Б. 47.). Salbiy qiyos sifatida biz sobiq sovet davridagi Samarqand, Buxoro va Xiva madaniy yodgorliklarining yomon ahvolini keltirishimiz mumkin.

Ommaviy kommunikatsiya jarayonida har bir insonning bahaybat binolarni ko'rishi, tasavvur qilishi natijasida uning ichki dunyosi boyib borishi tabiiy. Chindan ham bunday ommaviy kommunikatsiya orqali o'zlashtirilgan madaniyat kishilarning his-tuyg'ulari, fikr va g'oyalarining rivojlanishiga olib keladigan kuchdir.

Madaniyatning moddiy kommunikatsiya shakllari deyilganda, yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, asosan, shaharlar, madrasalar, devor bezaklari, bog'lar, yo'llar, rabotlar va inson qo'li bilan bunyod etilgan boshqa qurilishlar nazarda tutiladi. Chunki qadimda yaratilgan binolar, saroy va ko'shklar mahobati, maqbara koshinlaridagi naqshlar, qal'a



darvozalarining go'zalligi, yo'llar ravonligi xalq madaniyatning buyukligini namoyish etadi. Bunday qurilmalarga bekordan-bekorga «toshdan yaratilgan yilnoma» deb nom berilmagan.

Binolar ham bog'lanish timsoli, ya'ni madaniy kommunikatsiyaning ko'rinishi bo'lgan. Ma'lumki, haj safariga chiqqan odamlar uzoq vaqt yo'l yurib, Makkaga yaqinlashganlarida shaharning baland minoralarini olisdan ko'rib, charchoqlari unutilgan va ularda ma'naviy zavqlanish, sevinch paydo bo'lgan.

Ushbu yondashuvdan kelib chiqsak, minoralarning ko'rinishi ommaviy kommunikatsiya jarayonini amalga oshirish bo'lib qoladi. Masalan, Buxoro minoralari 15-20 km masofadan ko'rinadi. Bu esa o'rta asrlarda ko'pdan-ko'p yo'lovchilarning mazkur shaharga yetib kelganini anglatardi va ularning ruhiyatini tetiklashtirardi. Mayoq (mash'ala) nurlarini uzoqdan ko'rishni ham ommaviy kommunikatsiya jarayonini amalga oshirish deb hisoblasak, xato qilmagan bo'lamiz.

Madrasalarning o'zi va ulardagi bezaklar ma'lum bir ma'nolarni kasb etadi. Ular o'z ko'rinishi bilan qaysi asrda, kimlar va qaysi dinga mansub odamlar tomonidan qurilgani haqida axborot berishi tabiiydir. Shunday qilib, odamlar masjid yoki madrasalarga kirib o'zaro muloqotdan tashqari, bino va bezaklarni ko'rib, ko'p axborotga ega bo'lganlar.

Demak, aytishimiz mumkinki, mahobatli binolar, imoratlar madaniy-moddiy kommunikatsiya sirasiga kiradi. Manbaning asl mohiyatini ochish maqsadida biz turli davrlardagi tarixiy original asarlardan foydalanishga intilganimiz sari moziy sirlari ko'z o'ngimizda jonlana boshlaydi. Nizomiddin Shomiy «Zafarnoma» asarida bayon etishicha, «...ulug'lik viloyatining Qaydofasi amirzoda Amironshoh bahodirning qizi Begi Sulton nomiga oliy bir ko'shk, ulug'vorlik asosiga qurilgan bir ayvon bino qildilar» (Shomiy. 1996. – B. 220-221.). Bu ulug'vor ko'shk, avvalambor, ayol nomi bilan bog'liqligi uchun ham nafis qurilgan bino qiyofasida inson ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Bu esa o'rta asrlardagi moziy sirlarini bugungi kun bilan bog'laydi.

«Boburnoma»da shunday iboralar bor: «Korvonsaro va hammomlarning marammati, yana arkta ustod Hasan Ali qilg'on pishiq xisht bila nimkora imoratning itmomi; bu imoratni ustod Sulton Muhammad bila mashvarat qilib, munosib tarh bila buyrulsun» (Bobur. 2020. – B. 329.).

Ma'lumki, Amir Temur davlat rahbari sifatida shahar va qishloqlar go'zalligiga, yo'llar yotqizilishi, bog'lar yaratilishi, bozorlar ishlab turishiga ko'p e'tibor bergan. «Temur tuzuklari» asarida ta'kidlanishicha, «xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko'priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga yangi ko'priklar qursinlar. Yo'llarga kuzatuvchi va soqchilar qo'ysinlar, har bir rabotga bir nechta odamni joylashtirsinlarki, yo'llarni kuzatish va saqlash ishlari shularga tegishli bo'lsin» (Amir Temur. 2020. – B. 124.).

O'rta asrlarda qobiliyatli davlat rahbarlari, diniy peshvolar, harbiy sarkarda va boshqalar jamoatchilik fikri, keng omma o'zini qanday sezishining ahamiyati naqadar muhim ekanligini yaxshi tushungan va unga e'tibor berib kelgan. Bunday vazifalarni



bajarishda madaniy moddiy kommunikatsiyaning yaqqol ko'zga tashlanadigan vositalari muhim rol o'ynagan, xalqda tegishli kayfiyat uyg'otgan, o'z shahri, qishlog'i, madrasasi, masjidi, minorasi bilan faxrlanishiga olib kelgan.

Endi madaniy kommunikatsiyaning ma'naviy turlariga o'tamiz. O'zbekiston fanida ko'proq qabul qilingan me'yorlarga muvofiq, biz o'z tahlilimizni ilm va ta'limdan boshlashimiz mumkin edi, ammo bunday yondashuv o'rta asrlarda mavjud bo'lgan real ijtimoiy muhit, haqiqiy vaziyatga uncha ham to'g'ri kelmas edi. Chunki o'sha davrlarda madaniyat, ilm, ta'lim va boshqa sohalar eng avvalo, diniy shaklda rivojlanayotgan edi. Masalan, Buxoro amiri Tog'shodaning Islom dinini 690 yildan keyin qabul qilishi (Narshahiy. 2021. – B. 93.) ushbu hududda madaniyat gurkirab rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Tadqiqotimiz uchun tanlangan davrda Buxoro islom dunyosida mashhur «Qubbat ul-Islom» unvoniga sazovor bo'lgan. Ushbu fakt dunyo miqyosida tan olingan ilmiy-tarixiy manbalarda o'z ifodasini topgan. Masalan, «Buxoro tarixi»da yozilishicha: «Marhum Xoja imom Abu Hafs Qabir Buxoriy o'sha mahallada turar edi; u kishi Buxorodan Bag'dodga borib, marhum Imom Muhammad Husayn Shayboniyga shogird bo'lgan» (Наршахий. 2000. – Б. 130.). O'sha davrda Buxoroda uning darajasiga teng keladigan ilmiy kishi topilmagan. U Buxoroning mutaaxxirlari jumlasidan bo'lib, ham zohid, ham olim edi. O'rta asrlarda bitilgan kitoblarda yozilishicha, bu yerda madaniyatning keng tarqalishi, mahalliy imomlar va ulamolarning esa dunyoga tanilishi u kishining nomi bilan ham bog'liq.

Yana bir misol. «Buxoro tarixi»da bayon qilinishicha, Xoja Imom Abu Hafs Kabir Buxoriyning «o'g'li Abu Abdullohning ilmi shu darajada ediki» ((Наршахий. 2000. – Б. 130.)), undan maslahat so'rab turganlar. Bu esa otaning o'z farzandlariga e'tiborli bo'lganligi, ularni ham ma'rifatli kishilar sifatida tarbiyalanganining dalolatidir, ya'ni, bu sulolaviy madaniy meroslikning ko'rsatkichidir.

Diniy shakldagi madaniy rivojlanishga biz to'g'ri baho berishimiz zarur. O'rta asrlarda Yevropada xristian dini ham keskin rivojlandi, ammo uning butun kuchi erkin fikrlashni bo'g'ishga sarflandi. Natijada o'rta asrlar Yevropa uchun qorong'ulik davri deb nom oldi («period tyomnogo srednevekov'ya»). Islom dunyosi uchun bu vaqt shveytsariyalik olim Adam Mets ta'biri bilan aytganda, «Musulmon Renessansi» davri bo'ldi. Chunki islom dini ma'rifatga undovchi, bag'ri keng din edi. Masalan, Bag'dod xalifalarining ko'p vazirlari xristian diniga mansub edilar va xizmat davrida dinlarni o'zgartirmadilar. Adam Mets yana bir misol keltiradi, lekin bu misol «Buxoro tarixi»dan olinganligi sababli biz originalga murojaat etamiz. Asarda yozilishicha: «Hojilar karvoni Hajdan qaytib kelayotganida ularning ulamolari Xoja imom Abu Hafs oldiga kelib undan masala so'rar edilar. Shunda Abu Hafs «O'zing-ku Iroqdan kelyapsan, nima uchun Iroq olimlaridan so'ramading!», – deb so'rar, u olim esa; «Bu masalada Iroq olimlari bilan munozara qildim, ular javob bera olmadilar va menga Buxoroga borganingda bu masalani Xoja imom Abu Hafs Buxoriydan yoki uning



farzandlaridan so'ra!» – dedilar, deb javob berar edi» (Наршахий. 2000. – Б. 130.), deb aytilgan. Ushbu va boshqa manbalardan o'rta asrlarda Markaziy Osiyo, jumladan, Buxoroda diniy va ilmiy qarashlar, madaniyatga intilish keng rivoj topganligini ko'rish mumkin.

O'sha davrlarda temir bosma shakl bo'lmaganligi, qo'lyozmalar esa kam ekanligi sababli, xalqlar madaniyatining negizini asosan og'zaki ijod namunalari tashkil etgan edi. Bu haqda Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida quyidagi so'zlar bor: «Asarni yozishga boshlab aytamanki, mendan so'ralgan narsaga yetkazuvchi vositalarning eng muhimi – qadimgi millatlar haqidagi rivoyatlar, o'tmish avlodlar to'g'risidagi xabarlarini bilishdir, chunki bularning ko'pchiligi u millatlar avlodidan va ularning rasmu-rusum va qoidalaridan iboratdir» (Наршахий. 2000. – Б. 130.)

Tabiiyki, o'sha vaqtlarda og'zaki kommunikatsiya yozmaga nisbatan ancha keng rivojlangan edi, ammo ular haqidagi ma'lumotlar bizga faqat yozma manbalar orqali yetib kelgan. Beruniy, Forobiy, ibn Sino va boshqa olimlar asarlarida xalqning ko'p asrlik og'zaki ilmiy va adabiy an'analar tizimi, obrazlari va g'oyalari o'z aksini topgan. Natijada ushbu kitoblar ko'p avlodlarni gumanizm, bag'rikenglik ruhida tarbiyalangan, madaniyatli odamlar bo'lishiga undagan. Mazkur asarlarning tarbiyaviy ahamiyati bugun respublikamizda yashayotgan yoshlar, butun aholi uchun ham baland desak, xato qilmaymiz. Chunki ular ming yildan ko'proq davrdagi xalq tajribasini o'zida mujassamlagan.

O'z asarlarini tayyorlashda mualliflar ilmiy, tarixiy kitoblar, podshoh va sarkardalarning zafarnomalaridan, diplomatik yozishmalardan, siyosiy yig'inlar bayonnomalaridan, qisqasi turli axborot manbalaridan foydalanganlar. Bunday manbalar sifatida shaxsiy suhbat, kuzatuv, sayohat, turli hujjat va buyumlar, og'zaki muloqotlar hamda boshqa vositalar xizmat qilgan.

Biz o'rganayotgan asarlarda mualliflar o'z g'oya va shaxsiy fikrlari bilan cheklanib qolmasdan, balki xalq ichida yurib odamlar bilan uchrashgan, real voqealarning guvohi bo'lgan, quloq bilan eshitib va ko'z bilan ko'rganlarini, yozib olib, haqiqiy hayotni aks ettirishga harakat qilgan.

Madaniy kommunikatsiyaning eng ulug' namunasi sifatida kitobni ta'riflasak, adashmaymiz. Agar bunday kitoblar sanoqli bo'lganida edi, ularni ommaviy kommunikatsiya vositasi deb baholashning iloji bo'lmasdi. Hamma gap shundaki, bunday kitoblar qo'lyozma bo'lsa-da, juda ko'p mualliflar tomonidan yozilib, o'nlab yuzlab, ayrim paytlarda esa undan ham ko'p nusxalarda ko'chirilgan. Natijada kitob o'rta asrlarda musulmon dunyosida xalqlar madaniyatini rivojlantirishning eng yirik vositasiga (kanaliga) aylangan.

Kitob xalqning hayotiy fikrlari va tajribasini o'zida aks ettirgan buyuk axborot xazinasidir. O'sha davrlarda ham kitobda bunday qudratli kuch borligini ko'pchilik juda yaxshi tushungan. Kitobga munosabat bir tekis bo'lmagan. Bir tomondan, asarlarni



yozish va ko'paytirishga harakat qilingan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularni yo'qotish ham vaqti-vaqti bilan avj olib turgan. Afsuski, o'sha davrlarda kitoblarni yo'q qilish, yoqib yuborish kabi hodisalar odatiy hol bo'lib, ular madaniy fojealarga ham olib kelgan. Bu, albatta, g'oyaviy kurashning dalolatidir. Har bir davrning o'ziga xos tarzidagi g'oyaviy kurashlar jo'shqinligi bugungidan past bo'lmagan. Misol sifatida musulmon dunyosida eng yirik va mashhur Aleksandriya kutubxonasi ikki marta xristianlar, bir marta arablar tomonidan yoqib yuborilganligini aytish mumkin. «Avesto» kitobi ham Iskandar Zulqarnayn tomonidan yoqib yuborilganligi haqidagi ma'lumotlar bor. «Hindiston» asarida esa shunday faktga duch kelamiz: «Iskandar va uning vorislari rumliklar tomonidan (eronliklar) rag'bat qilgan barcha ilmiy kitoblari kuydirilib, hayot vositasi bo'lgan va faxr qilinadigan go'zal san'atlari barbod etilgan edi» (Беруний. 2020 – Б. 109-110.)

Iskandar Zulqarnayn kabi sarkarda va podshohlar ular zabt etgan xalqlar madaniyati va kitoblarining saqlanishini xohlamagan. U kitoblar qanchalik tez yo'q qilinsa, bizning madaniyatimizga, dinimizga xalq shunchalik tez e'tiqod qila boshlaydi degan, fikrda bo'lgan.

Kitob yozuvchilarni Abu Rayhon Beruniy shunday ifodalaydi: «Purona kitoblarini rishi deb ataladigan guruh ishlagan. Bu kitoblarning kishilar og'izlaridan menga eshitilgani quyidagilar: «Odi-purona, ya'ni eng avvalgi (purona); 2. Mach'ya-purona, ya'ni baliq; 3. Ko'rma-purona, ya'ni toshbaqa» va boshqalar, jami

Demak, qadim zamonlarda ham kishilar bir-birlariga turli afsonalar, latifalar aytishgan, xabarlarining ba'zi birlari hayotiy voqealar bo'lsa, boshqalari to'qima bo'lgan. Lekin ularning barchasi ommaviy kommunikatsiyaning u yoki bu shaklini ifodalaydi. Kitobdan taralayotgan ziyo haqida Abdurazzoq Samarqandiy shunday deb yozadi: «Axborotlar chehrasi va yodgorliklar ruxsorida ma'niy harflari va binolar izlaridan biror asar (mavjud) ekan, bu kitobning ham yorqin nurlari barcha ufqlarga xuddi oftob shu'lasidek yorug'lik bag'ishlab tursin va uning jahonga nur sochuvchi tal'ati olam atrofida kunduz yorug'ligidek jilolansin; maqsad javharlari oliy himmatga muvofiq tartibda terilsin va saodat oftobi istalgan tarzda zamona chehrasida porlasin» (Беруний. 2020 – Б. 109-110.) . Umuman olganda, ushbu kitob o'zining estetik xususiyatlari bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Insonning madaniy tarbiyasi ko'p vaqt talab etadigan jarayon. Forobiy ko'rsatishicha, Aflotun axloqiy-madaniy fazilatlarni keng omma tomonidan qanday o'zlashtirilishi kerakligi haqida quyidagicha yozadi: «Bunday yaxshi odatlar vaqtincha o'zlashgan bo'ladi, chunki jamiyatlar va barcha odamlarda odatlar uzoq muddat o'tib o'zlashtiriladi. Adolatli, pok, jasur bo'lishga odat qilish, shu bilan birga yomon qiliqlardan qutulish uchun ham ma'lum muddat o'tishi kerak. Bu vaqt davomida inson o'zining yomon qiliqlaridan voz kecha oladi. Agar odamda tug'ma, kuchli g'urur tuyg'ulari bo'lmasa, u holda o'sha odam o'z ruhini mashq ila tarbiyalashi zarur, chunki o'zi sevgan insonning ko'p jinoyatlarini sezmaslik odamning tug'ma xislatidir» (



Самарқандий 2021 – Б. 58). Albatta, ushbu fikrdagi tarbiya jarayoni eng avvalo, oilaviy muloqotlarda, mahallalardagi munosabatlarda yoki kengroq qilib gapirsak ijtimoiy kommunikatsiyalar yordamida amalga oshiriladi.

Madaniy kommunikatsiya normalariga rioya qilmagan shaxslar, ayniqsa, rahbarlar vaqti kelib, albatta inqirozga uchrashi haqida ko'p guvohlar bor. Jumladan, Nizomiddin Shomiy hadisidan iqtibos keltirib quyidagicha yozadi: «Haqiqatda Tangri hazrati baland himmatlilik va keng tabiatlilikka aloqador kishilarni do'st tutadi. Sustlik va past himmatlilikka tortadigan ishlarni dushman tutadi. Bu so'zlardan g'araz shulki, amir Husayn past himmatlik maqomiga qadam qo'yib, tuban fikrlar qilganligi uchun oxir-oqibat, o'z himmati nihoyasiga yetdi» (Форобий, 1993. – Б. 36.). Bunday fikrlar boshqa asarlarda ham uchraydi. Albatta, kishi ko'zi o'ngida namoyon bo'layotgan o'zgarishlarga befarq bo'lishi mumkin emas, chunki past himmatlilik xalq orasida kishining obro'sini tushirib qo'yadi, kimki davralarda o'zini himmatsiz qilib ko'rsatsa, ya'ni arzimagan foyda uchun g'ururini unutsa, atrofida gilar orasida uning hurmati yo'qoladi. Bunday so'zlarda madaniyatning asl ma'nosi mujassamlashgan.

Madaniy kommunikatsiya turlariga kitoblar, risolalar, asl yozma sharhlar, tarjimalar va ma'muriy hujjatlar hamda xatlarni kiritish mumkin. Masalan, 1499-1500 yillarda Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida: «Ikkinchi navbat Samarqandni olg'onda, Alisherbek tirik edi. Bir navbat manga kitobati ham kelib edi. Men ham bir kitobat yiborib edim, orqasida turkiy bayt aytib, bitib yiborib edim» (Shomiy 2020.- B. 49), deb yozadi.

O'rta asrlardagi ommaviy madaniy kommunikatsiyalarning yana bir muhim jihatiga e'tiborimizni qaratmoqchimiz. Gap jurnalistikaning asosiy xususiyati – ommaviylik haqida ketmoqda. Ma'lumki, jurnalistika asoschisi nemis hunarmandi Iogann Gutenbergning yagona xizmati – ko'p nusxalarni ta'minlash, ya'ni mexanik tarzda bosma stanokda bir xil matnning ko'p sonini olishga erishish edi. Aynan shu yo'l bilan, ya'ni bir xil bosma matnning ko'p nusxalari jamoatchilik o'rtasida tarqatilishi va keng doiradagi odamlar ushbu usulda ularga axborot yetkazilishiga qiziqishi natijasida jurnalistika paydo bo'ldi.

Lekin agar biz ushbu masala bo'yicha o'rta asrlar tajribasiga murojaat etsak, ma'lum bo'ladiki, alohida bir asarlarni ko'p nusxada tarqatish amaliyoti Gutenbergdan oldin Osiyoda joriylangan ekan. Faqat bu kitoblar qo'lyozma shaklida tarqatilar edi. O'rganish shuni ko'rsatadiki, o'sha davrlarda kitoblar o'ttiz, qirq, ellik, yuz va undan ortiq nusxalarda ko'chirilgan. Ulardan ayrimlarining nomlarni keltiramiz: «Tabariy tarixi», «Zafarnoma», «Shayboniynoma» (Shayboniynon haqida kitob), «Tuhfai xoni», «Tarixi muluki ajam» va boshqalar.

Kitob haqida so'z ketar ekan, uning mazmuni ta'limiy yoki ilmiy ma'noga ega bo'lishi mumkin, ammo kitobchilik, albatta, madaniyat tushunchasini ifodalaydi. Mumtoz adabiyot sohasida taniqli olimlar yozishicha: «Qadim sharqiy turk madaniy muhitida qo'lyozmalar bilan yonma-yon ksilografiya – taxta betiga harf tushirib, nusxa



ko'paytirish usuli ham joriy etildi» (Бобур, 2020. – Б. 78.).

O'rta asrlarda yashagan odamlar ham bugungi insonlar kabi yaxshi so'z qadriga yeta bilganlar. Adam Mets keltirgan faktda xat orqali bo'ladigan muloqot boshqa har qanday ko'makdan yuqori qo'yiladi: «Yaxshi so'zning savobiga hech narsa yetmaydi»

(Қайюмов А, Исхаков М, ,2000. – Б. 125.).

O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan ommaviy kommunikatsiyaning usul va manbalari bizgacha minglab sonlarda yetib kelgan: kitoblar, xatlar, xattotlik namunalari, yodgorliklar, o'yma san'atkorlik asarlari va boshqalar.

G.Maklyuen aytganidek, kishilar o'z sezgi organlari orqali aloqa vositalaridan xabardor bo'lib turishadi, chunki ushbu organlar mazkur aloqalarni ta'minlaydi. Bu yo'nalishda o'rta asrlik fuqaro uchun madaniy aloqalar katta ahamiyatga ega edi. Insoniyat hayotida madaniyatning muhimligi haqida Forobiy shunday yozadi: «Aflotun, agar shahar aholisi ma'rifatsiz, tajribasiz odamlar va bolalardan iborat bo'lsa, u holda ular sohibi qonun o'rnatgan tartib va boshqaruv usulini yaxshi qabul qilmaydilar» (A. Mets.2020. – B. 202).

Bunday misollar o'rta asrlardan oldin ham, keyin ham ijod qilgan olimlar asarlarida bor. Hatto olimlar o'rtasida merosiylik an'analari ham o'rnatilgan. Masalan, Forobiy, Aflotunning fikrlarini rivojlantirgan va mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda keltirgan. Qolaversa, Aflotun asarlarini musulmon diniga mansub mamlakatlarning vakillari o'z talqinlarida dunyoga tanitganlar. Ming yil davomida Aflotun, Arastu va boshqa antik davri buyuk olimlar g'oyalarini islom olami mutafakkirlari o'z asarlarida butun dunyoga tarqatganlar. Markaziy Osiyo olimlari arab, fors va turk tillarida yozilgan kitoblari orqali mashhur bo'lganlar. O'rta asrlarning o'zida ularning asarlari boshqa (masalan, lotin) tillarga tarjima qilingan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, o'rta asrlarda madaniy kommunikatsiyaning ikkala – moddiy va ma'naviy turlari ham muhim ahamiyatga ega edi. Chunki, og'zaki so'zdan tashqari, barcha bog'lanishlarni moddiy kommunikatsiya deb aytishga haqlimiz. Masalan, ma'naviyat manbasi sifatida baholab kelayotgan kitob ham qog'oz, mato va bo'yoqdan iborat moddiy jismdir. Tarixiy asarlarning har birida ham madrasa binosidan ko'ra ma'naviyat ko'proq deb ayto olmaymiz, chunki madrasa, masjid, minoralar ham insoniyat madaniyatini o'zida aks ettirgan, ko'p ma'noga ega bo'lgan buyuk kitoblardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993. 247.b.
2. Shomiy, Nizomiddin. Zafarnoma. – T.: «O'zbekiston», 1996. 400 b.
3. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: «Yulduzcha», 1996. 329. b.
4. Amir Temur. Temur tuzuklari. – T.: «G'.G'ulom», 1996. 224.b.
5. Narshaxiy, Abu Bakr. Buxoro tarixi. – T.: «Kamalak», 1991. 293.b.
6. Beruniy, Abu Rayhon. Hindiston. // Tanlangan asarlar. T. 2. – T.: «Fan», 1965. 500 b.
7. Samarqandiy A. Matlai Sa'dayn va Majmai Bahrayn. – T.: «Fan», 1969. 480 b.
8. Qayumov A, Ishaqov M, Otaxojayev A, Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. – T.:



«Yozuvchi», 2000. 125.b.

9. Mets, A. Musul'manskiy Rennans. – M.: «Nauka», 1973. 321 b.

XALQARO MUNOSABAT SHAKLLARIDAN BIRI – TIZIMLI XAVF-HATAR VA QARSHI MUVOZANATLARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

MUTALIB KASIMOV

Dotsent v.b., PhD, "Federal Davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi,
"MƏI" Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya: maqolada xalqaro mojarolarning mohiyatini tavsiflovchi turli xil nazariy qarashlar tahlildan o'tkazilgan hamda barcha nizolarni baholay oladigan universal nazariya hali yaratilmaganligi borasidagi, shuningdek, muayyan davlatlar o'rtasidagi xavfsizlik bo'yicha munosabatlarda mavjud bo'lgan tizimli tahdidlar va qarshi muvozanatlarni ko'rib chiqish uchun dastlab mojaroning o'zini tahlil qilish zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Bugungi kunga kelib, mojarolarning sabablari, kechishi va natijalarini qamrab oladigan yagona nazariy asos mavjud emasligi borasidagi xulosaga kelingan.

Kalit so'zlar: xalqaro munosabatlar, nazariya, mintaqaviy xavfsizlik, tahdid, muvozanat, tizimli xavf-hatar, nafrat, mansublik, yondashuv, realizm, neorealizm.

Аннотация: В статье показана необходимость первоначального анализа самого конфликта с целью рассмотрения системных угроз и противовесов, проанализированы различные теоретические взгляды, характеризующие природу международных конфликтов, и что до сих пор не создана универсальная теория, способная оценить все конфликты, а также существующие в сфере отношений безопасности между определенными состояниями. Сделан вывод о том, что на сегодняшний день не существует единой теоретической базы, охватывающей причины, ход и результаты конфликтов.

Ключевые слова: международные отношения, теория, региональная безопасность, угроза, баланс, системный риск, ненависть, аффилиация, подход, реализм, неореализм.

Annotation: The article shows the need for an initial analysis of the conflict itself in order to consider systemic threats and counterbalances, analyzes various theoretical views characterizing the nature of international conflicts, and that a universal theory has not yet been created that can assess all conflicts, as well as existing security relations between certain states. It is concluded that today there is no single theoretical framework covering the causes, course and results of conflicts.

Keywords: international relations, theory, regional security, threat, balance, systemic risk, hatred, affiliation, approach, realism, neorealism.

Hozirgi vaqtda Regional Security Complex Theory - (RSCT) Mintaqaviy xavfsizlik majmualari nazariyasi (MXMN) - (zamonaviy jahon siyosatining mintaqaviy



xususiyatlarini tahlil qilish uchun eng tartibga solingan va samarali nazariya hisoblanadi. Bu nazariyaning mualliflari Kopengagen xalqaro munosabatlar maktabining asoschilari B. Buzan va O. Vaverdir. Ular “mintaqaviy xavfsizlik majmuasi” tushunchasini quyidagicha ta’riflaydilar: “Bu aktorlar sekyuritizatsiya va desekyuritizatsiya jarayonlari shu qadar o‘zaro bog‘liqki, ularning xavfsizlik muammolarini bir-biridan alohida tahlil qilish yoki hal qilish mumkin emas” . Boshqacha qilib aytganda, qo‘shni davlatlar xavfsizlik masalalariga bog‘liq bo‘lib chiqadi va ularning har birining davlat xavfsizligi yagona xavfsizlik sifatida ko‘rib chiqilmaydi va boshqalardan farqlanib turadi. Mintaqaviy tuzilma ikkita asosiy fikrga asoslanadi, ya’ni:

1. “Kuch” va “davlat” tushunchalari nuqtayi nazaridan imkoniyatlarni taqsimlash.
2. Tizimdagi aktorlar o‘rtasidagi munosabatlardagi do‘stlik yoki dushmanlik.

Mintaqaviy xavfsizlik majmualarining ikki xil turi mavjud. B. Buzan va O. Vaver ularni standartlashgan va markazlashtirilgan majmualar deb atashadi. Bularning birinchisi Vestfal xalqaro munosabatlar tizimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, unda xalqaro darajadagi davlat milliy manfaatlariga muvofiq harakat qiladi hamda davlatlar o‘rtasidagi raqobat asosiy harakatlantiruvchi kuchdir . Mazkur holatda tizimni saqlab turishning asosiy usuli - bu bir davlatning boshqasidan ustunligi bo‘lmagan kuchlar muvozanatidir. Markazlashtirilgan mintaqaviy xavfsizlik komplekslari konsepsiyasi xalqaro munosabatlar tuzilishini neorealistik tushunish bilan bevosita bog‘liqdir. Mintaqaviy majmuaning ushbu turi super davlat (AQSH), buyuk davlatlar (Rossiya, Yevropa Ittifoqi, Hindiston, Yaponiya, Xitoy) va mintaqaviy davlatlar (Janubiy Afrika, Braziliya) kabi davlatlarga asoslangan. Agar xavfsizlik majmuasi nafaqat mintaqaviy davlatni, balki buyuk yoki super davlatni o‘z ichiga olsa, unda tizimning global darajasi mintaqada ustunlik qiladi, chunki boshqa mintaqaviy rahbarlar buyuk yoki super davlat bilan bir xil salohiyatga ega bo‘lolmaydilar.

Potensial yetakchi bo‘lmagan hududlar nisbatan barqarordir. Bunday o‘zaro ta’sirning misoli muassasalar/tashkilotlar ichidagi birlashuv (integratsiya)dir. Hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqi aynan shunday maqomdadir. Bu markazlashtirilgan va standart tizimning gibrididir, bu yerda Yevropa Ittifoqining o‘zi o‘ziga xos buyuk davlatdir, lekin u boshqa buyuk davlatlarni ham o‘z ichiga oladi.

B. Buzan va O. Vaver quyidagi mintaqaviy xavfsizlik mamjularini: 1) Sharqiy Osiyo; 2) Janubiy Osiyo; 3) Yevropa; 4) Janubiy Afrika; 5) Markaziy Afrika; 6) Shimoliy Amerika; 7) Janubiy Amerika; 8) yaqin Sharq; 9) Sho‘rolardan keyingi majmualarni ajratib ko‘rsatgan. Bulardan tashqari, G‘arbiy Afrika va Afrika mo‘gizi (Somali yarim oroli, shuningdek, Afrika mo‘gizi sifatida ham tanilgan, Afrikaning sharqida joylashgan. U shimolda Adan ko‘rfazi va Sharq va janubda Hind okeani suvlari bilan yuvilib turadi. Cape Guardafui yarim orolining Shimoliy uchida joylashgan. Somali-Hind okeani va Adan ko‘rfazi bilan chegaradosh Sharqiy Afrikadagi mamlakatdir –M.K.) singari ikkita potensial majmua ham qayd etilgan .



Rossiyalik tadqiqotchilardan biri Ye.V. Koldunova xavfsizlik majmualari konsepsiyasini “yangi” tahdidlar, qiyinchiliklar, shuningdek, nodavlat kelib chiqishi mumkin bo‘lgan fuqarolik yoki harbiylashtirilgan tusga ega xatarlar bilan to‘ldiradi. Bularga transmilliy tusdagi ichki siyosiy muammolar ham kiradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu majmualarning chegaralari bir-birining ustiga chiqi olmaydi va bir-biri bilan kesisha olmaydi, ya’ni aynan bir mamlakat boshqa majmuaga a’zo bo‘la olmaydi. Ammo agar davlat ikkita majmuaning tutashgan joyida joylashgan bo‘lsa masalan, Myanma yoki Afg‘onistonga o‘xshab ularning ikkalasida ham ishtirokchi bo‘lmaydi va “cheklovchi” maqomini oladi.

M. M. Lebedeva “Dunyoni siyosiy shakllanish tizimi: “ideal bo‘ron” tadqiqotida siyosiy tashkilotning uchta mustaqil: Vestfal tizimi, davlatlararo munosabatlar tizimi va alohida davlatlarning siyosiy tizimlari darajasini ko‘rsatib o‘tgan. Har bir darajada sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar va o‘tishlar boshqa tizimlarga ta’sir qiladi va ularning o‘zgarishini kuchaytiradi.

Xalqaro tizimda davlatlar muayyan maqsadlarga erishish uchun ittifoq/uyushmalar tuzishlari mumkin. Davlatlar tizimning yaxlitligini buzmaydigan muayyan maqsadlarga erishish uchun ittifoqlarga qo‘shilishadi. Ularga erishgandan so‘ng, ittifoqlar parchalanishga moyildir.

K.N. Uols i S.M. Uoltning ta’kidlashicha, davlatlar xavfsizlikni oshirish, potensial kuchli raqiblar tahdidlariga qarshi muvozanatni saqlash maqsadida ittifoqlarning bir qismiga aylanadi. Bundan tashqari, ittifoqlarga qo‘shilgan davlatlar ularda ishtirok etish uchun turli: muvozanat va ergashish strategiyalarga ega. Bu shuni anglatadiki, tashqi tahdidga duch kelganda, aktor boshqa davlatlar bilan kuchlarni birlashtirish orqali muvozanat strategiyasini tanlashi yoki tahdidga eragashishi mumkin.

K. N. Uols o‘zining “Xalqaro siyosat nazariyasi” asarida muvozanatning ikkita asosiy turini ko‘rib chiqadi:

1. Ichki muvozanat. Bu o‘z zahiralari safarbar qilish va begonalarga qaramlikni imkon qadara kamaytirishni o‘z ichiga oladi.

2. Tashqi muvozanat. Bu tahdidga beparvo qarab turolmaydigan ittifoqchilarni topishga qaratilgandir.

Ergashish strategiyasi tahdidga qarshi turishning iloji yo‘q holatda va ba’zida o‘z mustaqilligini yo‘qotish evaziga davlat kuchli raqib shartlarini qabul qilishga majbur bo‘ladi.

Tahdidlar muvozanati nazariyasining asoschisi S. M. Uolt o‘zining “Alyanslarning shakllanishi” asarida xalqaro munosabatlarda “uyushma” (alyans) tushunchasiga ta’rif berib o‘tgan. “Alyans ikki yoki undan ortiq suveren davlatlar o‘rtasidagi xavfsizlik bo‘yicha hamkorlik doirasidagi rasmiy yoki norasmiy munosabatlardir”. Bu, alyansni tashkil etuvchi ittifoqchilar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro manfaatli tusga ega bo‘lishini anglatadi.



S. M. Uolt tahdidga ergashish strategiyasi g'oyasini rivojlantirgan holda, uning ikki: mudofaa va hujum turini ajratib ko'rsatadi. Ergashish mudofaa strategiyasi tahdidning o'ziga xos "tinchlantirish shakli" bo'lib, o'z tomoniga bo'lalidan tahdidni imkon qadar kamaytirishga imkon beradi. Ergashuvchi hujum strategiyasiga davlatning g'alabasidan foyda ko'rish uchun tahdid soluvchi davlat bilan moslashish istagi kiradi.

Ko'pincha, uyushmalardagi davlatlarning xatti-harakati tahdidga ergashishdan ko'ra ko'proq muvozanatlashdan iborat, ammo har bir holatni barcha uchun bir xil-umumiy deb bo'lmaydi. Potensial sherikning fe'l-atvorini tahlil qilib, davlat xavf va imkoniyatlarni bashorat qiladi.

Tahdidning ko'lami turli omillarga: geografik joylashuv, tajovuzkorning umumiy kuchi va harbiy salohiyati bog'liq. "Umumiy kuch - bu formuladan iborat bo'lgan davlatning umumiy kuchidir, ya'ni: davlat, uning aholisi, sanoat, harbiy va texnologik salohiyati qanchalik katta bo'lsa, boshqalarga nisbatan uning potensial tahdidi shunchalik katta bo'ladi".

Davlat ittifoqchilarini tanlashga tahdidning geografik joylashuvi ta'sir qiladi. U qanchalik yaqin bo'lsa, uning yonida sheriklarni izlash shunchalik oqilona bo'ladi. Bundan tashqari, tajovuzkorlar o'z atrofidagi kuchlarni ularga qarshi muvozanat uchun qo'zg'atishi mumkin. Tahdid yo'qolishi yoki kamroq kuchayishi bilan hamkorlik o'z faoliyatini to'xtatadi.

Ittifoqchi izlashda davlatlarning xatti-harakatlarini belgilaydigan boshqa omillarga iqtisodiy salohiyat va mafkura kiradi. Davlatlar siyosiy qarashlarida o'zlariga yaqin bo'lgan davlatlar bilan ittifoqni afzal ko'rishadi. Biroq, bu omil asosiy omil emas. Ko'pincha iqtisodiy aloqalar, ayniqsa sheriklardan biri boshqasiga bog'liq bo'lsa munosabatlarning birlashtiruvchi omiliga aylanishi mumkin,. Shuni ta'kidlash kerakki, ittifoq ichidagi o'zaro ta'sir jarayonida ittifoqchilarning bir-biriga nisbatan munosabati va umidlari o'zgarishi mumkin. Shu bilan birga, hatto mamlakatning iqtisodiy qaramligi ham siyosiy qarama-qarshiliklarning zaiflashishiga olib kelmasligi mumkin, masalan, Nepal va Hindiston o'rtasidagi munosabatlarda. buni kuzatish mumkin.

Amerikalik siyosatshunos, Chikago universiteti professori D. Mirsheymer uyushmalarning qisqa muddatli tabiatiga e'tibor qaratadi va "Bular faqat kelishilgan nikohlar, bu yerda ertangi dushman bugun ittifoqda sherik bo'lishi, bugungi dushman esa ertaga sherik bo'lishi mumkin", deb ta'kidlaydi.

Yuqorida nomlari keltirilgan aksariyat mutaxassislar tomonidan tuzilma turli tomonlar o'rtasida bir nechta o'zaro ta'sirlar sodir bo'ladigan tarakqiyot sifatida qabul qilinadi. Ushbu tarakqiyot ishtirokchilari orasida nafaqat davlatlar, balki xalqaro tashkilotlar, nodavlat tuzilmalar, transmilliy korporatsiyalar va yirik tashkilotlar ham bo'lishi mumkin. Har bir ishtirokchi muloqotning boshqa a'zolari bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Shu tarzda, tizim turli xil manfaatlar: iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy manfaatlar majmui bilan belgilanadi.



Taniqli amerikalik siyosatshunoslar D. Nay i R. Keoxeyn xalqaro munosabatlarda murakkab o'zaro bog'liqlik nazariyasini birgalikda ishlab chiqqanlar. Ularning faoliyati xalqaro munosabatlarda, ayniqsa davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va hamkorlik bo'yicha tadqiqotlarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ular xalqaro tizimni o'zaro bog'liq tizim, deb ta'riflaydilar.

Davlatlar o'zaro munosabatlar natijasida yuzaga keladigan ko'plab muammolar va kun tartibiga muvofiq harakat qilishadi. Davlatlarning xatti-harakatlaridagi o'zgarishlar turli muammoli sohalarining nisbiy ahamiyatining o'zgarishi bilan bog'liq. Masalan, XX-asrning so'nggi o'n yilliklarida iqtisodiy muammolar xavfsizlik muammolari bilan almashdi va ularga inson huquqlarini himoya qilish kabi global muammolar qo'shildi. XXI-asrning boshlarida turli sohalaridagi o'zaro ta'sirning murakkabligi va tabiati u yoki bu omil (ichki yoki tashqi siyosat) ning katta yoki kichik ta'siri bilan bog'liq edi. Kelajakda o'zgarishlar o'z ta'sirini kuchaytiradigan yoki davlatlarni almashtiradigan boshqa aktyorlarning harakatlari tufayli ham sodir bo'ladi.

Muayyan davlatlar o'rtasidagi xavfsizlik borasidagi munosabatlarda mavjud bo'lgan tizimli tahdidlar va qarshi muvozanatlarni ko'rib chiqish uchun dastlab mojaroning o'zini tahlil qilish zarur. Bugungi kunga kelib, mojarolarning sabablari, kechishi va natijalarini qamrab oladigan yagona nazariy asos mavjud emas. Rus tadqiqotchilaridan A. I Nikitin mojarolarni "siyosiy rivojlanishning muqarrar va zarur funksional komponenti", deb hisoblaydi. Shu bilan birga, xalqaro munosabatlardagi ziddiyat darajasiga va davlatlarning ichki siyosiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar mavjud. Hozirgi vaqtda davlatlararo nizolarning mohiyatini izohlovchi bir qator nazariya va tushunchalar yaratilgan.

Qadimdan qolgan nafrat tushunchasi mansubligi qarama-qarshi bo'lgan etnik guruhlariga tegishlidir, ularning o'rtasidagi ziddiyatlar davomdor hamda tarixiy voqealarga asoslangandir. Masalan, Arab-Isroil va Hind-Pokiston mojarolari ana shunday mojarolardandir. Bu ko'pincha turli dinlar va ta'lim tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular bolaligidan odamlarga qarama-qarshi tomonga o'ta dushmanlik munosabatini singdirib keladi. Xorijiy tadqiqotchilardan R. Kaplanning ta'kidlashicha, mazkur holatda da'volar va shikoyatlar endemik xususiyatga egadir, chunki xalqlarda o'tmishdagi og'ir mojarolar haqida tarixiy xotiralar mavjud. Bu afsonalar, qo'rquvlar va dushmanlik munosabatlarida aks etadi. Uzoq vaqtdan keyin ham etnik hodisalar bir zumda halokatli zo'ravonlikka aylanishi mumkin. Ushbu konsepsiya siyosat va islohotlar orqali bunday nizolarning oldini olish, to'xtatish va hal qilish to'g'risida pessimistik kayfiyatga egadir. Charlz Kaufman o'zining "Etnik fuqarolar urushlarining mumkin va mumkin bo'lmagan yechimlari" asarida hududiy bo'linish va qo'shimcha institutlarning joriy etilishi etnik tinchlikka ko'proq yordam beradi, deb ta'kidlaydi.

Siyosiy mansublik (identiklik) konsepsiyasi tarafdorlari S. Xantington va Ch. Kaufman ko'p millatli jamiyatlarda etnik mojaroning asosiy sababi - hukmronlik va bo'ysunish hukmron etnik iyerarxiyasining tubdan o'zgarishi deb hisoblashadi. Guruh



mansubligining ijtimoiy tuzilishi guruhlararo munosabatlar psixologiyasi bilan izohlanadi. Etnotsentrizm va guruhning o'z-o'zini himoya qilish tendensiyasi mavjud, bu evolyutsion jihatdan afzalroqdir" ya'ni bu guruh munosabatlarining salbiy jihati emas, balki me'yordagi holatdir. Yetakchilar hissiy jozibaga ega bo'lgan kuchli ramzlar va afsonalar bilan milliy hamda etnik o'ziga xosliklarni yaratishga moyildirlar. Hudud va hukmronlikni boshqarish uchun etnik raqobat paytida zo'ravonlik o'zlarning hukmronligi qo'ldan chiqib ketishidan haddan tashqari qo'rquv bilan boshlanadi. Bu etnik guruhlar o'rtasida tinimsiz kelishmovchiliklarga olib keladi va qarama-qarshilikdan chiqish yo'li kuch (urush, bir guruhni boshqasi tomonidan taxqirlash) yoki majburiy choralar (o'zaro kafolatlar, yashash joyini cheklab qo'yish) orqali amalga oshiriladi.

Britaniyalik tadqiqotchi L.F. Richardsonning ziddiyatli munosabatlarga konstruktiv yondashuvi raqobatdosh davlatlarning qurollarini differensial hisoblab chiqishga asoslangan. U o'zining "Halokatli da'volar, qurol-yarog' va ishonchsizlik statistikasi" asarida mamlakatlarni qurolli to'qnashuvga olib keladigan uchta oddiy omilni: hujumdan qo'rqish, raqobatdan charchash va shuhratparastlik yoki norozilikni ko'rsatib o'tgan. Ushbu har bir omilning ta'siriga qarab, tizim doimiy dushmanlik holatida turadi. Vaziyatning keskinlashuvi tomonlardan biri birinchi bo'lib zarba berish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olganida yoki parchalanish holatida bo'lganida sodir bo'ladi. Uning asaridagi asosiy g'oya - aktorlar o'zlari faoliyat yuritayotgan tizimlar tomonidan qo'yilgan cheklovlar tufayli kurashadi yoki tinchlikni saqlab turadi. Boshqa bir tadqiqotchi R. Rozenkrans ham L.F. Richardson bilan hamfikrdir. Uning ta'kidlashicha, ziddiyatli vaziyatlarda hal qiluvchi omil - ularning shaxsiy ambitsiyalari yoki qobiliyatlari emas, balki ular ishtirok etadigan o'zaro ta'sir jarayonlarining xususiyatlaridir. Bu ma'noda, ular sharoitga qarab, faqat qisman aniqlangan tizimning qurbonlaridir.

Mumtoz realizm mojarolarning asosini inson tabiatidagi xudbinlik va tajovuzkorlik bilan bog'laydi. Xalqaro tizimning asosiy aktorlari bo'lgan davlatlar aynan shu hissiyotlar bilan boshqariladi va mohiyatiga ko'ra urush muqarrardir. Bu bayonotni tasdiqlovchi misollar bor: A. Gitler boshchiligidagi fashistlar Germaniyasi, S. Husayn boshchiligidagi Iroq ana shunday davlatlar jumlasiga kiradi. Realizm vakillari xalqaro munosabatlarni doimiy kurash va omon qolish uchun kurash deb bilishadi, chunki davlatlarning harakatlarini nazorat qilish uchun vakolatli va ustun turuvchi kuch mavjud emas.

Neorealizm maktabi vakillarining tushunchasida xalqaro tizimdagi asosiy faol jarayonlar xalqaro mojarolar va urushlar ularning namoyon bo'lishining ekstremal shakli hisoblanadi. Xalqaro tizimda shartnomalar tuzadigan va mavjud majburiyatlarning bajarilishini nazorat qila oladigan suveren idora mavjud emas. Bunday kuch mavjud bo'lmagach, davlatlarga o'zlari xohlagan narsani qilish imkoniyati beriladi, bu esa bir-biriga ishonish va hamkorlik qilishni qiyinlashtiradi.



Davlatlar global tartib uchun yakka tartibda javobgardir. Bunday holatda xalqaro institutlar xalqaro darajada barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamaydi.

Bunday holda, mojaro "inson tabiatidagi faqat oziq-ovqat topuvchi sifatida to'g'ridan to'g'ri inson mohiyatidan kelib chiqadigan va har doim nol qiymatga ega o'yin ishtirokchilari o'rtasida kuchlarni doimiy ravishda almashtirishning siyosiy shakllarini o'z ichiga olgan doimiy omil sifatida o'zlashtirilgandir. Bunday o'yin faqat o'zigagina xos bo'lgan qoidalariga muvofiq o'tkaziladi".

Biz yuqorida tilga olgan K. N. Uols o'zining "Inson, davlat va urush: nazariy tahlil" asarida mojaro sabablarining uchta katta guruhini ajratib ko'rsatgan, bular:

1. Inson fiziologiyasi. Inson tabiati xudbinlik, jizzakilik, tajovuzkorlik va kayfiyat o'zgarishiga moyillik shaklida ko'plab kamchiliklarni nazarda tutadi.

2. Davlatning ichki tuzilishi. Siyosiy tartibot, xalqaro yo'nalish va iqtisodiyotni tashkil etish davlatning xatti-harakatlariga ta'sir qiladi (ichki va tashqi siyosat o'rtasidagi munosabatlar).

3. Tizimning xususiyati. Davlatlarning hukmron elitasi ko'pincha umume'tirof etilgan axloqni unchalik hisobga olmagan holda harakat qilishga majbur bo'ladigan xalqaro tizimni tushunishgina urush jarayonlari va kelib chiqishini adolatli baholashga imkon beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, K.N. Uols inson tabiati va davlatning ichki tuzilishini mojaroning asosiy sabablari deb hisoblamaydi. Uning qarashlarida har bir Davlat eng maqbul deb hisoblagan vositalar va usullar bilan o'z manfaatlariga ergashadi. Kuch omili - bu yakuniy maqsadlarga erishish usuli, chunki boshboshdoqlik (anarxiya) holatida o'xshash birliklar o'rtasida yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvini yarashtirish uchun izchil va kafolatlangan jarayon mavjud emas.

Neorealizm maktabning yana bir nazariyotchisi R. Gilpin avvalgi "gegemonlik sikllari" borasida kamdan-kam hollarda tinch tusga ega bo'ladigan jarayon sifatida so'z yuritadi. Davriylik o'zgarishi eng yuqori nuqtaga yetadi va ziddiyat muqarrar bo'lgan burilish nuqtasi keladi. Bu raqobatdosh davlatlar o'rtasida ham, ularning sheriklari o'rtasida ham yuz berishi mumkin. Bu holat kuchlar muvozanatining o'zgarishiga olib keladi va harakat mexanizmi mavjud vaziyatga qarab ishga tushiriladi. Ushbu vaziyatli xatti-harakatlar qurolli to'qnashuv shaklida o'zini namoyon qilishi mumkin. Tomonlarning xatti-harakatlaridan kelib chiqadigan ikkita asosiy urush turi mavjud, bular:

1991-yilga kelib sobiq Ittifoq davlati parchalangandan so‘ng mustaqillikka erishgan MO mamlakatlarini tan olgan birinchi davlat Turkiya bo‘ldi. Tarixiy va madaniy yaqinlik, yagona din, etnik va lingvistik birlik kabi omillar qardosh davlatlar bilan yaqinlashuvni ta’minladi. Qisqa muddat ichida Anqara qardosh turk mamlakatlar bilan

¹ Сафонкина Е.А. Турция как новый актор политики «мягкой силы». Вестник Международных Организаций. Зарубежный опыт применения «Мягкой Силы». Т. 9. № 2 (2014), - С. 146.
[URL://https://iorj.hse.ru/2014-9-2/125048741.html](https://iorj.hse.ru/2014-9-2/125048741.html)



yangi o'ziga xos turkiy hamjamiyat shakllantirishga kirishdi va do'stona aloqalar o'rnatdi.

ASOSIY QISM

Ikki qutbli dunyo tartibi tugallanishi bilan G'arb blokiga a'zo bo'lgan Turkiya o'z tashqi siyosatida yanada erkin harakat qilish va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi¹. Boshqacha qilib aytganda, bu o'zgarishlar siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan o'rta darajadagi, tarix, madaniyat va o'zlik nuqtai nazaridan esa asosiy aktor bo'lishga tayyor bo'lgan Turkiya² uchun yangi imkoniyatlarni ochdi va MO Turkiya faol bo'lishi mumkin bo'lgan hududlardan biri sifatida ko'rildi.

Sovuq urush yakunlanganidan so'ng, Anqara tashqi siyosatining MO qaratilganligi bejiz emas. Turkiyani mintaqa davlatlari bilan bog'lovchi bir qator sabablar mavjud bo'lib, buni bir qancha omillar bilan bog'lagan holda izohlash o'rinlidir:

Tarixiy omil. Ma'lumki, yer yuzida turkiy xalqlar eng qadimiy davlatchilik an'analariga ega bo'lgan millatlar va elatlar safiga kiradi. Tarixga nazar tashlansa, so'nggi ikki ming yil davomida turkiy xalqlar asos slogan Xun imperiyasi, G'arbiy va Sharqiy Turk xoqonliklari, Xazar xoqonligi, Qarluqlar davlati, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G'aznaviylar, Qoraxitoylar, Xorazmshoxlar, Usmoniylar, Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Qo'ng'irotlar va Boburiylar singari o'nlab davlat va imperiyalar sayyoramizning juda katta qismida hukmronlik qilganlar³. Aytish joizki, turkiy xalqlar dunyo tamadduniga, bashariyatning moddiy va nomoddiy madaniyatiga, ilm-fani va san'ati rivojiga mislsiz hissa qo'shganlar. Turkiy hukmdorlar rahnamoligida boshqa xalqlarning san'ati, madaniyati va adabiyoti gullab yashnagan, abadiyatga dahldor ijod na'munalari yaratilgan.

Turkiy davlatchilik genezisining tadqiqotlaridan yuzaga kelgan ilk muhim (porodoksal) tushuncha shuki: turklar hamisha o'z davlatlari bilan birga tug'iladilar. Bir etnos sifatida ularning tarixi ularning davlatlari tarixi bilan boshlanadi. Metin Aydog'an qayd etishiga ko'ra, "dunyo tarixida turklarchalik ko'p va xilma-xil davlat qurgan boshqa bir millat yo'qdir"⁴. XVI asrda Xiva xoni (1644-1663) Abulg'oziy Bahodirxon (1603-1663) o'zinig "Shajarai turk" va "Shajarai tarokima" asarida turklarning kelib chiqish shajarasiga batafsil to'xtalib, ularning bir urug' vakillari ekanligini ta'kidlaydi⁵.

¹ Yaşar Sari., Türkiye-Orta Asya ilişkilerinde sinirli iş birliği. AK Parti'nin 15 yili dış politika. SETA Kitapları 29 ISBN: 978-975-2459-45-8. © 2017 SET Vakfı İktisadi İşletmesi 1. Baskı: Aralık 2017, İstanbul. – S. 147. <https://www.setav.org/assets/uploads/2018/02/29.-AKP-D%C4%B1s%CC%A7-Politika-takdim-.pdf>

² Ahmet Davutoğlu, "Orta Asya'daki Dönüşüm, Asya-İçi Dengeler ve Türkiye", Yeni Türkiye, Cilt: 3, Sayı: 15, – S. 913-914.

³ Гумилев Л.Н. "Этносфера: история людей и история природы". М: Астрель, 2010. – С. 178.

⁴ Fayziyev J. Turkiy davlatlar birligi. Global integratsiyaning Yevroosiyo modeli. "Renesans pres", Toshkent. 2021. – B. 24.

⁵ Шажарайи Турк. Абулғозий Баҳодирхон. Тошкент. Чўлпон нашриёти – 1992. 192 б., Шажарайи Тарокима. Тошкент. Чўлпон нашриёти – 1995. – Б. 187.



O'rta asr MO davlatlari hamda Usmoniy davlati o'tasidagi munosabatlar yaxshi yo'lga qo'yilganligi bir qancha tarixiy manbalar va elchilik munosabatlari hujjatlaridan bizgacha ma'lum. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati oqibatida mintaqadagi davlatlari bosib olingandan so'ng, unga qarshi milliy ozodlik harakatlarida ham usmonli turk ofitserlarining ishtirok etganligi o'zaro munosabatlarning naqadar yaqin bo'lganligini isbotlaydi. Taasufki, MO mintaqasining Chor Rossiyasi tomonidan ishg'ol qilinishi va keyinchalik bu yerda sovet bolsheviklarining hokimiyati qaror topishi tufayli munosabatlar siyosiy jihatdan bir muddat uzilib qoldi. Yuz yildan oshiq vaqt davom etgan bu uzilishlar sobiq SSSRning parchalanishi bilan qaytadan tiklandi.

Turkiyaning mintaqadagi davlatlari bilan munosabatlarida tarixiy asosning mavjudligi bugungi o'zaro mustahkam ishonchli hamkorlik tamadduni sifatida xizmat qildi. Bu borada 2018-yilgi davlat tashrifi chog'ida Turkiya Prezidenti Rajab Toyyib Erdogan tomonidan Oliy Majlis parlamenti bilan uchrashuvida aytilgan "Ota yurtimiz"¹ jumlasini, mamlakatlar tarixan bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini isbotlaydi. Qolaversa, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev TDTning 2023-yil Ostona sammitidagi nutqida qadimiy turk davlati asoschilaridan biri Bilga Xoqonning "Ey turkiy elim, o'zlingga qayt, o'zingni angla – yanada yuksalgaysan!"² degan da'vati bilan boshlashi ham bu xalqalarning tarixiy ildizlari bir nuqtada birlashishini anglatadi. Shu jihatdan, Turkiya mustaqillikka erishgan turk respublikalarini qardosh og'a-inilar kabi eng birinchi bo'lib tan oldi va diplomatik munosabatlar o'rnatdi.

Etnik omil. MO va Kavkaz hududida joylashgan davlatlarning aksari ko'pchiligi turkiy xalqlarga mansub. Yevraasiya tarixini va bu kontekstda turk etnogenezi fundamental shaklda tadqiq etgan Lev Gumilyov ilk turk davlatlariga asos solgan "qadimgi turklar"ning ularning milliy-tarixiy differentsiyasi tufayli yozaga chiqan yangi avlod – turkiy xalqlar bir-biriga uzviy bog'liq ekanini tushuntiradi³.

Qadimgi turklarning etnik tarixiy differentsiyasi ularni tadrijan Yevroosiyo harbiy-siyosiy jarayonlarini, ayni paytda ichki ijtimoiy tuzilmalarni shakllanishiga yo'l ochadi. Ko'kturklar tarixida ilk bor umumturk siyosati va mafkurasini o'zida mujassamlashtirgan "turk" etnonimi bilan atalgan ilk davlat – "Turk xoqonligi"ni (552-yil) yuzaga keltirdi⁴. Yuqorida ta'kidlaganimizdek "Shajarai turk" va "Shajarai tarokima" asarlarida ham turklarning bir etnos vakillari ekanligini ta'kidlanadi⁵. Bu borada Zbignev Bzejskiy "...Turkiya Kavkaz va MO mintaqasidagi turkiy xalqlar

¹ URL://<https://www.youtube.com/watch?v=fMr2PX0P7Io> .
<https://www.youtube.com/watch?v=Z6QuVC1zcOs>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi. 03.11.2023 URL://<https://president.uz/oz/lists/view/6831>

³ Гумилев Л.Н. Древние тюрки. «ФТМ». 2010. – С. 152

⁴ Fayziyev J. Turkiy davlatlar birligi. Global integratsiyaning Yevroosiyo modeli. "Renesans pres", Toshkent 2021. - B. 31

⁵ Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи Турк. Тошкент. Чўлпон нашриёти – 1992. 192 б., Шажарайи Тарокима. Тошкент. Чўлпон нашриёти – 1995. – Б. 189.



bilan qardoshlik aloqalarini o'rnatmog'i uchun etnolingvistik nuqtai nazardan chuqurroq ildizlarga ega"¹ ekanligi haqida fikrlar bildiradi. Turk etnonimi borasida bahslar va qarashlar turlicha bo'lib, afsonaviy hamda real voqelikka qorishib ketgan. Biroq, inkor etib bo'lmaydigan fakt shuki, turkiy xalqlar yagona "turk" etnosining ajralmas oilalaridir. Shu jihatdan, Turkiya Markaziy Osiyo turkiy davlatlarining eng yaqin qardosh xalqi sanalib, ular bilan munosabatlarda bu xususda tushunmovchiliklar yuz bermaydi.

Lingvistik omil. Bugungi kunda turkiy tilda so'zlashuvchilar dunyo bo'yicha to'rt yuz milliondan ortiqni tashkil etadi. Turkiy til oilasiga kiruvchi tillarda so'zlashuvchi davlatlar asosan, MO, Kavkaz, Kichik Osiyo hududlariga to'g'ri keladi.

Taniqli fransuz olimi Rene Giuard XX asr tarix fanining mumtoz na'munasi hisoblangan ko'pgina tillarga, jumladan turkiy tilga ham o'girilgan kitobni butunlay Turk xoqonligiga bag'ishlagan. Prototurk tili va uning keyingi ko'rinishlaridan xabardor bo'lgan olim ilk manbalarga, qadimgi turk obidalariga, dastlabki hujjatlarga tayanib, Ko'kturk hoqonligi o'zidan avvalgi va keyingi turkiy davlatlarning til va genetik aloqalarini yuzaga keltirgan ilk xalqadir degan xulosaga keladi. AQShdagi Ratgers universitetining professori Piter Goldenning "Dunyo tarixida Markaziy Osiyo" monografiyasida, turklar MOning dominant siyosiy kuchga aylangani va turkiy tilni ham siyosiy jihatdan hukmron til darajasiga olib chiqqanini ham unutmash lozim². Shu jihatdan, MOning turkiy tilda so'shlashuvchi mamlakatlari hamda Turkiya til jihatdan bir-biriga juda yaqin va ajratib bo'lmash oilaga mansubdir.

Madaniy omil. Dunyo madaniyatini turklar madaniyatisiz tasavvur qilish imkonsiz. Dunyo madaniyatining antik davrlaridan bugungi kunimizga qadar o'tgan butun tarixga nazar salsak, unda turk madaniyatini o'ziga xos o'rin tutishini ko'ramiz.

Yevropada shuhrat qozongan nemis turkologiya maktabi asoschisi Wilgelm Julius Bang, "Turkshunoslik bo'yicha dastur", "Turkiy tilli xalqlar tarixidan" kabi monografiyalarida turklarning turmush tarzi va madaniyatiga to'xtalib, ular yaratgan boy madaniyat Yevroosiyo xalqlari madaniyatiga ta'sir o'tkazganligini takidlab o'tadi³. Yana bir olim Annemari fon Gaben, XX asrda Turkistonda o'tkazilgan ekspeditsiyaga boshchilik qilib, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, san'ati, adabiyoti va afsonalariga oid "Qadimgi turklar hayotida dasht va shahar fenomeni", "Qadimgi turk adabiyoti", "Qadimgi turk yozuvi", "Markaziy Osiyo turklari tarixiga kirish" kabi asarlari yozadi⁴. Asarda turkiy xalqlar madaniyati, yozuvi grammatik jihatdan keng tadqiq etiladi.

¹ Zbigniew Brzezinski. THE GRAND CHESSBOARD. American Primacy and Its Geostrategic Imperatives., Copyright 1997. – P. 181.

² Golden.P.B. Central Asia in World History. Oxford university Press. 2011. – P. 67.

³ Wilgelm Julius Bang Kaup. Vom Köktürkischen vergiechenden zum Osmanischen: Grammatik des Vorarbeiten zu einer Köktürkischen, Berlin 1919.,- S. 79

⁴ Фон Габен А. Культура письма и печатания у древних тюрок:Annemari von Gabain.Alttürkische Schreibekultur und Druckerei.-Phtf. T II.1964. – C. 191



Yozma manbalarining o'qilishi orqali qadimgi turklar ijtimoiy-madaniy hayoti, diniy tasavvurlari to'g'risida dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lindi.

Qadimgi turklar sivilizatsiyasi masalasini birlamchi manbalar asosida tadqiq qilgan keyingi olim Ziyo Go'kalp "Qadimgi turklar odatlari", "Turk sivilizatsiyasi tarixi" asarlari bilan Turkiyada turkologiya rivojiga o'z hissasini qo'shdi¹. Ushbu asarlarda muallif turklarning islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodlari va madaniyatini tadqiq etishga bag'ishlagan. "Turk sivilizatsiyasi tarixi" asarida faqat turk madaniyati emas, balki ularning urf-odatlari, urug'-qabilachilik an'analari, diniy e'tiqodlari va u bilan bog'liq marosimlari, afsonalari, qadimgi turk kalendari, kundalik mashg'ulotlari va huquqiy tizimi masalalariga alohida to'xtalgan.

Zamonaviy turkshunos olim Bahaddin O'gal o'zining "Turk madaniyati tarixiga kirish"² nomli 9 jildlik asarida turklarning turmush tarzi, shaharsozlik va qal'alar qurish madaniyati, oila va jamiyat boshqaruvining axloqiy me'yorlarga uyg'un tarzda shakllanganligi hamda dehqonchilik, chorvachilik, harbiy madaniyat, musiqa va san'at madaniyatini eng mayda detallarigacha tavsif va tahlil etishga harakat qilgan. Yana bir zamonaviy turk olimi Metin Aydo'gan "Turk sivilizatsiyasi" kitobida turklarning tarixan yaratgan turli madaniyatlarining o'ziga xosliklarini tahlil qilinadi, bu madaniyatlarni universal sivilizatsiya qobig'i va qamrovi olib kirgan asoslarga to'xtalib o'tiladi.

Tarixchi va turkiy birlik g'oyasi tarafdori sanalgan M.E.Rasulzoda turkiy madaniyati shakllanishi haqida "Biz turklar haqida so'z yuritar ekanmiz, Vamberining O'rta Osiyo bo'ylab sayohati, Font-Le-Kokning ideal kashfiyoti, Leon Kajonning turkiy irq tarixiga oid mashhur kitobi, Radlovning turkiy lahjalar lug'ati va Bartoldning Turkiston tarixiga oid ilmiy asarlari, shuningdek, boshqa olimlarning asarlari qadimgi turkiy madaniyatning mavjudligini ko'rsatganligini unutmasligimiz lozim" degan fikrlarni bildiradi³.

Din omili. Yagona islom diniga e'tiqod qilish jihatdan turk davlatlari o'rtasida tafovutning mavjud emasligi, Turkiyaning mintaqa davlatlari bilan munosabatlarida qo'l keladi. Usmoniy imperiyasi davrida islom olamidagi mavqeyi, Mustafa Kamol Otaturk davrida sekulyar harakterdagi demokratik modelining taklif etilishi, ilk islomiy demokratik respublikaning tashkil etilishi hamda 2000-yildan boshlab islomiy qarashdagi elitaning hukumat boshqaruvidagi yetakchiligi. Shuningdek, islom olamidagi yetakchiligi va o'z atrofida islom olamini birlashtiruvchi markaz roli uchun

¹ Gökalp Z. Türk Medeniyet Tarihi , . İstanbul 1926, - S. 360; Gökalp Z. Bir Kavmin Tedkikinde Takib Olunacak Usul // Gökalp Z. Makaleler III (Milli Tettebular Mecmuası'ndaki makaleler) / hazirioyan : M. Orhan Durusoy. Ankara, 1977. – S.113;

² Bahaeddin Ögel. Türk Kültür Tarihine Giriş (9 Cilt Takım). <https://www.mardinlife.com/kitap/turk-kultur-tarihine-giris-9-cilt-takim-bahaeddin-ogel-kitap-ozeti-konusu-ve-incelemesi>

³ Fayziyev J. Turkiy davlatlar birligi. Global integratsiyaning Yevroosiyo modeli. "Renesans pres", Toshkent 2021. – B. 102




kurash¹ garchi bu borada Eron bilan raqobat mavjud bo'lsada², hamda mo'tadil islomni qo'llab-quvvallash kabi omillar, MOda endi mustaqil bo'lgan islom davlatlarida ijobiy intilishni shakllantirdi. Qolaversa, Turkiyaning mintaqa davlatlarida islomni qo'llab quvvatlashi natijasida diniy ilm egalari, adabiyotlar tayyorlash, masjid va madrasalar qurildi. Aytish mumkinki, ushbu omillar Turkiya Respublikasining MOdagi tashqi siyosatida yumshoq kuchdan foydalanishiga ko'plab imkoniyatlarni yaratadi.

MUHOKAMA

Hozirgi murakkab geosiyosiy sharoit va Turkiya tashqi siyosatda duch kelayotgan muammolarni hisobga olgan holda, Turkiyaning MO mamlakatlari bilan munosabatlarini mustahkamlashi mamlakat uchun oqilona tanlov bo'lishi mumkin. Xalqaro keskinlik davrida mintaqadagi davlatlarni qo'llab-quvvatlashiga erishish muhim hisoblanadi. Shu munosabat bilan Turkiya MO davlatlariga nisbatan "yumshoq kuch" usulini qo'llamoqda.

MOda yumshoq kuchni amalga oshirishda Turkiya turli sohalar hamda mexanizmlardan foydalanadi. Ushbu sohalar, siyosiy, iqtisodiy, ta'lim, madaniy-gumanitar, OAV va media, hamda zamonaviy texnologiyalarni o'z ichiga oladi.



Siyosiy yo'nalishda. Turkiya mintaqada tashqi ta'sir ko'rsatuvchi aktor sifatida ishonchliroq harakat qila oladigan institutsional bazani yarata oldi. 1991-1992-yillarda diplomatik munosabatlarning o'rnatilishi bilan boshlangan aloqalar 1992-yil 29-fevral Ashqabodda³, 1992-yil 2-mart Ostonada⁴, 1992-yil 3-aprel Dushanbe⁵, 1992-yil 3-aprel

¹ Yovqochev Sh. Jahon siyosatida islom omili. O'quv qo'llanma. Toshkent – "BEST-PUBLISH" – 2024. – B. 195

² Zbigniew Brzezinski. THE GRAND CHESSBOARD. American Primacy and Its Geostrategic Imperatives., Copyright. 1997. – P. 192.

³ URL://<https://www.mfa.gov.tr/relations-between-turkiye-and-turkmenistan.en.mfa>

⁴ URL://<https://www.gov.kz/memleket/entities/mfa-ankara?lang=kk>

⁵ Муносибатҳо миёни Ҷумҳурии Тоҷикистон ва Ҷумҳурии Туркия. Вазорати Корҳои Хориҷии Ҷумҳурии Тоҷикистон. URL://mfa.tj/tg/main/view/25/munosibathoi-tojikiston-bo-turkiya



Bishkek, 1992-yil 5-aprel Toshkent¹, elchixonalar ochilishi bilan mustahkamlandi. Shuningdek, Turkiya Markaziy Osiyo respublikalari bilan turli sohalarda ikki tomonlama hamkorlik shartnomalarini imzolaydi. Xususan, O'zbekiston va Turkiya o'rtasida ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risidagi (1995), Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma (1996), atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik (1996), Sog'liqni saqlash sohasida hamkorlik to'g'risidagi shartnoma va Tibbiyot (1997), Turizm sohasida hamkorlik (2017), Madaniy hamkorlik (2018), Strategik hamkorlik (2020) imzolandi². Turkiyaning mintaqadagi eng katta hamkori 1991-yilda Qozog'iston bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik protokoli, 1993-yilda Harbiy ta'lim, fan va texnologiya sohasida hamkorlik shartnomasi, Turk davlatlari orasida 2009-yilda ilk bor Qozog'iston bilan Strategik hamkorlik shartnomasi imzolandi³. Turkiya va Qirg'iziston o'rtasida 1997-yilda Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi bitim, 2011-yilda esa Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashi imzolangan⁴. Bunday kelishuvlar Turkiyaning yumshoq kuchini albatta qo'llab-quvvatlaydi.

Turkiya mintaqada davlatlar bilan xususiy hamkorlikdan tashqari ko'p tomonlama aloqalarni ham yo'lga qo'yadi. Xususan, ko'p tomonlama hamkorlikning dastlabkisi 1992-yildan boshlab Turkiy tilli davlatlar rahbarlarining yillik sammiti formatida o'tkazilib borilib⁵, 2009-yilda Naxichevanda (Ozarbayjon) sammit, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining (TDHT) tashkil etilishi bilan institutsionallashtirildi⁶. Turkiy Kengash tashkil etish bosqichida Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'izistonni o'z ichiga oldi, 2019-yilda O'zbekistonning qo'shilishi bilan uning faoliyati va imkoniyatlari kengaydi⁷. 2022-yilda tashkilot nomi Turkiy davlatlar kengashiga o'zgartirildi⁸. Bu orqali Turkiya mintaqada davlatlari bilan birgalikda harakat qilishning institutsional asosini mustahkamladi. Bundan tashqari BMT, IHT, EKO, ShHT va boshqa tashkilotlar doirasida ham hamkorlik aloqalari olib boradi.

¹ [URL://https://www.uzembassy.org.tr/page/221](https://www.uzembassy.org.tr/page/221)

² Sharipov A.Sh. The role of Turkish Soft Power Diplomacy in the current development of Central Asia. Palarch's Journal Of Archaeology Of Egypt/Egyptology 17(7). ISSN 1567-214x. – P. 7688

³ O'sha joyda

⁴ Beisebaev R.S. (2018) Kyrgyz-Turkish Political and Economic Cooperation: A Historical Analysis (1991-2016). Science, new technologies and innovations of Kyrgyzstan, no. 5. – P. 168.

⁵ Сайбназаров А. Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгаши – ўзаро ишончга яна бир қадам. УзА. [URL://http://uza.uz/oz/society/turkiy-tilli-davlatlar-amkorlik-kengashi-zaro-ishonchga-yana-17-09-2019](http://uza.uz/oz/society/turkiy-tilli-davlatlar-amkorlik-kengashi-zaro-ishonchga-yana-17-09-2019)

⁶ Türk Dili Konuşan Ülkeler İşbirliği Konseyi Kurulmasına Dair Nahçıvan Anlaşması (İmza tarihi: 3 Ekim 2009) <https://www.turkicstates.org/tr/temel-belgeler>

⁷ Ўзбекистон Республикасининг 14.09.2019 й. ЎРҚ-568-сон "Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик Кенгашини тузиш тўғрисидаги Нахичеван Битимини (Нахичеван, 2009 йил 3 октябрь) ратификация қилиш ҳақида" "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2019 йил 23 сентябрь. [URL://http://www.lex.uz](http://www.lex.uz)

⁸ Türk Devletleri Teşkilatı Anlaşması [URL://https://www.turkicstates.org/tr/temel-belgeler](https://www.turkicstates.org/tr/temel-belgeler)



Zamonaviy Turkiya tashqi siyosati va “yumshoq kuch”ining muhim vositalaridan biri bu xalq diplomatiyasi bo‘lib, u xalqaro hamjamiyat oldida Turkiyaning ahamiyatini oshirishga qaratilgan. Buni amalga oshirish uchun 2010-yilda Bosh vazir rahbarligida Turkiya jamoat diplomatiyasi vazirligi tashkil etilgan. Bu Turkiyada “yumshoq kuch”ni institutsionalizatsiya qilishning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qildi.

Bu borada Turkiya Samarqandda turk bosh konsulligini ochishi turk yumshoq kuchining muhim vositasi sanalgan diplomatiya yutug‘i hisoblanadi. Zero, muzlab qolgan 20 yillik aloqalardan keyin bunday natijaning qo‘lga kiritilishi turk diplomatiyasi uchun katta yutuq bo‘ldi.

Iqtisodiy yo‘nalishda. Garchi *iqtisodiy omil* klassik nuqtai nazarga ko‘ra, qattiq kuch elementi hisoblansada, biroq zamonaviy liberal doiralar buning aksini tushuntiradi, ya‘ni kuchli jozibador iqtisodiyotga ega davlatlar qolganlarni jalb qilishi mumkin¹. Shunga ko‘ra, bugungi kunda iqtisodiy omil yumshoq kuch elementi sifatida tan olinmoqda. Aytish mumkinki, iqtisodiy sohada Turkiyaning MO davlatlarida amalga oshirgan ishlari turli ko‘rinishda (gumanitar, investitsiya, qo‘shma koperatsiyalar tuzish va boshqalar) yuz bermoqda.

Xususan, TIKa tomonidan 2015-2020-yillarda 39.22 mln dollarlik qo‘shma loyihalar amalga oshirilgan. 2020-yilning o‘zida tashkilot Markaziy Osiyo davlatlarida 194 loyiha amalga oshirdi. Ulardan 16 tasi umumiy tarixiy va madaniy me‘rosni saqlashga qaratilgan edi².

Turkiya tomonidan Qozog‘iston Respublikasida iqtisodiy mustahkamlanish va hamkorlikni rivojlantirish maqsadida faqat 2020-yilning o‘zida 21,73 mln.dollar ajratilgan³.

Shu jihatdan, 2021-yilda Turkiya va O‘zbekiston 50 milliard dollardan ortiq *investitsiya* loyihalarini amalga oshirish to‘g‘risida bitim imzoladilar. Turkiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari tovar aylanmasida ham sezilarli o‘sish kuzatilmoqda. Xususan, 2021-yilda O‘zbekiston bilan tovar ayirboshlash hajmi 93 foizga o‘sib, 1,5 milliard dollarga yaqinni tashkil etdi⁴. 2022-yilning o‘zida qo‘shma korxonalar soni deyarli 500 taga oshdi va hozirda ularning soni 1600 tani tashkil etmoqda. 2020 yilda

¹ Маевского В.И., Кирдиной-Чэндлер С.Г., Мезоэкономика: элементы новой парадигмы. Москва-2020 https://inecon.org/docs/2020/Mayevsky_Kirdina-Chandler_book_2020.pdf

² И.Свистунова Гуманитарная политика Турции в странах постсоветского пространства на постсоветском пространстве 2022. – С. 125.

³ В столице Казахстана Нур-Султане стартовала неделя турецких фильмов. – Текст : электронный // Yunus

Emre Enstitüsü – Nur-Sultan : [сайт]. – 2023. – URL: <https://nur-sultan.yee.org.tr/kk/news/kazakstannyn-astanasy-nur-sultanda-turik-filmleri-aptasy-bastaldy> (Olingan sana: 14.04.2024).

⁴ Аватков В.А. Внешнеполитический курс Турецкой Республики в рамках современной системы международных отношений. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора политических наук. Москва – 2021 С.50



Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi savdo aylanmasi hajmi 2,1 mlrd AQSh dollariga yetdi. O'zbekistonning Turkiyaga eksporti 1 milliard AQSh dollarini, import esa Turkiyadan 1,1 milliard AQSh dollaridan oshdi. 2018-2020 yillar davr mobaynida 750 ta tashkil etilgan turk korxonalarining kiritgan investitsiyalar miqdori 500 million AQSh dollaridan oshiq¹.

Qirg'izistondagi turk sarmoyasining asosiy yo'nalishlari infratuzilma obyektlarini qurish, savdo, transport va energetika sohalariga qaratilib, investitsiyalar asosan xususiy va davlat kompaniyalari tomonidan taqdim etiladi. Xususan, 2019-yil sentyabr oyida Bishkekda "Mariott" mehmonxonalar tarmog'ining besh yulduzli mehmonxona qismi bo'lgan Sheraton mehmonxonasi faoliyat boshladi².

Shu jihatdan, 1992-yil Anqara Turkmanistonning iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga (OES), Islom konferensiyasi (IK) tashkilotiga, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha yig'ilishga (YEXHT) a'zo bo'lishiga yordam berganini qayd etish o'rinlidir. Bundan tashqari, postsovet inqirozini bartaraf etish uchun Turkiya Turkmanistonga gumanitar, iqtisodiy va texnik jihatdan har tomonlama yordam ko'rsatdi. So'nggi yillarda Turkmanistondagi iqtisodiy ta'sir darajasi bo'yicha Turkiya Xitoy, AQSh, Rossiya va boshqa yetakchi davlatlardan o'zib ketdi. Turkiya sarmoyalarining umumiy hajmi 5.6 milliard dollardan oshadi.

Madaniy-gumanitar yo'nalishda. Xalqaro munosabatlar jarayonida yumshoq kuch amaliyotining eng muhim elementlaridan biri bu madaniyat hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Turkiya Respublikasi MO davlatlarida o'z yumshoq kuchini amalga oshirishda bu aspektga murojaat qiladi va eng muhim element sifatida foydalanadi. Mamlakatning mintaqadagi madaniy yumshoq kuchini TURKSOY va TIKA tashkilotlari yordamida amalga oshiriladi. Xususan, Turkiy madaniyat xalqaro tashkiloti madaniy poytaxt shaharlar amaliyotini yo'lga qo'yish orqali turkiy madaniyatni yanada targ'ib qilishni maqsad qiladi. Misol uchun tashkilot tegishli qaroriga ko'ra, O'zbekistonning tarixiy shaharlaridan biri Xiva 2020-yilda turkiy dunyoning madaniy poytaxti deb e'lon qilindi³. Bundan tashqari, TURKSOY tomonidan Anqara, Istanbul va Bursa shahrida shoir va mutafakkir A.Navoiy tavalludining 579 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar turkumi tashkil etildi. Ibn Sino tibbiyotga oid "Kitob el-kanun el-sagir Fit-tibb" kitobining turk tiliga tarjima qilingan nusxalari O'zbekistonga yuborilgan, shuningdek, Abu Ali ibn Sino ijodi va qo'lyozmalari bo'yicha kutubxona fondini shakllantirish ishlari boshlangan. Turkiyada

¹ Аватков В.А., Прилепский П.А. - Турция и Центральная Азия в период пандемии коронавируса // Мировая политика. - 2022. - № 2. DOI: 10.25136/2409-8671.2022.2.36514 EDN: NCMXSO

URL:https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=36514

² Усенов А. Турция в Центральной Азии: влияние и лимиты. Эксперт Института стратегического анализа и прогноза / Бишкек <https://www.caa-network.org/archives/21989/turcziya-v-zentralnoj-azii-vliyanie-i-limity>

³ URL:<https://yuz.uz/uz/news/xiva-turkiy-dunyo-madaniyat-poytaxti-sifatida-evropada-taqdim-etildi>



TURKSOY “Said Ahmadning tanlangan hikoyalari”ni turk tilida nashr etildi¹. Shuningdek, o‘zbek-turk Jadidchilarining hayoti va faoliyati to‘g‘risidagi kitoblar ham turk tiliga tarjima qilindi.

Turkiyaning “yumshoq kuchi”dan foydalanish nuqtai nazaridan madaniyat markazlari juda muhim vosita sanaladi. Ulardan biri Yunus Emre jamg‘armasi va madaniyat markazi hisoblanib, ushbu markazda, tegishli ravishda, Turkiya tarixi va madaniyati bilan tanishtiriladi hamda turk tili o‘rgatiladi. Mazkur tashkilot Turkiyaning “yumshoq kuchini” amalga oshirishda asosiy nodavlat tashkilotlaridan. 2010-yildan hozirgi vaqtga qadar Yunus Emre markazi MO hududida faqatgina Ostona shahrida faoliyat ko‘rsatmoqda. Jamg‘arma faoliyati turk tarixi, madaniyati, tilini targ‘ib qilish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, tadqiqotchilarni o‘qitish, sertifikatlash dasturlarini amalga oshirishga qaratilgan. Markaz turk madaniyati va tilini o‘rganish bo‘yicha o‘quv materiallarini (Istanbul yabanciler icin, Yeni Xit Xit va boshqalar) ishlab chiqaradi².

Bir qator g‘arb olimlari Yunus Emre madaniyat markazi va fondi Turkiya tashqi siyosatining MOda yumshoq kuch drayveri deb hisoblaydilar. Markazning ochilish marosimida sobiq Turkiya prezidenti A.Gul: “Buyuk davlatlar nafaqat diplomatiya, balki madaniy kapital yordamida ham faoliyat yuritmoqda, Yunus Emre nomidagi turk madaniyati markazi Turkiyaning “ko‘rinmas” bir kuchi kabidir, madaniy merosimizni saqlab qolish va uni boshqalarga tanishtirish davlatimizning eng katta vazifasidir”, deb ta’kidlagan edi³. Markazning faoliyati davlat siyosatining ustuvor vazifasi darajasiga ko‘tarilganligi va uning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda strategiyalarini ishlab chiqishda davlat yetakchi subyekt vazifasini o‘tayotganini isbotlaydi.

Bundan tashqari, Fond turk tilini o‘qitish bo‘yicha onlayn kurslari shuningdek, turk madaniyati haftaliklari, unda turk filmlari namoyishi, turk oshxonasi bilan tanishish va turk madaniyati ko‘rgazmalari tashkil etilmoqda. Jumladan, 2019-yil noyabr oyida markaz tomonidan Ostona shahrida turk filmlari haftaligi o‘tkazildi. Jamg‘arma axborot bo‘limi ma’lumotlariga ko‘ra, qozog‘istonliklar turk seriallari va filmlariga katta qiziqish bildirishgan⁴.

Yunus Emre turk madaniyat markazi o‘z faoliyatini Turkiyaning madaniy o‘ziga xosligini, tarixiy kelib chiqishini, ayniqsa yaqin qarindoshlar jamoalari bilan ili

¹ Said Ahmadning saylangan hikoyalari to‘plami turk tilida chop etildi. [URL://https://yuz.uz/uz/news/said-ahmadning-saylangan-hikoyalari-toplami-turk-tilida-chop-etildi](https://yuz.uz/uz/news/said-ahmadning-saylangan-hikoyalari-toplami-turk-tilida-chop-etildi)

² Serdar Yilmaz. Kazakistan’in Turkiye politikasi iz yapi, suylem, dis politika ve lider etken.

³ Исаков А.С. Агональный характер мягкой силы современной Турции // Дискурс-Пи. 2017. № 4. – С. 142

⁴ В столице Казахстана Нур-Султане стартовала неделя турецких фильмов. – Текст : электронный // Yunus

Emre Enstitusu – Nur-Sultan : [site]. – 2024. [URL://https://nur-sultan.yee.org.tr/kk/news/kazakstannyn-astanasy-nur-sultanda-turik-filmleri-aptasy-bastaldy](https://nur-sultan.yee.org.tr/kk/news/kazakstannyn-astanasy-nur-sultanda-turik-filmleri-aptasy-bastaldy) (Olingan sana: 14.04.2024).



munosabatlarni namoyish etishga alohida e'tibor qaratadi. Shu jihatdan ham jamg'arma turk va qozoq adabiyotini targ'ib qilish, tarjima qilish bilan shug'ullanmoqda.

Yunus Emre turk madaniyat markazi juda muhim muassasa sifatida tashkil etilgan bo'lsa-da, Qozog'istonning ichki yoki tashqi siyosatida ma'lum ta'sir kuchiga ega emas. Biroq, ushbu markazning Qozog'iston davlatiga qo'shgan eng katta hissasi va respublikaga o'z siyosatida bergan eng katta yutug'i shundaki, u Qozog'iston va boshqa qardosh xalqlarining madaniyat markazlarini tashkil etish orqali yaqinlashtirish mumkin, degan tasavvurni namoyish etadi. Shu ma'noda, turkiy dunyoning umumiy madaniyati va san'atini butun dunyoga tanitishi, shuningdek, qiyin bo'lsa ham, kelajakdagi mushtarak madaniyat, san'at va umumiy til orzusini amalga oshirishi mumkin¹.

Turkiyaning Qozog'istondagi yana bir ilmiy-madaniy tadqiqot instituti AHISKA turk milliy markazi bo'lib, 1991-yil fevral oyida Olmaotada tashkil etilgan. 2000-yildan turk, rus va qozoq tillarida AHISKA gazetasi nashr etila boshlangan².

Turkiyaning Tojikiston bilan madaniy aloqalari XXI asr boshlarida rivojlangan. Masalan, 2001-yil oktabr oyining oxirida Tojikistonning Kamoliddin Behzod nomidagi milliy muzeyida turk rassomlari va ustalarining tasviriy va amaliy san'ati ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Turkiya homiyligida 2007-yil sentabr oyida "Jaloliddin Rumiy va sivilizatsiyalar muloqoti" xalqaro konferensiyasi o'tkazilib, unda dunyoning 27 davlatidan, shu jumladan Turkiyadan 90 ga yaqin olimlar, akademiklar ishtirok etdilar. Ushbu tadbir darajasi Tojikistondan tashqarida tan olinadi va YUNESKO tomonidan 2007-yilni bag'rikenglik yili deb nomlanishi aynan shu simpozium bilan bog'liq. Tojikistonda "Shahidi" xalqaro madaniy fondi Turkiyaning Tojikiston Respublikasidagi elchixonasi ko'magida "Fonus" jurnali nashr etiladi. 2010-yil Abulqosim Firdavsiy nomidagi milliy kutubxonada Turk kitoblari ko'rgazmasi o'tkazildi, uning tashkilotchisi Turkiya elchixonasi turizm Kengashi bo'ldi. Ushbu ko'rgazmaning maqsadi tojik xalqini tojik va rus tillariga tarjima qilingan turk yozuvchilarining kitoblari bilan tanishtirish edi³.

MOning yana bir davlati Turkmaniston bilan munosabatlar bir muncha murakkab hisoblanib, ammo bu Turkiyaning mamlakatdagi madaniy faoliyatiga ta'sir o'tkazmaydi. Xususan, 1992-yil 3-fevralda Turkiya va Turkmaniston o'rtasida madaniyat, ta'lim, fan, axborot, sport sohasidagi hamkorlikni ikki tomonlama rivojlantirishga, jamoat tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, muassasalar va fondlar

¹ Вейцель Р. Влияние Турции на культуру и образование стран Центральной Азии//Ислам в современном мире № 1/2014. – С. 32

² Serdar Yılmaz., Kazakistan'ın Türkiye Politikası: İç Yapı, Söylem, Dış Politika ve Lider Etkeni. https://www.researchgate.net/publication/316191626_Kazakistan'in_Turkiye_Politikasi_Ic_Yapi_Soylem_Dis_Politika_ve_Lider_Etkeni

³ Шарофов Э.У. История Таджикиско - Турецкого сотрудничества: 1991-2011 гг. Автореферат дис.канд.наук. Душанбе – 2012. – С. 23



o'rtasidagi aloqalarni kengaytirishga qaratilgan ikkinchi hamkorlik protokoli imzolanadi¹.

Turkiyaning MO davlatlariga nisbatan tashabbuslarining gumanitar aspektida asosan tibbiy yordam, nogironligi bo'lgan hamda onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarni davolash muassalari qurish, maktab va maktabgacha ta'lim binolari qurish kabilarga e'tibor qaratiladi. Xususan, Ostonada tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish dasturi amalga oshirdi². Qashqadaryo viloyatidagi nuqsoni bor bo'lgan bolalarni tarbiyalash va davolashga ixtisoslashgan maktab, Bishkekda Prezident R.T.Erdoganning bosh vazirlik davrida 2013-yilda qurilishi boshlangan ko'p tarmoqli shifoxona 2017-yilga kelib qurib bitkazildi. Zamonaviy uskunalar bilan jihozangan yurak qon-tomir kasalliklarini, kardeojarrohlik, umumiy jarrohlik va boshqa yo'nalishlarga ixtisoslashgan shifoxona umumiy maydoni 12 ming gektarni o'z ichiga oladi³. Shuningdek, Tojikiston poytaxtidan uncha uzoq bo'lmagan Rudaki tumanida joylashgan erkaklar ruhiy kasalliklari shifoxonasi hamda shahar markaziy shifoxonasining gemodializ bo'limini yangitdan tiklanishiga yordam ajratgan. Qolaversa, TIKa tomonidan qariyb 20 yil davomida mintaqa davlatlariga tabiiy ofatlar, epidemiya sharoitida gumanitar yordamlarning ajratilishi hamda qishloq xo'jaligi sohasida berilayotgan ko'mak Turkiyning yumshoq kuchini samarali ishlashiga xizmat qilmoqda.

Ta'lim yo'nalishida. Turkiyaning MOdagi "yumshoq kuch"ining yana bir muhim yo'nalishi sifatida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasidagi hamkorlikni ko'rib chiqish mumkin. Turkiya o'zini sifatli, raqobatbardosh va innovatsion ta'limi tufayli xalqaro talabalarni jalb qilishning kelajakdagi asosiy markazi sifatida ko'rsatmoqda.

Turkiya hukumati "*Turkiye Burslari*" deb nomlangan xalqaro stipendiya dasturini moliyalashtiradi, unda chet ellik talabalarga bakalavriat, magistratura va doktoranturada o'qish uchun stipendiyalar (kvotalar) beriladi⁴. Bundan tashqari, bu dasturning o'ziga xos strukturasi mavjud bo'lib, unda stipendiyani qo'lga kiritgan har qanday xorijiy talabaga dastlab turk tilini akademik darajada o'rgatiladi va sinov imtihonida yetarli ballni qo'lga kiritgach, tanlagan sohasidagi o'qishini davom ettira oladi. Bundan anglash qiyin emaski, bu vaqt oralig'ida xorijlik talaba yoshlarga turk tili bilan birgalikda turk madaniyati va urf odatlari ham birgalikda o'rgatiladi va bu keyinchalik talabalarning o'z mamlakatga qaytib borganlarida Turkiya haqidagi tasavvurlari va

¹ Khudayberdiyeva N. Formation of Relations between Turkey and Turkmenistan (1991—1995) // Journal of International Law and International Relations N 3-4 (82-83) - 2017

² ҚАЗАҚСТАН-ТҮРКИЯ ДОСТЫҚ ПЕН ҒИТЫМАҚТАСТЫҚТЫҢ 20 ЖЫЛЫ. URL://https://farabi.university/storage/book/30588511956448af3d94879641349564_%D2%9A%D0%B0%D0%B7%D0%B0%D2%9B%D1%81%D1%82%D0%B0%D0%BD-%D0%A2%D2%AF%D1%80%D0%BA%D0%B8%D1%8F.pdf

³ Cengiz Buyar, Kirgizistan Araştırmaları 2019, Bişkek: 2019, 380 s.

⁴ Эргашев А.С., Гришин О.Е. Образовательная политика Турции в Центральной Азии. Проблемы постсоветского пространства. 2022; 9 (3): - P. 319.



bilimlarini boshqalarga yetkazishlari uchun ko'prik vazifasini o'tab beradi. Har bir ijobiy ma'lumot va kichik hikoya ham Turkiyaning yaxshi imidjini yanada yuksaltirishini hisobga olinsa, bu yumshoq kuch strategiyasining naqadar uzoq muddat samarali faoliyat ekanini bilib olamiz.

Turk litseylari talabalar va bitiruvchilari kuchli zehn, ajoyib aql-idrok, yuqori IQ, ko'p qirrali va istiqbolli kadr deb hisoblanganligi sababli bunday ta'lim muassasalariga qiziqish tobora ortib bordi. 1992-yildan 2002-yilgacha bo'lgan o'n yillikda Markaziy Osiyo bo'ylab yuzga yaqin ta'lim muassasalari ochildi. Mustaqillikning dastlabki 10 yilligida Qozog'istonda ham Ahmad Yassaviy universitetidan tashqari 32 ta maktab va turk litseylari faoliyat yuritgan. Biroq, 2000-yillar boshida Markaziy Osiyodagi turk litseylari "panturkizm" g'oyalarini targ'ib qilish, diniy ta'limga e'tiborning oshishi va dunyoviy rejimni xavf ostiga qoldirish kabi sabablar bilan keskin qarshiliklarga uchradi. Aynan, Toshkent va Anqara munosabatlari yomonlashuvi sababi ham shu yo'sinda yuz bergani va buning natijasida O'zbekistonda turk litseylarning taqiqlanishiga olib kelganini ham qo'shimcha qilish mumkin. Ko'rish mumkinki, bu holat qo'shni mamlakatlarda ham turk litseylarining birin-ketin yopilishi yoki iqtidorli bolalar maktablariga aylantirilishiga asosiy sabab bo'ldi.

Shuningdek, Qozog'istonning janubida Turkiston shahrida joylashgan Ahmad Yassaviy nomidagi Xalqaro Qozog'iston Turkiya Universiteti (XQTU) Markaziy Osiyoda o'z faoliyatini boshlagan birinchi universitet bo'ldi. Uning filiallari Shimkent va Kentauda joylashgan. 2018-yilda aynan XQTU turkiy mamlakatlar universitetlari Kengashining raisi bo'ldi, unga 4 mamlakat Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Ozarbayjonning 19 ta universiteti a'zo¹.

Markaziy Osiyo davlatlari ichida turk "yumshoq kuch"ining *ta'lim segmenti* eng keng ko'lamli va tizimli tarzda Qirg'izistonda amalga oshirilgan. Mamlakatda "Sebat" turk ta'lim assotsiatsiyasining 22 ta o'quv yurti mavjud, ular orasida 9 ta erkaklar va 5 ta ayollar xalqaro litseylari mavjud. Shuningdek, Sebat doirasida "Cambridge va Silk Road" xalqaro maktablari, "Otaturk-Ala-Tou" xalqaro universiteti va "Manas turk-qirg'iz" universiteti faoliyat ko'rsatmoqda²

Diniy yo'nalishda. Markaziy Osiyodagi turk yumshoq kuchining yana bir vositasi islom omili hisoblanib, mintaqa aholisining deyarli barchasi islomga e'tiqod qilishi hisobga olinsa, uning nechog'lik ahamiyatli ekanligi oydinlashadi. Turkiyaning Diyanet tashkiloti mamlakatda va uning tashqarisida islomni qo'llab quvvatlash ishlarni muvofiqlantirish bilan shug'ullanadi. Tashkilot tomonidan Markaziy Osiyon davlatlarida qator ishlar malga oshirilgan xususan, Qozog'istonda Nursulton, Semipalatinsk va Turkistonda masjidlar qurilgan. Bundan, TIKA tomonidan har yili

¹ Асанов Б.М. «Мягкая сила» Турции во внешней политике Центральной Азии «ВЕСТНИКА СВФУ» № 4 (20) 2020, – С.103

² Грозин А. Политика Турции в постсоветской Азии: подходы, институты, перспективы // Политология 2 (30) 2021. – С. 35



muqaddas Ramazon oyi munosabati bilan iftorlik dasturxonlari va kam ta'minlangan oilalarga muruvvat xaltachlaridan ehson qilishi orqali ta'sirning yumshoq vositalaridan samarali foydalanib kelmoqda. Shuningdek, 2022-yil Olmaota, Karaganda, Turkiston, Shimkent shaharlarida mingdan ortiq aholiga iste'mol savatchalari tarqatilganligi¹ hisobga olinsa, bu sohaga e'tibor ko'lamini aniqlab olish mumkin.

XULOSA

Markaziy Osiyodagi barcha davlatlarning dunyoviyligi, shuningdek, mintaqaning ayrim davlatlarida islomga alohida munosabat, xavfsizlik va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar barqarorligi masalalari bilan chambarchas bog'liqligini hisobga olsak, din turkiy dunyo mamlakatlari hamjihatligining markaziy omillaridan biri ko'rinadi. Islom dini aslida Markaziy Osiyoning barcha davlatlarining umumiy madaniy-tarixiy merosining asoslaridan biri sifatida e'tirof etilgan – Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva islom ilmfani, madaniyati va sivilizatsiyasining jahon markazlari sifatida tanilgan².

Bundan tashqari turk media olamining mintaqada ta'siri yuqori darajada. Turkiya tomonidan ishlab chiqarilgan filmlar hamda teleseriallar Markaziy Osiyo davlatlari aholisi tomonidan sevib tomosha qilinadi, turk qo'shiqlari va shou biznes vakillarining muxlislari ham juda ko'pdir. Shuningdek, OAVning targ'iboti, ijtimoiy tarmoqlarda turk kontentlarining mahalliy aholi tomonidan kuzatib borilishi Turkiyaga yumshoq kuchining amalga oshirishini osonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аватков В. А. Неоосманизм. Базовая идеология и геостратегия Турции // Свободная мысль. 2014. № 3. С. 71-78.
2. Аватков В. А. Тюркский мир и тюркские организации [Электронный ресурс]. URL:https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=26047
3. Шарапов А. Неоосманизм во внешней политике Турции [Электронный ресурс] // Беларуская думка – русская версия. 2017. № 4. С. 53-57. URL:http://beldumka.belta.by/isfiles/000167_87053.pdf (дата обращения: 12.08.2019).
4. Davutoğlu A. Stratejik Derinlik. Türkiye'nin Uluslararası Konumu (Seksendokuzuncu basım). İstanbul: Küre Yayınları, 2013. 584 s.
5. Gökalp Z. Türkçülüğün Esasları (Yedinci basılış). İstanbul: VARLIK YAYINEVİ, Ekin Basımevi'nde basılmıştır, 1968. 176 s.
6. Nye J. Soft Power: The Means to Success in World Politics. N. Y.: Public Affairs Group, 2004. 208 p.
7. Vuving A. L. How soft power works [Электронный ресурс]: Paper presented at the panel "Soft Power and Smart Power", American Political Science Association annual meeting.

¹ TIKAning rasmiy sayti URL: <https://tika.gov.tr/en/>

² Усубалиев Э. Тюркское сотрудничество и внешняя политика Турции в Центральной Азии. – С. 235

URL: <https://www.caa-network.org/archives/21201>



- Toronto, 2009, September 3. URL:
<http://apcss.flywheelsites.com/Publications/VuvingHowsoftpowerworksAPSA2009.doc>
 (дата обращения: 12.08.2019).
8. Урманов Д.Р. Динамика развития политики «Мягкой силы» в Турецкой Республике в XXI Веке. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Казань 2018. – С. 101
 9. Зиганшина Г. Турция: марафон на пути в Европу // Азия и Африка сегодня. 2005. № 5. С. 33–40.
 10. Перинчек М. Итоги – 2017: «Турция ищет будущее на горизонтах Евразии», Кавказский Геополитический клуб. URL://<https://kavkazgeoclub.ru/content/itogi-2017-turciyaishchet-budushchee-na-gorizontah-evrazii>
 11. Cem I. Turkey in the New Century: Speeches and Texts (1995–2001). Rustem, 2001. P. 60.
 12. Аватков В. А. Тюркский мир и тюркские организации [Internet manbasi]. URL:https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=26047
 13. Ali Balici. Türk Dış Politikası: İlkeler, Aktörler ve Uygulamalar ALFA Basım Yayın Dağıtım San. 2017. S. 247.
 14. Mustafa Durmuş ve Harun Yılmaz, “Son Yirmi Yılda Türkiye’nin Orta Asya’ya Yönelik Dış Politikası ve Bölgedeki Faaliyetleri”, Bağımsızlıklarının Yirminci Yılında Orta Asya Cumhuriyetleri: Türk Dilli Halklar- Türkiye ile İlişkileri, ed. Ayşegül Aydıngün ve Çiğdem Balım, (Atatürk Kültür Merkezi, Ankara: 2012), s. 487-488.
 15. Аватков В.А. Внешнеполитическая идеология Турецкой Республики при правлении Партии справедливости и развития: дис.канд. полит. наук.// – М., 2013. – С. 137
 16. Усенов А. Турция в Центральной Азии: влияние и лимиты. Эксперт Института стратегического анализа и прогноза / Бишкек URL://<https://www.caa-network.org/archives/21989/turcziya-v-czentralnoj-azii-vliyanie-i-limity>
 17. Kadir Sancak, Nihat Yılmaz. Vision Change and Foreign Supports in Türkiye's Foreign Policy., The Journal of International Scientific Researches., 2018, 3(2)., <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/464841>
 18. Mustafa Serdar Palabıyık, “Uluslararası Sistemde Türkiye”, (der. Şaban Kardaş; Ali Balcı, Uluslararası İlişkilere Giriş, Küre Yayınları, İstanbul 2014, s. 68). 2014. S.68.
 19. Nevzat Tekneci., Türk dış politikasında tarafsızlık., https://www.academia.edu/25123790/T%C3%9CRK_DI%C5%9E_POL%C4%B0T%C4%B0KASINDA_TARAFSIZLIK
 20. Mamadjonov A.B. ANALYSIS OF THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF" SOFT POWER"., Oriental Journal of History, Politics and Law 3 (03), 272-279. URL://<https://supportscience.uz/index.php/ojhpl/article/view/577/507>
 21. Mamadjonov A.B. THE DIRECTION AND PROSPECTS OF THE ORGANIZATION OF TURKISH STATES IN UZBEKISTAN’S FOREIGN POLICY., ISLOM TAFAKKURI 2 (ISSN 2181-9572), 72-76
 22. Mamadjonov A.B. Turkiya tashqi siyosatida “yumshoq kuch” konsepsiyasining qo‘llanilish mexanizmlari va institutsional asoslari. UzMU xabarları 1 (1.2. 1), 136-139
 23. Mamadjonov A. THE TURNING POINT OF THE FOREIGN POLICY OF THE REPUBLIC OF TURKIYE: TURNING EAST. THE USA JOURNALS THE AMERICAN JOURNAL OF POLITICAL SCIENCE LAW AND CRIMINOLOGY



(ISSN- 2693-0803). VOLUME 06 ISSUE10. PAGE NO.: - 23-29.

<https://www.theamericanjournals.com/index.php/tajpslc/article/view/5529/5118>

OZARBAYJONNING DEZINFORMATSIYAGA QARSHI KURASHISH TAJRIBASI

RUHSORA ELMURATOVA

O'qituvchi, TDSHU

Annatsiya: Ushbu maqolada Ozarboyjon davlatida dizinformatsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi taxliliga bag'ishlanadi. Unda Ozarboyjon dezinformatsiyaga qarshi kurashishda keng qamrovli yondashuvdan foydalanganligi jumladan, qonunchilik va Davlat xavfsizlik xizmati faoliyati kabi davlat choralari masalasi ko'rib chiqiladi. Maqolada ta'kidlanishicha, Dezinformatsiya bugungi kunda xavfli darajaga yetganligi va ham milliy, ham global xavfsizlikka tahdid solayotganligi Dezinformatsiya matbuot erkinligi va matbuotning asosiy tamoyillariga putur yetkazadi, shuningdek vaziyat va ichki muammolar tufayli Ozarboyjon siyosatining asosiy ustuvor muammolaridan biri hisoblanadi. Shuni nazarda tutgan holda, "Soxta rivoyatlarni fosh qilish: dezinformatsiyaga qarshi kurash" deb nomlangan Global Media Forumlari tashkillashtirilib, ishtirokchilarni birlashtirgan forumdagi panel sessiyalarida dezinformatsiyaga qarshi kurash, sun'iy intellektning voqelikka ta'siri, ommaviy axborot vositalari va dezinformatsiya, media savodxonligini oshirish, iqlim harakati va ommaviy axborot vositalari kabi mavzular muhokamalarida davlat rahbarlarining ishtiroki etiborni tortadi. Ushbu tadbirda dezinformatsiya insoniyat tarixida juda keng tarqalgan hodisa ekanligi va axborot kuchli vosita bo'lib bunda asosiy savol bu ma'lumotdan qanday foydalanish mumkinligi masalasi o'taga tashlangani va uni echish masalasi bo'lib, xavfli tomoni dezinformatsiya manipulyatsiya orqali Ozarbayjon xalqiga qarshi psixologik urushda asosiy qurolga aylanib borayotganligi ta'kidlanadi.

Tadqiqot orqali davlat axborot xavfsizligini saqlash davlat va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlariga bog'liq bo'lgan mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan. Tizimli va qiyosiy yondashuvni qo'llash orqali tadqiqot Ozarboyjon davlatining mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarini kengroq tushunish imkonini beradi. Ushbu maqola xalqaro munosabatlar, siyosatshunoslik va mintaqaviy tadqiqotlar sohasidagi olimlar va amaliyotchilar uchun qiziqarli bo'lib, Ozarboyjon strategik ustuvorliklari tajribasi haqida qimmatli fikrlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar. Davlat, jamiyat, siyosat, qonun, Axborot urushi, dezinformatsiya, xavfsizlik, mojaro, tahdid, muammo.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу борьбы с дезинформацией в Азербайджане. В ней рассматривается вопрос государственных мер, включая использование Азербайджаном комплексного подхода к борьбе с дезинформацией, в том числе законодательства и деятельности Службы государственной безопасности. В статье подчеркивается, что дезинформация сегодня достигла опасного уровня и угрожает как национальной, так и глобальной безопасности. Дезинформация подрывает свободу прессы и основополагающие принципы печати, а также является



одной из главных приоритетных проблем азербайджанской политики в силу сложившейся ситуации и внутренних проблем.

В этой связи были организованы Глобальные медиафорумы под названием «Разоблачение фейковых нарративов: борьба с дезинформацией», объединившие участников в панельных дискуссиях по таким темам, как борьба с дезинформацией, влияние искусственного интеллекта на реальность, СМИ и дезинформация, повышение медиаграмотности, борьба с изменением климата и СМИ. Примечательно участие глав государств в дискуссиях. Данное событие подчеркивает, что дезинформация является очень распространенным явлением в истории человечества, а информация — мощным инструментом. Главный вопрос заключается в том, как использовать эту информацию и как ее применять. Опасность дезинформации заключается в том, что она становится главным оружием в психологической войне против народа Азербайджана посредством манипуляций.

Исследование подчеркивает, что поддержание информационной безопасности государства также влияет на процессы региональной интеграции, которые зависят от сложных взаимоотношений между государством и обществом. Используя системный и сравнительный подход, исследование дает более широкое понимание усилий азербайджанского государства по обеспечению региональной стабильности. Данная статья будет интересна ученым и практикам в области международных отношений, политологии и региональных исследований и предоставляет ценные сведения об опыте реализации стратегических приоритетов Азербайджана.

Ключевые слова: государство, общество, политика, право, информационная война, дезинформация, безопасность, конфликт, угроза, проблема.

Abstract: This article analyzes the fight against disinformation in Azerbaijan. It examines government measures, including Azerbaijan's comprehensive approach to combating disinformation, including legislation and the activities of the State Security Service. The article emphasizes that disinformation has reached dangerous levels and threatens both national and global security. Disinformation undermines press freedom and fundamental principles of the press and is a key priority for Azerbaijani policy due to the current situation and domestic challenges. In this regard, Global Media Forums were organized under the title "Exposing Fake Narratives: Countering Disinformation," bringing together participants in panel discussions on topics such as countering disinformation, the impact of artificial intelligence on reality, media and disinformation, improving media literacy, and combating climate change and the media. The participation of heads of state in the discussions is noteworthy. This event highlights the pervasiveness of disinformation throughout human history, and the power of information in its application. The key question is how to harness this information and apply it. The danger of disinformation lies in its potential as a key weapon in the psychological warfare waged against the people of Azerbaijan through manipulation.

The study emphasizes that maintaining state information security also impacts regional integration processes, which depend on complex state-society relationships. Using a systemic and comparative approach, the study provides a broader understanding of the Azerbaijani state's efforts to ensure regional stability. This article will be of interest to scholars and practitioners in the fields of international relations, political science, and regional studies, and provides valuable insights into Azerbaijan's experience in implementing its strategic priorities.



Key words: *state, society, politics, law, information war, disinformation, security, conflict, threat.*

1970-yillar Xitoydagi iqtisodiy va boshqaruv inqirozi islohotlar o'tkazish zaruratining dolzarbligini oshirgan. Madaniy inqilob davrida ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi zaiflashgan, davlat boshqaruvi vertikalida siyosiy kampaniyalar ustuvor bo'lib, ratsional rejalashtirish va javobgarlik mexanizmi buzilgan. 1976-yilda Mao Szedun vafotidan keyin hokimiyatdagi elitar boshqaruvning qayta taqsimoti va "eski gvardiya"ning chetlatilishi mamlakatga strategik yo'nalishni qayta ko'rib chiqish imkonini bergan. Xususan, 1978-yil dekabrda Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining 11-chaqiriq 3-plenumi tarixiy burilish sifatida baholangan. Ya'ni partiya faoliyati iqtisodiy bunyodkorlik va modernizatsiyaga qaratilgan, "ochiq eshiklar" siyosati va bozor instrumentlarini tatbiq etishga yo'l ochilgan. Shu nuqtadan boshlab modernizatsiya Xitoyda faqat iqtisodiy dastur emas, balki siyosiy legitimlikni qayta qurish va davlatning funksional qiyofasini o'zgartirish loyihasiga aylangan.

Xitoyda "to'rt modernizatsiya" (qishloq xo'jaligi, sanoat, mudofaa, fan-texnika) shiori iqtisodiy strategiyaning ramziy ifodasi bo'lib xizmat qilgan. Biroq Xitoyga xos sotsializm konsepsiyasi bozor iqtisodi mexanizmlarini kengaytirish ma'muriy tartiblar, kadrlar mas'uliyati, markaz-hudud vakolatlari va huquqiy me'yorlar tizimini qayta ko'rib chiqishni taqozo etgan. Bunda Xitoy jamiyatidagi siyosiy va huquqiy islohotlar iqtisodiy islohotlarning qo'shimcha komponenti emas, balki uning tashkiliy sharti sifatida birinchi o'ringa chiqqan².

Xitoy raisi Den Syaopin davrida "Xitoyga xos sotsializm" tushunchasi mafkuraviy muhokamadan davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ushbu konsepsiyaning asosiy vazifasi bozor munosabatlarini kengaytirishni sotsializm g'oyalariga qarshi qo'ymasdan, uni sotsialistik qurilishning instrumental bosqichi sifatida asoslash, shuningdek, Kommunistik partiyaning yetakchi roli va davlatning markazlashgan boshqaruv funksiyalarini modernizatsiya uchun barqarorlik sifatida legitimlashtirish bo'lgan. Konsepsiya doirasida "bozor" va "reja" qarama-qarshiligi emas, balki ularning davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi haqidagi tezis shakllantirilgan. Mazkur yondashuv amaliy jihatdan maxsus iqtisodiy zonalar, eksportga yo'naltirilgan sanoat siyosati, davlat korxonalarini isloh qilish va qishloq xo'jaligida uy xo'jaligi mas'uliyati tizimi kabi institutlar orqali sinovdan o'tgan.

¹ North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990.

² Хантингтон С. Политический порядок в меняющихся обществах / пер. с англ. В.Р.Рокитянского. — М.: Прогресс-Традиция, 2004. — 480 с.



Siyosiy nuqtai nazardan u partiya-davlat apparatining nazorat uslubini institutsionallashtirishga xizmat qilgan¹. Den Syaopinning “daryodan o‘tayotganda toshlarni paypaslab yurish” tamoyili islohotlarning tadrijiy xususiyatini anglatardi². Bu strategiyani siyosiy mazmuni shundaki, islohotlarning legitimligi farovonlik, rivojlanish, tartibning mustahkamlanishida erishilgan natijalar orqali asoslanadi, qaror qabul qilish esa markazlashgan va muayyan darajada erkinlik berilgan mexanizmlarga tayangan. Bunda markaz davlatning strategik yo‘nalishlarini belgilaydi, hududlar esa amaliy instrumentlarni tatbiq etadi.

Mafkuraviy jihatdan “Xitoyga xos sotsializm” konsepsiyasi sotsializmni davlat mulkining ustuvorligi bilan chegaralab qo‘ymasdan, uni milliy mustaqillik, ijtimoiy barqarorlik va davlatning rivojlantiruvchi funksiyalari majmuasi sifatida talqin qilgan. Shu asosda partiya modernizatsiyani boshqarish vakolatini o‘zining tarixiy missiyasi sifatida ta’riflagan. Bunday ta’rif “sovuq urush”ning tugashi, globallashuv, savdo-sotiq mojarolari kabi tashqi siyosiy muhit keskin o‘zgargan davrlarda siyosiy safarbarlik va milliy birdamlik ritorikasi bilan uyg‘unlashgan. Konsepsiyani institutsional izchilligi partiya syezdlari qarorlari, davlat dasturlari va qonunchilik islohotlari orqali ta’minlangan. 1980-1990-yillarda davlat boshqaruvi ratsionallashtirish, ma’muriy funksiyalarni ixtisoslashtirish, kadrlar tayinlovi tizimini tartibga solish, huquqiy bazani kengaytirishga qaratilgan qator qarorlar qabul qilingan. Bunda huquqiy davlat iborasi G‘arb davlatlari modelidagi liberal konstitutsionalizm ma’nosida emas, balki davlat boshqaruvi me’yorlashuvi va qonunchilik orqali ma’muriy ixtiyoriylikni cheklash ma’nosida ishlatilgani e’tiborga loyiq.

Xitoydagi siyosiy modernizatsiyaning konseptual parametrlari Den Syaopinning 1980-yil 18-avgustda partiya va davlat rahbarlik tizimini isloh qilish haqidagi ma’ruzasida aniq bayon etilgan. Unda modernizatsiya uchun boshqaruv uslubini o‘zgartirish, qaror qabul qilishda jamoa ishtirokini kuchaytirish, kadrlar almashinuvi va mas’uliyatni oshirish talab etilgan. Shu asosda partiya siyosiy qaror qabul qilishni ma’muriy detallashtirish emas, balki strategik yo‘nalishni belgilash va nazorat qilish orqali ta’minlashga intilgan. Biroq amaliyotda partiya va davlat funksiyalarini ajratish, davlat apparati samaradorligini oshirish hamda partiya nazoratini institutsional shaklga solish orqali amalga oshirilgan. Masalan, 1980-1990-yillar davlat organlarini optimizatsiya qilish jarayoni ma’muriy bo‘linmalar tarkibini ixchamlashtirish, idoralararo takror funksiyalarni qisqartirish, iqtisodiy regulatsiyada qoidalariga tayanishni kuchaytirish ko‘zlagan. Shu bilan birga, partiya kadrlar siyosati va intizom nazorati vositasida asosiy yo‘nalishlarni o‘z tasarrufida saqlab qolgan.

¹ Heilmann S. Policy Experimentation in China’s Economic Rise // *Studies in Comparative International Development*. — 2008. — Vol. 43, No. 1. — P. 1–26.

² Дэн Сяопин. Строительство социализма с китайской спецификой / пер. с кит. — М.: Наука, 1997. — 364 с.



“Xitoyga xos sotsializm” konsepsiyasi bo‘yicha amalga oshirilgan modernizatsiya jarayonida kadrlar siyosati markaziy institutsional kanal bo‘lib qolgan. Rahbar kadrlarning bilim darajasiga qo‘yiladigan talablar, davlat xizmati martabalari bo‘yicha rotatsiya, mahalliy va markaziy tajriba almashinuvi partiya-davlat apparatini professionallashtirishga xizmat qilgan. Ushbu holat tadqiqotchilar tomonidan “meritokratik byurokratiya” modeli sifatida talqin qilingan¹.

Xitoy Kommunistik partiyasi tizimining ichki institutsionallasuvi bo‘yicha tadqiqotlarda Endryu Natanning “avtoritar barqarorlik” haqidagi tezi muhim o‘rin tutadi. Xususan, uning nuqtai nazaricha, Xitoyda elita rotatsiyasi, me‘yoriylashgan tayinlovlar va fraksion muvozanat kabi omillar tuzumning moslashuvchanligini oshirgan. Bunda “Xitoyga xos sotsializm” mafkuraviy shior emas, balki institutlar barqarorligini ta‘minlovchi bo‘lgan². Shuningdek, mahalliy boshqaruv darajasida aholini tashkil etishning ayrim shakllari (qishloq va shahar aholisi qo‘mitalari) institutsionallashtirildi; bu, bir tomondan, ijtimoiy muammolarni “pastdan” hal etishga, ikkinchi tomondan esa partiya-davlatning hududiy nazoratini kuchaytirishga xizmat qildi. Xitoy tajribasida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish liberal demokratiyaga xos mustaqil institut emas, balki davlat-ijtimoiy boshqaruvning qo‘shimcha zvenosi sifatida shakllangan.

Siyosiy-huquqiy modernizatsiya, ayniqsa, iqtisodiy o‘zgarishlar bilan birga borganida, qonuniylik va tartib masalasini kun tartibiga olib chiqdi. Bunda qonun ustuvorligi tushunchasi ikki xil ma‘noda ishlatilgan: birinchisi, davlat boshqaruvini me‘yorlashtirish (qonun orqali boshqarish), ikkinchisi, konstitutsion qonuniylik ustuvorligini ta‘minlash. Bunda Xitoyda birinchi yo‘nalish sezilarli darajada rivojlangan bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish siyosiy nazorat va xavfsizlik borasidagi munozaralarga tortilgan.

Siyosiy legitimlikni tahlil qilishda M.Veber³ ilgari surgan konseptual yondashuvlar metodologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlarga ko‘ra, legitimlik na faqat qo‘rquv yoki odat natijasi bo‘lib qolmay, balki qonuniy tartibga solingan qoidalar, umume‘tirof etilgan qadriyatlarga muvofiqlik va amaliy tasdiqning uyg‘un birligidan iboratdir. Xitoy kontekstida dastlabki davrda legitimlikning asosiy manbai inqilobiy xarizma va milliy mustaqillik g‘oyasi bo‘lgan. Modernizatsiya jarayonida esa bu manba asta-sekin samaradorlikka asoslangan legitimlik bilan to‘ldirilib bordi.

¹ Vogel E.F. *Deng Xiaoping and the Transformation of China* / – Cambridge: Harvard University Press, 2011. – 876 p.

² Nathan A. J. *Authoritarian Resilience* // *Journal of Democracy*. – 2003. – Vol. 14, No. 1. – P. 6-17.

³ Вебер М. *Избранные произведения* / пер. с нем.; сост., общ. ред. и послесл. Ю.Н.Давыдова. – М.: Прогресс, 1990. – 808 с.



Samaradorlikka asoslangan legitimlik, avvalo, iqtisodiy o'sish, kambag'allikning qisqarishi, infratuzilmaning rivojlanishi va ijtimoiy xizmatlar doirasining kengayishi kabi ko'rsatkichlarda namoyon bo'lgan. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 1978-yildan buyon Xitoyda 800 milliondan ziyod aholi kambag'allikdan chiqarilgan¹. Bunday holat modernizatsiyaning ijtimoiy bazasini kengaytirgan va partiya-davlat legitimligining samaradorligini mustahkamlashga xizmat qilgan asosiy omillardan biriga aylangan. Biroq natija orqali legitimlikning o'zi yetarli emas. Chunki iqtisodiy o'sish sur'ati pasayganda yoki tengsizlik keskinlashganda legitimlik muammosi yana dolzarblashadi. Shu bois Xitoyda legitimlikning ikkinchi manbai bo'lmish milliy davlatchilik va milliy tiklanish ritorikasi, tashqi siyosiy raqobat sharoitida suverenitet va xavfsizlikni markazga qo'yish tendensiyasi kuchaydi. Konsepsiyaning siyosiy ta'siri shundaki, u ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni barqaror rivojlanish maqsadlar bilan bog'lab, ijtimoiy mobilizatsiyani mafkuraviy jihatdan ta'minlagan.

Protseduraviy-me'yoriy asoslar mustahkamlanishi legitimlikning yana bir muhim tayanchi sifatida ko'rsatilgan. Bu jarayon davlat xizmatlari sifati oshishi, byurokratik standartlarning joriy etilishi, korrupsiyaga qarshi kurash keskinlashuvi, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish mexanizmlari takomillashuvi orqali namoyon bo'lgan. Xususan, 2023-yilda 610 mingdan ziyod shaxs intizomiy javobgarlikka tortilgan. Bu raqam partiya-davlatning ichki tozalanish siyosatiga jiddiy yondashayotganini va byurokratik apparat ustidan nazoratni legitimlikni mustahkamlash vositasiga aylantirganini ko'rsatadi. Ammo bunday kampaniyalar huquqiy qat'iylik va siyosiy maqsadga bo'ysundirish o'rtasidagi chegara masalasida ilmiy munozaralarni yuzaga keltirgan². Partiya a'zolari sonining uzluksiz o'sishi ham institutsional legitimlik indikatori sifatida qaralishi mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda Xitoy Kommunistik partiyasi a'zolari soni 100 milliondan oshgan. Bunday tendensiya partiyaning kadrlar zaxirasini kengaytirish bilan birga, uning jamiyatdagi o'rnini oshirgan va jamoat tashkilotlari, davlat korxonalari hamda mahalliy boshqaruvni kadrlar orqali bog'lash imkonini kuchaytirgan³. "Xitoyga xos sotsializm" konsepsiyasi legitimlik manbalarini bir nuqtada jamlovchi sifatida xizmat qilgan. Jumladan, u inqilobiy merosni (tarixiy missiya), natijaviy legitimlikni (farovonlik va tartib), milliy legitimlikni (suverenitet va status) va protsedurali elementlarni (intizom, standartlar) yagona siyosiy diskursga birlashtirishga imkon bergan. Bu Xitoydagi modernizatsiya jarayonida siyosiy kelishuvning o'rnini bosuvchi mexanizm sifatida ishlagan.

¹ World Bank. More than 800 million people lifted out of poverty in China (overview/press materials on poverty reduction). — URL: <https://www.worldbank.org/en/country/china/overview>.

² CGTN. China's anti-graft campaign: top discipline body reported 610,000 punished in 2023 (news/summary). — 2024. — URL: <https://news.cgtn.com/>.

³ ECNS. CPC membership exceeded 100 million; Organization Department statistical data cited (news report). — 2025. — URL: <http://www.ecns.cn/>.



Urbanizatsiya va ichki migratsiya Xitoy modernizatsiyasining eng muhim demografik-iqtisodiy jarayonlaridan biriga aylangan. Xususan, 1978-yilda shahar aholisining ulushi 17,9 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2000 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 36 foizdan oshgan¹. Bunday jadal o'zgarish mehnat bozori, ijtimoiy xizmatlar tizimi va shahar boshqaruvi institutlariga kuchli bosim o'tkazgan. 2023-yil oxiriga kelib shaharlashuv darajasi 66,16 foizga yetgan². Shunday qilib, urbanizatsiya hozirgi kunda Xitoy iqtisodiy modelida ishchi kuchi mobilligini ta'minlash va ichki iste'mol bozorini kengaytirishning asosiy omillaridan biri sifatida muhim o'rin tutmoqda.

Institutsional o'zgarishlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda ham o'z aksini topmoqda. Xususan, Xitoy Xalq Respublikasi Milliy statistika byurosi 2023-yil uchun o'tkazilgan iqtisodiy ro'yxatga olish natijalariga asoslanib, mazkur yildagi yalpi ichki mahsulot hajmini 129,4 trln yuanga qayta baholagan³. Bunday qayta baholashlar iqtisodiy o'sish sur'atlari yuzasidan olib borilayotgan muhokamalarda metodologik ehtiyotkorlikni taqozo etadi. Shu bilan birga, ular davlatning hisob-kitob standartlarini takomillashtirish va iqtisodiy tarkibni qayta tasniflash borasidagi izchil sa'y-harakatlaridan ham dalolat beradi. Empirik ko'rsatkichlar modernizatsiyaning yutuqlarini namoyon etish bilan birga, uning yuzaga keltirgan yangi muammolarini ham oshkor qilmoqda. Jadal shaharlashuvning ijtimoiy oqibatlari, ya'ni uy-joy, sog'liqni saqlash va ta'lim infratuzilmasiga tushayotgan yuk, shuningdek, hududlararo tengsizlik, ekologik muammolar va energiya xavfsizligi kabi masalalar siyosiy qarorlar qabul qilishda uzoq muddatli cheklovchi omillarga aylangan. Shu bois Xitoyga xos sotsializm konsepsiyasi ushbu muammolarni ijtimoiy adolat va umumiy farovonlik g'oyalari orqali siyosiy kun tartibiga kiritishga imkon beruvchi mafkuraviy asosga aylanib bormoqda.

Shu o'rinda Xitoydagi modernizatsiya boshqa Sharq davlatlari tajribasi bilan taqqoslaganda, Xitoy modeli Yaponiya, Koreya Respublikasi, Tayvan, Singapur kabi mamlakatlar tajribasi iqtisodiy o'sishda davlatning faol rolini tasdiqlagan⁴. Biroq Xitoy modeli ulardan ikki jihat bilan farqlanadi: birinchidan, u bir partiyali partiya-davlat tizimiga tayanadi; ikkinchidan, sotsialistik mafkura va inqilobiy legitimlik merosi iqtisodiy pragmatizm bilan uyg'unlashgan. Shu ma'noda, Xitoy xususiyati

¹ Wang F. Urbanization in China: A Demographic–Economic Perspective // Peking University, CCAP Working Paper. – 2015. URL: https://iussp.org/sites/default/files/event_call_for_papers/Urbanization%20in%20China%20Wang%20Fang.pdf.

² Reuters. China's urbanisation rate reached 66.16% at end-2023, NBS data cited (news report). — 17 March 2024. — URL: <https://www.reuters.com/>.

³ Reuters. China revised 2023 GDP to 129.4 trillion yuan after economic census (news report). — 26 December 2024. — URL: <https://www.reuters.com/>

⁴ Хантингтон С. Политический порядок в меняющихся обществах / пер. с англ. В.П.Рокитянского. —М.: Прогресс-Традиция, 2004. — 480 с.



tushunchasi iqtisodiy siyosatdan ko'ra ko'proq siyosiy institutlar shakli va legitimlikni qonuniylashtirish mexanizmlariga bog'liq bo'lgan. Ta'kidlash lozimki, Koreya Respublikasi va Tayvanda iqtisodiy o'sish ma'lum bosqichga yetganidan so'ng jamiyatni demokratlashtirish jarayonlariga turtki bergan bo'lsa, Singapurda bir partiya ustunligi saqlanib qolgan. Xitoyda iqtisodiy o'sish institutsional ochiqlikka emas, aksincha, partiyaviy nazorat va xavfsizlik tizimini yanada mustahkamlash tendensiyasiga olib kelgan. Modernizatsiyaning siyosiy oqibatlari tashqi omillar, elita strategiyasi va institutlarning moslashuvchanlik darajasiga bog'liq bo'lgan ko'p qirrali jarayon sifatida baholanishi lozim.

Xulosa. “Xitoyga xos sotsializm” konsepsiyasi XXR modernizatsiyasining markaziy siyosiy-institutsional ramkasi sifatida ishlaydi. U bir vaqtning o'zida iqtisodiy pragmatizmni mafkuraviy asoslash, partiyaning yetakchi rolini qonuniylashtirish, davlat boshqaruvini ratsionallashtirish va legitimlik manbalarini diversifikatsiya qilish vazifalarini birlashtiradi. Bu holat modernizatsiya nazariyalaridagi “iqtisodiy o'sish-demokratlashuv” trayektoriyasi universal emasligini yana bir bor ko'rsatadi.

Xitoy tajribasi modernizatsiya jarayonida institutsional salohiyat muhim ahamiyatga molikligini ko'rsatdi. Amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyani boshqarish uchun kuchli tashkiliy tuzilmalar, samarali kadrlar tizimi va nazorat mexanizmlari joriy etilgan. Shu bilan birga, siyosiy raqobat mexanizmlari masalasida tizimli cheklovlar saqlab qolingan. Bu sharoit samaradorlik va qonuniylik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni Xitoy rahbariyati siyosiy kun tartibining murakkab va nozik nuqtalaridan biriga aylantirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вебер М. Избранные произведения / пер. с нем.; сост., общ. ред. и послесл. Ю.Н.Давыдова. – М.: Прогресс, 1990. – 808 с.
2. Дэн Сяопин. Строительство социализма с китайской спецификой / пер. с кит. – М.: Наука, 1997. – 364 с.
3. Парсонс Т. О социальных системах / под ред. В.Ф.Чесноковой и С.А.Белановского. – М.: Академический Проект, 2002. – 832 с.
4. Хантингтон С. Политический порядок в меняющихся обществах / пер. с англ. В.Р.Рокитянского. – М.: Прогресс-Традиция, 2004. – 480 с.
5. Eisenstadt S.N. Multiple Modernities // Daedalus. – 2000. – Vol. 129, No. 1. – P. 1-29.
6. Heilmann S. Policy Experimentation in China's Economic Rise // Studies in Comparative International Development. – 2008. – Vol. 43, No. 1. – P. 1-26.
7. Lipset S.M. Political Man: The Social Bases of Politics. – Garden City, NY: Doubleday, 1960.
8. Nathan A. J. Authoritarian Resilience // Journal of Democracy. – 2003. – Vol. 14, No. 1. – P. 6-17.



9. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
10. Rostow W.W. The Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto. – Cambridge: Cambridge University Press, 1960.
11. Vogel E.F. Deng Xiaoping and the Transformation of China / – Cambridge: Harvard University Press, 2011. – 876 p.
12. Wang F. Urbanization in China: A Demographic–Economic Perspective // Peking University, CCAP Working Paper. – 2015. URL: https://iussp.org/sites/default/files/event_call_for_papers/Urbanization%20in%20China%20Wang%20Fang.pdf.
13. CGTN. China's anti-graft campaign: top discipline body reported 610,000 punished in 2023 (news/summary). – 2024. – URL: <https://news.cgtn.com/>.
14. ECNS. CPC membership exceeded 100 million; Organization Department statistical data cited (news report). – 2025. – URL: <http://www.ecns.cn/>.
15. Reuters. China revised 2023 GDP to 129.4 trillion yuan after economic census (news report). – 26 December 2024. – URL: <https://www.reuters.com/>
16. Reuters. China's urbanisation rate reached 66.16% at end-2023, NBS data cited (news report). – 17 March 2024. – URL: <https://www.reuters.com/>.
17. World Bank. More than 800 million people lifted out of poverty in China (overview/press materials on poverty reduction). – URL: <https://www.worldbank.org/en/country/china/overview>.

KOREYA RESPUBLIKASI SIYOSIY PARTIYALARINI FAOLLASHTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI

SHOXRUX SALIMOV

Mustaqil tadqiqotchi, TDSHU

Annotatsiya: Maqolada Koreya Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlarining siyosiy partiyalarning shakllanishi va faoliyatiga ta'siri tahlil etilgan. Tadqiqotda fuqarolik jamiyatining nazariy asoslari, uning davlat va siyosiy tizim bilan o'zaro munosabatlari hamda demokratik jarayonlardagi roli ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Yapon mustamlakachiligi va harbiy rejimlar davrida fuqarolik jamiyatining cheklanishi, 1960-1980-yillarda urbanizatsiya va o'rta sinfning shakllanishi bilan bog'liq ijtimoiy o'zgarishlar tahlil qilingan. 1987 yilgi demokratik harakatdan so'ng siyosiy partiyalar va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar kuchayishi, nodavlat notijorat tashkilotlari, talabalar harakatlari hamda diniy birlashmalarning demokratik jarayonlarni qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati yoritilgan. Koreya tajribasida fuqarolik jamiyatining partiyalar orqali davlat boshqaruviga ta'sir etish mexanizmlari tahlilida tarixiy va institusional yondashuvlar qo'llanilgan.



Kalit so'zlar: Koreya Respublikasi, fuqarolik jamiyati, siyosiy partiyalar, demokratik jarayonlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, talabalar harakati, diniy tashkilotlar.

Аннотация: В статье анализируется влияние институтов гражданского общества на формирование и деятельность политических партий в Республике Корея. В исследовании рассматриваются теоретические основы гражданского общества, его взаимодействие с государством и политической системой, а также роль в демократических процессах. Особое внимание уделено ограничениям гражданского общества в период японской колонизации и военных режимов, а также социальным изменениям, связанным с урбанизацией и формированием среднего класса в 1960-1980-е годы. После демократического движения 1987 года прослеживается усиление взаимодействия между политическими партиями и обществом, а также значимость неправительственных некоммерческих организаций, студенческих движений и религиозных объединений в поддержке демократических процессов. В исследовании применяются исторический и институциональный подходы для анализа механизмов влияния гражданского общества на государственное управление через партии в корейском контексте.

Ключевые слова: Республика Корея, гражданское общество, политические партии, демократические процессы, неправительственные некоммерческие организации, студенческое движение, религиозные организации.

Abstract: The article analyzes the impact of civil society institutions on the formation and functioning of political parties in the Republic of Korea. The study examines the theoretical foundations of civil society, its interaction with the state and the political system, as well as its role in democratic processes. Particular attention is given to the restrictions on civil society during the period of Japanese colonization and military regimes, as well as to the social changes related to urbanization and the emergence of the middle class in the 1960s-1980s. Following the democratic movement of 1987, the interaction between political parties and society intensified, while the significance of non-governmental organizations, student movements, and religious associations in supporting democratic processes was highlighted. The analysis employs historical and institutional approaches to explore the mechanisms through which civil society influences state governance via political parties in the Korean context.

Keywords: Republic of Korea, civil society, political parties, democratic processes, non-governmental organizations, student movement, religious organizations.

Kirish. Fuqarolik jamiyatining faoliyat yuritishi demokratik taraqqiyotning ajralmas sharti hisoblanadi. Chunki aynan u siyosiy faollik uchun ijtimoiy asos yaratadi, ishtirok etishga bo'lgan talabni shakllantiradi va huquq hamda erkinliklarni kengaytirish yo'nalishida hokimiyatga bosim o'tkazadi. Bu jarayonda partiyaviy tizim alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki u jamiyat va davlat o'rtasida vositachilik qiladi hamda turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini aks ettiradi. Koreya Respublikasida fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayoni partiyaviy tuzilmaning transformatsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Aynan ijtimoiy harakatlar siyosiy partiyalarning faollashuviga va ularning hokimiyat quroli darajasidan haqiqiy vakillik institutlariga aylanishiga ko'maklashdi.



Biroq Koreya Respublikasi keysining identikligi shundan iborat ediki, uzoq vaqt davomida avtoritar tuzumlarning hukmronligi, partiyalarning yirik chebol konsernlariga iqtisodiy qaramligi va siyosiy tizimning bo'linib ketganligi ushbu vazifani to'laqonli bajarilishiga to'sqinlik qildi. Demak, fuqarolik jamiyati institutlari siyosiy partiyalarni faollashtirish va ularning haqiqiy siyosiy subyektga aylanishidagi roli muhim hisoblanadi. Mazkur jarayondagi fuqarolik jamiyati institutlarining rolini anglash avtoritarizm davridan demokratiyaga o'tish sharoitida jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmini tushunishga imkon beradi.

Siyosatshunoslikda fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqil bo'lgan institutlar majmui sifatida izohlanadi. U ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va qadriyatlarini ifodalaydi. Klassik yondashuvlarga ko'ra, u hokimiyatga qarshi muvozanat¹, gegemonlik uchun kurash maydoni² hamda ijtimoiy kapital manbai³ sifatida xizmat qiladi. Koreya Respublikasida fuqarolik jamiyatining shakllanishi mamlakatning tarixiy tajribasi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga ega. G'arbiy Yevropa davlatlaridan farqli o'laroq, bu yerda modernizatsiya jarayoni institutlarning izchil rivojlanishi bilan birga kechmagan. Koreya Respublikasi bir qator jiddiy to'siqlarga, xususan Yaponiya mustamlakachilik merosi, yarimorolning bo'linishi va yirik davlatlarning tashqi siyosiy bosimiga duch keldi. Ushbu omillar uzoq vaqt davomida fuqarolik jamiyatining mustaqil shakllanishini cheklab qo'ydi va uni davlatga qaram holda rivojlanishga majbur qildi.

Shunga qaramay, 1960-yillardan boshlab tezkor iqtisodiy o'sish va urbanizatsiya ijtimoiy tuzilmani tubdan o'zgartirdi. Qishloq mayda burjuaziyasining zaiflashuvi va yangi o'rta sinfnining shakllanishi demokratlashtirish uchun ijtimoiy asos yaratdi. Aynan 1980-1990-yillar davomida Koreya Respublikasi eng chuqur siyosiy va ijtimoiy transformatsiyalarni boshdan kechirdi hamda rivojlangan fuqarolik jamiyati modeliga tomon harakatini belgilab berdi.

Zamonaviy fuqarolik sektorining ildizlari ham Koreya portlarining ochilishi, ham Yaponiya okkupatsiyasidan keyingi ozodlik davri bilan bog'liq. Biroq mustaqil ijtimoiy harakatlarning shakllanishi "sovuq urush" mafkuraviy qarama-qarshiligi va mamlakatning bo'linishi tufayli murakkablashdi. Natijada Koreya Respublikasida fuqarolik jamiyati kuchli avtoritar davlat bosimi ostida rivojlandi, bu esa unga o'ziga xos qarama-qarshilik va siyosiy kontekstdan qaramlik xususiyatini berdi.

Koreya urushidan so'ng fuqarolik jamiyatining rivojlanishi Li Sin Man, Pak Chon Xi va Chon Du Hvan avtoritar rejimlari tomonidan qat'iy nazorat ostiga olindi. Bosimlarga qaramay, aynan 1980-yillarda demokratik kuchlar shakllandi, uning

¹ Токвиль, Алексис де. Демократия в Америке. Пер. с франц. - Москва: Прогресс, 1992. Т. 1. С. 154-156.

² Грамши, Антонио. Тюремные тетради. Пер. с итал. - Москва: Издательство политической литературы, 1991. Т. 2. С. 47-50.

³ Патнэм, Роберт. *Чтобы демократия сработала: Гражданские традиции в современной Италии*. Пер. с англ. - Москва: Ad Marginem, 1996. С. 85-89.



kulminatsiyasi 1987-yil iyun oyidagi ommaviy namoyishlar bo'ldi. Shu davrdan boshlab fuqarolik jamiyati yangi turtki oldi, biroq keyinchalik harakat turli sohalarga bo'linib ketdi¹.

Iqtisodiy modernizatsiya o'z mulkiga ega bo'lgan va siyosiy barqarorlikka yo'naltirilgan keng shaharliklar qatlamini shakllantirdi². Ushbu qatlam demokratlashtirish uchun ijtimoiy baza bo'lib xizmat qildi va radikal oqimlarga to'siq bo'ldi. Demokratiya shiorlari ostida ijtimoiy guruhlarining koalitsiyasi rivojlanishi islohotlarning barqarorligini ta'minladi, intellektual va texnologik sohaga jalb qilingan shaharlik qatlamlar esa shaxs qadr-qimmati va huquq-tartibot qadriyatlariga asoslangan fuqarolik jamiyati salohiyatini yanada kuchaytirdi.

Koreya Respublikasida fuqarolik jamiyatining rivojlanishi partiyaviy tizim evolyutsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'ldi, u uzoq vaqt davomida to'laqonli vakillik instituti emas, balki hokimiyatning quroli sifatida shakllandi. 1945-yilgi ozodlikdan keyin tuzilgan dastlabki partiyalar aniq platforma va ijtimoiy bazaga ega emas edi, bu esa Li Sin Man boshchiligidagi Liberal partiyaning hukmronligi va muxolif Demokratik partiyaning shakllanishida namoyon bo'ldi. 1961-yildagi harbiy to'ntarish vaqtincha partiyaviy faoliyatni taqiqladi, biroq oradan ko'p o'tmay Kim Chon Phil boshchiligidagi harbiylar Demokratik Respublikachi partiyasini tuzib, partiyaviy maydonni qayta tikladilar³. Garchi tizim avtoritar va muvozanatsizligicha qolgan bo'lsa-da shu paytdan boshlab muxolifat ziyolilar, talabalar va kasaba uyushmalari hisobiga asta-sekin kuchaya boshladi.

1980-yillarda Chon Du Hvan davrida ko'ppartiyaviylik faqat rasmiy darajada saqlanib qoldi. Konstitutsiya va partiyalar hamda fondlar to'g'risidagi qonunlar davlatning qat'iy nazoratini mustahkamlab, ro'yxatdan o'tish mezonlari, moliyalashtirish va mablag' manbalariga cheklovlarni belgilab berdi⁴. Muxolif kuchlar ta'sirining o'sishiga qaramay (masalan, 1985-yildagi saylovlarda Koreyaning yangi Demokratik partiyasi erishgan yutuqlar), ular bo'linib ketish va mafkuraviy zaiflik bilan yuzlashdilar. Bu ayniqsa avlodlararo nizoda yaqqol ko'rindi. Xususan, yoshlar radikal demokratlashtirishni talab qilgan bo'lsa, katta avlod barqarorlik va konfutsiychilik qadriyatlariga yo'naltirilgan edi.

1990-yillar boshiga kelib partiyaviy tizim yanada dinamik tus oldi. Ro De U va Kim Yon Sam boshchiligidagi Demokratik Liberal partiya, shuningdek, Kim De Jun atrofidagi birlashmalarni o'z ichiga olgan yangi partiyalar va koalitsiyalar paydo bo'ldi.

¹ Shin, Gi-Wook. "Protest Politics and the Democratization of South Korea". Stanford University Press, 2018.

² Chang, Kyung-Sup. "Compressed Modernity and Its Discontents: South Korean Society in Transition." *Economy and Society*, vol. 38, no. 2, 2009, pp. 364-389.

³ Павлова.И. "Партийная система Южной Кореи: от инструментов власти к институтам представительства", *Азиатский Вестник*, № 12, 2022, с. 101-120.

⁴ William Sung-Joo Han, "South Korea in 1987: The Politics of Democratization," *Asian Survey* 28, №. 1, 1988, 52-61.



Shu bilan birga, ishchi harakatlari, ekologik tashabbuslar, feministik ijtimoiy oqimlar kuchaydi, bu esa fuqarolik faolligi maydonining kengayganidan dalolatdir. 1997-yilda mehnat qonunchiligining qabul qilinishi fuqarolik jamiyatining davlatga demokratik qoidalarni qabul qildirish qobiliyatini mustahkamladi. Biroq nodavlat notijorat tashkilotlari va kasaba uyushmalarining tashkiliy zaifligi hamda partiyalarning chebol konsernlariga qaramligi “hokimiyat - jamiyat” munosabatlarining biryozlama xususiyatini saqlab qoldi. Biznesga nisbatan siyosatning o'zgartirilishi va kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy modernizatsiya, partiyaviy plyuralizm va jamoatchilik bosimi o'rtasidagi muvozanatni izlashga asoslangan avtoritar modeldan demokratik tizimga o'tishning bir qismiga aylandi¹.

Iqtisodiy modernizatsiya va urbanizatsiya demokratlashtirish uchun ijtimoiy baza yaratdi, biroq partiyaviy tuzilmalar uzoq vaqt hokimiyatning vositasi sifatida qolib keldi va faqat asta-sekin davlat hamda jamiyat o'rtasida vositachilik vazifasini bajara boshladi. Muhim burilish nuqtasi 1987-yilgi demokratik harakat bo'lib, undan so'ng ijtimoiy tashkilotlar va partiyalar siyosiy jarayonda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi.

XX-XXI asrlar chegarasida kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati alohida ahamiyat kasb etdi. Ular avvalgi norozilik va ijtimoiy harakatlardan barqaror siyosiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan fuqarolik jamiyatining mustahkam institutlariga aylandi.

Prezident Kim De Jun davrida avval qonun doirasidan tashqarida bo'lgan Koreya Kasaba Uyushmalari Konfederatsiyasi maqomi rasmiy ravishda tan olindi. Kasaba uyushmalari boshqa ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlikda bank va korporativ sektorni qayta tuzish siyosatiga qarshi faol chiqish qildilar. Ushbu siyosat ishdan bo'shatishlar, ish haqining qisqartirilishi va aholining turmush darajasining pasayishi bilan kechgan. Koreyalik tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bu o'n yillikdagi asosiy tendensiya ijtimoiy harakatlarning yanada institutsional xususiyat kasb etgan fuqarolik harakatlariga aylanishi bo'ldi².

Fuqarolik birlashmalarining o'sish sur'atlari hayratlanarli edi. Jumladan, 1997-yilda mamlakatda qariyb 3,3 ming tashkilot mavjud bo'lgan bo'lsa, 2000-yilga kelib ularning soni 6 mingga yetdi, hududiy bo'linmalarni hisobga olganda esa taxminan 20 mingtani tashkil etdi³. Ulardan qariyb mingtasi ijtimoiy sohada faoliyat yuritib, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, iqtisodiy va siyosiy masalalarni hal etish bilan shug'ullangan. Koreya Respublikasi yirik xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlarining

¹ Семенов.Ф. “Гражданское общество в современной Южной Корее: от массовых протестов до НПО-институций”. Москва: Институт Корейских Исследований, 2023. с. 45-68

² Джи-Ин Ли “한국 시민사회 구조 변동과 민주화 과정” (Корея фуқаролик жамиятидаги таркибий ўзгаришлар ва демократлаштириш жараёни), 시민사회와 NGO, том 23, № 1, 2025, с.15-38.

³ Булычев Г.Б. Политические системы государств Корейского полуострова. М., 2002. С.69.



faoliyat maydoniga aylandi. Bular orasida “Amnesty International”, “Xristian Yoshlar Assotsiatsiyasi”, “Greenpeace” va boshqa tashkilotlar mavjud bo‘lib, ularning ayrimlari hatto viloyat shaharlarida ham filiallar ochib, o‘n minglab a‘zolari birlashtirgan. Tashkilotlarga a‘zolik, odatda, erkin va ochiq bo‘lib, faqat tor doiradagi rahbariyat bundan mustasno edi.

Alohida e‘tiborga sazovor voqea sifatida 1999-yil oktyabr oyida Seul shahrida o‘tkazilgan Butunjahon nodavlat notijorat tashkilotlari konferensiyasini qayd etish mumkin. Unda 210 ta koreyalik birlashmalar qatnashdi. Ulardan 54 tasi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy yo‘nalishga ega edi, 29 tasi ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlarni, 30 tasi ayollar harakatlarini, 9 tasi ekologik tashkilotlarni, 12 tasi yoshlar harakatlarini, 5 tasi inson huquqlari himoyasi tashkilotlarini ifodalagan bo‘lsa, 34 tasi esa xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlarining filiallari sifatida faoliyat yuritgan¹. Bunday tarkib mamlakat ichidagi nodavlat notijorat tashkilotlarining umumiy taqsimotini ko‘p jihatdan aks ettiradi.

Bunday birlashmalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning faoliyatini nazorat qilish mahalliy boshqaruv ishlari va ma‘muriyat vazirligiga yuklatilgan bo‘lib, bu yerda maxsus bo‘linma faoliyat ko‘rsatgan. Prezident Kim De Jun davrida ijtimoiy tashkilotlarning davlat ishlariga ta‘siri kuchaydi. Deyarli har bir vazirlik nufuzli nodavlat tashkilotlari vakillaridan iborat maslahat kengashlariga ega bo‘lishga intildi. Shu davrda fuqarolik jamiyati hokimiyatning nafaqat muxolifi, balki siyosiy qarorlarni shakllantirishdagi teng huquqli hamkori sifatida ham qarala boshlandi.

Mamlakatdagi eng nufuzli kuchlardan biri keng qamrovli jamoatchilik birlashmalarini o‘zida mujassam etgan Adolatli Saylovlar uchun Koalitsiyasi edi. U saylovoldi kampaniyalari va saylov jarayonini monitoring qilishda faol ishtirok etdi va hokimiyat ustidan muhim institutsional nazorat mexanizmini shakllantirdi. Shuningdek, Koreya yarimorolidagi Amerika qo‘shinlari mavjudligiga qarshi chiqqan ko‘plab harbiy-siyosiy tashkilotlar hamda milliy birlashuv uchun harakatlar faol bo‘ldi. Ularning ayrimlari, jumladan, Qizil Xoch jamiyati, Shimol va Janub o‘rtasida ajralib qolgan oilalar uchrashuvlarini tashkil etishda muhim rol o‘ynadi, bu esa ularning faoliyatiga insonparvarlik tusini berdi.

G‘arb tomonidan “globallashuv” nomi bilan ilgari surilgan siyosatni tanqid qiluvchi jamoatchilik harakatlari ham faol edi. Ular buni nafaqat iqtisodiy mustaqillikka, balki koreys an‘anaviy qadriyatlariga ham tahdid sifatida ko‘rdi. Ularning tashabbusi bilan o‘tkazilgan aksiyalar bir qator normativ hujjatlarning qabul qilinishiga sabab bo‘ldi, bu esa nodavlat tashkilotlarning ichki siyosatni shakllantirishga ta‘sir ko‘rsatish qobiliyatidan dalolat beradi. Bunga yorqin misol sifatida 1999-yilda “Minimal turmush darajasini davlat tomonidan kafolatlash to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishini

¹ Zhiguo Wang, Li Yuzhen, “The Role and Impact of Korean Civil Society in the Development Process of Democratization in Korea”, *Solovyov Studies*, № 7, 2024, p. 90-96.



keltirish mumkin ¹. 1997-1998-yillardagi iqtisodiy inqirozdan so'ng nodavlat tashkilotlari koalitsiyalari koalitsiyalari petitsiyalar va media-kampaniyalar o'tkazdi, ekspert tahrirlarini tayyorladi va parlamentni lobbi qildi. Natijada, amaldorlarning "ixtiyoriga ko'ra" ko'rsatiladigan, aniq qoidalar va kafolatlar bo'lmagan ijtimoiy yordam o'miga, ehtiyojmandlik mezonlari aniq ko'rsatilgan va byudjetdan majburiy moliyalashtiriladigan minimal daromad olish qonuniy huquqi joriy qilindi.

Shu bilan birga, nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtasida, ayniqsa davlat grantlarini qo'lga kiritish uchun kurashda keskin raqobat kuzatildi. Hukumatning moliyaviy ko'magi, odatda, oshkora bo'lmagan holda amalga oshirilgani sababli, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro hamkorlik shakllari bo'yicha bahs-munozaralar yuzaga keldi. Yordam olmaydigan ayrim tashkilotlar to'g'ridan-to'g'ri davlat moliyalashtirishidan voz kechish tarafdori bo'lib, bunday qo'llab-quvvatlashni faqat bilvosita shaklda amalga oshirishni taklif qilgan. Masalan, soliq imtiyozlari ko'rinishida.

Bundan tashqari, nodavlat notijorat tashkilotlar orasida ularning faoliyatiga oid bir qator konseptual masalalar bo'yicha bahslar davom etdi. 1980-1990-yillarda ko'plab birlashmalar chinakam jamoat tashkiloti hokimiyatga muxolif bo'lishi lozim, aks holda uning mavjudligi mazmunini yo'qotadi, degan fikrga amal qilgan. Bu tendensiyalar Prezident Ro De U va qisman Kim Yon Sam davrida ayniqsa yorqin namoyon bo'lgan. Ammo 2000-yillarda tashkilotlarning katta qismi davlat bilan konstruktiv hamkorlikni afzal ko'rib, o'z tashabbuslari ko'rib chiqilishini va avtomatik tarzda rad etilmasligini yetarli deb hisobladi.

2000-yillarning boshlarida nodavlat notijorat tashkilotlarining siyosiy jarayonda qatnashish chegaralari, ularning saylov kampaniyalaridagi o'rni va hokimiyatning yangi arxitekturasini shakllantirishdagi ta'siri haqida dolzarb masala ko'tarildi. Agar avval fuqarolik birlashmalari faqat siyosatdan tashqarida qolishi kerak, degan qarash ustun bo'lgan bo'lsa, XX asr oxiri - XXI asr boshlarida ularning siyosiy jarayonga bevosita aralashuviga, jumladan, vakillarini davlat organlariga delegatsiya qilish orqali ishtirok etishiga yo'l qo'yuvchi tendensiyalar kuchaydi.

Bunga misol sifatida 2000-yilgi parlament saylovlari davrini keltirish mumkin. O'shanda qariyb 470 nodavlat notijorat tashkilotlari Umumxalq saylovlari uchun fuqarolik koalitsiyasiga birlashdi. Bu koalitsiya amalda "uchinchi siyosiy kuch" sifatida maydonga chiqib, korrupsiya mojarolaridan obro'sizlangan an'anaviy partiyalarga qarshi chiqdi. Nomzodlarning demokratik bo'lmagan harakatlari va korrupsion aloqalarida ayblangan "qora ro'yxat"ni e'lon qilish siyosiy elita ustidan kuchli bosim vositasiga aylandi. Ro'yxatga kiritilgan 89 nafar nomzoddan 59 nafari saylovlarda mag'lubiyatga uchradi. Bunday kampaniya nodavlat tashkilotlarining nafaqat

¹ Moon, Jin Young. "A Study of the Enactment of National Basic Livelihood Security Act in Korea: with Special References to the Role of NGOs." *Health and Social Welfare Review*, vol. 28, no. 1, 2008, pp. 87-103.



jamoatchilikni safarbar etish qobiliyatini, balki demokratiya institut-sional tuzilmasiga tobora ortib borayotgan ta'sirini ham ko'rsatib berdi.

Ushbu davrda muxolifatchi harakatlarning kuchayishi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ularga 1989-yilda tashkil etilgan Iqtisodiy adolat uchun fuqarolik koalitsiyasi va Demokratik ishtirok uchun xalq birdamligi kabi tashkilotlar kirgan bo'lib, ularning tarkibida asosan shahar o'rta sinfi va yoshlar vakillari ustunlik qilgan. Bu tashkilotlar an'anaviy partiyalar tomonidan yetarli darajada ta'minlanmagan vakillik bo'shlig'ini to'ldirib, keng ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalash kanali sifatida faoliyat yuritgan. Alohida o'rin esa "Semaetul undon" (Yangi qishloq) harakatiga tegishli bo'lib, u 1970-yillarda qishloq jamoalarini modernizatsiya qilish tashabbusi sifatida boshlangan va fuqarolarning ommaviy o'zini-o'zi tashkil etishining noyob namunasi bo'lib shakllangan¹. 2000-yillarda ushbu harakat qishloq doirasidan chiqib, shahar muhitiga ham tarqaldi va urbanizatsiya, ekologiya hamda ijtimoiy tengsizlik muammolariga moslashdi.

2000-yillarda hukumat ma'lum darajada yon berib, muxolifatchi va hatto radikal birlashmalar - muqobil kasaba uyushmalari, talaba tashkilotlari va boshqa tuzilmalarning tashkil etilishiga yo'l qo'ydi hamda ularni demokratik tuzumning atributi sifatida ko'rdi. Shu bilan birga, an'anaviy partiyalar va tobora kuchayib borayotgan fuqarolik sektori o'rtasida qarama-qarshilik saqlanib qolgan sharoitda barqaror tendensiya shakllandi. Ijtimoiy harakatlar hokimiyatning "qarshi muvozanati" sifatida emas, balki mustaqil siyosiy subyektlar sifatida maydonga chiqishni boshladi.

Koreys va xorijiy tadqiqotchilarning baholariga ko'ra, an'anaviy ravishda mamlakat talabalari eng faol jamoatchilik kuchi bo'lib, sezilarli safarbar etish salohiyatiga ega edi². Harakatning ommaviy xarakteri ko'p jihatdan mamlakatda uzoq yillar hukmronlik qilgan qattiq avtoritar tizimning oqibati bo'lib, G'arb bilan aloqalarning kengayishi bilan birga yoshlar norozilik namoyishlarining yaqqol anti-hukumat yo'nalishga ega bo'lishiga turtki berdi. Muxolif kuchlar, jumladan g'arbparast liberal doiralar, talabalarni o'zlarining ittifoqchilari sifatida qabul qilib, ularning avtoritarizmga qarshi tashabbuslarini tezkor qo'llab-quvvatlashga tayyor edilar.

Mazkur jarayonning ajralmas qismi talaba harakatining radikal qanoti bo'lib, ular erkinlik, demokratiya va ijtimoiy adolatga erishishning muqobil yo'llarini nafaqat g'arb liberal an'alarida, balki sotsialistik g'oyalarda ham izladilar. Shu bois bu harakat Pxenyan ritorikasiga, ayniqsa, ikki Koreya o'rtasidagi muloqot va mamlakatni birlashtirish masalalarida, ma'lum darajada moyillik bildirgan. Radikal guruhlarining koordinatsiyasi Talabalar vakillarining milliy kengashi tomonidan amalga oshirilgan, universitetlarda esa marksizmni o'rganish bo'yicha to'garaklar faol tashkil etilgan. 1988-yil bahoridayoq talabalarning ikki Koreya o'rtasida uchrashuvlar o'tkazish

¹ Корея. Справочник. Корейские службы информации для зарубежных стран. Сеул. 1993 С.582.

² Подъяльшев А.Л. Студенческое движение в Южной Корее и проблема объединения // Политические, экономические и культурные аспекты объединения Кореи. 4.1. М., 1997. С.82.



harakati kuchaygan bo'lib, bu yoshlar tashkilotlarining yuqori siyosiy salohiyatga ega ekanligini ko'rsatdi¹.

1980-yillarning oxirida eng ko'zga ko'ringan tuzilmalardan biri Butun Koreya talaba kengashlari assotsiatsiyasi bo'lib, u o'z aksiyalari bilan ommaviy axborot vositalari va maxsus xizmatlarning e'tiborini qayta-qayta tortgan. Uning ommaviy anti-hukumat namoyishlari ko'pincha zo'ravonlik harakatlari bilan kechgan, bu esa tashkilotni Milliy xavfsizlik to'g'risidagi qonun asosida "antidavlat" deb tan olish va taqiqlash chaqiriqlariga sabab bo'lgan. Ammo hukumat bunday to'g'ridan-to'g'ri taqiqlardan tiyilgan, chunki bu yangi, yanada keskinroq tuzilmalarning paydo bo'lishidan xavotir uyg'otgan. Muqobil yo'l sifatida talaba ittifoqlari rahbariyatini bosqichma-bosqich sodiqroq yetakchilar bilan almashtirish strategiyasi qo'llanilib, bu radikalizm va anti-hukumat kayfiyatini pasaytirishi kutilgan.

XX asr oxiridagi talabalar harakati "demokratik qadriyatlar inkubatori" va siyosiy ijtimoiylashuvning muhim kanali vazifasini bajargan. Bu davrda radikal guruhlarning keng talaba ommasiga ta'siri sezilarli bo'ldi, biroq u doimiy emas edi va ichki siyosiy vaziyatga bog'liq holda o'zgarib turdi. 1987-yilning birinchi yarmida hukmron lager va muxolifat o'rtasidagi to'qnashuvlar avjiga chiqqan bir paytda mamlakatda siyosiy qarama-qarshilikning keskinlashuvi faollikning oshishiga olib keldi. Talabalar namoyishlari faqat demokratik islohotlar shiorlari ostida emas, balki anti-amerikan chaqiriqlar, konstitutsiyaviy o'zgarishlar talablari bilan ham o'tdi, bu esa tez-tez politsiya bilan zo'ravon to'qnashuvlarga va amerika madaniyat markazlariga hujumlarga aylanib ketdi².

Shubhasiz, Koreya Respublikasidagi nodavlat notijorat tashkilotlari va talaba harakatlarining siyosiy jarayondagi roli asta-sekin ortib bordi. Rasmiy partiyalar ko'pincha jamiyat manfaatlarini ifodalash vazifasini bajara olmagan bir paytda, aynan talabalar va nodavlat tashkilotlar hukumatga bosim o'tkazish vazifasini zimmasiga oldi. Biroq tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, 2000-yillarning boshida ular hali davlat boshqaruvida partiyalar bilan teng raqobat qila olmasada ko'proq jamiyat va hokimiyat o'rtasidagi vositachilik rolini bajargan³.

Zamonaviy Koreya Respublikasida talabalar harakatining radikal qismi avvalgi ko'lamini yo'qotgan bo'lsa-da, faoliyatning yangi shakllari tarmoq va raqamli tashabbuslar, ekologik, huquqni himoya qilish hamda feministik harakatlar ko'rinishida namoyon bo'ldi. 2016-2017-yillarda prezident Pak Kin Xening impichmenti bilan

¹ Д.Казанцев. "Студенты и демократизация: антиавторитарные движения в Южной Корее", Общество и Полис, № 8, 2024, с. 80-95.

² Хёнджун Ким. "1987 년 6 월 항쟁과 시민운동 발전" (1987 йил июнь кураши ва фукаролик харакатларининг ривожланиши), 한국민주주의연구, том 29, № 1, 2023, с. 33-54.

³ Парк Сонмин "한국 정당 체제 변화와 비정부기구의 역할" (Корея партиявий-сийсий тизимидаги ўзгаришлар ва нодавлат ташкилотларнинг роли), 한국정치학회보, № 60, 2024, с. 67-85.



yakunlangan ommaviy namoyishlar talabalar va fuqarolik tashkilotlari jamiyatni safarbar qilishda hal qiluvchi rolni saqlab qolganining yorqin tasdig'i bo'ldi. 1980-1990-yillardagi nutqlarning asosiy motivi avtoritarizmga qarshi kurash bo'lgan davrdan farqli o'laroq, 2010-2020-yillarda e'tibor ijtimoiy adolat, ekologik barqarorlik, raqamli huquqlar va gender tengligi masalalariga qaratildi.

Koreya Respublikasida talabalar harakatining evolyutsiyasi mamlakatning kengroq demokratik rivojlanish tendensiyasini aks ettiradi. XX asr oxirida avtoritar hokimiyat bilan to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshilikdan XXI asrda institutsionallashtirilgan fuqarolik faolligi shakllariga o'tildi. Radikal qanotning zaiflashishiga qaramay, talabalar va nodavlat notijorat tashkilotlar hanz siyosiy kursni to'g'rilash vazifasini bajarib kelmoqda.

Koreya Respublikasida dunyodagi eng yirik nasroniy cherkovlari va diniy tashkilotlari jamlangan. Ularning roli ma'naviy sohadan ancha keng bo'lib, partiyalarning faollashuvi va ularning siyosiy subyekt sifatida shakllanishiga hissa qo'shdi. Koreya Respublikasida nasroniylik "begona" din sifatida o'ziga xos holatda bo'lib, nisbatan kech kiritilgan, taqiqlarga va ta'qiblarga uchragan. Bu esa oxir-oqibat uni davlatdan ma'lum darajada uzoqlashtirdi. Cherkov mintaqada tayinlangan emas, balki ixtiyoriy birlashma sifatida faoliyat yuritdi¹. Nasroniy bo'lish konfutsiychilikning oilaviy an'alariga zid va repressiya xavfiga qaramay, ongli ravishda qilingan tanlov edi. Bunday qadam shaxsiy qaror ifodasi bo'lib, fuqarolik jamiyati asoslariga mos keladi.

Hatto dindorlar soni kam bo'lsa ham, Koreyadagi cherkov o'zining Amerika Qo'shma Shtatlari bilan aloqalari tufayli katta ta'sir kuchiga ega edi. "Sovuq urush" sharoitida amerikalik missionerlar protestant jamoalariga resurslardan foydalanish imkoniyatini berib, ularga o'z izdoshlarining sonidan ko'ra ko'proq rol o'ynash imkonini berdi. Cherkovning o'z kommunikatsiya kanallari (matbuot, radio, televideniye) g'arb g'oyalarini tarqatish, shuningdek mustamlakachilik va avtoritar rejimlarga qarshi kurashishda ham ishlatildi.

Yaponiya okkupatsiyasi davrida protestant jamoalari qarshilik markazlariga aylandi, harbiy diktaturalar davrida esa cherkov tarmoqlari demokratik harakatlarni qo'llab-quvvatladi. Ular inson huquqlari g'oyalaridan foydalanib, dehqonlar va ishchilarni uyushtirdi. Shu tarzda, Koreyadagi cherkov siyosiy o'zgarishlar va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning muhim omiliga aylandi.

1987-yilda Koreya Respublikasi demokratlashgandan so'ng cherkovlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi roli o'zgardi. 1990-yillarda demokratiya uchun harakat alohida ijtimoiy tashabbuslarga bo'lindi. Katoliklar va protestantlar kasaba uyushmalarining noroziliklarida faol qatnashishni to'xtatdi. Ibadatxonalar endi siyosiy safarbarlik markazlari bo'lmadi, diniy tashkilotlar esa umumiy ijtimoiy harakatlardan

¹ Casanova, Jose. "Public Religions in the Modern World". Chicago: University of Chicago Press. 1994, p. 78-82



uzoqlashib, o'zlarining alohida identitetini izlay boshladilar. Koreya cherkovlari milliy kengashi xorijiy yordamning qisqarishi tufayli moliyaviy qiyinchiliklarga duch keldi va a'zolikni kengaytirishga ruxsat berdi, bu esa uning progressiv xususiyatini pasaytirdi. Shu davrda Konservativ kengashning mavqei kuchayishiga "megacherkovlar"ning ko'payishi yordam berdi. Protestantlik mamlakatning eng yirik diniy tarmog'iga aylandi, cherkovlar esa o'ziga xos submadaniyatlarni shakllantirib, dindorlarning kundalik hayotiga ta'sir ko'rsata boshladi¹. 1990-yillarda davlat va cherkov munosabatlarida avvalgi keskin qarama-qarshilik yo'qoldi, asosan Shimoliy Koreyaga oid siyosat va mamlakatni birlashtirish masalalari doirasida saqlanib qoldi.

2000-yillarning boshidan vaziyat o'zgardi. 2002-yilgi Jahon chempionatidagi ommaviy futbol muxlisligidan boshlab ko'cha namoyishlari madaniyati shakllandi. Maydonlar fuqarolik siyosati makoniga aylandi. Bu yerda Amerika Qo'shma Shtatlari qo'shinlarining Koreya Respublikasida joylashuviga qarshi, Iroqdagi urushga qarshi, Amerika Qo'shma Shtatlari bilan erkin savdo to'g'risidagi kelishuvga va amerika mol go'shti importiga qarshi aksiyalar o'tkazildi. 2016-2017-yillarda konservativ protestant guruhlar ko'chalarda faollashdi. Ular "Milliy qutqaruv xizmatlari"ni tashkil etib, Milliy xavfsizlik to'g'risidagi qonunni bekor qilish va amerika qo'shinlarini olib chiqib ketishga qarshi chiqdilar. Keyinchalik bu tashkilotlar sobiq prezident Pak Kin Xenini qo'llab-quvvatlagan "taegukgi-harakatlari"ga aylandi.

Koreya Respublikasidagi cherkovlar fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi ishtirokidan tashqari, siyosiy jarayonga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bunga misol sifatida keng aloqalar tarmog'iga ega diniy aktor sifatida faoliyat yurituvchi "Birlik cherkovi"ni keltirish mumkin. Uning strategiyasi antikommunistik ta'limot, ommaviy axborot vositalarini nazorat qilish va cheklangan saylov faolligiga asoslangan. "Birlik cherkovi"ning partiyaviy loyihalari orqali institutsionallashtirishga urinishlari, jumladan 2000-yillarning boshida tuzilgan "Tinchlik va oila birligi partiyasi", jiddiy natijalar bermadi. Asosiy ta'sir mafkuraviy safarbarlik va OAV orqali ishlash sohasiga ko'chdi. Bunda Koreya Respublikasining "Segye Ilbo" gazetasi va AQShning "The Washington Times" gazetasidagi xorijiy aktivlar xavfsizlik va Koreyalararo munosabatlarning konservativ kun tartibi va talqinini shakllantirgan muhim manba bo'ldi².

Yaponiyada Koreya Respublikasidagi "Birlik cherkovi"ning siyosat bilan aloqalari yanada chuqurroq shakllandi. Hatto Nobusuke Kishi va Sintaro Abe davridayoq kadrlar va tashkiliy qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olgan barqaror aloqalar paydo bo'ldi. 2022-yilda Sindzo Abening o'ldirilishi bu aloqalarni keng muhokama mavzusiga aylantirdi. Gumonlanuvchi o'z harakatini oilasining "Birlik cherkovi"ga qilgan xayriyalari tufayli

¹ Yi, Jungyeon. "1990s Upper-class Culture and Divine Self-development: Analysis of Religious Belief of Upper-class Churches in Seoul, Gangnam". Society and History 123, 2019, p55.

² "종교 밖으로 걸어나온 통일교" (Бирлашиш черкови диндан ташқарига чиқади) - <https://weekly.khan.co.kr/article/5214/> (24.06.2025)



yuzaga kelgan qarz muammolari bilan bog'ladi¹. Shundan keyin parlament eshituvi, siyosatchilarning tan olishi va sud jarayonlari o'tkazildi hamda 2025-yil bahorida ushbu cherkovning Yaponiya filiali tarqatib yuborilishi haqidagi qaror qabul qilindi.

Koreya yarim orolida "Birlik cherkovi" Shimol va Janub o'rtasidagi muloqotda vositachilik rolini egallashga intilgan. 1991-yilda cherkov yetakchisi San Myon Munning Kim Ir Sen bilan uchrashuvi ramziy ahamiyatga ega bo'ldi². Bunday qadamlar tashkilotning tashqi siyosiy sohadagi mustaqilligini kuchaytirib, Pxenyanga oid gumanitar tashabbuslarda ishtirok etishiga imkon berdi.

Koreya Respublikasida diniy tashkilotlar ikki tomonlama rol o'ynash qobiliyatiga ega. Ular bir vaqtning o'zida demokratik jarayonlarning katalizatori ham, siyosiy safarbarlik vositasi ham bo'lishi mumkin, shu orqali davlat, partiyalar va jamiyatga ta'sir ko'rsatishning barqaror kanallarini shakllantiradi.

Yuqorida keltirilganlardan quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

1. Koreya Respublikasi tajribasi tahlili fuqarolik jamiyati partiyalarni faollashtirish va ularning haqiqiy siyosiy subyekt sifatida shakllantirishda asosiy omilga aylanganini ko'rsatadi. Uzoq yillar davomida hukmron bo'lgan harbiy diktaturalar sharoitida aynan ijtimoiy harakatlar, kasaba uyushmalari, talabalar va diniy tashkilotlar partiyalar uzoq vaqt bajara olmagan funksiyalarni bajardi. Ushbu harakatlarning bosqichma-bosqich institutsionallashuvi hokimiyatga bosim o'tkazdi va partiyaviy tizimni modernizatsiya qilish uchun ijtimoiy bazani yaratdi.

2. Diniy tashkilotlar ham ma'lum darajada ahamiyat kasb etdi. Xristian cherkovlari yetakchi harakatlantiruvchi kuch bo'lmagan bo'lsa-da, ular ma'naviy qo'llab-quvvatlash vazifasini bajardi va jamoaviy muhokama hamda uchrashuvlar uchun maydon yaratib berdi. Biroq kasaba uyushmalari va talabalar noroziliklarining miqyosi bilan solishtirganda, ularning ta'siri cheklangan va yordamchi kuch bo'lib qoldi.

3. Muhimi shundaki, fuqarolik jamiyati partiyaviy tizimga muqobil bo'lmadi, balki partiyalarning zaifligi va parchalanishini qoplash orqali uni to'ldirdi. Nodavlat notijorat tashkilotlar koalitsiyalar tuzish, bosim o'tkazish kampaniyalari va ekspertlik ko'magidan foydalanib, qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilindi va siyosiy hisobdorlik mexanizmlarining shakllanishiga hissa qo'shdi.

4. G'arb demokratiyalarida partiya an'anaviy tarzda jamiyat va davlat o'rtasidagi asosiy vositachi hisoblanadi. Koreya Respublikasida bu vazifa uzoq vaqt davomida ijtimoiy harakatlar va nodavlat tashkilotlar bilan birgalikda bajarib kelingan. Bu esa o'z

¹ “安倍元首相を撃った山上徹也が供述した、宗教団体「統一教会」の名称”(Собик Бош вазир Абени отиб ўлдирган Ямагами томонидан тилга олинган Бирлашиш черкови диний гурухнинг номи.)- <https://gendai.media/articles/-/97322> (24.06.2025)

² “At Time of Change for Rev. Moon Church, a Return to Tradition” (Мун черковига ўзгартирилганда, анъанага қайтиш) - <https://www.nytimes.com/2009/10/15/world/asia/15moon.html> (24.06.2025)



navbatida Koreya Respublikasining partiyaviy tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "At Time of Change for Rev. Moon Church, a Return to Tradition" (Мун черковига ўзгартирилганда, анъанага қайтиш) - <https://www.nytimes.com/2009/10/15/world/asia/15moon.html> (24.06.2025)
2. "종교 밖으로 걸어나온 통일교" (Бирлашиш черкови диндан ташқарига чиқади) - <https://weekly.khan.co.kr/article/5214/> (24.06.2025)
3. "安倍元首相を撃った山上徹也が供述した、宗教団体「統一教会」の名称"(Собиқ Бош вазир Абени отиб ўлдирган Ямагами томонидан тилга олинган Бирлашиш черкови диний гуруҳининг номи.)- <https://gendai.media/articles/-/97322> (24.06.2025)
4. Casanova, Jose. "Public Religions in the Modern World". Chicago: University of Chicago Press. 1994, p. 78-82
5. Chang, Kyung-Sup. "Compressed Modernity and Its Discontents: South Korean Society in Transition." Economy and Society, vol. 38, no. 2, 2009, pp. 364-389.
6. Moon, Jin Young. "A Study of the Enactment of National Basic Livelihood Security Act in Korea: with Special References to the Role of NGOs." Health and Social Welfare Review, vol. 28, no. 1, 2008, pp. 87-103.
7. Shin, Gi-Wook. "Protest Politics and the Democratization of South Korea". Stanford University Press, 2018.
8. William Sung-Joo Han, "South Korea in 1987: The Politics of Democratization," Asian Survey 28, № 1, 1988, 52-61.
9. Yi, Jungyeon. "1990s Upper-class Culture and Divine Self-development: Analysis of Religious Belief of Upper-class Churches in Seoul, Gangnam". Society and History 123, 2019, p55.
10. Zhiguo Wang, Li Yuzhen, "The Role and Impact of Korean Civil Society in the Development Process of Democratization in Korea", Solovyov Studies, № 7, 2024, p. 90-96.
11. Булычев Г.Б. Политические системы государств Корейского полуострова. М., 2002. С.69.
12. Грамши, Антонио. Тюремные тетради. Пер. с итал. - Москва: Издательство политической литературы, 1991. Т. 2. С. 47-50.
13. Д.Казанцев. "Студенты и демократизация: антиавторитарные движения в Южной Корее", Общество и Полис, № 8, 2024, с. 80-95.
14. Джи-Ин Ли "한국 시민사회 구조 변동과 민주화 과정" (Корея фукаролик жамиятидаги таркибий ўзгаришлар ва демократлаштириш жараёни), 시민사회와 NGO, том 23, № 1, 2025, с.15-38.
15. Корея. Справочник. Корейские службы информации для зарубежных стран. Сеул. 1993 С.582.
16. Павлова.И. "Партийная система Южной Кореи: от инструментов власти к институтам представительства", Азиатский Вестник, № 12, 2022, с. 101-120.



17. Парк Сонмин “한국 정당 체제 변화와 비정부기구의 역할“ (Корея партиявий-сийсий тизимидаги ўзгаришлар ва нодавлат ташкилотларнинг роли), 한국정치학회보, № 60, 2024, с. 67-85.
18. Патнэм, Роберт. Чтобы демократия сработала: Гражданские традиции в современной Италии. Пер. с англ. - Москва: Ad Marginem, 1996. С. 85-89.
19. Подъёлышев А.Л. Студенческое движение в Южной Корее и проблема объединения // Политические, экономические и культурные аспекты объединения Кореи. 4.1. М., 1997. С.82.
20. Семенов.Ф. “Гражданское общество в современной Южной Корее: от массовых протестов до НПО-институций”. Москва: Институт Корейских Исследований, 2023. с. 45-68
21. Токвиль, Алексис де. Демократия в Америке. Пер. с франц. - Москва: Прогресс, 1992. Т. 1. С. 154-156.
22. Хёнджун Ким. “1987 년 6 월 항쟁과 시민운동 발전” (1987 йил июнь кураши ва фуқаролик ҳаракатларининг ривожланиши), 한국민주주의연구, том 29, № 1, 2023, с. 33-54.

MINTAQAVIY BARQARORLIK VA ENERGETIKA SIYOSATI: MARKAZIY OSIYO TAJRIBASI

OYBEK G'AYBULLAYEV

Tayanch doktorant, Toshkent kimyo-texnologiya instituti

ORCID: 0000-0002-7973-3404

Annotatsiya. Markaziy Osiyo boy tabiiy resurslarga mintaqalardan biri bo'lib, neft, gaz, ko'mir va gidroenergetika zaxiralariga ega. Ushbu maqolada mintaqa energetika sektorining hozirgi holati tahlil qilinadi hamda mavjud muammolar ko'rib chiqiladi.

Mintaqada energetika sektori Sovet Ittifoqi davridan qolgan infratuzilmaga asoslangan bo'lib, uning eskirganligi va modernizatsiya etishmasligi asosiy muammolardan biridir. Qozog'iston va Turkmaniston gaz va neft eksportidan katta daromad oladi, ammo O'zbekiston va Qirg'iziston kabi davlatlarda energiya ta'minoti yetishmovchiligi mavjud. Bu holatlar aholining energiya talabining o'sishi, iqlim o'zgarishi va geosiyosiy omillar bilan bog'liq. Qirg'iziston va Tojikistonning gidroenergetika potentsiali yuqori bo'lsa-da, suv resurslari bo'yicha qo'shni davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar rivojlanishga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, energetika samaradorligining pastligi – iqtisodiyotning energiya sarfi yuqori bo'lishi – ekologik muammolarni kuchaytirmoqda. Iqlim o'zgarishi natijasida muzliklar erishi va qurg'oqchilik kuchayishi gidroenergetika ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tahlilda mintaqa ichidagi energetika integratsiyasini mavjud imkoniyatlar darajasida shakllantirish lozimligi ta'kidlanadi



Muammolarni hal qilish yo'llari sifatida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga (quyosh va shamol energetikasi) o'tish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish taklif etiladi. Rossiya, Xitoy va Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda yangi loyihalar amalga oshirilmogda, ammo moliyaviy va siyosiy to'siqlar mavjud. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo energetika xavfsizligini ta'minlash uchun barqaror o'sish strategiyasini ishlab chiqishi zarur.

Maqola statistik ma'lumotlar, ekspert baholari va xalqaro tashkilotlar hisobotlariga asoslangan. Kelajakda mintaqa energetika sektorini diversifikatsiya qilish orqali energetika mustaqilligiga erishish mumkin, ammo bu jarayon global energiya o'tish tendensiyalariga mos kelishi lozim.

Kalit so'zlar: energetika siyosati, tabiiy resurslar, modernizatsiya, energiya ta'minoti, iqlim o'zgarishi, suv-energetika mojarolari, qayta tiklanuvchi energiya, energetika integratsiyasi, geosiyosiy omillar, energiya samaradorligi, ekologik muammolar, xalqaro hamkorlik.

Abstract. Central Asia is one of the regions rich in natural resources, possessing reserves of oil, gas, coal, and hydropower. This article analyzes the current state of the region's energy sector and examines existing problems.

The energy sector in the region is based on infrastructure inherited from the Soviet era, with its obsolescence and lack of modernization being among the main challenges. Kazakhstan and Turkmenistan derive substantial revenue from gas and oil exports, while countries such as Uzbekistan and Kyrgyzstan face energy supply shortages. These situations are linked to the growing energy demand of the population, climate change, and geopolitical factors. Despite the high hydropower potential of Kyrgyzstan and Tajikistan, disputes between neighboring countries over water resources are impeding development. Moreover, low energy efficiency - characterized by high energy consumption in the economy - is exacerbating environmental problems. Climate change-induced glacier melting and intensifying droughts may negatively impact hydropower production. The analysis emphasizes the necessity of forming intra-regional energy integration at the level of existing opportunities.

As solutions to these problems, it is proposed to transition to renewable energy sources (solar and wind energy), modernize infrastructure, and strengthen international cooperation. New projects are being implemented in collaboration with Russia, China, and the European Union, but financial and political obstacles remain.

The research results show that Central Asia needs to develop a sustainable growth strategy to ensure energy security.

The article is based on statistical data, expert assessments, and reports from international organizations. In the future, energy independence can be achieved through the diversification of the region's energy sector, but this process must correspond to global energy transition trends.

Keywords: energy policy, natural resources, modernization, energy supply, climate change, water and energy conflicts, renewable energy, energy integration, geopolitical factors, energy efficiency, environmental problems, international cooperation.

Аннотация. Центральная Азия является одним из регионов с богатыми природными ресурсами, обладая запасами нефти, газа, угля и гидроэнергетическими ресурсами. В данной статье анализируется текущее состояние энергетического сектора региона и рассматриваются существующие проблемы.



Энергетический сектор региона базируется на инфраструктуре, оставшейся со времен Советского Союза, при этом ее устаревание и недостаточная модернизация являются одними из основных проблем. Казахстан и Туркменистан получают значительные доходы от экспорта газа и нефти, однако такие страны, как Узбекистан и Кыргызстан, сталкиваются с дефицитом энергоснабжения. Эти обстоятельства связаны с ростом энергетических потребностей населения, изменением климата и геополитическими факторами. Несмотря на высокий гидроэнергетический потенциал Кыргызстана и Таджикистана, разногласия между соседними государствами по водным ресурсам препятствуют развитию. Кроме того, низкая энергоэффективность - высокая энергоемкость экономики - усугубляет экологические проблемы. В результате изменения климата таяние ледников и усиление засухи могут негативно повлиять на производство гидроэлектроэнергии. В анализе подчеркивается необходимость формирования внутрирегиональной энергетической интеграции на уровне имеющихся возможностей.

В качестве путей решения проблем предлагается переход на возобновляемые источники энергии (солнечную и ветровую энергетику), модернизация инфраструктуры и укрепление международного сотрудничества. Новые проекты осуществляются в сотрудничестве с Россией, Китаем и Европейским Союзом, однако существуют финансовые и политические препятствия. Результаты исследования показывают, что Центральной Азии необходимо разработать стратегию устойчивого развития для обеспечения энергетической безопасности. Статья основана на статистических данных, экспертных оценках и отчетах международных организаций. В будущем энергетическую независимость можно достичь путем диверсификации энергетического сектора региона, однако этот процесс должен соответствовать тенденциям глобального энергетического перехода.

Ключевые слова: энергетическая политика, природные ресурсы, модернизация, энергоснабжение, изменение климата, водно-энергетические конфликты, возобновляемая энергия, энергетическая интеграция, геополитические факторы, энергоэффективность, экологические проблемы, международное сотрудничество.

KIRISH

Markaziy Osiyo davlatlari oxirgi yillarda davlat iqtisodiyotining yuqori su'ratlarda o'sib borishi, aholi sonining ko'ayishi, energetika infratuzilmasining eskirishi va iqlim o'zgarishlari tufayli jiddiy energiya muammolari bilan yuzlashmoqda. Bu muammolar, ayniqsa, energiya iste'moli yuqori bo'lgan qish faslida elektr energiyasining tanqisligi, tabiiy gaz borasida importga bog'liqlik va suv-energetika masalalarida mintaqa davlatlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ichki ehtiyojlarni qondirish uchun asosiy energiya manbalaridan biri bo'lgan tabiiy gaz misolida aytadigan bo'lsak, ishlab chiqarilishi yildan-yilga kamayib borishi natijasida 2025-yilda ushbu mahsulot taqchilligi kuzatilishi, shuningdek, 2030-yilga borib har yili 25 millird kub metr miqdorda import qilinishi bashorat qilinmoqda (Ismailov, 2025). Voqealar rivojining bu su'ratda davom etishi mintaqa davlatlarida geosiyosiy ta'sirini kuchaytirishga intilayotgan Rossiya va Xitoy kabi mamlakatlarga bog'liqlikni



kuchaytirishi mumkin (Mitrova, 2024). Chunki oxirgi yillarda ichki bozorda energiya manbalarining yetishmovchiligi kuzatilsa-da mintaq davlatlaridan ushbu mahsulotni Xitoyga eksport qilish davom etmoqda. Eksportga yo'naltirilgan energiya resurslarining o'rni Rossiyadan import qilish orqali to'ldirilmoda.

Markaziy Osiyo davlatlari energetika sohasidagi muammolarni bir qator omillar bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, mintaq tabiiy qazilma resurslarining katta zahiralarga ega bo'lsada, resurslarning eksportga yo'naltirilishi ichki iste'mol o'sib borayotganiga qaramay davom ettirilishi natijasida elektr energiyasi uzilishlariga yuzaga kelmoqda. Ayniqsa qish mavsumida bu holat tez-tez takrorlanib, 2022-2023-yillardagi kabi energetika inqirozlarini keltirib chiqarmoqda (Ozat, 2023).

Ikkinchidan, iqlim o'zgarishlari tufayli kuchaygan suv tanqisligi mintaqadagi gidroenergetika sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada asosiy energiya resurslarini suv yordamida hosil qiluvchi yuqori oqim mamlakatlari va qishloq xo'jaligida ko'p miqdorda suvga ehtiyoj bo'lgan quyi oqim mamlakatlari o'rtasida suv evaziga energiya yetkazib berilishi sababli energetik bog'liqlik kuchayib bormoqda (Niels Drost, Giulia Cretti, Babette van Giersbergen, 2025). Shuningdek, asosiy suv resurlari hosil bo'luvchi muzliklarning global o'rtacha ko'rsatkichlardan ikki barobar tez chekinishi qurg'oqchilik va gidroenergetika ishlab chiqarishining qisqarishiga olib keldi (Ariel Cohen, Wesley Alexander Hill, Wilder Alejandro Sánchez, 2025).

Uchinchidan, infratuzilmalar eskirishi energetika tizimida 20-30 foizgacha yo'qotishlarni keltirib chiqarmoqda. Energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish qiymati 33 milliard dollarga investitsiyalarni talab qiladi (Ismailov, 2025). Mintaqada davlatlaridagi past samaradorlik ko'rsatkichlari va yuqori bo'lmagan narxlar mintaa energetika sohasiga investitsiyalar kirib kelishiga to'siq bo'lib xizmat qilmoqda.

To'rtinchidan, geosiyosiy va iqtisodiy omillar natijasida mintaq energetika tizimida global kuch markazlarining raqobatini keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa Ukraina urushi voqealar rivojini tezlashtirib, G'arbning Markaziy Osiyo energetikasiga qiziqishlarini oshirdi (Heckenthaler, 2024).

Beshinchidan, mintaq davlatlaridagi korrupsiya holatlari soha rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (Wojciech Ostrowski, Ahlidin Malikov, 2025). Yuqorida aytilgan past narx va samaradorlik ko'rsatkichlari pastligi bilan bir qatorda korrupsiya holatlari ham investitsion jozibadorlikka salbiy ta'sir ko'rsatib, modernizatsiya ishlarini ortga surilishiga sabab bo'ldi.

TADQIQOT USULLARI

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlarining energetika tizimlaridagi milliy xususiyatlar, ularning hozirgi holati va mavjud muammolari kompleks yondashuv asosida o'rganildi va tahliliy, statistik, qiyosiy va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.



Birinchidan, tahliliy usul yordamida Markaziy Osiyo mamlakatlari – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston energetika sektorlarining tarixiy shakllanishi, iqtisodiy o‘rnatilgan sur‘atlari, resurs salohiyati hamda energetika siyosati o‘rganildi. Ushbu yondashuv energetika infratuzilmasining shakllanishi va modernizatsiya jarayonlariga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchidan, statistik usul orqali xalqaro tashkilotlar (IEA, World Bank, ADB, U.S. EIA) hisobotlari, davlat statistika qo‘mitalari ma‘lumotlari hamda so‘nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar asosida mintaqaviy energetika ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Ma‘lumotlar dinamikasi 2010–2025-yillar oralig‘ida o‘rganilib, energiya ishlab chiqarish, iste‘mol, eksport-import hajmlari va yo‘qotish darajalari hisobga olindi.

Uchinchidan, qiyosiy tahlil usuli yordamida Markaziy Osiyo mamlakatlarining energetika tizimlari o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, ularning iqtisodiy, texnologik va ekologik jihatlari solishtirildi. Bu yondashuv davlatlar kesimida energetika xavfsizligi va samaradorlik darajalarini aniqlash imkonini berdi.

To‘rtinchidan, tizimli tahlil asosida mintaqaviy energetika tizimining o‘zaro bog‘liqligi, energetika xavfsizligi va suv-energetika integratsiyasi kabi masalalar o‘rganildi. Bu yondashuv Markaziy Osiyoda energetika barqarorligini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan ko‘p darajali boshqaruv va hamkorlik mexanizmlarini tahlil qilishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, ekspert baholash usulidan foydalanilib, xalqaro energetika ekspertlari, mintaqaviy siyosatshunoslar va iqtisodchilar tomonidan taqdim etilgan baholar tahlil qilindi. Shu orqali mintaqaning energetika siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar va investitsion muhitni baholash imkoniyati yaratildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar mintaqaviy energetika sektorining hozirgi holatini chuqur tahlil qilish, asosiy muammolarni aniqlash hamda barqaror energetika siyosatini ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

NATIJALAR

Markaziy Osiyo davlatlarining energetika tizimidagi muammolarni davlatlar kesimida ko‘rib chiqish ular uchun samarali yechimlar topisha muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblab, quyida mintaqada davlatlarining energetika tizimi xususiyatlari va muammolari haqida tahliliy ma‘lumotlarni taqdim etishni lozim topdik.

Qirg‘iziston Respublikasi energetika tizimining milliy xususiyatlari. Qirg‘iziston Respublikasi tog‘li va dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan davlat bo‘lib, aholi soni 7,2 mln kishini tashkil qiladi. Mamlakat YaIM aholi jon boshiga taqsimlaganda \$2750 ni tashkil etadi (Soysa, 2025).

Qirg‘izistonning geografik joylashuvi mamlakat energetika tarmog‘ining hozirgi holatda shakllanishiga asos bo‘ldi. Tog‘li mamlakat sifatida u sobiq Sovet Ittifoqi davridan beri foydalanilgan muhim gidroenergetika salohiyatiga ega. Qazib olinadigan yoqilg‘i turlariga kelsak, mamlakatda ko‘mir, kichik hajmda neft va tabiiy gaz qazib olinadi. Mamlakat o‘z ehtiyojini ichki resurslar hisobiga qondirish imkoniyatiga ega



bo'lmaganligi sababli energiya ta'minotining 60 foizini, asosan, neft va neft mahsulotlarini import qiladi. Ko'mir va elektr energiyaning bir qismini eksport qilayotgan bo'lsa-da, so'ngi yillarda gidroenergetika ishlab chiqarishdagi tebranishlar va infratuzilmaning yomonlashuvi, tarmoqdagi yo'qotishlar hisobiga energiya resurslarining eksporti kamayib bormoqda.

Ichki resurslarning mavjudligi Qirg'iziston Respublikasining elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibi va shunga mos ravishda uglerod intensivligining asosiy omili hisoblanadi. Uglerod intensivligi bo'yicha dunyodagi 172 mamlakat orasida 158-o'rinda turadi.

Qirg'izistondagi asosiy an'anaviy yoqilg'i turi ko'mir bo'lib, yiliga 3 mln tonnaga yaqin qazib olinadi. Ishlab chiqarish 60 ta yer osti va 56 ta ochiq konda hamda Kovak, Shimoliy Farg'ona, Janubiy Farg'ona va O'zgandagi 4 ta ko'mirli havzalarda amalga oshiriladi. Ko'mir qazib olish mamlakatdagi 100 dan ortiq faol kompaniyalarga ega bo'lgan raqobatbardosh biznesdir. Jami zaxiralari 1.4 mlrd. tonnaga baholangan bo'lib, uning 1 mlrd tonnaga yaqini qo'ng'ir ko'mir, 300 mln tonnadan ortig'i bitumli ko'mir, 100 mln tonnaga yaqin kokslanadigan ko'mirdan iborat.

Tasdiqlangan uglerod zahiralari miqdori juda kam (11 mln tonna neft, 6 mlrd kub metr tabiiy gaz). Neft va tabiiy gaz konlari qariyb 70 yil oldin ochilganligiga qaramay ularni qazib olish sust rivojlangan. Shunga qaramay, 2021-yilgacha bo'lgan davrda neft qazib olish 3 baravar rivojlanib, yiliga 240 ming tonnani tashkil etdi. 2021-yildan boshlab ichki bozorda neft mahsulotlarini narxini barqarorlashtirish maqsadida eksportga vaqtinchalik taqiq qo'yilgan. Har yili 20-30 mln kub metr gaz qazib olinib, bu ichki bozor ehtiyojlarining deyarli 10 foizini qoplaydi.

Qirg'iziston energetika sektorida gidroenergetika markaziy o'rin egallaydi va mamlakat toza energiya resurslarining asosini tashkil etadi. Markaziy Osiyoning asosiy chuchuk suv manbalariga ega davlatdan biri sifatida Qirg'iziston mintaqadagi chuchuk suv resurslarining 25,35 foiziga egalik qilib, mintaqaning suv ta'minotiga sezilarli hissa qo'shadi. Mamlakat gidroenergetika ishlab chiqarish bo'yicha ulkan foydalanilmagan salohiyatga ega. Uning taxminiy quvvati 142 milliard kVt/soatni tashkil etadi. Hozirda bu salohiyatning atigi 10 foizidan foydalanilmoqda (IEA, Kyrgyzstan Energy Profile: Sustainable Development, 2022). Uning umumiy o'rnatilgan quvvati 3,03 gigavattni (GVt) tashkil etadi. 2021-yilda mamlakat taxminan 15,1 milliard kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqardi, buning 93 foizini gidroenergetika tashkil etdi (Rahat Sabyrbekov, Nurgul Ukuieva, 2019). Ko'rinib turibdiki, Qirg'izistonning gidroenergetika sektori mamlakat energetika tizimida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mamlakatda o'rnatilgan elektr ishlab chiqarish quvvatlari qariyb 4 GVtni tashkil etib, unda gidroelektrostansiyalarning ulushi 75 foizdan ortiq. 1970-1992-yillar oralig'ida ishga tushirilgan suv ombori tipidagi GESlar soni 7 tani tashkil qiladi. Jami 3 GVt elektr energiya ishlab chiqariladi. 2010-yilda ishga tushirilgan Qambarota 2 va Uchqo'rg'on GESlari nisbatan yangi. Shuningdek, umumiy quvvati 40 MVt bo'lgan 15



dan ortiq kichik daryo tipidagi suv elektr stansiyalari mavjud. Ularning texnik holatiga e'tibor bersak, eng eskirgani 1928-yilda, eng yangisi esa 2017-yilda ishga tushirilgan. Mamlakatning texnik gidroenergetika salohiyati qariyb 26 GVtga baholangan (IEA, CAREC ENERGY OUTLOOK 2030, 2022). Umumiy o'rnatilgan quvvatlarining qolgan ulushini ikkita (Bishkek 1 va O'sh) ko'mir bilan ishlaydigan IES ta'minlaydi. Ishlab chiqarish quvvatlarining 90 foizdan ortig'i Milliy aksiyadorlik jamiyati, Elektr energetika stansiyalari va uning sho'ba korxonalari tomonidan boshqariladi. Gidroenergetika zaxiralari va o'rnatilgan quvvatlar Norin daryosi havzasida joylashgan. Asosiy iste'mol markazlari esa mamlakatning shimolda joylashganligi bois elektr energiyasini uzatishda qiyinchiliklar tug'diradi. Bundan tashqari, mamlakatda zaxira ishlab chiqarish quvvatlari mavjud emasligi bois ta'minot markazlarida ishlab chiqarish to'xtatilganda uzilishlar yuz beradi.

Qirg'iziston Respublikasida hozirda shamol, quyosh fotoelektr va boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalarining yirik obyektlari mavjud emas. Mamlakatning gidroenergetik bo'lmagan qayta tiklanadigan energiya manbalari bo'yicha texnik salohiyati sezilarli: 267 GVt quyosh fotoelektr stansiyalari, 1,5 GVt shamol energiyasi (IEA, CAREC ENERGY OUTLOOK 2030, 2022). Shuni ta'kidlash kerakki, bu mamlakatning butun quruqligidan ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan umumiy nazariy quvvat miqdoridir.

Mamlakat energetika tizmi boshqaruvi markazlashgan modelga mos kelib, energetika sohasida bozor munosabatlari tadbiriq etilmaganligi xususiy operatorlarning mamlakat energetika sektoridagi ishtirokiga to'sqinlik qilmoqda, mahalliy, davlat ishtirokchilarida esa gidroenergetikadan tashqari qayta tiklanadigan energiya loyihalarini ishlab chiqish ishlari nisbatan sust kechmoqda. Buni mamlakat energetika tizmining tabiatga keltirayotgan zarari miqdori kamligi bilan izohlash mumkin. Zero, gidroenergetika asoslangan energetika tizimi neft va ko'mir mahsulotlari orqali olinadigan energiya tizimlariga qaraganda tabiatga kam zarar yetkazadi.

Qirg'iziston energetika sektori samaradorlikni oshirish va xizmat sifatini yaxshilash maqsadida islohotlardan o'tdi. Davlatga qarashli "Qirg'izenergo" ixtisoslashtirilgan tashkilotlarga bo'lindi: elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun "Elektr stansiyalari", uzatish uchun "Qirg'iziston Milliy elektr tarmog'i" hamda "SeverElektro", "VostokElektro", "OshElektro", "JalalabadElektro" va "Bishkekteploset" kabi bir nechta taqsimot kompaniyalari tashkil etildi. Mavjud 7500 kilometr yuqori voltli tarmoqning 7 foizi 550 kilovolt, 23 foizi 220 kilovolt va 70 foizi 110 kilovoltli tarmoqlardir. Podstansiyalarning deyarli 70 foizi, elektr uzatish tarmoqlarining 35 foizi eskirgan (IEA, CAREC ENERGY OUTLOOK 2030, 2022).

Mamlakat tabiiy gaz infratuzilmasining asosiy qismi bundan 40 yil oldin qurilgan. 2013-yilda 3600 kilometr gaz yetkazish quvurlari mavjud qarzlarini to'lash va 25 yil davomida gaz tarmog'iga 600 million dollar investitsiya kiritish majburiyati bilan



Gazpromga sotilgan. Hozirda aholining 35 foizi tabiiy gaz tarmog'idan foydalanish imkoniyatiga ega.

Respublikada neft quvurlari mavjud bo'lmaganligi sababli ushu turdagi mahsulotlar temir yo'l orqali Qozog'istondan import qilinadi. Qo'shni davlatlar bilan bog'lab turuvchi ikkita gaz quvuri mavjud. Birinchisi, Buxoro – Toshkent – Bishkek – Olmaota tarmog' quvuri. Yillik o'tkazish quvvati 4 milliard kub metr bo'lgan ushbu quvurdan asosan O'zbekistondan shimoliy Qirg'iziston orqali Qozog'istonga gaz yetkazib berish maqsadida foydalaniladi. Ikkinchisi, respublikaning janubiy qismi orqali Farg'ona vodiysidagi tabiiy gaz tizimi bilan bog'lanadi. Ikkala quvur ham 2013-yilgi shartnomaga ko'ra 25 yil muddatga Gazprom nazoratiga berilgan.

Qirg'iziston Respublikasi Markaziy Osiyo elektr tizmining ajralmas qismi hisoblanadi. To'qto'g'ul GESi Markaziy Osiyo elektr tizim chastotasini tartibga solib turadi, shu tariqa tarmoqning barqarorligi ta'minlanadi. Shuningdek, mamlakat Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarini elektr uzatish tarmoqlari orqali bog'lovchi CASA – 1000 loyihasining ishtirokchisi hisoblanadi.

Qirg'iziston ishlab chiqarish sanoatida energiya samaradorli pastligi undagi energetik muammolarning biridir. Sanoatning birgina sement ishlab chiqarish tarmog'ida energiya tejamkorligi zamonaviy analoglariga qaraganda 40 foizga past. Turar-joy binolarining 75 foizdan ortig'i 2004-yilgacha bo'lgan davrda, eskicha yondashuvlar asosida qurilgan. Hisob-kitoblarga ko'ra sohaga investitsiya kiritish orqali samaradorlikni 40-50 foizga oshirish imkoniyati mavjud.

Mamlakatning transport sektori ham samaradorlik past bo'lgan tarmoq hisoblanadi. Avtomobillarning 85 foizdan ortig'i ishlab chiqarilganiga 16 yil va undan ko'p bo'lgan avtomobillar tashkil etadi. Temir yo'llar elektrlashtirilmagani hisobiga unda faqat teplovozlardan foydalaniladi.

Qozog'iston Respublikasi energetika tizmining milliy xususiyatlari. Qozog'iston Respublikasi Markaziy Osiyodagi yetakchi iqtisodiyotga ega mamlakat. Aholi soni 2025-yilda 20 million kishini tashkil qilmoqda. Mamlakat YaIM aholi jon boshiga taqsimlaganda \$14 770 ni tashkil etadi (Soysa, 2025).

Mamlakat energetika sektori uning iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Energiya sarfi bo'yicha dunyo miqyosida 15-o'rinni egallagan. Asosan eskirgan infratuzilma va eski transport vositalari parki buning bosh sabablari sifatida qaralmoqda.

Qozog'iston uch turdagi an'anaviy yoqilg'i – ko'mir, neft va tabiiy gazga boy mamlakat. 170 milliard tonnadan ortiq ko'mir zahiralariga ega va uni qazib olish bo'yicha dunyoda to'qqizinchi o'rinda turadi. 47 ta ko'mir koni mavjud bo'lib ularning 14 tasidan hozirgi kunda ko'mir qazib olinadi. Soha 1990-yillarda xususiy lashtirilgan bo'lib, "Bogatyr Komir" MChJ, "ArcelorMittal Temirtau" aksiyadorlik jamiyati va ERG Yevroosiyo guruhi tomonidan boshqariladi.

Qozog'istonning 12 ta yirik ko'mir ishlab chiqaruvchi korxonalarining ishlab chiqarishdagi ulushi 98 foizni tashkil etadi.



Mamlakatning xom neft zahiralari 30 milliard tonnaga baholangan (U.S. Energy Information Administration, 2025). Jami 271 ta neft koni mavjud. Neft zahiralarning 90 foizdan ortig'i 15 ta eng yirik konlarda to'plangan. Eng yirik beshta – Tengiz, Kashagan, Korolevskoye, Karachangak va Yangiyo'l – konlari mamlakatning tasdiqlangan neft va tabiiy gaz kondensati zahiralarning 70 foizini tashkil etadi.

Tabiiy gaz zahirlari 2,5 trillion kub metr deb baholangan (Lukhmanova Gulnar, Urazymbetov Bauyrzhan, Sarsenova Akmaral, 2025). Konlarning 98 foizi G'arbiy Qozog'istonda joylashgan. Tengiz, Kashagan, Karachaganak, Janajol va Imashevskoye konlarining ulushi jami qazib olinadigan mahsulotning 85 foizini tashkil qiladi.

Bundan tashqari Qozog'iston dunyoda Avstraliyadan keyin ikkinchi eng yirik uran zahiralarga ega. Jahondagi jami zahiralarning 12 foiziga egalik qiluvchi mamlakat hissasiga dunyoda ishlab chiqariladigan jami uranning 43 foizi to'g'ri keladi.

Elektr energiyasi xususiy va davlatga qaarashli 155 ta elektr stansiyasi tomonidan ishlab chiqariladi, umumiy o'rnatilgan quvvat 23 GVtni tashkil etmoqda. Elektr ishlab chiqarishning 70 foizi ko'mirda ishlovchi stansiyalar hissasiga to'g'ri keladi. Tabiiy gaz asosida ishlab chiqarish 19 foizini, gidroenergetika ulushi esa 10 foizni tashkil etmoqda. Elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi qurilmalarning 65 foizini ishlab chiqarilganiga 20 yildan ortiq, 31 foiziga esa 30 yildan ortiq vaqt bo'lgan.

Qozog'istonda elektr energiyasini uzatish yagona davlat kompaniyasi – Qozog'iston elektr tarmoqlarini boshqarish kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi. Kompaniya 29 000 kilometr yuqori voltli uzatish tarmoqlari va 80 ta yuqori voltli podstansiyalarga egalik qiladi. Milliy tarmoq turli darajadagi kuchlanishlarda, jumladan 220 kilovolt, 500 kilovolt va 1150 kilovoltli kuchlanishlarda ishlash xususiyatiga ega. 100 dan ortiq o'rta va kichik mintaqaviy kompaniyalar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari xususiy kompaniyalardir. Mamlakatda 56 000 kilometr tabiiy gaz taqsimlash tarmog'i mavjud bo'lib, u davlatga tegishli bo'lgan KazTransGas Aimak tomonidan boshqariladi (IEA, CAREC ENERGY OUTLOOK 2030, 2022).

Qozog'iston Osiyoning markazida qulay joylashuvi tufayli katta taranzit salohiyatiga ega. Qolaversa, Markaziy Osiyo energiya tizmining bir qismi bo'lish mamlakat uchun qo'shimcha savdo imkoniyatlarini ochadi. Qozog'iston, ayniqsa 5000 MVt quvvat bilan ishlaydigan 1150 kV Ekibastuz-Kokshetau elektr uzatish liniyasi orqali, Rossiya Federatsiyasi bilan ham kuchli o'zaro bog'liqlikka ega (World Bank Group).

Qozog'istonning asosiy transchegaraviy infratuzilmasi nisbatan yangi bo'lib, mustaqillikdan keyin qurilgan. Infratuzilmaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri yiliga 55 milliard kub metr quvvatga ega bo'lgan va O'zbekiston va Qozog'istonning Xitoy Xalq Respublikasi bilan bog'laydigan Markaziy Osiyo – Xitoy gaz quvuridir. Shuningdek, 15 milliard kub metr quvvatga ega Beyneu – Chimkent gaz quvuri ham Qozog'istonni Xitoy bilan bog'laydi.



Qozog'iston yiliga 67 million tonna neft o'tkazish quvvatiga ega bo'lgan Kaspiy quvurlar konsorsiumi orqali Rossiya Federatsiyasi bilan, yillik quvvati 20 million tonna bo'lgan yana bir quvur orqali Xitoy bilan bog'langan.

Mamlakatning aksariyat korxonlari Sovet davridan qolganligi sabalai eskirgan texnologiyalardan foydalaniladi va kuchli ifloslanish manbalari hisoblanadi. Shuningdek, binolarning 50-70 foizi zamonaviy talablarga javob bermaydi. O'rtacha energiya iste'moli har kvadrat metr uchun taxminan 250-300 vattni tashkil etadi. Bu o'xshash iqlim sharoitiga ega rivojlangan mamlakatlarga qaraganda 1,5-2,0 baravar ko'pdir. Transport sohasidagi energiya samaradorligi hamboshqa tarmoqlarga o'xshash. Avtomobil parkining o'rtacha Yoshi 20 yildan ortiq. Temiryo'l transportida harakat tarkibining 32 foizi elektrda, qolgan qizmi esa dizel yoqilg'isi bilan harakatlanadi.

Tojikiston Respublikasi energetika tizmining milliy xususiyatlari. Tojikiston hududining asosiy qismi tog'li hududlardan iborat. Aholisi 9 million kishi atrofida bo'lib, aholi jon boshiga YaIM ko'rsatkichi \$1430 ni tashkil qiladi (Soysa, 2025).

Tojikistonda energiyaga bo'lgan talabning asosiy qismini qoplash uchun mahalliy gidroenergetika resurslariga tayaniladi. Mamlakat nafaqat boy suv va gidroenergetika resurslariga, balki sobiq Sovet Ittifoqidan qolgan gidroenergetika infratuzilmasiga ham ega. Bundan tashqari, Tojikiston elektr energiyasi ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish maqsadida so'ngi yillarda ko'mir ishlab chiqarishni kengaytirmoqda. Mamlakatda iste'mol qilinadiga neft va tabiiy gaz mahsulotlari ichki resurslarning yetishmasligi tufayli import qilinadi. Uglerod intensivligi (iste'mol qilingan energiya birligiga to'g'ri keladigan karbonat angidrid (CO_2) chiqindilari miqdori) bo'yicha dunyodagi 172 mamlakat orasida 168-o'rinda turadi. Biroq, mamlakatning energiya samaradorligi ko'rsatkichlari nisbatan past – Tojikiston dunyodagi eng ko'p energiya sarflaydigan 20 ta iqtisodiyot qatoriga kiradi, bu esa energiyani tejash borasida hal qilinishi lozim bo'lga bir qancha muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Tojikistonda qazib olinadiga yoqilg'i ishlab chiqarish asosan ko'mirga qaratilgan, neft va gazdan kamroq foydalanilgan. Tasdiqlangan ko'mir zahiralarining miqdori 4,3 milliard tonnadan ortiq bo'lib, shundan 320 million tonnasini yuqori issiqlik qiymatiga ega sanoat ko'miri tashkil etadi. Jami 1 milliard kub metr gaz zahirasi va ikkita neftni qayta ishlash zavodiga ega.

Tojikistonning umumiy energiya ishlab chiqarish quvvati 6,1 GVtni tashkil etib, uning 95 foizi gidroenergetika hissasiga to'g'ri keladi (Insana A, Barla M, 2020). Aksariyat gidroelektr stansiyalarining qurilganiga 30 yildan ko'p bo'lgan. Shundan kelib chiqib, 2019-yildan mamlakatdagi eng yirik GES bo'lgan Nurek GESida modernizatsiya ishlari olib borildi. Bu ishlar bosqichma-bosqich davom ettirilmoqda. Tojikiston gidroenergetika bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi bo'lishiga qaramay, o'zining umumiy gidroenergetika salohiyatining atigi 6 foizidan foydalanadi.



Mamlakatda o'rnatilgan umumiy quvvatlarning qolgan ulushini qishda elektr va issiqlik energiyasi bilan ta'minlash uchun ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalari tashkil etadi. Bu qishda talabning ko'tarilishi va gidroenergetika ishlab chiqarishining mavsumiy o'zgarishlari bilan bog'liq. Umumiy quvvati 0,7 GVt bo'lgan uchta issiqlik-energiya stansiyalari bor. Iste'mol talabining ortishi va gaz importuning qisqarib borishiga parallel ravishda hukumat yangi ko'mir zavodlarini qurib, IES lari uchun yoqilg'i resurslarini ko'paytirishga harakat qilmoqda. Ko'mir yoqilg'isini ishlab chiqarish gidroenergetika mavsumiy o'zgarishlarini yumshatishga yordam bersada, butun dunyoda kuchayib borayotgan ekologiyani asrash harakatlariga zid keladi. Tojikistonning gidroenergetika bo'lmagan qayta tiklanuvchi resurslari quyosh va shamoldan kelib chiqadigan resurslar hisoblanadi. Uning miqdori 195 GVtgacha baholangan. Kichik gidroenergetika salohiyati esa 23 GVtni tashkil etadi (IEA, CAREC ENERGY OUTLOOK 2030, 2022).

Tojikistonning elektr ta'minoti korxonsi "Barqi Tojik" ko'p yillar davomida xarajatlarni qoplash darajasidan past ta'rif bilan ishlagani sababidan jiddiy moliyaviy qiyinchiliklar ostida qolgan. Tarmoqdagi yo'qotishlar 17 foizni tashkil etmoqda. Asosiy tarmoqlar "Barqi Tojik" tomonidan, mamlakatning aholi kam yashaydigan hududi hisoblanmish Tog'li Badaxshon mintaqasida elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va tarqatish bilan "Pomir Energy" operatori tomonidan boshqariladi. Tog'li Badaxshonda ishlab chiqarish quvvati atigi 44 MVt bo'lib, uning elektr uzatish tizimi maksimal kuchlanish 35 kilovolt, umumiy uzunligi 2600 kilometrni tashkil qiladi. "Barqi Tojik" maksimal quvvat esa 500 kV va umumiy uzunligi 6700 kilometrdan ortiq bo'lgan yuqori voltli tarmoqdan foydalanadi (IEA, CAREC ENERGY OUTLOOK 2030, 2022).

Tojikistonda tabiiy gaz infratuzilmasi cheklangan darajada rivojlangan. Qo'shni davlatlardan import qilinadigan gaz asosan cheklangan miqdordagi sanoat korxonalari tomonidan ishlatiladi. Yillik o'tkazish quvvati 2 milliard kub metrni tashkil qiluvchi Muzrobd – Dushanbe quvuri orqali O'zbekistondan Tojikistonning asosiy iste'mol markazlariga tabiiy gaz yetkazib beriladi.

Tojikiston Markaziy Osiyo energiya savdosida muhim o'rin tutadi. Gidroenergetika ishlab chiqarishini ko'paytirishni maqsad qilgan holda, mamlakat Markaziy Osiyo energiya tizimi, shuningdek Markaziy Osiyo – Janubiy Osiyo elektr energiyasini uzatish loyihasi (Khan M, Rasheed A, Tariq M, 2024) orqali Afg'oniston va Pokistonga eksport imkoniyatlarini kengaytirishni rejalashtirmoqda.

Energiyaning asosiy iste'molchilari sinfiga tog'-kon, kimyo, metallurgiya, to'qimachilik va mashinasozlik sanoati kiradi. Tojikiston aluminiy kompaniyasi hissasi sanoat elektr energiyasi iste'molining deyarli yarmini tashkil etadi. Binolarning qariyb 90 foizi Sovet davridan meros bo'lib, energiya samaradorligi ko'rsatkichlariga javob bermaydi. Bir kvadrat metrni isitish uchun sarf qilingan yillik energiya iste'moli 350 kVt/m². Masalan, Ozarbayjonda bu ko'rsatkich 200 dan 280 kVtgacha bo'lgan



miqdorni tashkil qiladi. Mamlaktning temir yo‘l tarmog‘i elektrlashtirilmagan. “Rohi ohani Tojikiston” davlat unitar korxonasiga tegishli teplovozlar 1970-1989-yillarda foydalanishga topshirilgan bo‘lib, texnik holati zamonaviy talablarga javob bermaydi.

Turkmaniston Respublikasi energetika tizmining milliy xususiyatlari. 6 milliondan ortiq aholiga ega bo‘lgan Turkmaniston dunyoda eng yirik tabiiy gaz zahiralari ega bo‘lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat YaIM aholi jon boshiga taqsimlaganda \$13 340 ni tashkil etadi (Soysa, 2025). Qayta tiklanadigan energiya (masalan, yiliga taxminan 300 quyoshli kun) uchun yetarli salohiyatga qaramay, mamlakatning yagona energiya ishlab chiqarish manbai tabiiy gazdir. Aholining katta qismini elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan uzoq muddat past ta’riflar, ayrim hollarda bepul ta’minlash natijasida energiya samaradorligining past darajasi saqlanib qoldi. Energiya iste’molining uglerod intensivligi (iste’mol qilingan energiya birligiga to‘g‘ri keladigan karbonat angidrid (CO₂) chiqindilari miqdori) bo‘yicha dunyodagi 172 mamlakat orasida 103-o‘rinda turadi.

Mamlakat bo‘ylab ko‘plab neft va tabiiy gaz konlari mavjud. Jumladan, zaxiralari 14 trillion kub metr deya baholangan dunyodagi ikkinchi (birinchisi Janubiy Pars, 51 trillion kub metr) eng yirik tabiiy gaz koni bo‘lgan Galkinish koni Turkmanistonda joylashgan. Turkmaniston tasdiqlangan gaz zaxiralari bo‘yicha (19,5 trillion kub metr) dunyoda to‘rtinchi, qazib olish bo‘yicha o‘n uchinchi o‘rinni egallaydi (U.S.EIA, 2025). Neft zahiralari 600 million tonnaga bahonlangan. Tabiiy gaz konlari “Turkmangaz”ga, neft qazib olish konlari esa “Turkmanneft”ga tegishli bo‘lin, ularning har ikkalasi davlat korxonalari hisoblanadi. Mamlakatda ikkita: Turkmanboshi va Seidi neftni qayta ishlash zavodi bo‘lib, yillik quvvati 10 million tonnani tashkil etadi. Turkmanishtonda, Kiyanli gaz-kimyoy majmuasi, Ovdandep benzini zavodi, Maryam va Garabogaz ammiak zavodlari mamlakat energetika sanoatida muhim o‘rin tutadi.

Turkmanistonda elektr energiyasi to‘liq tabiiy gazda ishlovchi 14 ta elektr stansiyasi tomonidan ishlab chiqarilib, o‘rnatilgan quvvatlar 7 GVtni tashkil etadi. Barcha elektr stansiyalar davlatga tegishli “Turkmanenergo” kompaniyasi tomonidan boshqariladi. Ularning aksariyat qismi 40-50 yil oldin qurilgan. 2003-2018-yillar oralig‘ida 11 ta elektr stansiyasi modernizatsiya qilindi.

Turkmanistonda energiya ishlab chiqarishda uncha katta hissa qo‘shmaydigan ikkita GESdan tashqari qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqaruvchi infratuzilma yo‘q. shu bilan birga, energiya ishlab chiqarish uchun qayta tiklanadigan manbalarning to‘liq texnik salohiyati katta va kichik gidroenergetika uchun 1,3 GVt, shamol energiyasi uchun 10 GVt va quyosh energiyasi uchun 655 GVtga baholanadi (IEA, CAREC ENERGY OUTLOOK 2030, 2022).

Turkmanistonda elektr uzatish tizimlarida samarasiz ko‘rsatkich mavjud bo‘lib, uzatish va taqsimlash jarayonidagi yo‘qotishlar 16,4 foizni tashkil etadi. Umumiy uzunligi 13 000 kilometrdan ortiq bo‘lgan elektr uzatish tarmoqlari 35, 110, 220 va 500 kilovolt kuchlanishlarda ishlaydi. Ularning asosiy qismi 1970-yillarda



qurilgan. Mamlakatning tabiiy ga quvurlari tarmog'i 8000 kilometrdan ortiq. Turkmaniston, shuningdek, quruklikdagi neft konlarini Turkmanboshi neftni qayta ishlash zavodi va Kaspiy portlari bilan bog'laydigan kichik ichki neft quvurlari tarmog'iga ega.

Turkmaniston Rossiya, Xitoy kabi davlatlar bilan energiya uzatish tarmoqlari orqali bog'langan. Tabiiy gaz uchun Turkmaniston – Afg'oniston – Pokiston – Hindiston va elektr energiyasi uchun Turkmaniston – Afg'oniston – Pokiston tarmoqlarini qurish ishlarini olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi energetika tizmining milliy xususiyatlari. O'zbekiston Markaziy Osiyoda aholi soni bo'yicha 38 mln kishi bilan yaetakchilik qiladi. Mamlakat YaIM aholi jon boshiga taqsimlaganda \$3510 ni tashkil etadi (Soyso, 2025). O'zbekiston boy tabiiy resurslarga, ayniqsa, tabiiy gazning yirik zahiralarga ega bo'lib, u tarixan milliy iqtisodiyot va energetika infratuzilmasining asosi bo'lib kelgan. Natijada qo'shni Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Markaziy Osiyo davlatlariga tabiiy gaz eksport qilib kelmoqda. tabiiy gazning ko'mirga nisbatan atrof-muhitga ta'siri o'rtacha bo'lganligi sababli, O'zbekiston energiya iste'molining uglerod intensivligi (iste'mol qilingan energiya birligiga to'g'ri keladigan karbonat anhidrid (CO₂) chiqindilari miqdori bo'yicha dunyodagi 172 mamlakat orasida 114-o'rinda turadi. Tabiiy gaz va elektr energiyasi narxining pastligi va infratuzilmaning modernizatsiya qilinmaganligi natijasida O'zbekistonning dunyodagi energiya sarfi yuqori mamlakatlar orasida 22-o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Yevroosiyodagi yetakchi tabiiy gaz ishlab chiqaruvchilaridan biri bo'lib, yillik qazib olish hajmli 53-57 milliard kub metni tashkil etgan. Bozorda ham xususiy, ham davlat kompaniyalari ishtirok etadi. Neft va gaz qazib olish bo'yicha yetakchi davlat kompaniyasi "O'zbekneftgaz" bo'lib, uning ixtiyoridagi konlarning aksariyatida eski infratuzilma va cheklangan qidiruv harakatlari tufayli ishlab chiqarish oxirgi besh yilda doimiy ravishda kamayib bormoqda. O'zbekistonda jami tasdiqlangan tabiiy gaz zaxiralari 1,8 trillion kubometr ga baholanmoqda (Gazeta.uz, 2021). Mamlakat neft zaxiralari 100 million tonnani tashkil etadi. Yillik qazib olinadigan miqdor ichki talabni qondirishga yetmasligi bois Qozog'istondan import qilinadi. Ko'mir zaxiralari esa 1,375 million tonna bo'lib, Angren qo'ng'ir ko'mir konida hamda Sharg'un va Boysun yer osti konlaridan olinadi.

2024-yilda O'zbekistonning jami elektr ishlab chiqarish quvvatlari 12 GVtga yetdi (Olimjonov, 2025). O'rnatilgan umumiy quvvatlarning deyarli uchdan ikki qismi tabiiy gazda ishlaydigan IES (8,5 GVt) hisobiga to'g'ri keladi. Ularning aksariyat qismi SSSR davrida ishga tushirilgan va bug' turbinasi texnologiyasidan foydalaniladi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishning o'rtacha samaradorligi zamonaviy IESlarda 50-55 foizni tashkil etsa, O'zbekiston bu 28-33 foizdir. Shu bois hukumat elektr energiyasi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish maqsadida modernizatsiya dasturini olib bormoqda (IEA, CAREC ENERGY OUTLOOK 2030, 2022). 2020-yilda



To'raqo'rg'on elektr stansiyasi ishga tushirildi. Navoiy elektr stansiyasini qayta ishlash va modernizatsiya qilish ishlari 2012-yildan buyon bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda 5,9 GVt issiqlik energiyasini ishlab chiqarish quvvati stansiyalarning texnik holati yomonligidan kelib chiqqan holda, foydalanishdan chiqarish rejalashtirilmoqda, ishdan chiqarilga quvvatlar o'miga qayta tiklanadigan va tabiiy gazda ishlaydigan yangi stansiyalar qurilib ishga tushirilmoqda.

O'zbekistonda ko'mirda ishlaydigan elektr stansiyalari 2,5GVt quvvatga ega bo'lib, asosan past samaradorlikka ega bo'lgan texnologiyarda ishlaydi. Ularning aksariyati 1973-1889-yillarda ishga tushirilgan. Elektr energiyasining qolgan ulushi umumiy 1,8GVt bo'lgan GESlar tomonidan ishlab chiqariladi. Umumiy quvvati 1,4 GVt bo'lgan o'nta GESda suv ombor texnologiyasidan foydalanilsa, qolgan o'ttizta GES daryo bo'yida joylashgan elaktr stansiyalari bo'lib, kichikroq miqyosda ishlaydi. GESlarning ham katta qismi 1933-1980-yillar davomida ishga tushirilgan.

Mamlakatning qayta tiklanadigan energiya manbalarining gexnik salohiyati 600 GVtga yaqin deya baholangan. Samarqand, Navoiy, Surxondaryo viloyatlarida Xitoy, BAA va Saudiya Arabistoni davlatlari bilan bir qancha loyihalar ishga tushirildi.

O'zbekiston Milliy elektr tarmog'i 220-500 kilovot (kV) kuchlanishli va umumiy kabel uzunligi 9700 kilometrdan ortiq bo'lgan elektr uzatish tarmoqlarini boshqaradigan elektr energiyasini uzatish tizim operatori hisoblanadi. 14 ta hududiy taqsimlash va sotish korxonasining elektr tarmoqlari mamlakat bo'ylab iste'molchilarni ta'minlamoqda. Ularning har biri alohida hududlarda taqsimlovchi tizim operatori "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ nazorati ostidagi aksiyadorlik jamiyatlari sifatida faoliyat yuritadi. Tizim operatori umumiy uzunligi 250 000 kilometrdan ortiq bo'lgan elektr uzatish liniyalari va 110kV gacha kuchlanishli 1700 podstansiyalardan foydalanadi. Kompaniyaning hisoblashicha, elektr uzatish liniyalarining 58 foizi, podstansiyalarning uchdan bir qismi modernizatsiya qilishni talab qiladi. Uzatish va taqsimlash jarayonidagi yo'qotishlar 17 foizni tashkil qiladi (IEA, CAREC ENERGY OUTLOOK 2030, 2022).

O'zbekistonning tabiiy gazni uzatish va taqsimlash tarmog'i uzunligi 137 350 kilometrni tashkil qiladi. Elektr tarmoqlari singari, gaz uzatish va taqsimlash infratuzilmasi doimiy ravishda yetarli darajada investitsiya qilinmagan. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra tabiiy gaz yo'qotishlari 6 foizga yetadi. Yillik qazib olish 40-50 milliard kubometrni tashkil etuvchi mamlakatda bu katta raqamdir.

O'zbekiston tabiiy gaz infratuzilmasining yana bir muammosi uning tabiiy gazni saqlash sig'imining yetarli emasligidadir. Gaz saqlash omborlari umumiy hajmi 5 milliard kubometr bo'lib, bu tabiiy gaz iste'molining yoz va qish fasllari o'rtasidagi sezilarli farqini hamda ob-havo sharoitlarining yillar davomidagi sezilarli tafovutlarini hisobga olgan holda mavsumlar bo'yicha samarali resurslarni boshqarishga to'sqinlik qiladi.



O'zbekiston Turkmanistondan tashqari barcha Markaziy Osiyo davlatlarini birlashtiradigan Markaziy Osiyo elektr energetika tizmida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, Afg'onistonga quvvati kichikroq liniya – 220 kV Surxon – Naybodod liniyasi orqali elektr energiyasini eksport qiladi.

Mamlakatda tabiiy gazning transhegaraviy infratuzilmalari ham mavjud. Ulardan biri Turkmaniston va O'zbekistonni Rossiya Federatsiyasining tabiiy gaz tarmoqlariga bog'lovchi quvvati 54 mlrd. kub metr bo'lgan Markaziy Osiyo – Markaz quviridir. Markaziy Osiyo – Xitoy quvur liniyasi tizmi ham xuddi shunday miqyosda bo'lib, uchta liniya bo'ylab umumiy quvvati 55 mlrd. kub metrni tashkil qiladi. Bu tizim nisbatan yangi (2009-yilda ishga tushgan) bo'lib, SSSR davrida qurilgan infratuzilmaga qaraganda texnik holati yaxshi.

Shuningdek Buxoro – Ural (54 mlrd. kubmetr) gaz quvuri orqali Rossiya Federatsiyasi, Gazli – Chimkent (14 mlrd. kubmetr) quvuri orqali Qozog'iston Respublikasi bilan bog'langan. Bir qancha kichik hajmli quvurlar O'zbekistonni Qirg'iziston va Tojikiston bilan bog'laydi, xususan Buxoro – Toshkent – Bishkek – Olmaota quvuri (6 mlrd. kubmetr), Sherobod – Dushanbe (2 mlrd. kubmetr) va Andijon – O'sh (1,5 mlrd. kubmetr) gaz quvuri.

O'zbekistonda sanoatning mashinasozlik, qora va rangli metallurgiya, kimyo, farmasevtika, avtomobilsozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati, shuningdek, qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida energiya iste'moli dunyodagi o'rtacha ko'rsatkichlardan 2-3 baravar yuqori. Uy-joy sektori ham eng katta energiya iste'molchisi hisoblanadi. Qurilgan ko'p qavatli uylarning 60 foizga yaqini kamida 35 yil oldin qurilgan bo'lib, energiya samaradorligi bo'yicha zamonaviy standartlarga javob bermaydi (Azizova, 2025). Masalan, O'zbekistonda kvadrat metr maydonni istish uchun 300-400 kVt/soat energiya sarflanadi, rivojlangan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 170-200 kVt/soatni tashkil etadi.

MUHOKAMA

Markaziy Osiyo davlatlarining energetika tizimlari o'zining tabiiy resurslari, iqtisodiy tuzilmasi va siyosiy ustuvorliklariga qarab sezilarli darajada farqlanadi. Shu bilan birga, ularni birlashtirib turuvchi asosiy xususiyat – energetika infratuzilmasining eskirganligi, energiya samaradorligining pastligi va mintaqaviy bog'liqlikning yuqoriligidir.

Qozog'iston va Turkmaniston tabiiy resurslar eksporti orqali milliy iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlayotgan bo'lsa, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston asosan ichki ehtiyojlarni qondirishda resurs yetishmovchiligi bilan yuzlashmoqda. Bu holat mintaqadagi energetika barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Energiya eksportidan olinayotgan daromadlar iqtisodiy rivojlanishning muhim manbai bo'lishiga qaramay, ichki infratuzilma modernizatsiyasiga yetarli investitsiya yo'naltirilmagani tarmoqlarda yuqori yo'qotishlar va texnologik samaradorlikning pasayishiga sabab bo'lmoqda.



Qirg'iziston va Tojikistonning gidroenergetika salohiyati yuqori bo'lishiga qaramay, iqlim o'zgarishi va suv resurslari tanqisligi natijasida bu imkoniyatlar to'liq ishga solinmayapti. Muzliklarning qisqarishi va suv oqimining mavsumiy o'zgarishlari gidroelektr ishlab chiqarishga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, yuqori oqim (Qirg'iziston, Tojikiston) va quyi oqim (O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston) davlatlari o'rtasidagi suv-energetika almashinuvi mintaqaviy siyosiy kelishmovchiliklarni kuchaytirayotganini kuzatish mumkin.

O'zbekiston va Qozog'iston energetika tizimlarida modernizatsiya jarayonlari boshlangan bo'lsa-da, mavjud quvvatlarning 60 – 70 foizi sovet davrida qurilgan uskunalarga tayanadi. Shu sababli energetika samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi manbalarni rivojlantirish mintaq bo'yicha strategik ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. O'zbekiston va Qozog'istonda quyosh va shamol energiyasiga oid yirik loyihalar amalga oshirilayotgani mintaq energetika tuzilmasining diversifikatsiyalashuvi yo'nalishida ijobiy qadamdir.

Turkmanistonning energiya siyosati, asosan, tabiiy gaz eksportiga qaratilgan bo'lib, bu mamlakatni bir tomonlama energiya tuzilmasi bilan cheklab qo'ymoqda. Gaz eksporti orqali iqtisodiy foyda olinayotgan bo'lsa-da, qayta tiklanuvchi energiya sohasining sust rivojlanishi kelajakdagi barqarorlikka xavf tug'diradi.

Mintaqaviy energetika tizimlarining o'zaro bog'liqligi – xususan, Markaziy Osiyo elektr tarmog'i (CAEC) va Markaziy Osiyo – Xitoy gaz quvurlari – ham imkoniyat, ham xavf manbai sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu tizimlar bir tomondan energiya almashinuvini osonlashtirsa, ikkinchi tomondan, mintaq davlatlarini tashqi siyosiy bosimlarga nisbatan zaiflashtiradi. Ayniqsa, Rossiya va Xitoyning energetika loyihalaridagi ustun pozitsiyasi mintaqaning energetika mustaqilligi va xavfsizligiga ta'sir etuvchi omil sifatida qayd etiladi.

Bundan tashqari, barcha mamlakatlarda kuzatilayotgan past energiya samaradorligi, yuqori yo'qotishlar, narxlarining sun'iy pastligi va korrupsiya holatlari energetika tizimlarini modernizatsiya qilishga jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda. Bu muammolarni hal etish uchun davlatlararo koordinatsiyalashgan energetika siyosati, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishga qaratilgan integratsion strategiya zarurligi aniqlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo mintaqasida energetika siyosatini takomillashtirish barqaror iqtisodiy o'sish, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlikning asosiy omillaridan biridir. Shuning uchun mintaqada energetika xavfsizligi va mustaqilligini ta'minlash, suv-energetika resurslarini adolatli boshqarish va mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish kelajakdagi strategik ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralishi lozim.



XULOSA

Markaziy Osiyo davlatlarining energetika tizimlari umumiy tarixiy va iqtisodiy ildizlarga ega bo'lishiga qaramay, ularning bugungi rivojlanish darajasi va energetika siyosati bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Mintaqada energiya ishlab chiqarishning asosiy qismini hali ham an'anaviy yoqilg'i turlari – neft, gaz va ko'mir – tashkil etadi, bu esa ekologik barqarorlik va energiya xavfsizligi nuqtayi nazaridan uzoq muddatli xavf omilidir.

Qirg'iziston va Tojikistonning gidroenergetika salohiyati, Qozog'iston va Turkmanistonning tabiiy resurslarga boyligi, O'zbekistonning markaziy tranzit roli – bularning barchasi mintaqada o'zaro to'ldiruvchi energetika tizimini shakllantirish imkonini beradi. Shu sababli mintaqaviy integratsiya va hamkorlik asosidagi siyosat kelajakda energetika xavfsizligini ta'minlashning eng muhim sharti hisoblanadi.

Shuningdek, energetika infratuzilmasining eskirganligi, energiya samaradorligining pastligi va investitsion jozibadorlikning yetarli emasligi mintaqada texnologik modernizatsiyani tezlashtirish zaruratini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha qo'shma loyihalar, suv-energetika resurslarini adolatli boshqarish tizimi va energiyani tejovchi texnologiyalarni joriy etish Markaziy Osiyoda barqaror o'sishning asosiy yo'nalishlari sifatida baholanadi.

Mintaqaning geosiyosiy holati – Rossiya, Xitoy va Yevropa Ittifoqi bilan o'zaro energetika aloqalari – yangi imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda, tashqi ta'sir xavfini ham kuchaytiradi. Shu bois Markaziy Osiyo davlatlari energetika mustaqilligi va xavfsizligini mustahkamlash uchun milliy strategiyalarini mintaqaviy manfaatlar bilan muvofiqlashtirishi lozim.

Umuman olganda, Markaziy Osiyoda barqaror energetika siyosatini shakllantirish uchun energiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish, energiya samaradorligini oshirish va yo'qotishlarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish, suv-energetika integratsiyasini kuchaytirish, davlatlararo hamkorlik va investitsion ochiqlikni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ariel Cohen, Wesley Alexander Hill, Wilder Alejandro Sánchez. (2025, FEBRUARY 7). Report launch: Water insecurity in Central Asia. <https://www.atlanticcouncil.org/event/report-launch-water-insecurity-in-central-asia/>.
2. Azizova, B. M. (2025). Energy-efficient residential building in Uzbekistan using local renewable raw materials based on the historical layout of housing. *Journal of Physics: Conference Series, Volume 2600, Low-carbon materials*, (p. 6). Washington.



3. Gazeta.uz. (2021, Avgust 08). Retrieved from <https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/10/gas-reserves/>
4. Heckenthaler, J. (2024, October 22). Central Asia's Shifting Regional Dynamics Navigating the Impact of Russia's War Against Ukraine. . *Policy Brief*. <https://dgap.org/en/research/publications/central-asias-shifting-regional-dynamics>.
5. IEA. (2022, December). CAREC ENERGY OUTLOOK 2030. <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/850111/carec-energy-outlook-2030.pdf>.
6. IEA. (2022). Kyrgyzstan Energy Profile: Sustainable Development. <https://www.iea.org/reports/kyrgyzstan-energy-profile/sustainable-development>.
7. Insana A, Barla M. (2020, June). Experimental and numerical investigations on the energy performance of a thermo-active tunnel. *Renewable Energy Volume 152*, 2020. – Pp 781-792. www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0960148120301051.
8. Ismailov, V. (2025, July 16). *Central Asia Faces Growing Energy Deficit*. <https://timesca.com/central-asia-faces-growing-energy-deficit/>. Retrieved from Central Asia Faces Growing Energy Deficit. <https://timesca.com/central-asia-faces-growing-energy-deficit/>.
9. Khan M, Rasheed A, Tariq M. (2024). Assessing the Integration of Solar Power Generation within the CASA-1000 HVDC Transnational Network. *International Conference on IT and Industrial Technologies (ICIT)*, (pp. 1-6). Chiniot, Pakistan.
10. Lukhmanova Gulnar, Urazymbetov Bauyrzhan, Sarsenova Akmaral. (2025, January 15). Investigating the relationship between energy consumption and economic growth using Toda-Yamamoto causality test : the case of Kazakhstan and Azerbaijan. <https://savearchive.zbw.eu/bitstream/111>.
11. Mitrova, T. (2024, February 29). Russia's Expanding Energy Ties in Central Asia. <https://www.energypolicy.columbia.edu/russias-expanding-energy-ties-in-central-asia/>.
12. Niels Drost, Giulia Cretti, Babette van Giersbergen. (2025, Januay). Central Asia emerging from the shadows European Union – Central Asia relations in evolving Eurasian geopolitics. *Clingendael Report*. – P 20.
13. Olimjonov, O. (2025, March 31). *By 2030, Uzbekistan plans to export 10-15 billion kWh of electricity to Europe*. Retrieved from <https://www.ouzbekistan.fr/news/2865?language=en>
14. Ozat, M. (2023, September 08). Central Asia's Escalating Energy Crisis and its Geopolitical Implications. <https://www.caspianpolicy.org/research/energy-and-economy-program-eep/central-asias-escalating-energy-crisis-and-its-geopolitical-implications>.
15. Rahat Sabyrbekov, Nurgul Ukueva. (2019). Transitions from dirty to clean energy in low-income countries: insights from Kyrgyzstan. *Central Asian Survey*. <https://dspace.auca.kg/bitstream/123456789/2604/1/Tr>.
16. Soysa, D. (2025, August 17). Kazakhstan's GDP per capita surges past Russia and China. <https://www.eureporter.co/kazakhstan-2/2025/08/17/kazakhstans-gdp-per-capita-surges-past-russia-and-china/>.



17. U.S. Energy Information Administration. (2025, February 6). Regional Analysis Brief: Caspian Sea.
https://www.eia.gov/international/content/analysis/regions_of_interest/Caspian_Sea/pdf/Caspian%20Sea%20Regional%20Analysis%20Brief%202025.pdf? Washington.
18. U.S.EIA. (2025, February 02). *Turkmenistan's Oil and Gas Production Detailed in New EIA Caspian Sea Report*. Retrieved from
<https://www.newscentralasia.net/2025/02/12/turkmenistans-oil-and-gas-production-detailed-in-new-eia-caspian-sea-report/>
19. Wojciech Ostrowski, Ahlidin Malikov. (2025, June 23). Energy Rents, Remittances and Regional Trade Cooperation in Central Asia.
<https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/09668>.
20. World Bank Group. (n.d.). Kazakhstan - North-South Electricity Transmission Project. <http://documents.worldbank.org/curated/en/493141468047412318>. Washington.